

ISSN 2181-5291

# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 1, 2025

[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)





*The journal was registered with the certificate № 05-45 on February 25, 2011 at Bukhara Region Press and Information Administration of Uzbekistan Press and Information Agency*

\*\*\*

*According to the resolution №201/3 as of December 26, 2013 of the Presidium of Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan the journal was included into the list of scientific journals in which scholarly articles on the scientific results of dissertations on Psychology must be published.*

\*\*\*

*Address:*

*200117, Buxoro city,  
K.Murtazoyev street, 11  
Bukhara State University  
Editorial and publishing  
Department  
Phone: +998 (94) 837-18-38*

**The journal is published 4 times a year**

*Website: [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)*

*Jurnal O`zbekiston Matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2011- yil 25-fevral № 05-45-soni guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.*

\*\*\*

*Jurnal O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi 2013-sonli qarori bilan psixologiya fanlari bo`yicha dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo`lgan ilmiy jurnallar ro`yxatiga kiritilgan.*

\*\*\*

*Tahririyat manzili:*

*200117, Buxoro shahri,  
K.Murtazoyev ko`chasi, 11-uy  
Buxoro davlat universiteti  
“Tahririyat-nashriyot” bo`limi  
Tel: +998 (94) 837-18-38*

**Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.**

*Website:  
[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)*

*Журнал зарегистрирован Бухарским областным управлением агентства печати и информации Республики Узбекистан. Свидетельство № 05-45 от 25.02.2011г.*

\*\*\*

*Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании решения ВАК №201/3 от 26 декабря 2013 года для получения учёной степени доктора психологических наук.*

\*\*\*

*Адрес:*

*город Бухара 200117,  
улица М.Икбала, 11  
Бухарский государственный  
университет  
Редакционный отдел  
тел: +998 (94) 837-18-38*

**Журнал выходит 4 раза в год.**

*Website:  
[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)*



# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL \* НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

1-son 2025-yil. \* Выпуск 1. 2025 год.

## TAHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

### BOSH MUHARRIR – ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: BAROTOV SH. R.

Psixologiya fanlari doktori, professor.

Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Действительный член (академик) Международной Академии психологических наук  
**MAS'UL KOTIB – ОТВ. СЕКРЕТАРЬ**

Sayfullayeva N.Z. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XAMIDOV O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

SHOUMAROV G'.B.

Psixologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston  
Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi  
UMAROV B.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KOZLOV V.V. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
MALI'X S.B. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KOROBENYIKOV I.A. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KARIMOVA V.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
SAFOYEV N.S.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
BEKMURODOV M.B.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor  
KADIROV U.D.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
JABBOROV A.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
OLIMOV Sh.Sh.

Pedagogika fanlari doktori, professor  
JUMAYEV R.G'.

Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
NISHONOV A.Z.T.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
NAZAROV A.M. Psixologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

IBODULLAYEV Z.R.

Tibbiyot fanlari doktori, professor

BEGMATOV A.S.

Falsafa fanlari doktori, professor

HUSEYNOVA A.A.

Falsafa fanlari doktori, professor  
MUXAMEDOVA D.G.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
RUXIYEVA X.A.

Psixologiya fanlari nomzodi, professor  
BAROTOVA D.SH.

Psixologiya fanlari doktori, dotsent  
AKRAMOV V.R.

Tibbiyot fanlari doktori, dotsent  
ZARIPOV G.T.

Texnika fanlari nomzodi, dotsent.  
OSTONOV Sh.Sh.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

RUSTAMOV Sh.Sh.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

TILAVOV M.H.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### MUHARRIRLAR – РЕДАКТОРЫ:

Usmanova M.N. – psixol.fan.nom., professor

Muxtorov E.M. – psixol.fan.nom., dotsent

Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Abuzalova M.K. - filologiya fanlari doktori, professor  
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

### TEXNIK MUHARRIRLAR – TEX.

#### РЕДАКТОРЫ:

Shirinova M.Sh., filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)



# PSYCHOLOGY

SCIENTIFIC JOURNAL

Issue 1: 2025

## EDITORIAL BOARD:

### EDITOR-IN-CHIEF: BAROTOV SH. R.

Doctor of Psychology, professor, the member (academician) of International Academy of Psychological Sciences

EXECUTIVE SECRETARY: Sayfullaeva N.Z. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

XAMIDOV O.X.

Doctor of Economic Sciences, Professor,  
The rector of Bukhara State University  
SHOUMAROV G.B.

Doctor of Psychology, Professor, Full  
member of the Academy of Sciences of the  
Republic of Uzbekistan

UMAROV B.M.

Doctor of Psychology, Professor  
The assistant of the editor-in-chief

KOZLOV V.V. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

MALIKH S.B. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor  
KOROBENNIKOV I.A. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor  
KARIMOVA V.M.

Doctor of Psychology, Professor  
SAFOEV N.S.

Doctor of Psychology, Professor  
BEKMURODOV M.B.

Doctor of Sociology, Professor  
KADIROV U.D.

Doctor of Psychology, Professor  
JABBOROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor  
OLIMOV Sh.Sh.

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor  
JUMAEV R.G.

PhD in Political Sciences, Docent  
NISHONOVA Z.T.

Doctor of Psychology, Professor  
NAZAROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor  
IBODULLAEV Z.R.

Doctor of Medical Sciences, Professor  
BEGMATOV A.S.

Doctor of Philosophy, Professor

HUSEYNOVA A.A.

Doctor of Philosophy, Professor  
MUXAMEDOVA D.G.

Doctor of Psychology, Professor  
RUXIYEVA X.A.

Candidate of Psychology, Professor  
BAROTOVA D.SH.

Doctor of Psychology, Docent  
AKRAMOV V.R.

Doctor of Medical Sciences, Docent  
ZARIPOV G.T.

Candidate of technical sciences, Docent  
OSTONOV Sh.Sh.

PhD of Psychology, Docent  
RUSTAMOV Sh.Sh.

PhD of Psychology, Docent  
TILAVOV M.H.

PhD of Psychology

### EDITORS:

Usmanova M.N. – Candidate of Psychology,  
Professor

Mukhtorov E.M. – Candidate of Psychology,  
Docent

Raxmatova M.M. – Doctor of  
Philosophy in Philological Sciences  
(PhD), Docent

Abuzalova M.K. – Doctor of Philological  
Sciences, Professor

Sobirova D.A. Doctor of Psychology,  
Professor

### TECHNICAL EDITORS:

Shirinova M.Sh., Doctor of  
Philosophy in Philological Sciences  
(PhD)



*Barotov Shuxrat Sharipovich,  
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti o‘qituvchisi*

**BOJXONA XODIMLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISHNING  
YO‘NALISHHLARI VA ILMY ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada bojxona xizmatchilarining ijtimoiy munosabatlari va unga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy intellektning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri va ular orasidagi tavofularning ilmiy tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** sotsial intellekt, kasbiy-psixologik kompetentlik, bojxona xodimi, korrelyatsion munosabatlar, muloqot, noverbal muloqot, verbal muloqot.

**НАПРАВЛЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ  
ОТНОШЕНИЙ У ТАМОЖЕННЫХ СЛУЖАЩИХ**

**Аннотация.** В статье раскрываются роль и значение социальных отношений сотрудников таможенных органов и социально-психологические факторы, влияющие на них. Также представлен научный анализ влияния социального интеллекта на профессиональную деятельность и различий между ними.

**Ключевые слова:** социальный интеллект, профессионально-психологическая компетентность, сотрудник таможни, корреляционные связи, коммуникация, невербальное общение, вербальное общение.

**DIRECTIONS AND SCIENTIFIC BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF  
INTERPERSONAL RELATIONS AMONG CUSTOMS OFFICERS**

**Abstract.** The article reveals the role and significance of social relations of customs officers and the socio-psychological factors influencing them. It also presents a scientific analysis of the influence of social intelligence on professional activity and the differences between them.

**Key words:** social intelligence, professional psychological competence, customs officer, correlation links, communication, non-verbal communication, verbal communication.

**Mavzuning dolzarbliji.** Jahonda ijtimoiy - iqtisodiy sohalarda kechayotgan tub islohotlar jamiyatning barcha tarmoqlarini qamrab olmoqda. Bugungi kunda xalqaro aloqalarning jadallahuvi va kengayishi bojxona xizmati xalqaro faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bojxona jarayonlarini amalga oshirishda xorijiy texnologiyalar, zamonaviy kompyuter texnologiyasi, elektron va rentgen uskunalaridan foydalanish o‘z ijobjiy samarasini bermoqda, ammo shu bilan birga, tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlarning psixologik tayyorgarligi, ularning kasbiy malakalarni egallashlari tizim faoliyatini samarali tashkil etishda muhim o‘rin egallovchi omil bo‘lib qoladi.

Muomala jamiyatda kishilar o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi mulohazalar sharq xalqlarining tarixiy yozma adabiyotlarida hamda sharqnnng buyuk mutafakkirlari falsafiy qarashlarida aks etgan. Xalq og‘zaki ijodida, tarixiy yozma adabiyot namunalarida mazkur muammo doimo birinchi o‘rinni egallab kelgan.

**Metodologiya.** Sotsial yoki ijtimoiy muhit – bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko‘rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo‘ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo‘lmish olimlarning butun bir avlodni ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobi, A. Navoiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom kabi Sharq allomalari ham bu o‘zaro bog‘liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o‘zlarining eng durdonasalarini bag‘ishlaganlar.

Sharq adabiyoti durdonalaridan biri bo‘lgan «Qobusnama»da Kaykovus jamiyatdagi kishilarni guruhlarga bo‘ladi va har bir guruhnning jamiyatda tutgan o‘rnini birin-ketin sanab o‘tadi, ammo bu guruhlarning xulq-atvori e’tibori bilan turlicha ekanligini aniqlab beradi. Inson hayoti xilma-xil jamiyatda va xilma-xil ijtimoiy guruhlar orasida o‘zaro hamkorlikda kechishini ta’kidlaydi. “Qobusnama”da xalqimizdagি rost so‘zni qadrlash, yolg‘onni xushlamaslik sifatlarining namoyonligi, raiyat bilan muloqtdagi notabiyylik,

yolg' onchilik munosabatlarning buzilishiga olib kelishi, ayniqsa davlat ishi va xalq turmushi uchun mas'ul etib tayinlangan kishilarning so'z aytishidan oldin uni adolat va axloq tarozusiga qo'yib ko'rmog'i zarurligi badiiy tarzda bayon qilib berilali. Shy nuqtayi nazardan qaraganda birgina bojxona tizimi uchungina emas, balki mamlakatimiz kelajagi uchun sof vijdonli, yuksak axloqli, burchiga sodiq kadrlar tayyorlashda, ularni muomala malakasi va ko'nikmalariga o'rgatishda ushbu asarni o'ganish, unga dasturamal snfatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinish turibdiki, sharq olimlari tomonidan uzoq o'tmishda ham amaliy psixologiyaga doir ilmiy izlanishlar qilingan. Albatta, bu manbalarda ilgari surilgan ayrim nazariyalar hozirgi psixologiya sohasida to'plangan bilimlar yordamida inkor etilishi mumkin, lekin ushbu asarda aks etgan asosiy g'oyalar hozirgi davrda ham dolzarblik kasb etadi.

G'arb mamlakatlari olimlari tomonidan shaxslararo hamkorlikni mazmun va mohiyat jihatidan tushuntirishga bag'ishlangan bir qator nazariyalar ilgari suriladi. Almashinuv nazariyasi (teoriya obmena) (Dj. Xomane), simvolik interaksionizm (Dj. Mid), taassurotlarni boshqaruv (upravlenie vpechatleniyami) nazariyasn. Gofman), psixoanalitik nazariya (3. Frend)larni alohida ta'kidlab o'tish lozim

Almashinuv nazariyasiga ko'ra, kishilar o'zaro hamkorlikka kirishar ekanlar, bu hamkorlikdan o'zları ega bo'ladigan fonda va yo'qotishlarni o'zaro taqqoslash tajribasidan kelib chiqadilar.

#### **Ushbu nazariya 4 tamoyilga asoslanadi:**

- ma'lum bir xulq-atvor va xatti-harakat qancha ko'p mukofotlansa, u shuncha ko'p qaytariladi;
- agar ma'lum tipdag'i xatti-harakatlar uchun beriladigan mukofot qandaydir shart-sharoitni taqozo qilsa, inson uni yaratishga intiladi;
- agar mukofot katta bo'lsa, kishi uni olish uchun ko'proq kuch sarflashga tayyor bo'ladi.
- inson ehtiyojlari qondirilishga qanchalik yaqin bo'lsa, kishi ularni qondirish uchun kamroq kuch sarflashga harakat qiladi.

Xomansning mazkur nazariyasi asosida turli murakkab o'zaro hamkorlik turlarini tushuntirib berish mumkin: hukmronlik munosabatlari, o'zaro muzokara jarayonlari, liderlik va hokazolar. U ijtimoiy hamkorlikni foyda va yo'qotishlarni o'zaro muvozanatlanishi usullari bilan shartlangan murakkab almashinuvlar tizimi sifatida qaraydi [1].

Dj. Mid o'zining simvolik interaksionalizm nazariyasida muomalaning interaktiv tomonini batafsil o'rganadi. Dj. Mid insonning xatti- harakatlarini axborot almashinuviga asoslangan ijtimoiy xulq-atvor sifatida qaraydi. U kishilar odamlarning nafaqat xatti-harakatiga, balki ushbu xatti-harakatlarga sabab bo'luvchi maqsadlariga ham o'z e'tiborini qaratadi. Biz odatda kishilarning xatti-harakatiga qarab va o'zimizning xuddi shu sharoitlardagi tajribamizdan kelib chiqqan holda, ularning fikrlarini «o'qishga» harakat qilamiz.

#### **Dj. Mid bunday harakatlarni 2 ta tipga ajratadi:**

- 1) Ahamiyatga molik bo'lmagan imo-ishora (jest) lar (kiprik qoqishga o'xshagan avtomatik reflekslar);
- 2) ahamiyatga molik imo - ishora (jest) lar (boshqalarniig xatti- harakatlari va maqsadlarini tafakkur qilishi bilan bog'liq).

Ikkinch holatda inson o'zini boshqaning o'rniga qo'yib ko'rishi yoki Midning ta'biri bilan aytganda «boshqaning rolini qabul qilishi» talab etiladi.

E. Gofmanning taassurotlarni boshqaruv nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy hamkorlik dramatik spektaklga qiyoslanadi. Bu spektaklda aktyorlar ijobiy taassurot yaratish va uni doimiy ta'minlash uchun harakat qilishadi [1].

3. Freydning psichoanaliz nazariyasiga ko'ra, shaxslararo o'zaro hamkorlik ilk bolalik davrida o'zlashtirilgan tasavvurlar va mazkur davrda kishi boshidan kechirgan ziddiyatlar bilan belgilanadi. Z. Freyd kishilar liderlarga bo'ysunish va tobelikni his qilganliklari uchun ham ijtimoiy guruuhlar tuzishadi va ularda qolishadi, - deydi. Bu narsaga liderlarning yuqori sifatlarga ega ekanligi uchun emas, balki ularni bizdan oldingi avlod, ota-onalarimiz e'zozlagan buyuk yetakchilar bilan bir qatorga qo'yishimiz sabab bo'ladi. Bunday vaziyatlarda biz regressiya (orqaga qaytish)ga ilk rivojlanish bosqichiga qaytishga moyil bo'lamiz. Bunday «qaytish» asosan o'zaro hamkorlik norasmiy yoki uyushmagan tarzda kechadigan vaziyatlarga xosdir. Tadqiqotlar ma'lum bir kutishlarning mavjud emasligi guruuhda yetakchilarning mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shaxsning yo'nalganligi strukturasida uning motivatsiya sohasida kerakli darajada anglanmagan xulq-atvorlar holatlaridan biri mayllandir. Ular doimo aniq anglanmagan ehtiyojlar, turli darajadagi kuchga va yo'nalishga ega bo'lgan emotSIONAL kechinmalar bilan birga kechadigan o'ziga xos kutishlarni o'zida mujassam etadi. Freyd taqlid qilish, o'yin va muloqotga intilish kabilarni ajratib ko'rsatadi.

Rus olimi N.G.Ananев psixologiya fanining muomala kategoriyasiga bag‘ishlangan o‘zining dastlabki ma’ruzalarida muomalaning nutqli (verbal) va nutqsiz (nonverbal) vositalaridan tashqari, uning ichki tomonini ham turlarga ajratadi. Uning fikricha, muomala qanday kechishidan qat’iy nazar shaxslararo munosabatlarda, inson o‘z harakatini o‘zi boshqarishi bilan bir paytda, uning ichki dunyosi qayta tashkillashuvi o‘rtasida o‘zaro aloqa hukm suradi. U shaxsning turli o‘ziga xos tuzilmalari o‘rtasidagi aloqlarni maxsus tadqiqot predmeti qilib tanlaydi. Shaxsning jamiyat bilan, xususan, ijtimoiy guruhlar va institutlar bilan aloqlari xilma-xilligi, uming intraindividual tuzilishini, shaxsiylik xususiyatlari takomillashuvini va ichki dunyosini aniqlaydi [2].

V.M. Myasishev muomala va shaxsning ruhiy tuzilishi to‘g‘risida so‘z ketganda, inson ruhiyati yaxlit, uning vujudga kelishi esa sabab natijasi ekanligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, shaxs dialogli muomalaning malakasi va boshqalar bilan munosabatning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Muomala jarayonida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishning tashqi ahamiyatga molik bo‘lgan shaxsiy tajribasi borliqqa nisbatan ichki munosabatlarini individual tanlanma xususiyatini determinatsiya qiladi.

Shaxsga muomalani ta’siri shart-sharoitlari va ruhiy omillari muallif tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb etadi. So‘zga ta’sirchanlik ko‘p jihatdan shaxsning tashqi ta’sirga berilish darajasiga, qayta ishontirish qobiliyatiga bog‘liq. Moyillik shaxsning zakovatini belgilovchi barqaror xususiyati mahsuli emas, balki odamlarning o‘zaro munosabatlari natijasi hisoblanadi.

**Xulosa.** Yuqoridaq ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida shu xulosaga kelindiki, bojxona organlari xodimlari muomala jarayoni tadtqiqi umumiylar xususiy (yoki maxsus) metodologiya tamoyillari asosida o‘rganilishi lozim. Umumiylar metodologik tamoyillar shaxs va jamiyat munosabatlarni asosida yotadi. Ijtimoiy psixologiya fani doirasida esa psixologiya va sotsiologiyadagi metodologik tamoyillar tadqiqotning metodologik assosini tashkil etadi. Muomala psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o‘z ichiga shaxslararo munosabatlarning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Ushbu fundamental kategoriyani chuqur tushunmay turib, xo‘jalik faoliyati sharoitida inson resurslaridan foydalanish va uni takomillashtirishda zamonaviy metodlardan foydalanishning imkoniyati bo‘lmaydi. Shuning uchun ham hozirda muomala, uning tabiatni, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o‘rgatish (ijtimoiy psixologik trening) masalalari bilan shug‘ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o‘rni va salohiyati keskin oshdi. Bizning fikrimizcha, bojxona xodimining kasbiy faoliyati samaradorligi uning professional faoliyatida odamlar bilan hamkorlik uchun zarur bo‘lgan bilmal, malaka va ko‘nikmalardan samarali foydalanish qobiliyatda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-psixologik kompetensiyasiga muhim darajada bog‘liqdir. Bojxona xodimlarida muomala malakasi va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida psixologik trening usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Jamoaning umumiylar rivojlanishiga erishish, xodimlarning shaxsiy o’sishiga va ziddiyatlarni kamaytirish uchun ko‘proq psixologik treningning an‘anaviy shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar:**

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект пресс, 1996. – 178 с.
2. Бендас Т.В. Гендерная психология. СПб.: Изд-во Питер, 2006. – 431 с.
3. Гамезо М.В., Домашенко И.Н. Атлас по психологии. – М.: «Просвещение», 1986. – 112 с.
4. Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций. М.: Смысл, 1992. 18 с.
5. Майерс Д. Социальная психология/ Интенсивный курс 3-изд., «Олма Пресс» С.Петербург – Москва 2002. – 188 с..
6. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. -Toshkent: OO'MTV, 2007. 173 b.
7. Nishonaliev U.N., Shodiev N.S., Muslimov N.A. Mehnat ta'limidan “Kasbga yo'naltirish asoslari” kursi bo'yicha metodik qo'llanma. -Toshkent, 2004. 12 b.
8. Немов Р.С. Психология: учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений: в 3 кн. М.: Гуманитар. Изд. Центр ВЛАДОС, 2003. Кн.3. 640с.

*Salixov Shoxrux Mansurovich,*  
*Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi,*  
*psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*  
*salikhovshoxrux@gmail.com*  
*<https://orcid.org/0000-0001-7520-6498>*

## BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT FANI O‘QITUVCHILARI SHAXSIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy madaniyat fani o‘qituvchilarining shaxsiy sifatlari shakllanishida ijtimoiy muhit hamda psixologik faktorlarning o‘rnii tahlili keltirilgan. Bundan tashqari har bir sportchida rivojlantirish zarur bo‘lgan irodaviy sifatlar, hissiy boshqaruvchanlik kabi jarayonlarning amaliy natijalari asoslab berilgan. Bo‘lajak jismoniy madaniyat fani o‘qituvchilarida shaxsiy sifatlarning shakllanishi psixologik omillarga bog‘liq ekanligi va bu holat juda muhim psixologik omil ekanligi jadvallarda o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy muhit, irodaviy sifatlar, sport faoliyati, psixologik omillar, pedagogik jarayon, o‘quv faoliyati, ijtimoiy psixologik motivlar.

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ роли социальной среды и психологических факторов в формировании личностных качеств будущих учителей физической культуры. Кроме того, обоснованы практические результаты процессов развития таких качеств, как волевые характеристики и эмоциональная саморегуляция, которые необходимо развивать у каждого спортсмена. В таблицах отражено, что формирование личностных качеств у будущих учителей физической культуры зависит от психологических факторов, и этот аспект является крайне важным психологическим фактором.

**Ключевые слова:** социальная среда, волевые качества, спортивная деятельность, психологические факторы, педагогический процесс, учебная деятельность, социально-психологические мотивы.

### SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FORMING THE PERSONAL QUALITIES OF FUTURE PHYSICAL CULTURE TEACHERS

**Abstract.** This article analyzes the role of the social environment and psychological factors in the formation of personal qualities of future physical education teachers. In addition, the practical results of such processes as willpower and emotional control, which need to be developed in every athlete, are substantiated. The tables show that the formation of personal qualities of future physical education teachers depends on psychological factors and that this situation is a very important psychological factor.

**Keywords:** social environment, volitional qualities, sports activity, psychological factors, pedagogical process, educational activities, social and psychological motives.

**Kirish.** Hozirgi talabalarning subyektligiga va ijodiy kuchiga (qobiliyatiga) qo‘yilayotgan talablarning ortishiga qaramasdan, talabalar subyektiv hayotiy o‘rnining psixologik o‘ziga xosliklari va uning ijtimoiy mavqeyi o‘rtasidagi bog‘liqlik kam o‘rganilganligi, faoliyat kategoriyasining psixologiyaga kiritilishi shaxsni dialektik-materialistik taddiq qilish, uning g‘oyaviy yo‘nalishini o‘rganish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash va psixikani obyektiv o‘rganish imkoniyatini yaratish zarur edi.

Bilish va hissiy sohalarning birligida shaxs muammosini ko‘rib chiqish (S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.Leontev) shaxsiy yondashuv, psixikani dialektik-materialistik anglashning quyidagi keltirib o‘tilgan muhim tamoyillarni rivoj topishiga ko‘maklashadi: aks ettirishning aqliy jihat, shaxs psixikasining moslashishi, ong va faoliyatning birligi, determinizm va tarixiy xususiyatlar tamoyili.

An’anaviy yondashuvdagi atrofdagi voqelikni o‘zgartirish orqali inson o‘z tabiatini o‘zgartiradi, degan pozitsiyasiga asoslanib, S.L.Rubinshteyn shaxsning yo‘nalishini o‘rganishda tizimli yondashuvning asosini tashkil etgan ong va faoliyatning birligi tamoyilini ilgari surdi. Ongning faoliyat bilan chambarchas bog‘liqligi mazmuni «ularning o‘zaro bog‘liqligi va mazkur bog‘liqlikn tasdiqlashdan iborat: inson faoliyati

uning ongini shakllantirishni, uning intellektual aloqalarini, jarayonlarini va xususiyatlarini belgilaydi va bu ikkinchisi, tartibga soluvchi faoliyat, ularni adekvat amalga oshirish sharti hisoblanadi» [130]. Tadqiqotimizda qo'llanilgan metodlarning o'ziga xosligi shundaki, shaxsda ong darajasi uning faoliyatdagi harakati bilan uzviy bog'liq. Shunday ekan, kasbiy sifatlar rivojlanishini faoliyatni tashkil qilmasdan erishib bo'lmaydi.

Insonlarning vaziyatlarga munosabati ularning faoliyatini ko'rsatib beradi. Shuningdek, shaxsning faoliyatida uning xususiyatlari, yo'nalishi ochiladi va bu jarayon kishilarning eng yaqin xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. S.L.Rubinshteyn tomonidan shakllantirilgan yana bir tamoyil – determinizm tamoyilidir. Determinizm insonlar o'rtasida yaratilgan obyektiv qonun-qoidalar bilan ichki qarshiliklarga asoslanib yagona tizimni o'rganish lozimligini bildiradi.

Mazkur tamoyilga ko'ra, shaxsning shakllanishida yetakchi rol ichki sharoitlar, shu jumladan, shaxsning haqiqiy shaxsiy sifatlari va tabiiy xususiyatlari orqali o'zgaradigan tashqi ta'sirlarga beriladi, ya'ni tashqi ta'sirlar o'zgarishi shaxsdagi sifatlarni ham ma'lum ma'noda o'zgarishiga olib keladi. Determinizm tamoyili psixolog talabalarning bilim va kasbiy sifatlarini mukammal o'zlashtirib, rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Metodologiya.** Bo'lajak jismoniy madaniyat fani o'qituvchilarida o'z mehnat faoliyatları davomida o'quvchilarda hissiy irodaviy sifatlarni shakllantirish vazifasi muhim hisoblanadi. Hissiy irodaviy sifatlarning zaif differensiallashganligi hatto iroda sohasida yirik mutaxassis hisoblanuvchi A.S.Puni mehnatlarida ham keltirib o'tilgan va u bu sifatlarni juftlashtirib birlashtirgan; qat'iyatilik va dadillik, qat'iylik va qattiq tura olish, mustaqillik va tashabbuskorlik, bardoshlilik va o'zini tuta olish. Aslida bular xilma-xil hissiy irodaviy ko'rinishlardir va bu masalan, M.S.Govorov tomonidan mustaqillik va tashabbuskorlikka nisbatan munosobatda ko'rsatib o'tilgan. U o'smirlarning 3 guruhini ajratgan: tashabbuskor va mustaqil; tashabbuskor va mustaqil bo'Imagan; mustaqil va tashabbuskor bo'Imagan. A.S.Punida faqat maqsadga intiluvchanlik yakka holda keltirib o'tilgan. Ammo unga berilgan ta'rifdan u qat'iylikdan qanday farqlanishini anglab olish qiyin. Ehtimol hissiy irodaviy sifatlarning juftlikda birlashishi A.S.Puning "irodavaviy sifatlar shaxsning bir butun hissiy irodaviy aks ettirishlarida bir-biridan alohida emas, balki, o'zaro aloqada vazifa bajaradi" degan tasavvurlariga mos keladi.

#### 1-jadval.

#### Hissiy irodaviy sifatlarni ajratish va differensiatsiya qilish muammosining chalkashligi

Shaxsiy sifatlar	Maqsad va intilish	Imkoniyatlar va motivlar	Motivlar kurashi va tanlanishi	Yechim	Yechimni amalga oshirish
Kuchli iroda	Maqsadni aniq anglash, intensiv intilish	Etarli	Asoslangan va tezkor	Asoslangan va intensiv intilishli	Matonat bilan
Qat'iylik	Uzoqlashgan va intensiv intilishli	Me'yorda			Juda qat'iy
O'jarlik	Obyektiv oqlanmagan	Barcha imkoniyatlarni oldindan yanglish fiqr bilan kelganligi va obyektiv hisobga olinmaganligi bilan ajraladi		Asoslanmag an intensiv intilishli	Qat'iy
Mulo-yimlik	Oson o'zgaruvchan	Boshqa insonlar kuchli ta'siri bilan aniqlanadi		Oson o'zgaradi	Turli xil
Ta'sir ko'rsata olishlik		Mavjud emasligi		Tashqaridan keladi	Tashqaridan keladi
Qat'iyat-lilik	Maqsadni aniq anglash, intensiv intilish	Yetarli ba'zida haddan ziyod	Tezkor lekin har doim ham asoslashma ganlik	Qat'iy va turg'un	Qat'iy

Jadvaldan ko'rini turibdiki, K.K.Platonov shaxsiy hissiy irodaviy xususiyatlar qatoriga nima uchundir ta'sir ko'rsata olishlik va muloyimlikni ham kiritgan. Shuningdek, hissiy irodaviy sifatlarga insoniylik, mustaqillik, mardlik, fidokorlik va prinsipiallilik kabilarning kiritilishi ham tushuntirilgan.

A.S.Puning fikricha, “har bir insonda hissiy irodaviy sifatlar bir butun tizim sifatida namoyon bo‘ladi, ammo bu tizim bo‘g‘inlarining strukturasi turli insonlarda bir xil emas.”

Bundan tashqari u bir insonning o‘zida faoliyatning turli ko‘rinishlarida o‘zgarib boradi. Shu bois, shaxsiy hissiy irodaviy sifatlar yig‘indisini harakatchan dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqish lozim hamda bu tizimning bo‘g‘inlari bir-birlari bilan turlicha o‘zaro munosabatga kirishadi va aloqa qiladi. Hissiy irodaviy sifatlarning u yoki bu to‘plamlari A.S.Puni fikricha, aniq bir faoliyat turining barqaror, obyektiv shart-sharoitlari orqali belgilanadi. Birinchi navbatda yetakchi hissiy irodaviy sifatlar determinantlashadi.

Shaxsning boshqa sifatlari kabi hissiy irodaviy sifatlar ham gorizontal va vertikal strukturaga ega.

**Gorizontal struktura.** Uni layoqatlar tashkil etadi va ularning rolida asab tizimi belgilaring tipologik xususiyatlari ishtirok etadi. Biroq buni tan olib, ba’zi bir holatlarda psixologlar ushbu muammoni izohlashda xatoga yo‘l qo‘yishadi. Dadillikning past darajasi tipologik xususiyatlarning ma’lum bir kompleksiga: zaif asab tizimi, “tashqi” balans bo‘yicha tormozlanishning ustunligi, tormozlanishning harakatchanligiga bog‘liqligi monografiyalarda aniqlangan

**Vertikal struktura.** Barcha hissiy irodaviy sifatlar o‘zaro o‘xshash vertikal strukturaga ega. Bu o‘xshashlik shundan iboratki, unga ko‘ra har bir hissiy irodaviy sifat xuddiki bir, uch qavatli pirogga o‘xshaydi. Uning eng quyisida tug‘ma layoqatlar – neyrodinamik xususiyatlar yotadi.

Shu bilan bir qatorda har bir hissiy irodaviy sifatda vertikal komponentlarning roli turlicha bo‘lishi mumkin. Bu holat E.K.Feshenko monografiyalarida yaqqol namoyon bo‘lgan.

I.Selivanov shaxsiy sifatlarni ta‘riflayotganda, ularga xos umumiy xususiyatlarni aytib o‘tgani: bular kengligi, kuchi va barqarorligidir. hissiy irodaviy sifatning kengligi yoki torligi ushbu sifat yorqin namoyon bo‘ladigan faoliyatlar miqdori orqali aniqlanadi. hissiy irodaviy sifatning kuchi qiyinchiliklarni engib o‘tishga yo‘naltirilgan hissiy irodaviy xatti-harakatning namoyon bo‘lish darajasi bilan aniqlanadi. Bir turdag'i vaziyatlarda hissiy irodaviy xatti-harakat namoyon bo‘lishining doimiylik darajasi hissiy irodaviy sifatlar barqarorligida asosiy belgi bo‘lib xizmat qiladi. Bu xususiyatlarning o‘zaro aloqasi turli insonlarda turlicha bo‘lishi mumkin.

O‘zini tuta bilish – odamning o‘z xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, xulq-atvori kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifatidir.

Chidamlilik – maqsadga erishishda odamning ko‘pincha sovuq va issiqqa ham, ochlik-tashnalikka ham, betoblik va boshqa shu singari qiyinchiliklarga qaramay, barcha to‘siqlarni yengib, o‘z maqsadini ro‘yogga chiqarishga intilishda aks etuvchi ijobji sifatdir.

Qat’iylik - shaxsning vaziyatni tezda baholab, o‘z vaqtida asosli, o‘ylangan va mustahkam qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilanishsiz uni bajarishga kirishishidan iborat fazilatidir.

Botirlik – odam sog‘lig‘i yoki hayoti uchun xavfli va murakkab sharoitda ham biron qarorga kelishi va uni bajarishning uddasidan chiqa bilish xislatidir.

Intizomlilik – jamiyat qonunlariga, axloq normalari va qoidalariiga, milliy (umumbashariy) urfatlariga, ixtiyoriy hamda ongli ravishda bo‘ysunishda ifodalanuvchi inson sifatidir.

Sabotlilik – shaxsning qabul qilgan qarorini bajarish va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun, ko‘p vaqt hamda muayyan qiyinchiliklarni yengish talab etilishiga qaramay, og‘ishmay intilishida gavdalanuvchi iroda belgisidir.

Mustaqillik – insonning o‘zicha biror qarorga kelishi va uni amalga oshirishidan, qarorni amaliyotga tatbiq etishning usul va yo‘llarini o‘zi mustaqil tanlashidan, har bir ishda o‘zining bilimlari, dunyoqarashi va e’tiqodlariga amal (rioya) qilishidan iborat iroda sifatidir.

Mardlik – oliy maqsadlarni ko‘zlab ish ko‘rvuchi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishda qat’iylik, vazminlik, sabr-matonat, chidamlilik, bardoshlilik, mustaqillik va dadillik ko‘rsatuvchi xislatlar majmuasidir.

“Men” obrazining shaxsiy sifatlar shakllanishidagi ahamiyati shaxsning o‘z xulq-atvor xususiyatlari va jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo‘ladigan obraz – “Men” obraqi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va uning barkamolligi me’zonlardan hisoblanadi. Kishi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlar tizimiga kirgan, odamlar bilan o‘zaro birgalikda harakat qilgan va munosabatda bo‘lgan holda o‘zini atrof-muhiddan alohida ajratib ko‘rsatadi, o‘zining jismoniy va psixologik holati, harakatlari va jarayonlarining subyekti sifatida aks etadi. “Men” obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, tarbiyani shaxsning o‘zi va o‘z sifatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishi jarayonidir, deb ta’rif berish mumkin.

“Men” tushunchasining ta’riflari bir qancha bo‘lishiga qaramasdan, uni ikki ma’noda ifodalash mumkin. Ya’ni I.Kant ta’kidlaganidek, o‘zini-o‘zi anglash o‘z ichida ikki ma’noni saqlaydi.

- |  |
|--|
| 1. “Men” tafakkur subyekti sifatida refleksiv “Men”. |
| 2. “Men” ichki hislar va idrok obyekti sifatida.     |

Psixologik manbalarda birinchi “Men” odatda faol, harakatdagi subyektlilik yoki ekzistensial “Men” deb nomlanadi, ikkinchisi esa – obyektivlik, refleksiv, fenomenal, kategorial “Men” yoki “Men tasavvur”, “Men – konsepsiya” deb nomlanadi.

Rozenberg quyidagi “Men” tiplarini ajratadi:

- |  |
|--|
| 1) <i>mavjud bo‘lgan “Men” (nalichnoe “YA”) – bu individning hozirgi paytdagi o‘zini ko‘rishi dir (Real “Men”);</i>  |
| 2) <i>ko‘zlanayotgan “Men” (Jelaemoe “YA”) – individ o‘zini qanday ko‘rishi xohlaganini ifodalaydi;</i>              |
| 3) <i>tasavvur qilinayotgan “Men” (predstavlyayemoe “YA”) – u o‘zini boshqalarga qanday ko‘rsatishi tushuniladi.</i> |

Shaxsning o‘zi haqidagi obrazi va o‘zini-o‘zi anglashi jinsiy o‘ziga xoslikka ega. Bu davrda paydo bo‘ladigan “kattalik” hissi qizlarda ham, o‘smir yigitlarda ham nafaqat o‘ziga, balki o‘zgalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ham belgilaydi.

**Xulosa.** Jamiyat a’zosi bo‘lgan sportchi o‘zining butun faoliyati davomida atrofdagi kishilar uchun nazoratning obyekti bo‘lib kelgan. Jamiyat nazorati ostida sport maktabi o‘quvchisi ta’lim oladi va tarbiyalanadi, sport faoliyati bilan band bo‘ladi, axloq qoidalari asosida xatti-harakatlarini amalga oshiradi. Boshqa tomondan, sportchi nazoratning subyekti sifatida uning o‘zi nazorat mexanizmlarini tashuvchisi hisoblanadi. Bu nazorat boshqalarga yoki shaxsning o‘ziga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Birinchi holatda nazorat ob’ekti bo‘lib boshqalarning xatti-harakatlari va ijtimoiy, tabiiy va texnik tizimdagi faoliyat jarayonining harakteri xizmat qiladi. Lekin shaxsning shaxsiy xatti-harakatlari, psixik holatlari ham uning o‘zi uchun nazorat ob’ekti bo‘lishi mumkin. Aynan oxirgi vaziyatda, ya’ni shaxsning o‘z psixik sohasini nazorat qilishida, biz o‘zini-o‘zi boshqarishni ko‘ramiz. Sportchi faolligining har xil ko‘rishlari ichida o‘zini-o‘zi hissiy irodaviy boshqarish alohida o‘ziga xos shakldan iboratligi bilan ajralib turadi. O‘zini-o‘zi boshqarish sportchining o‘z xatti-harakatlarini (xulq-atvorini) o‘zi boshqarishini, u yoki bu xususiyatli intilish va istaklarini tormozlashni talab qiladi, binobarin, u angilanilgan turlicha harakatlar tizimi mujassam bo‘lishini nazarda tutadi. hissiy irodaviy faoliyat mohiyati shunda ko‘zga tashlanadiki, bunda sportchi o‘zini o‘zi boshqaradi, o‘zini qo‘lga oladi, o‘zining xususiy ixtiyorsiz impulsiv tomonlarini nazorat etadi, hatto zarurat tug‘ilsa, u holda ularni tamoman yo‘qotadi ham.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ba’zi psixologik holatlarda, vaziyatlarda o‘zini-o‘zi hissiy irodaviy boshqarish faoliyati sportchining butun hayot yo‘lini aniqlab beradigan, uning ijtimoiy-psixologik qiyofasini namoyon qiladigan va ma’naviy-axloqiy qadriyatini ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan qarorga kelish bilan uyg‘unlashadi.

Sportchining hayot yo‘lida muhim xususiyat kasb etuvchi javobgarlik hissi hissiy irodaviy harakatlarni tatbiq qilishda uning miyasiga mujassamlashgan, angilanilgan barcha ijtimoiy-psixologik shartlangan fazilatlar, sog‘lom fikr, ustuvor hissiyot tariqasida faollashadi, mustahkamlanadi hamda baholash, qarorga kelish, tanlash, ijro etish jarayonlariga ta’sir qilib, umumiylamkorlik tizimida o‘z izini qoldiradi. Javobgarlik hissi shaxs ma’naviyati, ruhiyati, qadriyati namoyon bo‘lishi, kechishi, takomillashishi bosqichlarining boshqaruvchisi, ongli turtkisi, sifatining ko‘taruvchisi funksiyasini bajaradi.

### Adabiyotlar:

1. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi: Jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik /tarj. M.Omon; T.: “Mehridaryo”, 2011.
2. Гиппенрейтер Ю. Б. О природе человеческой воли // Психологический журнал. 2005. № 3.
3. Загайнов Р.М. К проблеме уникальности личности спортсмена-чемпиона. // Журнал “Спортивный психолог” №1(4), 2005.
4. Salixov S. M., Salixov T. M. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish // Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 1013-1019.
5. Mansurovich S. S. Methodology of organizing physical education lessons through digital technologies //European Journal of Modern Medicine and Practice. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 107-111.

*Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna,  
Termiz davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)*

## **KOGNITIV PSIXOTERAPIYA PSIXOLOGIYA METODI SIFATIDA**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy psixologiyada jadal rivojlanib borayotgan kognitiv psixologiya sohasi va uning istiqbollari xususida ma'lumotlar bayon etilgan. Shaxsning sog'lom tafakkuri uning salomatligini himoya qilib, faravon turmushining manbai ekanligi, ammo ko'pchilik kishilar salbiy fikr yuritishda moyil bo'lishi, buning sababi odamlarning ajdodlaridan, ota-onalaridan meros bo'lib qolgan yoki stress, qo'rquv, mojarolar, uzoq muddatli asabiy taranglik, ruhiy travma, uzoq muddatli xafagarchilik natijasida olingan negativ fikrlashi oqibati ekanligi haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, kognitiv psixoterapiya xuddi shunday psixologik muammolarni yechishga yordam beradigan psixologik metod ekanligi e'tirof etilgan, kognitiv psixoterapiya maqsadida qo'llaniladigan "Gabituatsiya", "Xulq-atvorni mustahkamlash" usullari, "Muammo" psixologik trening metodlari va ularning natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kognitiv psixoterapiya, kognitsiya, metod, ustanonka, e'tiqod, perfektsionizm, "gabituatsiya", "xulq-atvorni mustahkamlash".

## **КОГНИТИВНАЯ ПСИХОТЕРАПИЯ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ МЕТОД**

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о быстро развивающейся области когнитивной психологии в современной психологии и её перспективах. Отмечается, что здоровое мышление человека защищает его здоровье и является источником благополучной жизни, однако многие люди склонны к негативному мышлению. Причиной этого является негативное мышление, унаследованное от предков и родителей, либо приобретённое в результате стресса, страха, конфликтов, длительного нервного напряжения, психической травмы или продолжительных обид. Также признаётся, что когнитивная психотерапия является психологическим методом, помогающим решать подобные психологические проблемы. В статье представлены методы «Габитуация» и «Укрепление поведения», используемые в когнитивной психотерапии, а также методы психологического тренинга «Проблема» и их результаты.

**Ключевые слова:** когнитивная психотерапия, когниция, метод, установка, убеждение, перфекционизм, «габитуация», «укрепление поведения».

## **COGNITIVE PSYCHOTHERAPY AS A PSYCHOLOGICAL METHOD**

**Abstract.** The article presents information about the rapidly developing direction of cognitive psychology in modern psychology and its prospects. Healthy human thinking protects his health and is a source of a prosperous life, but most people are prone to negative thinking, which is due to inherited traits from ancestors and parents or due to stress, fear, conflict. It is believed that this is the result of negative thinking caused by prolonged nervous tension, mental trauma and prolonged sadness. In addition, cognitive psychotherapy is recognized as a psychological method that helps to solve such psychological problems. The methods of psychological training «Habituation», «Behavioral reinforcement», «Problem», used for the purposes of cognitive psychotherapy, as well as their results are presented.

**Keywords:** cognitive psychotherapy, cognition, method, institution, belief, perfectionism, «Gabituation», «Behavioral reinforcement».

**Kirish.** 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga oid 70-maqsadning 6-bandida "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash"; 7-bandida esa "Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish" masalalari belgilangan. Mazkur maqsadlarga erishishda insonning ruhiy salomatligi, uning sog'lom tafakkuri alohida o'rinni egallaydi.

Shaxsning sog'lom tafakkuri inson salomatligini himoya qilish va ta'minlashga qaratilganligi bilan ijtimoiy qiymatga ega. Sog'lom tafakkur tarkibiga tibbiy, jismoniy, ma'naviy, axloqiy va mafkuraviy salomatlikni himoya qilishga qaratilgan g'oyalar, qarashlar, tushunchalar, harakatlar, bilim, tajriba va

faoliyatga tayyorlik kabilar kiradi. Kishining sog'lom tafakkurigina uning ijtimoiy muhitda o'zi, yaqinlari va umuman jamiyat bilan munosabatlarini tom ma'noda himoya qilish uchun sharoit va potentsial imkoniyatlar yaratilishga qodir. Shuningdek, sog'lom fikrlash kishiga har qanday vaziyatda xotirjamlik va muvozanatni saqlashga, o'zini va atrofdagilarni tushunishga yordam beradi va jazo sifatida emas, balki tajriba uchun berilgan tinchlik va vaziyatlarga barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sog'lom tafakkur muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, shaxsning salomatligi va rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhitni yaratishga yordam beradi deb e'tirof etish mumkin.

Afsuski, ko'pchilik kishilar salbiy fikr yuritishda moyil bo'ladilar. Bu ularning ajdodlaridan, ottonalaridan meros bo'lib qolgan yoki stress, qo'rquv, mojarolar, uzoq muddatli asabiy taranglik, ruhiy travma, uzoq muddatli xafagarchilik natijasida olingan negativ fikrlash kishida g'azab, hukm, tanqid, norozilik kabilarni shakllantiradi. Tafakkurning bunday buzilishi kasallik emas, balki, voqeylekni hato aks ettirilishi oqibati bo'lib, shaxsning o'ziga, boshqalarga, jamiyatga nisbatan to'g'ri va pozitiv munosabatlari shakllanishiga rahna soladi.

**Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar.** Ta'kidlash joizki, rruhiy salomatlik va hissiy farovonlik masalalarida psixologlar va psixiatr shifokorlar mijozlarga yordam berishadi, faqat ularning yordam berish usullari yordamchi mutaxassisning ixtisosligiga qarab farqlanadi. Psixolog - bu tadqiqiy va amaliy psixologik muammolarini hal qilish va psixologik yordam ko'rsatish uchun inson psixikasini professional o'rganadigan maxsus oliy ma'lumotga ega mutaxassis. Psixolog mutaxassis psixologik bilimlarga asoslanadi va o'z ishimi inson psixikasining qanday ishlashi va qaysi yordam usullari eng yaxshi ishlashi haqidagi ilmiy ma'lumotlarga tayanib ish ko'radi.

Avtomatik fikrlar - bu kognitiv psixoterapiyaning kognitiv modeli tushunchasi bo'lib, odamning muayyan hodisalarga, vaziyatlarga va boshqa qo'zg'atuvchilarga munosabati sifatida yuzaga keladigan, dalillarga asoslanmagan, lekin odatda haqiqat sifatida qabul qilingan bir lahzali baholovchi fikrlardan iborat.[1]

Psixologiyada perfektionizm - idealga erishish mumkin va shart degan ishonch; ishning nomukammal natiasi mavjud bo'lish huquqiga ega emasligi kabilarni anglatadi. Shuningdek, perfektionizm-bu hayotidagi "ortiqcha" narsalarni olib tashlash, yo'q qilish, "notekis" narsalarni "tekis" qilish istagidan iborat destruktiv g'oya bo'lib, shaxsning o'zaro va oilaviy munosabatlar jarayoni normal kechishiga salbiy ta'sir qiladi.

E'tiqod - kognitiv psixoterapiya tushunchasi sifatida insonning o'zi va dunyo haqidagi g'oyalarini anglatadi va mutlaqlashtirilgan va umumlashtirilgan e'tiqodlar farqlanadi. Chuqur e'tiqodlar odatda bolalik davrida, bola o'zi uchun muhim bo'lgan odamlar bilan munosabatlar va hayotiy tajribalar ta'sirida shakllanishi e'tirof etiladi.[3] Chuqur e'tiqodlar insonning oldiga qanday maqsadlar qo'yishini, uning xattiharakatlarini baholashini, o'zi bilan sodir bo'layotgan voqealarga munosabatini va ularga qanday izoh berishini oldindan belgilab, u yoki bu vaziyatga xos bo'lgan avtomatik fikrlarning paydo bo'lishiga hamda ushbu vaziyatga nisbatan hissiy reaksiya hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. A.Bek tarafdirlari turli xil hissiy va shaxsiyat buzilishlariga mos keladigan disfunksional chuqur e'tiqodlarni tasvirlab, avtomatik fikrlarni tizimli tahlil qilish va ularda takrorlanadigan markaziy mavzularni aniqlash asosida chuqur e'tiqodlarni qayta tiklash, disfunksional e'tiqodlarni konstruktiv e'tiqodlarga almashtirish bo'yicha usulini qo'llab, kognitiv jarayonlarning borishi hamda turli xil aqliy xatolar tuzatganlar. Yuqoridagilar asosida yuzaga keladigan kognitiv buzilishlar va fikrlash xatolariga "falokatlashtirish", "kelajakni bashorat qilish" kabilarni kiritish mumkin.

Kognitiv xulq-atvor psixoterapiyasining dastlabki kelib chiqishini qadimgi yunon faylasuflarida topish mumkin. Kbtning asoschilari psixologlar A. Adler, A. Ellis va Aaron T. Bek hisoblanadi. Aaron Temkin Bek va uning shogirdlari kognitiv xulq-atvor psixoterapiyasining zamonaviy shakli asoslariga eng katta hissa qo'shdilar. Aa Aaron T. Bek: kognitiv xulq-atvor terapiyasini o'ylab topgan odam Rus tilida CBT kognitiv xulq-atvor psixoterapiysi, kognitiv xulq-atvor psixoterapiysi va oddiygina KP terapiyasi yoki CBT deb nomlanishi mumkin.

Kognitiv xulq-atvor psixoterapiysi psixoterapiyaning keng tarqalgan shakli bo'lib, turli destruktiv xulqni tuzatishda samarali usul hisoblanadi. Kognitiv-xulq-atvor psixoterapiyasida mijoz fikrlari, xattiharakatlarini o'zgartirish orqali hissiy reaksiyalarni o'zgartirishga qaratilgan qisqa muddatli seansdan iborat bo'lib, undan ko'plab maqsadlarda foydalanish mumkin. Kognitiv-xulq-atvor psixoterapiysi usullaridan shuningdek, odamlarga kognitiv buzilishlarga nisbatan ochiqroq va ongli pozitsiyani egallahsga yordam berish va shu bilan kognitiv buzilishlarning shax hayoti va munosabatlariga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida qo'llash mumkin hisoblanadi.

Kognitiv xulq-atvor psixoterapiyasining qo'llanilishi psixologiyada kognitiv yondashuvga muvofiq psixologik muammolar va ko'pgina nerv-psixik buzilishlar insonning mantiqsiz yoki noo'rin fikrlari va

e'tiqodlari hamda ularning fikrlash uslubidagi disfunktional stereotiplar tufayli yuzaga kelishi va bu kabi hissiyotlar va xatti-harakatlarni o'zgartirish orqali muammolarni hal qilishi mumkin degan g'oyaga asoslanadi. Mazkur qarashga asoslangan xulq-atvor yondashuvi insonning foydali xatti-harakatlarni rag'batlantirish va mustahkamlash aksincha, zararli yoki istalmagan shakllarni so'ndirish natijasida hissiyotlar va fikrlash shakllarini o'zgartirishdan iborat.

Kognitiv xulq-atvor psixoterapiysi mijozning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirish imkoniyatlarni oshirish, hayotdagи to'siqlarni yengib o'tishi va psixologik muammolarni hal qilishi uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Psixolog yoki psixoterapevt o'z faoliyatida kognitiv-xulqiy psixoterapiya texnikasidan foydalangan holda, mijozning ongsiz motivatsiyasini yoki istaklarini ajratib olib, ularni ongli darajaga ko'tarishi, normal hayotga xalaqit beradigan salbiy munosabat, fikr va e'tiqodlarni o'zgartirishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan Kognitiv-xulq-atvor psixoterapiyasining asosiy maqsadi mijoz bilan ishslash metodikasini ishlab chiqishdan iborat.[3] Ushbu maqsadlarda turli metodikalar ishlab chiqilgan va amaliyotchi psixologlar faoliyatida qo'llaniladi.

Jumladan, "Kognitiv xulq - atvorni mashqlantirish" metodikasi - o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish kognitiv psixoterapiyaning terapevtik va psixoprofilaktik vositasi bo'lib, xulq-atvor va kognitiv psixologiya tamoyillarining kombinatsiyasidan iborat. Psixoanalizdan farqli ravishda, kognitiv xulq-atvor psixoterapiyasining "muammoga yo'naltirilgan" va "kognitiv xulq-atvorga yo'naltirilgan" shakli mavjud bo'lib, u tashxis qo'yilgan destruksiya bilan bog'liq o'ziga xos muammolarni tuzatishda qo'llaniladi. Kognitiv psixoterapiyada psixologning roli mijozga o'z maqsadlariga erishish va destruksiya belgilarini yengillashtirish uchun samarali strategiyani topish va qo'llashda yordam berishdan iborat.

Kognitiv xulq-atvor terapiyasining zamонави ildizlarini 20-asрнинг boshlarida rivojlanib, 1960-yillarda kognitiv terapiyaning rivojlanishi va keyinchalik ularning birlashishi bilan bog'lanadi. Xulq-atvor sohasidagi o'zgarishlar 1920-yilda Jon B.Uotson va Rozali Raynerning xulq-atvorning shatsizligini o'rganish bilan boshlangan. 1924-yilda xulq-atvorning terapevtik yondashuvlari amerikalik psixolog Meri Kover Jonsning bolalarni qo'rquvdan xalos etishga bag'ishlangan asarida keltirilgan. Ular Jozef Volpning 1950-yillarda paydo bo'lgan xulq-atvor terapiyasining tarafdorlari hisoblangan. Jozef Volp va Uotsonning Ivan Pavlovning shartli reflekslar sohasidagi kashfiyotlariga asoslangan qarashlari Gans Ayzenk va Arnold Lazarusga klassik yondoshuvga asoslangan xulq-atvor terapiyasining yangi usullarini ishlab chiqishga turki bo'lgan [2]. G.Ayzenk tadqiqotlar olib borilgan bir vaqtda, B.F.Skinner va uning hamkasblari operant metodlarni ishlab chiqishni boshlagan va B.F.Skinner usuli radikal bixevoirizm deb nomlangan. 1954-yilda Julian Rotter va 1969-yilda Albert Bandura xulq-atvorni o'zgartirishga ta'sirini ko'rsatish orqali ijtimoiy ta'lif nazariyasidagi o'zgarishlar bilan xulq-atvor terapiyasiha hissa qo'shgan.

Psixoterapiyada kognitsiyalarni birinchilardan bo'lib Alfred Adler qo'llagan. Alfred Adler tomonidan kiritilgan kognitiv xatolar tushunchasi kognitiv psixoterapiya rivojlanishida katta rol o'ynaydi va bu shaxsnинг sog'lom, foydali xulq-atvor va hayotiy maqsadlarini yaratishga yordam beradi. Adlerning qarashlari ratsional-emotsional terapiya deb nomlangan kognitiv yo'naltirilgan psixoterapiyaning eng qadimgi turini ishlab chiqqan Albert Ellisning qarashlariga ta'sir ko'rsatdi. Ratsional-emotsional-xulq-atvor terapiyasi ishlab chiqilgan bir vaqtda Aaron T. Bek o'zining psixoanalitik amaliyotida erkin assotsiatsiya seanslarini o'tkazib, mazkur mashg'ulotlar davomida Z.Freydning fikrlar ongsiz emasligini, fikrlashning ayrim turlari hissiy tanglikka olib kelishi mumkinligi haqidagi gipotezaga asoslanib kuzatgan. Aaron T. Bek psixologiyada kognitiv xulq-atvor terapiyasining asoschisi hisoblanadi. [4].

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Kognitiv xulq-atvor psixoterapiyasi usulidan foydalanim, 54 nafar respondentlarda tadqiqotlar olib borildi. Respondentlar bilan "Gabituatsiya", "Xulq-atvorni mustahkamlash" usullari, "Muammo" psixologik trening metodlari asosida psixoterapevtik suhabat va mashqlantirish ishlari olib borildi va ularda mavjud kognitsiyalar va avtomatik fikrlar ta'siri natijasida shakllangan o'ziga ishonchsizlik, motivatsiyaning yo'qligi, xavotirlanish, tushkunlik, befarqlik muammolarini bartaraf etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

#### 1-jadval.

#### Kognitiv psixoterapiyaga oid psixologik tadqiqot natijalari

Kognitiv buzilishlar	Kognitiv psixoterapiyadan avval (N=54)			Kognitiv psixoterapiyadan keyin (N=54)		
	Darajasi			Darajasi		
	yuqori	o'rta	past	yuqori	o'rta	past
O'ziga ishonchsizlik	51,8%	29,6%	22,2%	12,9%	48,1%	38,8%
Motivatsiyaning yo'qligi	44,4%	38,8%	16,6%	18,5%	53,7%	27,7%

Xavotirlanish	47,7%	31,4%	27,7%	16,6%	66,6%	16,6%
Tushkunlik, befarqlik	35,1%	44,4%	20,3%	12,9%	48,1%	38,8%
Sotsial xavotir	38,8%	46,2%	14,8%	9,2%	55,6%	35,1%

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar “Gabituatsiya” – muammoni keltirib chiqaruvchi qo'zg'atuvchiga e'tiborsizlik. Masalan, yolg'izlanib qolishdan qo'rqishdan tuzatish maqsadida yakka holda tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, shu yo'nalishda ishlab hayotini farovon qilgan odamlar haqida hikoyalarni tinglash, ular bilan suhbat qurish, yakka o'zi yashayotgan turmushi farovon kishilar bilan uchrashuvlar uyuştirildi.

“Xulq-atvorni mustahkamlash” - mijozga uni qiyayotgan muammolaridan qutilishga yordam beradigan aniq xatti-harakatlarni amalga oshirishga o'rgatish. Xulq-atvorni mustahkamlashning ikki turidan foydalanildi. Birinchisi ijobjiy, ikkinchisi salbiy harakatlarni qo'llash. Ijobjiy harakatlarga odatlantirishdan iborat. Masalan, mijozga mukofot berish va bundan ijobjiy hissiyotni tuyish, salbiy aksincha xato qilib jarima olmaslik uchun, to'g'ri harakatlanishga odatlantirish.

**Xulosa.** Kognitiv psixoterapiyada shaxsning o'zini band qilgan g'oyalari va e'tiqodlariga qarshi turishga yordam berish va kognitiv xatolar deb nomlanuvchi fikrlash tarzidagi xatolarini o'zgartirishga yordam berish uchun kognitiv xulq-atvor terapiyasi usullaridan foydalaniladi. Xususan, hissiy stressni kamaytirish va o'z-o'zini parchalaydigan "haddan tashqari umumlashtirish, negativni bo'rttirish, pozitivni kamaytirish va fojialashtirish" kabi xatti-harakatlarni kamaytirishga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Oilaviy munosabatlar destruksiyasi yuzasidan olib borgan tadqiqotlar asosida mazkur yo'nalishda kognitiv-xulq-atvor psixoterapiyasini qo'llashda asosiy e'tiborni qaratish lozim bo'lgan jihatlarni ajratib oldik. Ular quyidagilardan iborat: - oila a'zolarida salbiy xulq-atvor va munosabarlargacha olib keluvchi mantiqsiz fikrlarni bostirish; - haddan tashqari negativ qarashlarni yengish uchun shaxsiy reja tuzishga o'rgatish; - perfektsionizmni zaiflashtirish va ishonchni oshirish bo'yicha mashqlantirish; - vahima paydo bo'lganda o'zini tinchlantrish usullarini qo'llashga o'rgatish; - muvaffaqiyatlarni mustahkamlashga o'rgatish.

#### **Adabiyotlar:**

1. Андерсон Д. Р. Когнитивная психология. 5-е изд. СПб.: Питер, 2002.
2. Belmont C.A. Clinical psychology 7th. Thomson / Wadsworth, 2007.
3. Величковский Б. М. Когнитивная наука: Основы психологии познания: в 2 т. Т. 1. М.: Смысл; Академия, 2006.
4. Трусов В. П. Социально-психологические исследования когнитивных процессов. Л. МГУ, 2008.

*Shermatov Javohir Sherzotovich,  
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi  
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi*

## **ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA ZO'RAVONLIK HISSINI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'smirlarda zo'ravonlik hissi namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar ochib berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada sotsiumdagi turli xil sodir bo'ladijan o'smirlar orasidagi o'zgarishlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va zo'ravonlik bilan aloqadorligi batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smir, zo'ravonlik, psixologik xususiyat, sotsium, hissiyor, psixologik ta'sir.

### **ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ НАСИЛИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ**

**Аннотация.** В данной статье раскрываются факторы, влияющие на проявление насилия у подростков. Также в данной статье подробно описаны социально-психологические особенности изменений, происходящих у подростков в обществе, и их связь с насилием.

**Ключевые слова:** подросток, насилие, психологическая характеристика, общество, эмоция, психологическое воздействие.

### **PSYCHOLOGICAL CONTENT AND ESSENCE OF THE STUDY OF THE FEELINGS OF VIOLENCE IN MODERN PSYCHOLOGY**

**Abstract.** This article reveals the factors influencing the manifestation of feelings of violence in adolescents. Also, this article provides a detailed description of the socio-psychological characteristics of various changes occurring in society among adolescents and their relationship with violence.

**Keywords:** adolescent, violence, psychological characteristics, society, emotions, psychological impact.

**Kirish.** Zo'ravonlik jabrlanuvchilar bilan ishlaydigan psixologlar, aksariyat hollarda shunday vaziyatga duch keladilar: tajovuzga uchragan xotin-qizlar zo'ravonni tark etmaydilar va u bilan birga yashashni davom ettiradilar, balki uning xatti-harakatlarini oqlab, sodir bo'lgan voqealarda o'zlarini ayplashadi, uni sevganliklari uchun ham uning tajovuzkorligiga, kaltaklash va xo'rashlariga chidashlarini aytishadi. Psixologiyada zo'ravonlik jabrdiydalari xatti-harakatlarining ushbu modeli “Stokgolm sindromi” deb nomlanadi. Jabrlanuvchi go'yo, tajovuzkorning salbiy xatti-harakatlarini yashirib, uning yonini oladi, bu holni xuddi xameleonning tashqi sharoitga moslashib, rangini o'zgartirib oladigan harakatiga o'xshatish mumkin. E.B.Goncharenkoning yozishicha, stokgolm sindromi – bu odamlar uchun xavfli sharoitlar yuzaga kelganida o'zini himoya qilish uchun psixikaning moslashish mexanizmidir [1]. Bu atama qayerdan kelib chiqqan? Ehtimol, bu atamaning tarixi hech bo'limganda ko'philikning qulog'iga chalingandir.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshqa bir tadqiqotchi B.A.Astaxovaning ta'kidicha, “Stokgolm sindromi” iborasining muallifi 1973-yil 23-avgustda Stokgolm markazidagi bankda sodir bo'lgan voqealar markazida bo'lgan shvetsiyalik psixiatr-kriminalist Nils Beyerot sanaladi [2]. O'shanda ikki nafar qurolli bosqinchil bankka hujum qilib, bir necha kishini garovga olgan. Jinoyatchilar garovdagilarni portlovchi moslamalar yordamida tarozida tortib, olti kun davomida kichkina xonaga qamab qo'yadilar. Garovga olinganlar bu xonada o'rnilaridan turish va cho'zilib yotish imkoniyatiga ega bo'limganlar, faqatgina hojatxonaga borish me'yorida edi. Ular garovdagagi birinchi kunlarini itoatsizlik uchun juda tor xonada o'q uzish tahdidi ostida o'tkazadilar.

Xo'sh o'zi zo'ravonlik nima?

Zo'ravonlik so'zning ma'nosi va talqini. Konsepsiyaning o'zi ruhiy jismoniy, balki ruhiy tabiatning ruhiy va ma'naviy ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Zo'ravonlik -insonning ongli-harakati:


- ❖ Boshqa shaxsga kuch va nazorat qilish;
- ❖ O'zining mavqeyiga, jamiyatdagi mavqeyiga (oila, jamoa) ehtiyyotkorlik.

Zo'ravonlikning eng keng tarqalgan shakllari [3]:

1. Jismoniy Ba'zi shaxslar o'z manfaatlarini himoya qilish yoki har qanday harakat uchun majburlash uchun qarorlar qabul qilishidir.
2. Jinsiy aloqa. Ko'p navlari bor. Jinsiy zo'ravonlikning asosiy yo'nalishi jinsiy aloqaga majburlashdir.
3. Ruhiy (ma'naviy, hissiy). U doimiy og'zaki xavfsizlar, haqoratlari, jabrlanuvchini depressiv, tashvishli davlatga olib boradi va o'zining axloqiy muammolariga qarshi harakatga keltiradi.
4. Siyosiy. Insonlarni hokimiyatga, avtoritarizmga majbur qilish. Siyosiy zo'ravonliklarning kuchayishi genotsidga kelishi mumkin.
5. Oiladagi zo'ravonlik - bu shaxsnинг boshqasiga zarar ta'sirining eng keng tarqalgan shakllaridan biri. Ko'p bolalar qurbanlar ayollar va jamiyatning zaif a'zolari.
6. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik. O'zini boshqa shakllarda namoyon qilishi mumkin (jismoniy, jinsiy). Bolalarga nisbatan zo'ravonlik har qanday sharoitda yuz berishi mumkin bo'lса-da, shuni bilishingiz kerakki, bola yoki o'spirinning zo'ravonlikka uchrashi ehtimolini oshiradigan ba'zi bir xavf omillari mayjud. Masalan, to'rt yoshgacha bo'lган bolalar va o'spirinlar yuqori xavf ostida. Xuddi shu narsa istalmagan, ota-onasining umidlarini qondirmaydigan, jismoniy yoki aqliy nogiron bo'lган yoki ko'p yig'laydigan bolalar bilan ham sodir bo'ladi. Bolalari bilan aloqa o'rnatishda qiynalgan, bolaligida o'zlarini suiiste'mol qilgan yoki o'z farzandlarining rivojlanishidan noaniq umidvor bo'lган voyaga yetgan vasiylar suiiste'mol bo'lish xavfi yuqori. Bundan tashqari, uydagi moliyaviy qiyinchiliklar va spirlti ichimliklar yoki giyohvandlikka bog'liqlik ham xavf omillari bo'lishi mumkin. Va niroyat, oiladagi zo'ravonlik sharoitida yashaydigan, o'z jamiyatida izolyatsiyani boshdan kechirayotgan yoki o'z farzandlariga g'amxo'rlik qilish uchun qarindoshlarining yordamiga muhtoj bo'lмаган oilalarda, shuningdek, bolalarga nisbatan zo'ravonlik xavfi katta [4].

Uch yoshta to'lмаган kichik yoshdagi bolalarda suiiste'mollik sodir bo'lгanda, ularning uyg'unligi rivojlanmaydi va shuning uchun ularning ijtimoiy ko'nikmalari va o'z qadr-qimmatini anglash buziladi. Bunday holatlarda bolani yomon tush ko'rishi, uyqusi buzilishi, ovqatlanish odatlarining o'zgarishi, ularning psixomotor rivojlanishining kechikishi yoki hojatxonada o'qishni yo'qotishi tez-tez uchraydi.

**Tahlil va natijalar.** Voyaga yetmagan holda, zo'ravonlikka uchragan bolalar o'zlarining his-tuyg'ulari va impulslarini tushunish, baholash va tartibga solishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ular ko'pincha o'zlar va atrofidagi dunyo haqida ijobiy e'tiqodlarga ega emaslar. Umuman olganda, ular boshqalarning noqulayligini bilish yoki ularga munosabat bildirish qobiliyatiga ega emaslar. Ular o'z tengdoshlari yoki o'qituvchilarining niyatlarini o'zlaridan ko'ra ko'proq dushman deb talqin qilishadi. Bu, asosan, ularga ta'sir qiladigan doimiy hissiy qarama-qarshiliklar bilan bog'liq, chunki ularga g'amxo'rlik qilishi kerak bo'lган va sevgan odam aslida ularga yomon munosabatda bo'ladi.



1-rasm. Zo'ravonlik xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari


Kattaroq bolalar yoki o'spirinlarda zo'ravonlik ro'y berganda, ular uydan qochib, o'zlariga hujum qilishadi va odatda o'qish ko'rsatkichlari past bo'ladi. Voyaga yetganidan so'ng, bolaligida zo'ravonlikka uchragan odamlar ko'pincha o'z farzandlarining tajovuzkoriga aylanishadi. Psixologik buzilishlardan tashqari, Qo'shma Shtatlardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jismoniy jazo miyada o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shu tarzda kaltaklangan yoki besh yoshdan katta yoshdagи bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlikka uchragan bolalar, bunday zo'ravonlikka duch kelmaydigan bolalar bilan taqqoslaganda IQ darajasi past bo'lishi mumkin, chunki ularda miyaning prefrontal sohasidagi kulrang moddalar kamroq bo'ladi [5].

Zo'ravonlik jabrdiydralari va garovga olinganlarni qiyash bilan bog'liq bo'lgan bunday xatti-harakatlarni deyarli barchasining xuddi shu kabi ko'rinishlarda qayd etilishi shu sababli ham Stokholm sindromi nomi ostida qayd etiladi. Sindrom mexanizmi shundayki, jinoyatchi va jabrlanuvchi uzoq vaqtini birgalikda o'tkazishi natijasida ular bir-birini yaxshiroq tushuna boshlaydi va oralarida totuvlik uyg'onadi. Oqibatda jabrdiyda zo'ravonning xayrixohiga aylanadi va u tutgan yo'l to'g'riligiga ishonib qoladi. U zo'ravonning xatti-harakatini oqlashi, kechirishi va hattoki unga yordamlashishi mumkin.

Psixologiyada zo'ravonlik-bu insonlar o'rtasidagi munosabatlar dinamikasini, kuch va hukmronlik elementlarini, shaxsning ruhiy salomatligi va ijtimoiy o'zaro munosabatlardagi ta'sirlarni o'rganish uchun muhim mavzulardan biri hisoblanadi.

O'smir yoshlarga nisbatan zo'ravonlik muammosini tahlil qilishda shaxsning destruktiv xulq-atvor bilan bog'liq baholashini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar yuzasi bo'yicha olingen tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zo'ravonlik xususiyatini keltirib chiqarayotgan qishloqda va shaharda yashovchi o'smirlarda psixologik zo'ravonlik shkalasi 31-35 farqni namoyon qilgan. Ijtimoiy munosabatlarda tahqirlash shkalasi 33-35 bilan, o'zini nazorat qila olmaslik shkalasi 28-36 farqni aks ettirgan. Ijtimoiy munosabatlarni bloklash 33-30 kabi o'rtacha tafovutlarni aks ettirgan. Ijtimoiy munosabatlarda xavotir shkalasi 41-37 kabi ko'rsatkichlarni aks ettirgan.

Tadqiqotchilar destruktiv xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabablarga subyektiv omillar: tarixiy xotira, qasd olish udumlari, ayrim diniy oqimlar (fanatizm, ekstremizm g'oyalari), ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, televideniye), ayrim siyosatchilarning individual axloqiy jihatlarining bevosita ta'sir etish imkoniyatlarini ta'kidlaydilar.



**2-rasm. Tajovuzkor xulq-atvor xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi natijalari**

Tajovuzkor xulq-atvor oilada o’smirlarning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Jamiyatning asosiy foni hisoblangan qishloqda va shaharlarda yashovchi o’smirlarda jismoniy tajovuz shkalasi 6-5 farq bilan, verbal tajovuz 6-7 bilan, bilvosita tajovuz shkala 5-6 farqni namoyon qilgan. Negativizm shkala 4-6 bilan, tajanglik 4-5, shubhalanuvchanlik 5-7, xafagarchilik 4-6 va aybdorlik 6-7 kabi o’rtacha tafovutlarni aks ettirgan.

Zo’ravonlikning sabablari va oqibatlari:

• **Sabablari:** Zo’ravonlikning sabablari juda murakkab bo‘lishi mumkin va ular madaniy, iqtisodiy, psixologik yoki shaxsiy omillarga bog‘liq. Patriarxal jamiyat tuzilmalari, gender stereotiplari, kam ta’lim, oiladagi ruhiy va moddiy qiyinchiliklar ham sabablar sirasiga kiradi.

• **Oqibatlari:** Ayollar zo’ravonlik tufayli ruhiy tushkunlik, o‘z-o‘zini qadrsiz his qilish, xavotir va qo‘rquv kabi ruhiy muammolarga duch kelishlari mumkin. Jismoniy zo’ravonlik esa sog‘liq bilan bog‘liq jiddiy muammolarga olib keladi.

Albatta, o‘zini-o‘zi namoyon qila olmagan va frustratsiya holatida bo‘lgan barcha odam ham agressiv harakatlarni amalga oshiravermaydi. Bunda biologik omillar bilan bir qatorda turli ijtimoiy omillar, tarbiya va muhitning shaxs shakllanishidagi o‘rni, insonning turli destruktiv, salbiy psixologik-manipulyatsion ta’sirlarga tushish xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

**Xulosa** qilib aytganda, maqsadli ishlashda bolalarni zo’ravonlikdan asrash uchun va zo’ravonlikka uchragan o‘quvchilar bilan korreksion ish olib borish uchun o‘quvchining qiziqishi va xohishlarini inobatga olish, siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, oilada sog‘lom muhitni shakllantirish, bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik, bolalarga bo‘sht vaqt ajaratish, to’liq oilani saqlab qolish, bolalar bilan emotsiunal yaqinlikni yo‘qotmaslik, boladagi eng yaxshi insoniy fazilatlarni ko‘ra olishga va bolalarda o‘ziga ishonish, o‘z xulqini o‘zi yaxshilash motivlarini shakllantirish muhimdir.

### **Adabiyotlar:**

1. Гончаренко Е.В., Тайсаева С.Б., Парамонова К.В., Калюжный И.П. Биopsихосоциальный подход формирования стокгольмского синдрома в криминалистической и психологической практике // Евразийский юридический журнал. 2022. № 4 (167). С. 375-376.
2. Астахова В.А. Стокгольмский синдром: история появления // Правовое образование: сборник научных статей. Ростов-на-Дону, 2022. – С.18-22.
3. Белеева И.Д., Панкратова Л.Э., Титова Н.Б. Буллинг как социальная проблема в образовательном учреждении // Педагогическое образование в России. – 2019. – № 8. – С. 144–148.
4. Вострикова М.М. Феноменология буллинга в образовании // Менеджмент и социально-гуманитарные науки: проблемы и перспективы в современном мире. Сборник материалов Всероссийской (национальной) научно-практической конференции, 2022. – С. 78–82.
5. Киселева Т.Б., Горбенко И.А. Подготовка студентов к профилактике буллинга в подростковой среде средствами кинотерапии // Психологически безопасная образовательная среда: проблемы проектирования и перспективы развития. Сборник материалов II Международной научно-практической конференции / науч. редакторы И.Л. Федотенко, С.В. Пазухина. – 2020. – С. 140–144.

**Xasanov Otobek Xamidjonovich,**  
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
Sport psixologiyasi va pedagogika kafedrasи dotsenti v.b., PhD  
ORCID ID 0009-0000-6450-8071  
xotabek889@gmail.com

**YOSH FUTBOLCHILARNI NUFUZLI MUSOBAQALARGA TAYYORLASHDA  
ULARNING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINI O‘RGANISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh futbolchilarning nufuzli musobaqalariga tayyorgarlik davridagi psixofiziologik holati o‘rganilgan. Tadqiqotda U-16 futbol bo‘yicha milliy terma jamoa a’zolaridan 14 nafar futbolchi ishtirok etdi. Tadqiqot usullari quyidagilardan iborat: Luscher testi, Ravenning progressiv matritsalari va harakatlanuvchi obyektga reaksiya. Olib borilgan tadqiqot natijasi shuni ko’rsatadi, yosh futbolchilar mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining mavjudligi, asab jarayonlari muvozanati, malakali futbolchilarda noverbal ma’lumotlarni tez va samarali idrok etish hamda boshqa psixofiziologik komponentlar keng tahlil etilgan. Barcha o‘rganilgan ko’rsatkichlar yosh futbolchilar guruhidagi psixo-emotsional holat, neyrodinamik xususiyatlar va og’zaki bo’lmagan intellekt o’rtasidagi bog’liqlik aniqlandi.

**Kalit so’zlar:** malakali futbolchilar, psixofiziologik holat, psixoemotsional holat, kognitiv qobiliyatlar, aql, neyrodinamik xususiyatlar.

**ИЗУЧЕНИЕ ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ МОЛОДЫХ  
ФУТБОЛИСТОВ ПРИ ПОДГОТОВКЕ К ПРЕСТИЖНЫМ СОРЕВНОВАНИЯМ**

**Аннотация.** В данной статье изучается психофизиологическое состояние молодых футболистов в период подготовки к престижным соревнованиям. В исследовании приняли участие 14 футболистов из национальной сборной по футболу U-16. Методы исследования включают: тест Люшера, прогрессивные матрицы Равена и реакцию на движущийся объект. Результаты проведённого исследования показывают, что у юных футболистов были широко проанализированы способность к самостоятельному принятию решений, баланс нервных процессов, быстрое и эффективное восприятие невербальной информации, а также другие психофизиологические компоненты. Все изученные показатели выявили взаимосвязь между психоэмоциональным состоянием, нейродинамическими особенностями и невербальным интеллектом в группе юных футболистов.

**Ключевые слова:** квалифицированные футболисты, психофизиологическое состояние, психоэмоциональное состояние, когнитивные способности, интеллект, нейродинамические характеристики.

**STUDYING THE PSYCHOPHYSIOLOGICAL STATE OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS  
WHEN PREPARING THEM FOR PRESTIGIOUS COMPETITIONS**

**Abstract.** The article studied the current psychophysiological state of youth football players during the preparation for the main competitions of the year. 14 football players from the national football team took part in the study. The age of the athletes is 15 years. The research methods are as follows: Luscher test, Raven’s Progressive Matrices and Reaction to a Moving Object. It was established that all the studied indicators had an average level of manifestation, and connections were identified between the psycho-emotional state, neurodynamic characteristics and non-verbal intelligence in the group of young football players. This fact indicates that the presence of subjective mental comfort, the presence of the ability to make independent decisions determines the balance of nervous processes, and contributes to the rapid and effective perception and processing of non-verbal information in qualified football players.

**Keywords:** qualified football players, psychophysiological state, psychoemotional state, cognitive abilities, intelligence, neurodynamic characteristics.

**Kirish.** Barcha sport turlarida sportchi tanasining psixofiziologik holati ma’lum bir faoliyat turida turlicha tavsiflanadi, ya’ni sportchi tanasining alohida tizimlari (tana tuzilishi, genetikasi, psixik jihatdan sezgilar, intellektual salohiyati, tezkor tafakkuri, diqqat, idrok) umuman olganda sport turlariga saralashda sportchining psixofiziologik darajasini tavsiflovchi funksional tizimni shakllantirish muammosi hozirgacha

dolzarblik kasb etmoqda. Shunday ekan futbolchilarni terma jamoalarga saralashda ham sportchilarning psixofiziologik holatini aniq ilmiy tahlil etish, hamda olingan natijalar haqida murabbiylar kengashiga muhim ma'lumotlar taqdim etish lozim [5,13,16].

Har qanday holatda sportchining psixofiziologik holati uning mashg'ulot yoki musobaqa sharoitida o'z-o'zini boshqarishning psixofiziologik va psixik darajalarini aniqlashni talab etadi [2,3,7]. P.E.Ilin va boshqa psixofiziolog olimlarning fikriga ko'ra, psixofiziologik holat sababiy hodisa bo'lib, unda shaxs yaxlit holda ko'rib chiqiladi [5,6].

V.D.Nebilitsinning va B.M.Teplovning ko'p sonli ilmiy ishlarida psixofiziologik holat shaxsning tipologik individualligini namoyon bo'lishidir [11,14]. Biroq inson faoliyatining natijalariga nafaqat barqaror individual sifatlar, balki shaxsnинг psixuemotsional holati sifatida belgilanadigan organizmdagi vaqtinchalik siljishlar ham ta'sir etishi mumkin [7,10].

Psixofiziologik holat uchta javob darajasi bilan tavsiflanadi: psixik (stress, xavotir), fiziologik (inson organizmining somatik tuzilmalarining reaksiyalari, vegetativ asab tizimining ta'sir mexanizmlari) va xulq-atvor [3,8,9,12].

Kognitiv-faoliyat uslublarni o'rghanish shaxsning kognitiv faoliyat strategiyalarining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi individual barqaror xususiyatlarni (axborotni idrok etish, qayta ishslash, muammolarni hal etish, o'rghanish, mustaqil qaror qabul qilish) aniqlashga imkon beradi. Kognitiv-faoliyat uslublari qisman genetik jihatdan belgilangan va ontogenezda barqaror xususiyatlarga ega deb hisoblanadi [4,15].

**Tadqiqotni tashkil etish.** Tadqiqotda U-16 futbol bo'yicha milliy terma jamaa a'zolaridan 14 nafar futbolchi ishtirok etdi.

**Tadqiqot usullari.** Yosh futbolchilarning psixuemotsional holatini o'rghanish uchun dastlab M.Lyusherning qisqartirilgan 8-rangli shaklining moslashtirilgan rang tanlash testidan foydalanildi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatkichi, sportchilar tomonidan rang qatorini tanlash nafaqat sportchi holatiga, balki sinaluvchining konstitutsional tipi, uning individual tipologiyasi va boshqa xususiyatlari bilan bog'liq barqaror shaxsiy xususiyatlarga ham bog'liqligi tekshirildi. [13].

Markaziy nerv tizimida qo'zg'alish va tormozlanish nerv jarayonlari muvozanatini aniqlash uchun "Harakatlanayotgan obyektga reaksiya" (RDO) fazoviy-vaqt ekstrapolyatsiyasi metodikasidan foydalanildi. Testdagi aniqlik ko'rsatkichi bevosita mavjud vizual ma'lumotlar asosida dinamik obyektning fazo va vaqtdagi holatini antitsipatsiya qilish (oldindan taxmin qilish yoki oldinda ko'ra bilish) qobiliyati darajasini tavsiflaydi, barqarorlik ko'rsatkichi asab tizimining muvozanatlashganlik darajasini ko'rsatadi. Shu bilan birga qo'zg'alish ko'rsatkichi ham aniqlandi.

M.L.Sobchikning ranglarni tanlashga shaxsning aktual psixik holatiga ta'sir etuvchi omilni aniqlashga qaratilgan testidan foydalanildi.

Shuningdek, test o'tkazish jarayonida sportchilarning konstitutsiyaviy turi, uning individual tipologiyasi va boshqa psixik xususiyatlari bilan bog'liq barqaror shaxsiy xususiyatlari ham aniqlandi.

1-jadvalda (Lyusher bo'yicha) rang tanlash testi natijalari keltirilgan. Testning asosiy ko'rsatkichlari ish qibiliyati, charchoq va xavotir hisoblanadi, barcha ma'lum ko'rsatkichlar bir-birini to'ldiradi va o'r ganilayotgan sportchilarning psixuemotsional holatining yaxlit manzarasi haqida maksimal darajada ma'lumot beradi.

Ma'lumotlarni qayta ishslashda matematik tahlildan foydalanildi: o'rtacha qiymatlar usuli va korrelyatsion tahlil [13].

#### 1-jadval.

**Lyusher rangli testi bo'yicha malakali futbolchilarning dolzarb psixuemotsional holatining o'rtacha ko'rsatkichlari (n=14)**

Test	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar qiymati		
		mediana	quyi kvartal	yuqori kvartal
Rang tanlash testi (Lyusher)	ish qibiliyati, shartli birlik	9,00	7,00	10,00
	toliqish, shartli birlik	3,00	2,00	4,00
	vahima, shartli birlik	3,00	2,00	5,00
	autogen me'yordan og'ishlar, shart.	20,00	16,00	24,00
	ekssentriklik	7,00	4,00	8,00
	konsentriklik	8,00	6,00	9,00
	vegetativ koeffitsiyent, shartli birlik	19,00	16,00	21,00
	geteronimlik, shartli birlik	6,00	4,00	8,00
	avtonomlik, shartli birlik	9,00	7,00	10,00

Ishchanlik qobiliyati ko'rsatkichi bo'yicha yosh futbolchilar ish qobiliyati o'rtacha namoyon bo'lish darajasi ( $Me=9,00$  birlik), teng.

Yosh futbolchilarda toliqish darajasi o'rtacha ( $Me=3,00$  birlik), ko'rsatkichlarning tarqalishi o'rtacha darajadan o'rtacha darajaga va yuqori darajagacha o'zgarib turadi.

Stress rivojlanishining birinchi bosqichi sifatida xavotir ko'rsatkichi o'rtachadan yuqori darajada bo'lib, noaniqlik hissini va salbiy hodisalarini kutishni ifodalaydi. Bizning tanlanmamizda qiymat ( $Me=3,00$  birlik), o'rtacha darajaga mos keladigan qiymatlar tarqalishi o'rtachadan past darajadan o'rtachadan yuqori darajagacha o'zgarib turadi.

Autogen normadan og'ish ko'rsatkichi (AVN) ham o'rganilayotgan sportchining qulaylik zonasidan og'ish darajasini subyektiv baholashni tavsiflaydi. Yosh futbolchilar uchun bu ko'rsatkichi o'rtacha darajada ( $Me=20$  birlik), qiymatlarning past darajadan yuqori darajagacha o'zgarib turadi.

Izlanish, o'zgarishlarga intilish, hozirgi mashg'ulotdan qoniqmaslik va keljakka intilish bilan tavsiflanuvchi ekssentriklik ko'rsatkichi bo'yicha futbolchilar o'rtacha darajaga ega ( $Me=7,00$  birlik). Qiymat ko'rsatkichi past darajadan o'rtacha darajaga bundan esa yuqori darajagacha o'zgarib turadi.

Passivlikni ifodalovchi konsentriklik ko'rsatkichi tahlili shuni ko'rsatdiki, bizning tadqiqotimizdagи sportchilar orasida qiymatlar o'rtacha darajada ( $Me=8,00$  birlik) aniqlandi. Ko'rsatkichlarning tarqalishi o'rtachadan past darajaga va o'rtachadan yuqori darajagacha o'zgarib turadi.

Vegetativ koeffitsiyent simpatik (ergotropik tonus) yoki parasimpatik (trofotropik tonus) vegetativ nerv sistemasi ta'sirining ma'lum ustunligini tavsiflaydi.

Yosh futbolchilarda vegetativ koeffitsiyent ko'rsatkichi o'rtacha darajada ( $Me=19,00$  birlik), tarqoqlik o'rtachadan past va o'rtachadan yuqorigacha o'zgarib turadi. Ya'ni ushbu guruhda ergotrop va trofotrop tonuslar muvozanatlashgan. Geteronimlik-murosasozlik, bo'ysunuvchanlik va tashqi ta'sirlarga tobeklik nuqtayi nazaridan futbolchilarni tavsiflovchi xususiyat sifatida o'rta darajada ( $Me=6,00$  birlik), ko'rsatkichlarning tarqalishi o'rtachadan past va o'rtachadan yuqorigacha o'zgarib turadi.

O'z-o'zini baholash, ixtiyoriylik, mustaqillik, tashqi ta'sirlardan mustaqillikni ifodalovchi avtonomlik ko'rsatkichi bo'yicha guruh o'rtachadan past darajada ( $Me=9,00$  birlik), ko'rsatkichlarning tarqalishi pastdan o'rtagachaga o'zgarib turadi.

Umuman olganda, rangli tanlov testining deyarli barcha ko'rsatkichlari bo'yicha malakali futbolchilar o'rtacha darajani namoyish etishadi.

Autogen me'yор va vegetativ koeffitsiyentdan og'ish ko'rsatkichlari muvozanatlashgan bo'lib ekssentriklik-konsentriklik kabi bipolyar xususiyatlar muvozanatlashgan bo'lib, avtonomlik-geteronimlik ko'rsatkichining tahlili avtonomlikning pasayishi va geteronimlikning ustunligi tendensiyasini ko'rsatdi.

Har qanday psixofiziologik holatni o'rganish vaqtida har qanday darajani ko'rib chiqish va inson holati haqida har bir tenglikni tavsiflovchi informativ ko'rsatkichlar to'plami asosida xulosalar chiqarish lozim.

Faoliyat natijasiga ta'sir etuvchi funksional tizimning miqdoriy mezonlari insonning kognitiv faoliyatining psixofiziologik mexanizmlarini belgilaydi. Shuning uchun qaror qabul qilish darajasida ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishslash usullarini baholash muhimdir.

Insonning bilish va qiyinchiliklarni hal etishning umumiyligi qobiliyati bilan birlashtirilgan barcha bilish qobiliyatları umumiyligi kognitiv qobiliyatlar darajasiga bog'liq. Muayyan intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi inson faoliyatining mazmuniga bog'liq bo'lib, nafaqat individning genotipi, balki uning hayotiy tajribasiga boyligi bilan ham belgilanadi.

Kognitiv qobiliyatlarning xarakteri va natijadorligi miqdoriy (bajarilgan vazifalarning samaradorligi va tezligi) va sifat (bajarilgan vazifalarning aniqligi va samaradorligi) bo'yicha baholandi. Malakali futbolchilarning umumiyligi kognitiv imkoniyatlarini o'rganish uchun Ravenning "Progressiv matritsalar" testidan foydalanildi.

A.P.Pavlov, B.M.Teplov, V.D.Nebilitsin va ularning izdoshlari ilmiy ishlarida asosiy nerv jarayonlarining xususiyatlari genetik jihatdan shartlanganligi asoslangan. Ushbu nazariya xulq-atvorning psixofiziologik xususiyatlarini taddiq etishning konseptual asoslarini yanada rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega va individual xulq-atvorning biologik asosi bo'lib qolmoqda.

Ta'rifga ko'ra, nerv jarayonlari muvozanati miya va umuman organizm ishining umumiyligi energetik darjasini tavsiflaydi. Jarayon turlaridan birining (qo'zg'atuvchi yoki tormozlovchi) muvozanati yoki ustunligi individning xulq-atvor uslubini belgilaydi va inson faoliyatining individual uslubiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nerv harakatlarini qo'zg'atish va tormozlashning ichki nisbati inson oliy nerv tizimi faoliyatining barcha tarkibiy qismlarini tartibga solib turadi.

Markaziy asab tizimidagi nerv jarayonlarining muvozanatini o'rganish uchun "Multipsikometr-05" psixodiagnostik kompyuter majmuasini ishlab chiquvchilar "Fazoviy-vaqt ekstrapolyatsiyasi"ga nisbatan turli xil uslubiy yondashuvlarni taklif qilganlar. Yosh futbolchilarni o'rganish uchun "Harakatlanayotgan obyektga reaksiya" RDO testi tanlandi.

Barcha futbolchilar uchun "Harakatlanayotgan obyektga reaksiya" testining mutlaq aniqligi 2,53% ni tashkil etadi, bu o'rtacha daraja sifatida aniqlanadi. Ushbu testning mutlaq aniqligi bevosita mavjud bo'lgan vizual ma'lumotlar asosida dinamik obyektning fazo va vaqtdagi holatini antitsipatsiya qilish (bashorat qilish) qobiliyatini darajasini belgilaydi.

Ya'ni futbolda yaxshi darajadagi o'yin malakalarini namoyish etgan sportchilar antitsipatsiya qibiliyatining o'rtacha darajasiga ega degan xulosaga kelish mumkin.

"Harakatlanayotgan obyektga reaksiya" testini bajarishning barqarorlik ko'rsatkichi asab tizimining muvozanatlashganlik darajasini ko'rsatadi. Ushbu testni bajarishning barqarorlik ko'rsatkichiga ko'ra, barcha futbolchilar o'rtacha  $Me = 3,88\%$  dan yuqori deb baholanishi mumkin bo'lgan sonli qiymatlarga ega.

Biroq RDO testida aniqlik va barqarorlik uchun past sonli qiymatlarni ushbu ko'rsatkichlarning yuqori rivojlanish darajasiga mos keladi. Ushbu faktlarga asoslanib quyidagi fikrga kelish mumkinki, malakali futbolchilarda asab tizimining muvozanat darajasi o'rtachadan pastroq. 2-jadvalga qarang.

### 2-jadval.

#### Asab jarayonlari muvozanatini aniqlash testi bo'yicha yosh futbolchilarning neyrodinamik xususiyatlari (n=14)

Test	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar qiymati		
		mediana	quyi kvartal	yuqori kvartal
Nerv jarayonlari muvozanatni	aniqlik darajasi, %	2,53	2,23	2,69
	turg'unlik, %	3,88	3,47	4,20
	qo'zg'alish	-0,01	-0,08	0,00

Tadqiqotda ishtirok etgan yosh futbolchilarni qo'zg'alish jarayonlari tormozlanish jarayonlaridan ustunligi, qo'zg'alish jarayonining namoyon bo'lish darajasi  $Me=-0,01$  birlik, guruhlardagi ko'rsatkichlarning tarqalishi o'rtachadan pastdan, o'rta darajagacha o'zgarib turishi aniqlandi.

Yosh futbolchilar guruhi uchun qo'zg'alish jarayonlarining tormozlanish jarayonlariga nisbatan ustunligi xos, ammo sezilarli emas, bu asab tizimidagi tiklanish jarayonlari bilan bog'liqlik borligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, "Harakatlanayotgan obyektga reaksiya" testi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, yosh futbolchilarda qo'zg'alish jarayonlari tormozlanish jarayonlaridan ustunligini, faollashuvning individual-maxsus darajasi ustunlik qilshi, bu esa o'yin faoliyati va xulq-atvorining individual uslubiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi namoyon bo'ldi.

3-jadvalda tadqiqot guruhi futbolchilarning umumiy kognitiv (intellektual) qobiliyatlarini aniq natijalari keltirilgan. Test va unga doir mashqlarni tushuna olish qobiliyatidan dalolat beruvchi asosiy informativ samaradorlik ko'rsatkichi bo'yicha futbolchilar o'rtacha darajaga ega ( $Me=7$  sign), qiymatlarni taqsimoti o'rtachadan past, o'rtagacha bo'lgan oraliqda tebranib turadi.

### 3-jadval.

#### Yosh futbolchilarning umumiy kognitiv qobiliyatlarni namoyon bo'lish darajasi (n=14)

Test	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar qiymati		
		mediana	quyi kvartal	yuqori kvartal
Ravennning progressiv matritsalari	samaradorlik, signallar	7,00	5,00	8,00
	tezlik, signal/kv	3,70	2,52	5,71
	aniqlik	0,60	0,42	0,72
	samaradorlik, %	30,56	13,89	48,40

Quydagi testning o'rtacha darajaga mos kelishi (daqiqada  $Me=3,7$  signal), ko'rsatkichlarning tarqalishi o'rtachadan past darajadan, o'rtachadan yuqori darajagacha o'zgarib turadi, guruh yuqori va pastki kvartil ko'rsatkichlari bo'yicha bir xil emas.

Testni bajarish sifati (aniqligi) o'rtacha darajada ( $Me=0,6$  birlik), qiymatlarning tarqalishi pastdan o'rtagacha o'zgarib turadi.

Samaradorlik ko'rsatkichi bo'yicha yosh futbolchilar o'rtachadan past darajaga ega ( $Me=30,57\%$ ) bo'lib, qiymatlar farqi past va o'cta darajalar o'rtasida joylashgan.

Demak, sinaluvchilarimizning "Ravenning progressiv matriksalari" testi bo'yicha barcha ko'rsatkichlari yuqori bo'limgan va bu yosh futbolchilarda noverbal intellektni rivojlantirish haqida yetarli darajada xabardor emasligini ko'rsatadi. Vaholanki, futbol o'ynida maksimal muvaffaqiyat qozonish uchun barcha taktik tayyorgarlik verbal va noverbal intellektual qobiliyatlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Yosh futbolchilarda psixoemotsional holat, neyrodinamik xususiyatlar va kognitiv funksiyalar o'rtasidagi bog'liqliknini o'rganish uchun (Spearman bo'yicha) korrelyatsion tahlil o'tkazildi.

Tahlil natijasida o'rganilayotgan parametrlar o'rtasidagi funksional bog'liqliknini aks ettiruvchi ishonchli korrelyatsiya koeffitsiyentlari olindi. Aslida, olingan natijalarни aloqalari sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ushbu asosiy belgilovchi komponent Lyusher testi bo'yicha psixoemotsional holat hisoblanadi. Ushbu metodika nafaqat psixoemotsional holatning xususiyatlarini, balki sportchining xulq-atvor reaksiyalarining tavsifini ham aniqlashga imkon beradi.

Yosh futbolchilarning psixoemotsional holati neyrodinamik xususiyatlar holatiga, asab tizimidagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari muvozanatiga ta'sir ko'rsatadi. 4-jadvalga qarang.

#### 4-jadval.

##### **Yosh futbolchilarda Lyusher testi va "nerv jarayonlari muvozanati" testi ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion tahlil, n=14**

Ko'rsatkichlar	Subyektiv qulaylik	Eksantriklik	Geteronomiya	Avtonomiya
Aniqlik	0,37	- 0,48	-	-
Qo'zg'alish	-	-	0,41	- 0,57

Subyektiv qulaylik va eksentriklik (Lyusher testi bo'yicha) ko'rsatkichlari bilan aniqlik ko'rsatkichi (nerv jarayonlari muvozanati testi bo'yicha) o'rtasida ishonchli korrelyatsion aloqalar mavjudligi aniqlandi. Bu subyektiv psixik komfort va ichki o'z-o'zini nazorat qilishning mavjudligi asab tizimidagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari muvozanatiga yordam berishini ko'rsatadi. Buni geteronimlik/avtonomlik va qo'zg'alish ko'rsatkichi o'rtasida ishonchli korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi ham ko'rsatadi. Aslida, sportchilarda qaror qabul qilishdagi mustaqillik qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarini muvozanatlashuviga va tashqi taassurotlarga javob berish aniqligiga olib keladi.

Olingan natijalardan shunday xulosa qilish mumkinki, neyrodinamik xususiyatlarni optimallashtirish hamda qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarini muvozanatlash uchun sportchilarda subyektiv qulaylik mavjud bo'lganda, unda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish zarur.

Neyrodinamik holat futbolchilarda kognitiv funksiyalarning, ayniqlasa, noverbal intellektning namoyon bo'lish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Barqarorlik ko'rsatkichi (nerv jarayonlari muvozanati testi bo'yicha) va mahsuldarlik, tezlik, aniqlik, samaradorlik (Raven testi bo'yicha) o'rtasida ishonchli korrelyatsion bog'liqliklar mavjudligi aniqlandi. Olingan natija neyrodinamik xususiyatlar holati va tezlik, shuningdek, sportchilar tomonidan noverbal axborotni qayta ishslash sifati o'rtasidagi bog'liqliknini aks ettiradi. 5-jadvalga qarang.

#### 5-jadval.

##### **Yosh futbolchilarda Lyusher testi va Raven testi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion tahlili n=14**

Ko'rsatkichlar	Ishchanlik	Eksantriklik	Geteronomiya	Avtonomiya
Mahsuldarlik	- 0,47	-	- 0,45	-
Aniqlik	- 0,56	-	- 0,56	0,41
Samaradorlik	- 0,50	-	- 0,50	-
Tezlik	-	- 0,53	-	-

Asab tizimida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi muvozanatning mavjudligi yosh futbolchilarda axborotni sifatlari va tez qabul qilish va qayta ishslashga yordam beradi. Shu bilan birga, aniqlik (nerv jarayonlari muvozanati testi bo'yicha) va tezlik (Raven testi bo'yicha) o'rtasida ijobjiy korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi. Ushbu natija shuni ko'rsatadi, sportchilarda tashqi qo'zg'atuvchilarga javob berish aniqligining yomonlashishi va asab tizimining qo'zg'alishi va tormozlanishi o'rtasidagi muvozanatning buzilishi noverbal axborotni qabul qilish va qayta ishslashning tezlik xususiyatlarining pasayishiga olib keladi.

Shunday qilib, noverbal intellektning optimal namoyon bo‘lishi uchun yosh futbolchilar qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarini muvozanatlashtirishni o‘rganishlari kerak. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, subyektiv qulaylik va mustaqil qaror qabul qilish mavjud bo‘lganda nerv jarayonlari muvozanati mumkin.

Psixoemotsional holat va noverbal intellekt ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘tkazilgan korrelyatsion tahlil ushbu komponentlar o‘rtasidagi bilvosita bog‘liqlik to‘g‘risida ma’lumot olish imkonini berdi 6-jadvalga qarang.

#### 6-jadval.

##### Raven testi va yosh futbolchilarda "nerv jarayonlari muvozanati" testi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil, n=14

Ko‘rsatkichlar	Natijadorlik	Tezlik	Aniqlik	Samaradorlik
Aniqlik	-	0,36	-	-
Barqarorlik	- 0,48	0,53	- 0,52	- 0,46

Ishchanlik qobiliyati va geteronomlik ko‘rsatkichlari (Lyusher testi bo‘yicha) natijadorlik, aniqlik va samaradorlik (Raven testi bo‘yicha) bilan manfiy ishonchli korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Olingan natija shuni ko‘rsatdiki, psixik ish qobiliyatining pasayishi natijasida mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasining yo‘qligi noverbal axborotni qayta ishslashning sifat xususiyatlarining yomonlashishiga olib keladi. Buni eksentriklik (Lyusher testi bo‘yicha) va tezlik (Raven testi bo‘yicha) hamda avtonomlik (Lyusher testi bo‘yicha) va aniqlik (Raven testi bo‘yicha) o‘rtasida korrelyatsion bog‘lanishlar mavjudligini ham ko‘rsatadi.

**Xulosalar.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, psixofiziologik holatning namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishda uning tarkibiy qismlarining barcha darajalarini o‘rganish va har bir darajani tavsiflovchi informativ ko‘rsatkichlar majmui asosida inson holati haqida xulosalar chiqarish zarur.

Shunday qilib, "Harakatlanayotgan obyektga reaksiya" testi ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, yosh futbolchilarda qo‘zg‘alish jarayonlari tormoz jarayonlaridan ustunligini namoyish etadi, faollashuvning individual-maxsus darajasi ustunlik qiladi, bu esa malakali futbolchilarning individual o‘yin uslubiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, yosh futbolchilarda noverbal intellektni aniqlash testi bo‘yicha ko‘rsatkichlar yuqori emas va bu futbolchilarda noverbal intellektni rivojlantirishga nisbatan murabbiylarning yetarli darajada xabardor emasligidan dalolat beradi.

Futbol o‘yinida butun jamoaning maksimal muvaffaqiyati uchun barcha taktik tayyorgarlik verbal va noverbal intellektual qobiliyatlarga asoslanishi kerak.

Yosh futbolchilarda psixoemotsional holat, neyrodinamik xususiyatlar va noverbal intellekt o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Subyektiv psixik holat, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining mavjudligi asab jarayonlarini muvozanatlashtirishga olib keladi va futbolchilarda noverbal ma’lumotlarni tez va samarali qabul qilish va qayta ishslashga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Антомонов М. Ю. Математическая обработка и анализ медико-биологических данных / М. Ю. Антомонов. – К.: «Малый друг», 2006. – 558 с.
2. Артемьева Г. П. Современное состояние проблемы профессионального отбора в спорте / Г. О. Артемьева, В. В. Мулик, П. С. Евтушенко // Слобожанський науково-спортивний вісник. Харків, 2007. Вип. 12 – С. 135–138.
3. Беленко И.С. Психофизиологические особенности у юных спортсменов игровых видов спорта разного возрастного периода развития и тренированности / И.С. Беленко // Вестник ТГПУ, 2009. – № 3. – С. 81.
4. Бриль М. С. Отбор в спортивных играх. /М. С. Бриль – М.: Физкультура и спорт, 1980. – 127 с., ил.
5. Ильин Е. П. Психология индивидуальных различий. [Электронный ресурс]. / Е. П. Ильин. – СПб: Питер, 2004. – 701 с. – (Мастера психологии). – Режим доступа: <http://www.log-in.ru/books/7899/>.
6. Ильин Е. П. Психофизиология состояний человека. / Е. П. Ильин – СПб: Питер, 2005. – 412 с.
7. Козина Ж. Л. Индивидуализация подготовки спортсменов в игровых видах спорта: [Моногр.] / Ж. Л. Козина. – Харьков, 2009. – 396 с.

8. Коробейников Г. В. Оценка и коррекция психофизиологических состояний в спорте: уч. пособие для студентов высших уч. заведений / Г. В. Коробейников, Л. Г. Коробейникова, Ж. Л. Козина. – Харьков, 2012. – 340 с.
9. Макаренко Н. В. Формирование свойств нейродинамических функций у спортсменов / Н. В. Макаренко, В. С. Лизогуб, А. П. Безкопыльный // Наука в олимпийском спорте. – 2005. – № 2. – С. 80–86.
10. Мищук Д. Н. Особенности психоэмоциональной устойчивости в игровых видах спорта / Д. Н. Мищук // Stiintaculturiifizice – Chișinău: USEFS, 2012. – № 13/1. – С. 40–45.
11. Небылицын В. Д. Функциональное состояние нервной системы человека и её основные свойства / В. Д. Небылицын // Психофизиологические исследования индивидуальных различий. – М.: Наука, 1976. – С. 187–192.
12. Павлов И. П. Полное собрание сочинений. 2-е изд. М. – Л.: Изд. АН, 1951. – Т. 3. кн. 2. Физиологическое учение о типах нервной системы, темпераментах. – С. 77–88.
13. Собчик Л. Н. Метод цветовых выборов (модифицированный цветовой тест Люшера) / Л. Н. Собчик Методы психологической диагностики, вып. 2. – М., 1990. – 88 с.
14. Теплов Б. М. Проблемы индивидуальных различий. / Б. М. Теплов. – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1961. – 536 с.
15. Хокинс Д. Об интеллекте. / Д. Хокинс, С. Блейксли. – М.: ООО "И. Д. Вильямс, 2007. – 240 с.
16. Шинкарук О. А. Отбор спортсменов и ориентация их подготовки в процессе многолетнего совершенствования (на материале олимпийских видов спорта) / О. А. Шинкарук. – К.: Олимп. лит., 2011. – 360 с.

*Xayrullayev Qodir Zarfulla o‘g‘li,*  
*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti*  
*Pedagogika va psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi*  
*qodirxayrullayev95@gmail.com*

## FRUSTRATSIYAGA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI NAZARIY MANBALARDA TALQIN ETILISHI

**Annotatsiya.** *Frustratsiyaga chidamlilikni rivojlantirish muammosining talqini ko‘p qirrali bo‘lib, nazariy manbalar frustratsiyaning tabiatini va uning inson xatti-harakatlariga ta’siri haqida turli xil tushunchalarni beradi. O‘qituvchilar, psixologlar va shaxslar frustratsiya bilan bog‘liq psixologik asoslarni tushunish orqali ruhiy rivojlantirish va hissiy tartibga solishni kuchaytirish strategiyalarini amalgalashirishlari mumkin. Ushbu frustratsiyaga tolerantlikni rivojlantirish muammosi nazariy manbalar asosida ko‘rib chiqiladi. Frustratsiyaga chidamlilikni rivojlantirish muammosining talqini ko‘p qirrali bo‘lib, nazariy manbalar frustratsiyaning tabiatini va uning inson xatti-harakatlariga ta’siri haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Maqolada shaxslararo munosabatlar, o‘qitish va boshqa voqeliklarda frustratsiyaning ta’sir qilish usullarini tushunish imkonini beruvchi zamonaliviy tadqiqot natijalariga urg‘u beradi.*

**Kalit so‘zlar:** frustratsiya, daraja, psixologiya, ta’lim.

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ К ФРУСТРАЦИИ В ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

**Аннотация.** *Интерпретация проблемы развития устойчивости к фрустрации многогранна, а теоретические источники дают различные представления о природе фрустрации и её влиянии на поведение человека. Педагоги, психологи и отдельные личности могут реализовывать стратегии психического развития и усиления эмоциональной регуляции, понимая психологические основы, связанные с фрустрацией. Эта проблема развития толерантности к фрустрации рассматривается на основе теоретических источников. Интерпретация проблемы развития устойчивости к фрустрации многогранна, а теоретические источники дают ценные представления о природе фрустрации и её влиянии на поведение человека. В статье делается акцент на результаты современных исследований, которые позволяют понять способы воздействия фрустрации в межличностных отношениях, обучении и других реалиях.*

**Ключевые слова:** фрустрация, уровень, психология, образование.

### INTERPRETATION OF THE PROBLEM OF DEVELOPING FRUSTRATION TOLERANCE IN THEORETICAL SOURCES

**Abstract.** *The interpretation of the problem of developing resilience to frustration is multifaceted, and theoretical sources provide different insights into the nature of frustration and its impact on human behavior. By understanding the psychological underpinnings of frustration, educators, psychologists, and individuals can implement strategies to enhance emotional development and emotional regulation. Theoretical sources of the problem of developing tolerance to this frustration are considered. The interpretation of the problem of developing resilience to frustration is multifaceted, and theoretical sources provide valuable insights into the nature of frustration and its impact on human behavior. The article emphasizes the results of modern research, which allows to understand the methods of frustration in interpersonal relations, teaching and other realities.*

**Keywords:** frustration, level, psychology, education.

**Kirish.** Borgan sari murakkab va tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda frustratsiyani boshqarish va bardosh berish qobiliyati barcha yoshdagи odamlar uchun muhim mahoratga aylandi. Maqsadga erishish yo‘lidagi harakatlari to‘silqlar, bajarilmagan umidlar yoki kutilmagan qiyinchiliklar tufayli buzilganida frustratsiya paydo bo‘ladi. Bu hissiy javob chidamlilik va muammolarni hal qilishdan tajovuzkorlik va chekinishgacha bo‘lgan turli xil xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Frustratsiya dinamikasini tushunish va eng muhimi, frustratsiyaga chidamlilikni rivojlantirish nafaqat shaxsiy farovonlik uchun, balki oila, ta’lim va ish joyi kabi turli sharoitlarda sog‘lom munosabatlar va samarali o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish

uchun juda muhimdir. Nazariy jihatdan, turli xil psixologik asoslar frustratsiyaga bardoshlik fenomenini o‘rganish va tushuntirishga harakat qildi. Fikrlar va e’tiqodlarning hissiy reaksiyalarni qanday shakllantirishiga bag‘ishlangan kognitiv-xatti-harakat modellaridan emotsiyonal iztirobning ildizlarini o‘rganuvchi psixodinamik nazariyalarga ko‘ra, tadqiqotchilar frustratsiyaga chidamlilikning ko‘p qirrali xususiyatini ta’kidladilar. Bundan tashqari, rivojlanish psixologiyasining istiqbollari insonning frustratsiyaga qarshi kurashish qobiliyatini shakllantirishda dastlabki tajribalar muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Nazariy manbalarni o‘rganish odamlarning qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarga qanday munosabatda bo‘lishiga ta’sir qiluvchi turli omillar haqida tushuncha beradi [Цуканова, А. П. (2006)]. Jamiyat doimiy o‘zgarishlar va oldindan aytib bo‘lmaydigan holatlar bilan kurashar ekan, frustratsiyaga chidamlilikni rivojlantirish keng qamrovli ta’sirga ega bo‘lgan muhim tadqiqot sohasi sifatida paydo bo‘ladi. Frustratsiyaga chidamlilikning nazariy talqinlarini o‘rganib chiqib, biz uning shaxsiy o‘sish va hissiy tartibga solishdagi ahamiyatini aniqroq tushunishimiz mumkin. Bu xabardorlik nafaqat individual o‘z-o‘zini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi, balki jamoalar va tashkilotlarga birdek foyda keltirishi mumkin bo‘lgan chidamlilik va moslashuvchan kurash strategiyalariga madaniy siljishni rag‘batlantiradi.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida mavjud muammolar yechimini topish va ularni bartaraf etish, ijobiy yechimlarni amalga oshirish, shu maqsadda psixologik bilimlardan foydalanish imkoniyatlarining ochilayotganligi ta’lim sohasidagi yangi islohotlar sanaladi. Bu islohotning oldiga qo‘yan eng asosiy vazifasi bu sifatlari kadrlar, yetuk mutaxassislarni tayyorlash masalasi hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasasiga kirgan har bir talaba ham o‘zi egallamoqchi bo‘lgan kasbi, mutaxassisligi va bu kasb-mutaxassislikni egallash jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi, deb aytga olmaymiz. Uning nazarida “o‘qishga kirildi – bo‘ldi, qolgan hammasi silliqqina ketaveradi” ganday tuyuladi. Ammo o‘qish faoliyatining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda o‘ziga yarasha qiyinchiliklari, o‘ziga xos muammolari ham mavjud bo‘lib, ular ne-ne orzu-havaslar bilan o‘qishga kirgan talabaning qarshisidan o‘quv faoliyati jarayonida ketma-ket yoki birvarakayiga chiqaveradi.

Demak, oliy ta’lim muassasasining 1-bosqichidagi har qanday talaba o‘qishning dastlabki davridanoq talabalikning o‘ziga xos “to‘siq”lariga duch kela boshlaydi. To‘siqlarning yuzaga kelishi esa aksariyat talabalarda, psixologik atama bilan aytilda, frustratsion holatni yuzaga keltiradi. “Frustratsiya” tushunchasi psixologik adabiyotlarda odatda ikki xil ma’noda qo‘llaniladi. Bu borada ish olib borgan olimlardan biri Y. P. Ilin frustratsiyani ikki xil ma’noda izohlaydi: 1. Zarur va shaxs uchun e’tiborga ega bo‘lgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni to‘xtatish (frustrasion vaziyat). 2. Insondagi biror-bir kuchli ehtiyojning qondirilmasligi, omadsizlik yoki shaxsning atrofidagi kimningdir ta’na-malomati ta’sirida kelib chiqadigan emotsiyonal holat. Lotincha “frustratio” umidlar, rejalar, o‘ylarning barbod bo‘lishini anglatadi. Kognitiv-xulq-atvor nazariyasi fikrlar hissiyotlar va xatti-harakatlarga ta’sir qiladi, deb ta’kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, frustratsiyani salbiy talqin qiladigan odamlar qiyinchilikni boshdan kechirishlari va samarali kurasha olmasliklari mumkin. Kognitiv qayta qurish jarayoni odamlarni frustratsiyaga uchragan vaziyatlar haqida o‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqishga o‘rgatish va shu bilan ularning frustratsiyaga chidamliligini oshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv ularga qiyinchiliklarni yengib bo‘lmaydigan to‘siqlar emas, balki o‘sish imkoniyatlari sifatida ko‘rish imkoniyatini beradi.

Zigmund Freydning asarlaridan kelib chiqqan psixodinamik nuqtayi nazar, hal qilinmagan nizolar va bostirilgan his-tuyg‘ular frustratsiyaga chidamlilikning pastligiga hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rsatadi. Frustratsiyani yengish uchun kurashayotgan odamlar o‘tmishdagi his-tuyg‘ularni olib yurishlari mumkin. Shu sababli, psixodinamik terapiya odamlarga ushbu his-tuyg‘ularni qayta ishlashga yordam berish, o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish va oxir-oqibat ularning frustratsiyaga chidamliliginini oshirishga qaratilgan. Rivojlanish psixologiyasi frustratsiyaga chidamlilikni shakllantirishda bolalik tajribasining rolini ta’kidlaydi. Jon Boulbi tomonidan taklif qilingan bog‘lanish nazariyasi erta bolalikdagi xavfsiz qo‘shilish hissiy tartibga solish uchun asos bo‘lishini taklif qiladi. O‘zini xavfsiz va qo‘llab-quvvatlanadigan bolalar keyinchalik hayotda frustratsiyaga dosh berish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish ehtimoli ko‘proq. Aksincha, nomuvofiq yoki e’tiborsiz g‘amxo‘rlikni boshdan kechirayotgan bolalar kattalardek frustratsiyaga chidamlilik bilan kurashishlari mumkin. Moslashuvchanlik nazariyasi qiyinchiliklarga moslashish qobiliyatiga qaratilgan. Chidamlilik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, yengish strategiyalari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari va o‘z-o‘zini samaradorligini rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi. Yuqori chidamlilikka ega bo‘lgan odamlar odatda ko‘ngilsizliklarni yengish, moslashuvchanlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini namoyish qilish uchun yaxshi jihozlangan. Ehtiyojkorlik amaliyotlari va hissiy aqlni o‘rgatish kabi chidamlilikni rivojlantiruvchi tadbirlar frustratsiyaga chidamlilikni oshirishga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin.

Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Sog'lom ruhiyat egasi bo'lgan yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, bu boradagi ishlarning samarali yo'llarini izlab topish esa yoshlarning o'zligini anglashi, ularning komilligi, axloq-ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati bilan bog'liqidir. Odamning o'z-o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlar, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni ijtimoiy xulq-shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borishni ham taqozo etadi. Chunki inson o'zini to'la anglamay turib, o'z shaxsiy «Men» bilan kelishmay turib, o'zga insonni anglashi, o'zgalarining hissiy kechinmalarini ichdan kechirishi mumkin emas.

Shaxsning o'z-o'zi bilan kelisholmay qolishining yaqqol ko'rinishini ekzistensial psixologiyaning asosiy g'oyasi bo'lgan ekzistensial frustratsiya, mazmuniy bo'shliq misolida ko'rish mumkin. Shaxsda mazmuniy bo'shliq, vakuum paydo bo'ldimi, unda hayotga muhabbat, maqsad sari intilish, faollik so'nadi, hissizlik, emotsiyonal sovuqlik, befarqliq paydo bo'ladi. Shuning uchun yoshlarni o'zini-o'zi anglash, o'z tasavvurlariga ega bo'lish, o'z ruhiyatida «ichki tartib-intizom»ni joriy etish va shu asosda o'zini-o'zi ruhiy-ma'naviy jihatdan tarbiyalay olishga o'rgatish lozim. Chunki shaxs ma'naviyati rivoji avvalo o'zini-o'zi anglash, keyinchalik o'z manfaatini anglash va niroyat jamiyatni tanish bosqichlarini taqozo etadi. Insonning jamiyatni anglashi -bu uning milliy o'z-o'zini anglashidir. Milliy o'z-o'zini anglash insonning ijtimoiy etnik umumiyligka mansubligida, ijtimoiy sohadagi munosabatlarda o'z millatining egallagan mavqeyini yaqqol tasavvur qilganida, milliy manfaatdorligida namoyon bo'ladi. Milliy o'z-o'zini anglashning qator obhektiv va subhektiv omillari mavjud. Bulardan biri milliy tuyg'u bo'lib, u insonning shaxslararo munosabat jarayonida hissiy ta'sirlanishida, yuksak ma'naviy ichki tug'yonlarda, ijodiy g'oyalar tug'ilishi kabi kechinmalarda aks etadi. Milliy o'zlikni anglash «Men» dan boshlanib, real «Men», o'tmishdagi «Men», hozirgi «Men», kelgusi «Men», ideal «Men», dinamik «Men» ko'rinishlarida o'z ifodasini topadi.

Shaxsda o'z-o'zini anglashning ko'rinishlari o'rin almashib boradi, chunki o'zining yaqin o'tmishini baholash, hozirgi davrdagi, kundagi hayot faoliyatida imkon boricha qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, muvaffaqiyatga erishishning ustivor yo'llarini tanlash, o'z imkoniyatini tashxis qila olishgina kamolot sari yetaklaydi. Psixologiyada inson shaxsi bilan bog'liq tushunchalar ichida «Men -konsepsiya» tushunchasi alohida o'rin tutadi. Bu tushuncha shaxsning boshqalar bilan munosabatini belgilab beradigan o'zi haqidagi tasavvurlar to'plamidan iborat, deb izohlanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida esa «Men -konsepsiya» yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi, chunki pedagog-o'qituvchi yoshlarga o'zi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib baho beradi, ularga o'zi o'zlashtirgan tajribani uzatadi, singdiradi. Agar o'qituvchi ijobiy «Men -konsepsiya»ga ega bo'lsa, ya'ni unda shaxsiy to'laqonlik hissi mavjud, yetarlicha emotsiyonal barqaror va yetuk bo'lsa, unda bunday o'qituvchining yoshlar bilan munosabati faqat ijobiy tasavvurlar asosiga quriladi, o'qituvchi yoshlardan o'ziga nisbatan salbiy munosabatni kutmaydi, chunki bunday o'qituvchida o'z-o'zini baholash bilan bog'liq muammo bo'lmaydi.

O'z-o'zidan mahlumki o'qituvchining ijobiy «Men -konsepsiya»si talaba shaxsi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki inson yoshidan qat'i nazar o'z faoliyatiga nisbatan ijobiy baholashga ehtiyoj sezadi, bunday munosabat va ibrat esa talabada ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Talaba yoshlarning kelajakda yuqori saviyali, malakali mutaxassis bo'lib yetishishi, ixtisoslik bo'yicha barqaror malakalar va mustahkam bilimlar egallashi kelgusi «Men» bilan uzviy bog'liq ravishda amalga oshadi. Kelajakda o'z sohasining mahoratlari kishisi, tashabbuskor va tashkilotchi shaxs sifatida voyaga yetishi ko'p jihatdan ular tomonidan tanlangan ideal kasb egasi fazilatlarini qunt bilan o'zlarida shakllantirib borishga bog'liq. Bo'lg'usi mutaxassisning tinimsiz izlanishda bo'lishligi unda dinamik «Men»ni tarkib toptira boradi, ijobiy va sifat o'zgarishlarini oqilona nazorat qila olishi, to'g'ri baholay bilishi ushbu jarayonning asosiy mezoni hisoblanadi.

Ekstrapunitiv shakl shaxsda yuzaga keladigan agressiv reaksiyalar bilan bog'liq. Bunday holatda insonda jahldorlik, sabrsizlik, nima bo'lishidan qat'iy nazar belgilangan maqsadga erishish istagi paydo bo'lishi kuzatiladi. Insonning xulq-atvori primitiv, noelastik bo'lib, frustratsiya obyektiiga nisbatan, shu paytgacha o'zlashtirilgan xatti-harakat namunalari qo'llanadi. Masalan, bolalik chog 'ida ota-onaning bola tarbiyasi borasida o'zaro bir-birini ayblash holati bolalar ishtirokida sodir bo'lgan bo'lsa, bunday bolalarda aynan shunday reaksiya shakllanadi. Bunday insonlar frustrasjon to'siq yuzaga kelgan paytda buni vujudga kelgan vaziyatning ta'siri deb tushunadi hamda bu vaziyat va omadsizlikda o'zidan boshqa barchani

ayblaydi, agressiv tarzda reaksiya bildiradi. Frustasion holatda eng ko‘p uchraydigan reaksiya – bu agressiv xulq-atvordir. Bu reaksiya shunchalik ko‘p uchraydiki, AQSHdagi Yel universiteti professorlari shunga muvofiq quyidagi ilmiy farazni ilgari surdilar: har qanday frustratsiya shaxsni agressiyaga undaydi. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, frustrasion vaziyatda kuchsiz asab tizimiga ega insonlarda intrapunitiv shakl, kuchli asab tizimiga ega insonlarda esa ekstrapunitiv shakl kuzatiladi. Bunda insonning tarbiyalanganlik darajasi va frustrasion holatga bo‘lgan munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni kunda talabalar oddiy kuzatish asosida tahlil qilinadigan bo‘lsa, ularning aksariyatida frustrasion vaziyatlarda o‘zini tez yo‘qotib qo‘yish, muammoning yechimini topishga harakat qilmaslik va bu holatdan chiqib ketish yo‘llarini izlashda sustkashlikni ko‘rish mumkin. Buni bir tomondan, ularning turli xil tashqi ta’sirlar natijasida yengil-yelpi yashashga o‘rganib qolganligi va hayotiy qiyinchiliklarga bardosh berishdagi irodasizligi bilan bog‘lash mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularda bu boradagi psixologik bilim, ko‘nikma va malakalarining yo‘qligi bilan izohlash mumkin. Maqsadga erishish yo‘lida paydo bo‘lgan to‘siqlarni noto‘g‘ri idrok qilish va ularni “yengib bo‘lmas” deb tushunish, talabaning nafaqat ruhiy holatiga, balki uning o‘quv faoliyatiga, eng asosiysi, fiziologik salomatligiga ham salbiy ta’sir etadi. Bugungi kunda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash muhimligi hisobga olinsa, bu muammoning dolzarbliyi yana bir bor namoyon bo‘ladi. Shuni inobatga oлган holda, talabalarning bu boradagi psixologik savodxonligini oshirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Frustrasion vaziyatlarda pedagolarning vaziyatdan chiqib ketishni bilmasliklari, yuzaga kelgan muammolarning yechimini topa olmasliklari ayrim talabalarning nojo‘ya ta’sirlarga berilib ketishlariga ham olib kelishi mumkin. Frustratsiyaga nisbatan beqaror munosabatning yana bir salbiy ta’siri shundaki, bunday shaxslar stressga nisbatan ham beqaror, ya’ni chidamsiz munosabatda bo‘ladilar. Bunday hol esa shaxsning organizmiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu ilmiy asoslangan dalillardan kelib chiqib aytish mumkinki, talabalarning o‘quv jarayonida yuzaga keladigan frustrasion holatlarga bo‘lgan munosabati ularning stressga barqarorlik darajasining yuqori yoki past bo‘lishiga asoslardan biri bo‘ladi. Shuning uchun talabalar ongida o‘qish jarayoni davomida vujudga kelayotgan ijtimoiy va shaxsiy muammolarga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘la olish ko‘nikmamatkalarini shakllantirish lozim. Bu esa stressga barqarorlikni oshirishning eng yaxshi omillaridan biri bo‘la oladi. Bunday ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun talabalarda frustrasion holatlarga nisbatan shaxsiy tolerantlikni oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu o‘rinda frustrasion tolerantlik atamasiga ham izoh berib o‘tmoqchimiz. Frustrasion tolerantlik tushunchasini yoritish va bu boradagi tadqiqot ishlari S. Rozensveyg, N. D. Levitov, F. Y. Vasilyuk, I. P. Ilin, Y. N. Kulyutkin, R. P. Mirlud, R. I. Xmelyuk, Z. N. Kurlyand, N. A. Shevchenko, L. M. Mitina kabi mualliflarning ishlarida o‘z aksini topgan. Bu mualliflar o‘z ishlarida frustrasion tolerantlikni alohida tadqiqot predmeti sifatida qaramaganlar, ular stress, frustratsiya, frustrasion holatlar va bu jarayonda shaxs xulq-atvorining namoyon bo‘lishi borasida olib borgan ishlarida frustrasion tolerantlik muammosiga nisbatan munosabat bildirib o‘tishgan. Bu borada dastlab xorij psixologlari ish olib borganlar va ulardan S. Rozensveyg o‘zining frustratsiya haqidagi konsepsiysi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan frustrasion tolerantlik yoki frustrasion vaziyatlarda chidamlilik tushunchasini kiritgan. U bu tushunchani quyidagicha tushuntirgan: frustrasion tolerantlik individ frustratsiyani o‘zining psixobiologik moslashuviziz, ya’ni noadekvat javob reaksiyalariga murojaat qilmagan holda kechirishidir. Frustrasion tolerantlik muammosi bir qancha tadqiqotchilarning psixologik barqarorlik, emotsiyal barqarorlik kabi muammolar bilan bog‘liq ishlarida ham ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ular asosan frustrasion tolerantlik atamasini nazariy jihatdan tahlil etganlar. L. M. Mitina (1992)ning tadqiqotlarida frustrasion tolerantlik shaxsning ijtimoiy psixologik moslashuvi darajasi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Muallif bu muammoni o‘rganish barobarida frustrasion tolerantlik atamasining ma’nosini ham yoritishga harakat qilgan. Uning fikricha, frustrasion tolerantlik sifatida shaxsning turli xil hayotiy qiyinchiliklarga psixologik adaptatsiyani yo‘qotmagan holda turib bera olish qobiliyati yotadiki, uning asosida esa turli xil hayotiy vaziyatlarga nisbatan adekvat yondashuv va munosabat bildira olish qobiliyati mavjud bo‘ladi. L. M. Mitina frustrasion tolerantlik turlicha bo‘lishini ta’kidlagan. Ulardan birmuncha adekvatrog‘i frustratorning mavjud bo‘lishiga qaramasdan xotirjamlik, mulohazalilik kabi psixik holat hisoblanadi. Frustrasion tolerantlik istalmagan impulsiv reaksiyalarini ushlab turish uchun zo‘riqishlar va urinishlarda ham namoyon bo‘ladi. Frustrasion tolerantlikning ostonasi individuallikka ega bo‘lib, u xarakter va temperament xususiyatlari, o‘ziga baho berish, shaxsning ustunlik qiluvchi motivlari va etnik muhitning o‘ziga xosligi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Frustrasion tolerantlik hayot faoliyati jarayonida shakllanadi. Bu qiyin vaziyatlarni hal etishda to‘siqlar, murakkab vaziyatlarni o‘ziga xos holda yengib o‘tishdagi individual tajribaga asoslaniladi. Frustratsiyalovchi vaziyatlarni yengib o‘tishning o‘ziga xos yo‘li ko‘pgina holatlarda insonning xulq-atvorini belgilab beradi. Frustrasion holatdan chiqib ketish, ya’ni frustrasion tolerantlik pedagogdan bu vaziyatlarning yechimini

topish va o‘z hayoti, faoliyatida sodir bo‘lgan qiyinchiliklarga nisbatan yengilroq munosabat bilan qarashga intilish zaruriyatini talab qiladi. Pedagog bunday holatlarda sabr-toqat, chidam, aql bilan ish tutish, frustratsion vaziyatni ko‘rmaslik, ahamiyat bermaslikka harakat qilish kabi bir qancha psixologik omillardan foydalanadi. Lekin inson ruhiyatiga tegishli bo‘lgan bunday ko‘nikma va malakalar pedagoglarda o‘zidan-o‘zi paydo bo‘lmaydi. Ularni shakllantirish uchun pedagogdan bilim olish, kuzatuvchanlik, qo‘yilgan maqsadlar sari olg‘a borish kabi jihatlar talab etiladi.

Buyuk Suqrot o‘z falsafiy bahslarining birida o‘zlikni anglash haqida «avval o‘zingni bil» deb da‘vat qilgan edi. Demak, bilish jarayonida muhim bosqich yoki bilimning muhim ob‘ekti insonning o‘zidir. O‘zlikni anglash orqali insonning ma’naviyati shakllanadi. Psixologik bilimdonlik shaxsni o‘z-o‘zini qo‘lga olishga, o‘z-o‘ziga buyruq berishga, o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash va o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatadi. Talabaning o‘z-o‘zini idrok qilishini uni ijobjiy ishlarga yo‘naltirish orqali o‘stirish kerak. Bunda talaba ijobjiy tajriba orttirsin, ya’ni o‘ziga, oilasiga, guruhiga, jamoasiga manfaatli ish qilib, olqish olsin. Talabalarni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan manfaatdorligini oshirish lozim. Talabaning o‘zini shaxs sifatida anglashi, o‘z ijobjiy va salbiy sifatlarini tahlil qilishi, boshqa shaxslar ichida o‘z shaxsini alohida ajratish kabi muhim ijtimoiy-psixologik sifatlarini shakllantiradi. Bu esa shaxsda o‘z-o‘zini nazorat qilish tizimini yuzaga keltiradi. O‘zini anglagan inson o‘z manfaatlarini ham himoya qila oladi. O‘z manfaatlarini himoya qila olish o‘z fikri, huquqlari, talablarini ishonch bilan gapira olish va o‘zini hurmat qilishni anglatadi. O‘ziga ishongan odam har qanday hodisaga o‘z munosabatini ochiq va qathiy bayon qiladi. Ya’ni u o‘z xissiyotlari uchun mahsuliyatni o‘z zimmasiga oladi va boshqalarga ham nimani xis qilayotganligini anglata oladi. Bu xulqning normal usuli. Hammada ham atrofdagilar uchun befarq bo‘lmagan o‘z fikr, talab va huquqlar bor. Bularni hurmat qilishlariga erishishning yagona yo‘li - ularni shaxsning o‘zi himoya qila olishidir. O‘ziga ishongan odamlar o‘z shaxsiy ehtiyojlarini anglaydilar va ularni qathiy talab qiladilar. Shu bilan birga bunday odam boshqa odamning ham o‘z manfaatlarini himoya qilish huquqini tan oladi. Shuning uchun ham ular o‘z talablarini qo‘yishda odob doirasidan chiqishmaydi va atrofdagilarning talablariga ham hurmat bilan qarashadi. O‘ziga ishongan odamlar o‘z-o‘zlarini va atrofdagilar bilan samimiylar, halol munosabatda bo‘ladilar. Ular borliqni real idrok qiladilar, bo‘lib o‘tayotgan hodisalar haqida ularning ahamiyatini bo‘rttirmay va kamshitmay gapiradilar. Ular uchun muhimi illyuziyalar emas, reallikdir. Yetuk odam o‘zining va boshqalarning nimaga arzishini bilishni xohlaydi. Asosiy tamoyil -o‘zini yaxshi ko‘rsatishga intilmasdan tabiiy tutishdir. Egoist odam esa faqat o‘zi, o‘z ishlari bilan band, u aksariyat boshqalarni butunlay inkor qiladi. Hammamiz ham egoizm yomon, biringchi o‘ringa boshqalarning manfaatlarini qo‘yish kerak, deb o‘ylaymiz. Lekin odamning atrofdagilar haqida g‘amxo‘rlik qilish darajasi -maxsus falsafiy masala. O‘z manfaatlarini himoya qila olish esa o‘zimiz to‘la huquqimiz bo‘lgan narsani tan olish va talab qilish demakdir. O‘z manfaatlarimizga riyokorlik qilmaslik uchun biz doimiy biron narsadan voz kechamiz va natijada egoizmdan ham yomonroq bo‘lgan alptruist -boshqalar uchun o‘zini qurbon qiluvchiga aylanamiz. Bizni egoistlikda ayblamasliklari uchun biz nafaqat boshqalarning manfaatlarini biringchi o‘ringa qo‘yamiz, balki o‘zimizning qonuniy istaklarimizni ham qurbon qilamiz, natijada o‘z-o‘zimizni hurmat qilmay qo‘yamiz. Shunday bo‘lishi mumkinki, agar o‘zingizga yordam bera olmasangiz, xatto xohlaganingizda ham boshqalar haqida g‘amxo‘rlik qila olmay qolasiz. Xaqiqiy o‘zmanfaatlarini himoya qila olish halollik va atrofdagilarning huquqlarini hurmat qilish demakdir. Talabalik davrida o‘zini boshqarishning tarkibiy qismi, ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his tuyg‘ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o‘zligini anglash va barqaror e’tiqod shakllanadi. Shularni hisobga olgan holda talaba yoshlarning qiziqishlari, hayotiy muammolarini o‘rganib, ular o‘rtasida ko‘proq suhbat, badiiy kecha, uchrashuv va muloqotlarni uyuştirish, turli xil to‘garak, sport seksiyasi, ilmiy tadqiqot uyushmalarini ko‘paytirish, tanlov, anjuman, munozara, babs va boshqa ommaviy tadbirlarni tashkillash lozim. Chunki psixolog olim Jan Piajening fikricha, yoshlarning o‘z tengqurlari bilan turli mavzularda qiladigan munozara yoki bahslari, undagi egoistik, shaxsiyatparastlik mohiyatini susaytirib, o‘z-o‘zini anglash bilan bir qatorda o‘zgalarning mavqelarini anglash va o‘zida shaxsga xos sifatlarni ham o‘stiradi.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori, xususiyatlari, jamiyatdagi o‘rnini tasavvur qilishidan hosil bo‘lgan obraz -«Men» -obrazi bo‘lib, uning adekvatligi ya’ni haqiqatqaqanchalik yaqin bo‘lishishaxs barkamolligini belgilaydi. Insonning tarbiyalanganligi uning o‘zi va o‘z sifatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarga ega bo‘lishi natijasida namoyon bo‘ladi. Chunki har bir shaxsning o‘zligini anglashi jamiyatdagi mavjud normalarga zid harakatlar qilish ehtimolini kamaytiradi. O‘z -o‘zini anglash ko‘pincha shaxs tomonidan og‘ir kechadi, ya’ni inson tabiat shundayki, u o‘zidagi o‘sha jamiyat normalariga to‘g‘ri kelmaydigan, nomahqul sifatlarni angomaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongosti

sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko‘ra). Bu har bir shaxsdagi o‘z shaxsiyatini o‘ziga xos ximoya qilish mexanizmidir. Bunday ximoya mexanizmi shaxsni ko‘pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. O‘z-o‘zini anglash jarayoni shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalashi bilan uzviy bog‘liqidir. Shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalashida quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

1.O‘z-o‘zi bilan muloqot, bunda shaxs o‘zini tarbiya obhekti sifatida idrok etib, o‘zi bilan muloqotni tashkil etadi.

2.O‘z-o‘zini ishontirish, bunda shaxsning o‘z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonishi orqali, ijobjiy xulq normalariga bo‘ysunishi amalga oshadi.

3.O‘z-o‘ziga buyruq berish -bu tig‘iz va ekstremal holatlarda shaxsning o‘zini qo‘lga olishi va maqbul yo‘lga o‘zini chorlay olishi hisoblanadi.

4.O‘z-o‘ziga ta’sir etish -bunda shaxsning ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o‘zida ma’qul ustakovkalarni shakllantirishi amalga oshadi.

5.Ichki intizom -o‘z-o‘zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o‘zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat hisoblanadi.

Psixologiyada shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan «nazarat lokusi» nazariyasi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, har bir insonda ikki tipli mas’uliyat kuzatiladi. Birinchi tipli mas’uliyat shundayki, shaxs o‘zining hayotida ro‘y berayotgan barcha hodisalarining sababchisi, mahsuli sifatida faqat o‘zini tan oladi. Bular internallar bo‘lib, ular o‘zlariga ishonchning ortiqligi, maqsadga erishishda qat’iylik, o‘zini analiz qilishga moyillik, muloqotga kirishuvchanlik, odamlarga xayrixohlik va mustaqilligi bilan ajralib turadilar. Mas’uliyatlilikning ikkinchi turi barcha ro‘y bergen va beradigan voqeal, hodisalarining sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar deb hisoblaydigan eksternallarga xos bo‘lib, ular o‘zining imkoniyatlariga ishonmasligi, maqsadlarini aniq bo‘limgan muddatlarga surishi, ortiqcha hayajonlanishlari, shubhalanishlari, konformliliklari, aggressivliklari va og‘ir ruhiy kayfiyatga moyilliklari bilan ajralib turadi. Eksternallar ham ishlarini qat’iy reglamentga asoslangan holda muvaffaqiyat bilan bajara oladilar, lekin boshqa odamlar boshqaruvi ostida yaxshi bajaruvchanlik xususiyatini namoyon qiladilar.

Frustratsiyaga bardoshlilikning nazariy asoslarini tushunish ta’lim, ruhiy salomatlik va shaxsiy rivojlanishda amaliy foydaga ega.

### 1. Ta’limda [Сулим, Н. Н. (2009)]

O‘qituvchilar qat’iyatlilik va muammolarni hal qilishga undaydigan qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish orqali o‘quvchilarda frustratsiyaga chidamlilikni rivojlantirishi mumkin. Murakkab vazifalarga bosqichma-bosqich ta’sir qilish, o‘sish tafakkurini rag‘batlantirish va konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish kabi strategiyalarni amalga oshirish talabalarga frustratsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda hissiy tartibga solish ko‘nikmalarini va stressni boshqarish usullarini o‘rgatadigan dasturlar ham muhim rol o‘ynashi mumkin.

### 2. Klinik psixologiya fanida

Ruhiy salomatlik bo‘yicha amaliyotchilar turli nazariyalardan olingan ma’lumotlardan frustratsiyaga chidamliligi past bo‘lgan shaxslarga moslashtirilgan aralashuvlarni loyihalashda foydalananishlari mumkin. Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT) texnikasi, ongi rivojlantrish mashqlari va psixodinamik yondashuvlar asosiy muammolarni hal qilish va yengish strategiyalarini yaxshilash uchun terapevtik amaliyotlarga birlashtirilishi mumkin [Руденский, Е. Б. (2011)].

### 3. Shaxsiy rivojlanishda

Shaxslar o‘z-o‘zini aks ettirish va shaxsiy o‘sish faoliyati orqali frustratsiyaga chidamliligin oshirishi mumkin. Frustratsiya tug‘diradigan vaziyatlarga hissiy munosabatni hujjalash uchun jurnalni yuritish, namunalarni tanib olish va sog‘lom kurash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Ehtiyyotkorlik va stressdan xalos bo‘lish amaliyotlari bilan shug‘ullanish odamlarga o‘zlarining hissiy reaksiyalarini yanada samarali boshqarishga imkon beradi. Hozirgi davr pedagogikada ish faoliyati davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishga bo‘lgan ko‘nikma va malakalar qanchalik ko‘p bo‘lsa va ulardan pedagog o‘z ish faoliyati davomida ko‘proq foydalansa, uning mutaxassis bo‘lib shakllanishi ham shunchalik yengil kechadi, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki bunday ko‘nikma va malakalarini egallash uning oliy ta’lim muassasasida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun ham asos bo‘ladi. Muvaffaqiyatga intilgan va erishgan pedagogda esa asta-sekin o‘z-o‘zidan va egallayotgan kasbidan faxrlanish, kasbini sevish hislari vujudga keladi. Shunday ekan, bugungi kun pedagoglarda avvalo o‘z ish faoliyati jarayonida duch keladigan frustratsion vaziyatlarda tolerant bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun faqat uning o‘zi emas, balki barchamiz ham mas’ulmiz.

Frustratsiyaga chidamlilikni rivojlantirish muammosining talqini ko‘p qirrali bo‘lib, nazariy manbalar frustratsiyaning tabiatini va uning inson xatti-harakatlariga ta’siri haqida qimmatli tushunchalarni beradi. O‘qituvchilar, ruhiy salomatlik bo‘yicha amaliyotchilar va shaxslar frustratsiyaga chidamlilik bilan bog‘liq psixologik asoslarni tushunish orqali chidamlilikni rivojlantirish va hissiy tartibga solishni kuchaytirish strategiyalarini amalga oshirishlari mumkin. Ko‘ngilsizlikni inson tajribasining asosiy jihatni sifatida e’tirof etish konstruktiv javoblar va shaxsiy o‘sish uchun eshlarni ochadi, natijada ko‘proq moslashuvchan jamiyatni rivojlantiradi. Biz tobora murakkablashib borayotgan dunyonи kezib borar ekanmiz, frustratsiyaga chidash qobiliyati individual farovonlik va jamoaviy taraqqiyot uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Xulosa.** Turli xil nazariy linzalar orqali frustratsiyaga bardoshlilikni o‘rganish uning murakkabligi va inson xatti-harakati va shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi. Salbiy fikrlash modellarini qayta ko‘rib chiqishni qo‘llab-quvvatlaydigan kognitiv-xatti-harakat yondashuvlaridan tortib, hissiy tartibga solishning ildizlarini o‘rganadigan psixodinamik nazariyalargacha [Kumari, A., & Gupta, S. (2015)], har bir ramka frustratsiyaga chidamlilikni qanday rivojlantirish mumkinligi haqidagi tushunchamizni boyitadi. Bundan tashqari, rivojlanish psixologiyasi va chidamlilik nazariyasidan olingan ma’lumotlar frustratsiyani boshqarish qobiliyatini shakllantirishda erta hayot tajribasi va moslashuvchan kurash strategiyalarining muhim ta’sirini ta’kidlaydi. Frustratsiyaga nisbatan bag‘rikenglikni rivojlantirish shunchaki individual harakat emas; Bu ta’lim amaliyotlari, ruhiy salomatlik aralashuvi va hatto jamiyatning umidlari uchun kengroq ta’sir ko‘rsatadi. Frustratsiyani inson tajribasining ajralmas qismi sifatida tan olsak, biz chidamlilik va moslashuvchanlikni rivojlantiradigan muhitni targ‘ib qila olamiz. O‘qituvchilar, ruhiy salomatlik bo‘yicha mutaxassislar va shaxslar ushbu muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalarni yaratish uchun hamkorlik qilishlari kerak [ Şterbet, R., & Potâng, A. (2024)]. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, frustratsiyaga chidamlilikni oshirish shaxsiy o‘sishga, hissiy barqarorlikka va muammolarni samarali hal qilishga erishish uchun muhim izlanishdir. Frustratsiyaga chidamlilikning nazariy talqinlari hayotdagи qiyinchiliklarga dosh berish qobiliyatimizni oshiradigan strategiyalar va aralashuvlar haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Biz bu ko‘nikmalarni rivojlantirar ekanmiz, biz nafaqat farovonligimizga hissa qo‘shamiz, balki qiyinchiliklarda gullab-yashnashi mumkin bo‘lgan yanada chidamli va moslashuvchan jamiyatga yo‘l ochamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Цуканова, А. П. (2006). Толерантность в структуре социально-психологической адаптации личности: автореферат дисс.... канд. психол. наук: // Российская государственная библиотека.
2. Сулим, Н. Н. (2009). Социально-психологические особенности формирования организационной культуры предприятия. Дисс... канд. психол. наук. Белгород: Белгородский ГУ.
3. Руденский, Е. В. (2011). Педагогическая социология как теоретическое основание конструктивистской педагогики профессионального образования. Профессиональное образование в России и за рубежом, (3), 16-25.
4. Kumari, A., & Gupta, S. (2015). A study of emotional intelligence and frustration tolerance among adolescent.// Advance research journal of social science, 6(2), 173-180.
5. Şterbet, R., & Potâng, A. (2024). Comparative analysis of gender-related differences in frustration tolerance levels among early school-age children.

*Xudoyqulova Nazokat Rajab qizi,  
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli  
kadrlar tayyorlash instituti  
«Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» yo'nalishi 3 -bosqich tayanch doktoranti*

**NOQONUNIY OILAVIY MUNOSABATLARNING KELIB CHIQISHINI TADQIQ  
ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MASALALARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola noqonuniy oilaviy munosabatlar kelib chiqishini tadqiq etishning ijtimoiy-psixologik masalalari mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola matnida noqonuniy oilaviy munosabatlar va unga sabab bo'luchchi psixologik omillar, er-xotin o'rtasidagi xiyonat, oilaviy hayotda sevgi va muhabbat, oilaviy ajrimlarga sabab bo'luchchi holatlar, xiyonat va uning sabab -oqibatlari to'g'risidagi turli mutaxassis tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari, nikohdan tashqari munosabatlar va uni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy omillar, er-xotin o'rtasidagi hissiy yaqinlik kabi masalalar ham batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, noqonuniy oila, xiyonat, er-xotin, munosabat, yoshlar, ajrim, sevgi, nafrat, hissiy yaqinlik, empatiya, qo'rquv, qasos, xarakterologik sifatlar, nikoh.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОИСХОЖДЕНИЯ  
НЕЗАКОННЫХ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ**

**Аннотация.** Данная статья посвящена социально-психологическим аспектам исследования возникновения незаконных семейных отношений. Также в тексте статьи подробно освещены незаконные семейные отношения и психологические факторы, их вызывающие, супружеская измена, любовь и привязанность в семейной жизни, обстоятельства, приводящие к семейным разводам, измена и её причины и последствия. Рассмотрены мнения различных специалистов-исследователей о внебрачных отношениях и социальных факторах, их вызывающих, а также об эмоциональной близости между супругами.

**Ключевые слова:** семья, незаконная семья, измена, супруги, отношения, молодёжь, развод, любовь, ненависть, эмоциональная близость, эмпатия, страх, месть, характерологические качества, брак.

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL STUDY OF THE ORIGIN OF ILLEGAL FAMILY  
RELATIONS**

**Abstract.** This article examines the socio-psychological aspects of illegal family relationships. The text provides a detailed analysis of illicit family relations and the psychological factors that contribute to them, including marital infidelity, love and attachment in family life, circumstances leading to divorce, infidelity and its causes and consequences. The article considers the views of various researchers on extramarital affairs and the social factors that give rise to them, as well as the emotional intimacy between spouses.

**Keywords:** family, illegal family, infidelity, spouses, relationships, youth, divorce, love, hatred, emotional intimacy, empathy, fear, revenge, character traits, marriage.

**Kirish.** Oila – hayot abadiyligi va avlodlar davomiyligini ta'minlovchi qadriyatlar beshigi, kelajak nasllar uchun betakror tarbiya qo'rg'onidir. Shu bois, oila xalqimizda qadim zamonalardan muqaddas sanalib kelingan va shunday bo'lib qoladi. Zero, xalqning, millatning kelajagi aynan oila bilan chambarchas bog'liq. Chunki har bir inson oilada tug'iladi va voyaga yetadi. Har bir bolaning kelajakda kim va qanday inson bo'lib kamol topishida oila muhim o'rin tutadi.

Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligi hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi.

Ma'lumki, oila qurish jamiyatdagi har bir fuqaroning eng muhim hayotiy ehtiyojlaridan biridir. Nikohga tayyorlik esa, erkak va ayol o'rtasidagi o'zaro simpatik munosbatlarni ham mehr-muhabbatni o'z ichiga oladi. Sevgi bu nafaqat tuyg'u, balki boshqa odamni sevish qobiliyati, shuningdek, sevilish imkoniyati hamdir. Ammo ba'zida, sevgi kabi eng kuchli tuyg'u ham insonni vasvasadan to'xtata olmaydi va inson unga ongli ravishda bo'ysunadi. Oxir -oqibat esa, inson zino deb ataladigan "gunoh yo'liga" o'tadi. Hozirgi kunda turmush o'rtoqlardan biri yoki ikkalasi ham bir-birini aldagani oilalarni ko'p uchratish mumkin. Ya'ni

hayotning tez sur’ati, ishdagi va oiladagi muammolar, er yoki xotinni yangi taassurotlar, yangi his-tuyg‘ular, tajribalarni “izlashga” undaydi. Mehr-muhabbat, sadoqat, bir-biriga hurmat afsuski, bugungi ayrim zamonaviy oilalar uchun begona bo‘lib bormoqda. Bunday vaziyatlarning barchasi oilaviy munosabatlarning izdan chiqishiga, zinoga qo‘l urishga va ajrimlarning sonini ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Mohiyatan, zino qilish oilaviy hayotni izdan chiqaruvchi va o‘zaro munosabatlarni buzuvchi noxush holatlardan biridir. Ko‘plab yosh olilalar biri-biriga xiyonat qilish, noqonuniy oila qurish oqibatida, ajrimlarni boshdan kechirmoqda. Shu bois ham, noqonuniy nikoh va zinoga yo‘l qo‘yish holatlari ko‘plab mutaxassislar e’tiborini tortib kelmoqda. Misol uchun, psixologiya, tibbiyat, sotsiologiya, falsafa va pedagogika fanlarida, mazkur muammo yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, psixolog mutaxassislar va shifokorlar nikohdan tashqari munosabatlarni, hozirgi farovon hayot uchun tabiiy va odatiy hodisa deb hisoblamoqdalar. Turli oilalarda turmush o‘rtog‘ining xiyonatiga bo‘lgan munosabat, ko‘proq er va xotinning xarakteriga, ularning o‘zaro munosabatlariga bog‘liqligi ta’kidlanadi. S.Kratoxvelning fikriga ko‘ra, yolg‘onchi er yoki xotinlar o‘z juftlaridan topa olmaydigan mehr va e’tiborni yangi jinsiy sherikdan qidirishga intiladilar. Ba’zi zamonaviy psixologik adabiyotlarda qayd etilishicha, noqonuniy oilaviy munosabatlarga kirishishning sabablari turlicha sanalib, ushbu masalani tadqiqotchi D.Yenikeyeva quyidagicha tasniflashga harakat qilgan

– Yangi sevgi. Bunday holat sevgi ahamiyatsiz bo‘lgan yoki umuman yo‘q bo‘lgan oilalar uchun xosdir.

– Qasos - bu er -xotindan birining xiyonati uchun qilingan qasos olish istagi;

– Parchalangan sevgi - bu oilada er -xotin o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning yo‘qligi, javobsiz his-tuyg‘ular orqali kelib chiquvchi holatdir.

– O‘zaro munosabatlar mumkin bo‘lgan, boshqa hamkorlikda sevgini topish. Ba’zida xiyonatkor shaxsning o‘zi yangi sherikni yoqtirmaydi, lekin uning his-tuyg‘ulariga javob beradi.

– Kompensatsiya hissi - nikoh xiyonati yordamida ular uzoq vaqt ajralish, turmush o‘rtog‘idan birining kasalligi hamda oilaviy hayotda sevgi munosabatlarining yetishmasligini qoplashga harakat qilishadi.

– Oilaviy munosabatlarning to‘liq buzilishi- xiyonat - bu yangi oilani yaratishning haqiqiy natijasi bo‘lib, ular uchun birinchi oilaviy munosabat yaroqsiz deb qabul qilinadi.

– Tasodifiy munosabatlar - mastlik, noqonuniy munosabatlarga qiziqish, qulay vaqtidan foydalanish va hokazo.

Oilashunos tadqiqotchi O.Karabanovaning aniqlashicha, noqonuniy oila qurish va nikohdan tashqari munosabatlar kelib chiqishi va uning sabalarini uchta katta guruhga bo‘lish mumkin

1.Nikoh sheriklarining individual xususiyatlari:

- turmush o‘rtog‘ining gender roli yoki uning identifikatorini buzish, uni iloji boricha ko‘proq, jinsiy aloqaga moyilligini isbotlashga majburlash;

- turmush o‘rtoqlarning patoxarakterologik shaxsiy xususiyatlari.

2. Mikro omillar:

- nikoh munosabatlarining buzilishi;

- nikohdagi nomuvofiqlik (birinchi navbatda jinsiy nomuvofiqlik);

- turmush o‘rtoqlar o‘rtasida hissiy yaqinlikning yo‘qligi;

- bir sherikning boshqasidan yetkazilgan azob uchun olgan qasosi;

- oilaviy hayotda o‘zaro his-tuyg‘ularning yo‘qligi;

- turmush o‘rtoqlarning bir-biridan umidsizlikka tushishi;

- kasallik yoki sherikning uzoq vaqt yo‘qligi.

3. Makro omillar:

- oilaviy ssenariylarni yangilash;

- avlodlar o‘rtasidagi norasmiy an'analar va boshqalar.

Mutaxassis S.Peydjning so‘zlariga ko‘ra, agar turmush o‘rtoqlardan birining jinsiy ehtiyoji yetarli darajada qondirilmasa, bu keyinchalik zino qilishga sabab bo‘lishi mumkin. Muallifdan farqli o‘larоq, A.Taradanova ham o‘z izlanishlarida, erkaklar va ayollardagi aldash motivi namoyon bo‘lishiga alohida e’tibor qaratib, oxir-oqibat aldash motivi va uning gender o‘ziga xosliklari bo‘yicha, qiziqarli natijalarini qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lgan. Muallifning yozishicha, erkaklar buni ko‘pincha jinsiy ehtiyoj bilan izohlashadi. Ko‘pincha, muloqotning hissiy yoki ma’naviy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan bu ehtiyoj tasodifiy, notanish sheriklar bilan yoki qisqa muddatli “o‘tkinchi” munosabatlar orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatib o‘tishgan. Boshqalar esa, uzoq vaqtidan beri tanishlar, hamkasblar, jamoadagi xotinlar bilan bilan bog‘liq sabablarni keltirib o‘tishgan. Shuningdek, er yoki xotinning muntazam xizmat safarida bo‘lishi,

ta’tilga ketish va boshqa omillar ham noqonuniy munosabatlar kelib chiqishining muhim omillaridan biri ekanligi qayd etilgan. Ba’zi tekshiruvchilar “xiyotnat”ni turmush o’rtoqlarining kasalligini sabab qilib, uning o’rniga vaqtinchalik o’rnbosar izlash deb hisoblashgan. Ayrim tekshiruvchilar esa, alkogolizm va ichkilikka ruju quyish holatlarini nikohdan tashqari munosabatlarga sabab bo’luchchi omil sifatida ko’rsatib o’tishgan. Umuman olganda, nikohdan tashqari munosabatlar bilan shug’ullanadigan har o’n erkakdan biri, xiyonatni qiziquvchanlik orqali amalga oshishi mumkinligini belgilashgan.

Tadqiqotchi N.Kochelaeva izlanishlariga ko’ra, amerikalik erkaklarning aksariyati nikohning 14-yilda yoki 40 yoshga yaqinlashganda, bir-birlarini aldashlari mumkin ekan. Shuningdek, muallifning xulosalariga ko’ra, erkaklarning xiyonatiga quyidagilar sabab bo’ladi.

– Xotinning homiladorligi;

– Bolaning tug‘ilishi, ayol vaznining normadan oshib ketishi. Agar to‘ydan keyin xotinining vazni ko‘paysa, ko‘pchilik erkaklarning jahli chiqishi qayd etilgan. Misol uchun, amerikalik erkaklar, xuddi rus erkaklari kabi, nikohdan tashqari munosabatlarini hissiy emas, balki jinsiy aloqa sifatida qabul qilar ekan. Demak, oilaviy hayotda bir-birini aldash ko‘pincha, yaqinlik qilish bilan bog‘liq nevrotik qo‘rvunni boshdan kechirishi mumkin ekan. Bu esa, ikki tomonlama munosabatlarda bo‘lishga qodir bo‘lmagan erkakni bir ayol bilan, keyin esa, boshqasi bilan bo‘lishga majbur qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Quyida mazkur masalaga doir, amalga oshirilgan empirik tadqiqotimizdan ayrim jadval natijalari va ularning tahliliga e’tibor qaratishga harakat qilamiz.

Oilaning mohiyati uning munosabatlarda aks etgan bo‘lib, faqat o‘zaro hamkorlik, oila a’zolarining bir-birlariga munosabatlari asosida quriladi va oiladagi muhit uning munosabat mohiyatini anglatadi. Barcha ishlar, oilaning o‘zaro tuzilmasi uning oldidagi vazifalarni bajarishga bog‘liq. Er-xotinning o‘zaro hamkorligi, bir-birini tushinib, barcha ziddiyatlarni yaxshilik yo‘li bilan hal qilish, barcha oilaviy vazifalarni ijobjiy hal etishda omil bo‘ladi.

#### 1-jadval.

**Rokichning qadriyatlar darajasi so’rovnomasi ko’rsatkichlari  
(Man-Uitnining U-statistik mezoni bo'yicha)**

Shkalalar	Guruuhlar		U	P
	Erkaklar	Ayollar		
Terminal qadriyatlar	169,6	144,1	9354,0	0,050*
Instrumental qadriyatlar	156,3	158,2	9468,0	0,347

Izoh: \* – p ≤ 0,05; \*\* – p ≤ 0,01

Qadriyatlar inson amaliy faoliyati davomida vujudga keladi. Qadriyatlarni vujudga keltiruvchi omillardan biri insonning kelajakka yo‘naltirilgan maqsadli faoliyatidir. Maqsad bu inson yaqin kelajakda bajarishni rejalashtirgan faoliyat to‘g‘risidagi tasavvur bo‘lib, unga erishish yo‘lida to‘siq bo‘lgan qiyinchiliklar ushbu tanlangan maqsad qimmatini oshirib, shaxs uchun qadrli hodisaga aylanadi. Bu jarayonda shaxs qanday yo‘llar bilan bo‘lsa ham maqsadiga erishish uchun harakat qiladi. Agar bunday voqelikda shaxs o‘z individual mayllarini ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirmasa, qadriyat obyektiv mazmunini yo‘qotib, subyektivlashadi. Rokichning qadriyatlar darajasi so’rovnomasi ko’rsatkichlari bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijalari shuni ko’rsatadiki, qonuniy nikohda bo‘lmagan er-xotinlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiqotning asosiy jihatlarini qamrab oladi. Shu jihatdan olib qaralganda, er-xotinlarning Rokich so’rovnomasi uchta hududda istiqomat qiluvchi oilalarda quyidagicha natijalarni aks ettirgan. Terminal qadriyatlar shkalasiga ko’ra, erkaklar 169,6 va ayollarda 144,1 ko’rsatkichlarni hamda 0,050\* bilan o‘rtacha tafovutni keltirib chiqargan. Keyingi instrumental qadriyatlar shkalasi esa erkaklarda 156,3 va ayollarda 158,2 natijalar bilan o‘rtachadan pastroq farqlarni qayd etgan.

Qadriyatlar olami pluralistik mohiyatga egadir. Shaxs hayotining barcha sohalarini ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu jarayonda an’ana va jamiyat o‘zaro uyg‘undir, har bir ijtimoiy taraqqiyot o‘z an’ana va axloqi asosiga quriladi, ushbu qoida har bir jamiyat davomiyligini belgilovchi mezon hisoblanadi. XX asrning oxirlariga kelib, fan sohalaridagi ulkan yutuqlar, ma’lum ma’noda ularning oqibati sifatida paydo bo‘lgan global muammolar umumsayyoraviy tafakkur zaruratini taqozo etadi. Qadriyatlar garchi ob’ektiv mohiyatga ega bo‘lsa-da, mavhumdir. Ularni real borliqda in’ikos etishi inson omili bilan bog‘liq. Shu ma’noda qadriyatlar ijtimoiy ongda turlicha anglanadi.

Umuman olganda, noqonuniy oila qurish yoki xiyonat qilish faqatgina oilaviy ajrimlarni yuzaga keltirib qolmasdan balki oilaviy nizolar, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar, inqirozlar, suitsid boshqa salbiy holatlarga ham olib kelishi tabiiydir. Va yuqoridaq holatlardan kelib chiqib muammo yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Birinchidan, zino oilaning yaxlitligiga tahdid soladi, barqror oilaviy munosabatlarni izdan chiqaradi.
- Ikkinchidan, nikoh munosabatlarning buzilishi, oilaviy hayotning boshqa jabhalariga o‘tib, hissiy, kundalik, iqtisodiy va hatto ota-onha va bola munosabatlariga salbiy ta’sir etadi.
- Uchinchidan, xiyonat qilish er-xotin o‘rtasidagi sevgi, empatik munosabatlarni izdan chiqarib, farzandlar psixikasiga ham katta ta’sir etadi.
- To‘rtinchidan, nikohdan tashqari munosabat turmush o‘rtoqlardan birining sha’ni va qadr-qimmatiga, obro‘siga ham salbiy ta’sir qiladi.
- Beshinchidan, xiyonatdan jabrlangan er yoki xotindan birida og‘ir psixologik travma, psixogen depressiya, va o‘z-o‘zi boshqarishdagi buzilishlar, o‘z joniga qasd qilish, tajovuzkorlik, zo‘ravonlik hattoki, qotillik hissi kabi xulq -atvor sifatlari yuzaga kelishi mumkin ekan.

**Adabiyotlar:**

1. Кратохвель С. Психотерапия семейно-сексуальных дисгармоний.: Пер. с чешского.- М: Медецина,1991. – С.47.
2. Еникеева Д. Несчастливый брак / Д.Еникеева. – М.: «РИПОЛ КЛАССИК», 1998. – С.52.
3. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования / О.А. Карабанова. – М.: Гардарики, 2006. –С.25 -27.
4. Пейдж С. Супружеская жизнь: путь к гармонии / С.Пейдж. – М.: Мирт, 1995. –С.63.
5. Тараданов А.А. Семейное благополучие в современной России: генезис и практика: автореф. дис. канд. социолог. наук. – Екатеринбург, 2004. –С.8-9.
6. Кочелаева Н.В. Психология семьи / Н.В.Кочелаева. – Саранск: «Красный Октябрь», 2004. – С.96.



**Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi,**  
«International School of Finance Technology and Science» instituti  
Psixologiya va pedagogika kafedrasи o'qituvchisi  
dildorichkaygiboyeva98@gmail.com

## KO'P BOLALI OILALARDAGI OILAVIY HAYOTDAN QONIQISH DARAJASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Oilaning o'ziga xosligi shundaki, u inson hayotining deyarli barcha jahbalarini qamrab oladi va ijtimoiy amaliyotning barcha darajalariga yetadi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida ko'p bolali oila ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy institut sifatida oilaga nisbatan qadriyat yo'nalishlari va ustuvorliklarining o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan inqiroz holatida degan qarashlar mavjud. Oila o'zida iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va jismoniy xavfsizlik va uning a'zolari uchun murakkab ijtimoiy-madaniy hodisani ifodalaydi. Maqolada ko'p bolali oilalardagi oilaviy hayotdan qoniqish darajasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ko'p bolali oila, shaxslararo munosabatlar, ota-onalik, modernizatsiya, tizimli yondashuv, strukturaviy tahlil, metodologik muammolar, oilaviy hayotdan qoniqish, juftliklar konkordantligi.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УРОВНЯ УДОВЛЕТВОРЁННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ В МНОГОДЕТНЫХ СЕМЬЯХ

**Аннотация.** Уникальность семьи заключается в том, что она охватывает практически все аспекты жизни человека и распространяется на все уровни социальной практики. На современном этапе развития существует мнение, что многодетная семья находится в кризисном состоянии, возникшем в результате изменения социально-экономических и общественных условий, а также ценностных ориентаций и приоритетов по отношению к семье как социальному институту. Семья представляет собой сложное социокультурное явление, обеспечивающее экономическую, социальную, психологическую и физическую безопасность для её членов. В статье рассматриваются социально-психологические особенности уровня удовлетворённости семейной жизнью в многодетных семьях.

**Ключевые слова:** многодетная семья, межличностные отношения, родительство, модернизация, системный подход, структурный анализ, методологические проблемы, удовлетворённость семейной жизнью, конкордантность пар.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LEVEL OF SATISFACTION WITH FAMILY LIFE IN FAMILIES WITH MANY CHILDREN

**Abstract.** The uniqueness of the family is that it covers almost all aspects of human life and reaches all levels of social practice. There are views that at the present stage of development, a large family is in a state of crisis as a result of socio-economic and social conditions, changes in value orientations and priorities in relation to the family as a social institution. The family represents a complex socio-cultural phenomenon, both economic, social, psychological and physical security for its members. The article discusses the socio-psychological characteristics of the level of satisfaction with family life in large families.

**Keywords:** large family, interpersonal relationships, parenthood, modernization, systemic approach, structural analysis, methodological problems, satisfaction with family life, concordance of couples.

**Kirish.** Zamonaviy ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etishning muhim tendensiyasi bu oilada sodir bo'layotgan jarayonlarning mohiyatini ochib beradigan yangi uslubiy asoslarni izlash hisobanadi. Bu ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan bir qator holatlar va shunga mos ravishda oila instituti uchun ziddiyatlari va noaniq oqibatlarni tushunish zarurati bilan bog'liq. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar dinamik ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ishlaydigan o'z-o'zidan rivojlanadigan mikroijsitmoi tizim sifatida ham tadqiq etiladi. Ko'p bolali oilalarni voqelik sifatida tahlil qilish bizga kamida ikkita muammoni hal qilish imkonini beradi. Birinchisi, oilaviy munosabatlarni tamoyillar nuqtayi nazaridan oilani o'zini-o'zi rivojlantirish mexanizmi sifatida tahlil

qilish hamda jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi sharoitida oila rivojlanishini optimallashtirishning tashqi mexanizmlarini aniqlash. Ikkinchisi - oilaning mehnat salohiyatini shakllantirish uchun motivatsiya tizimini ochib berishdir.

Ayni paytda jahonda oila instituti ma'lum o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, ushbu jihat so'nggi o'n yilliklarda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar ham asosan shaxs psixologiyasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Jamiyat darajasida oilada sodir bo'layotgan o'zgarishlar oilaning qadr-qimmatini ma'lum darajada yo'qotishini ifodalovchi ajralishlarning ko'payishi, yetim bolalarning tarqalishi, ixtiyoriy nikohsizlik, to'liqsiz oilalarning vujudga kelishi kabi salbiy hodisalar dinamikasida namoyon bo'ladi. Oila darajasida mazkur o'zgarishlar oilaviy funksiyalarni bajarish tabiatida va oila ichidagi munosabatlarning xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shaxs darajasida birinchi navbatda, shaxsning oilaga bo'lgan munosabati xususiyatlarida qayd etilishi mumkin. Jamiyatni modernizatsiya qilish tendensiyalari XX asrning oxiriga kelib, dunyoning sanoat mamlakatlarida katta oilaning yo'q qilinishiga yordam berishi natijasida oilaviy sivilizatsiya inqirozi boshlandi. Jamiyatning agrar ishlab chiqarish turi va oila faoliyati barbob bo'ldi. Mashinalar, asbob-uskunalar, kompyuter texnologiyalari - bularning barchasi zamonaviy sivilizatsiya maydonidan insonni bosh qahramon sifatida, oilani esa aholini ko'paytirishning asosiy mexanizmi sifatida olib tashlaydi. XXI asrda texnologiyaning tez o'sishi kuzatilmogda: robotlashtirish, raqamlashtirish, reproduktiv inkubatorlar, sun'iy intellektning paydo bo'lishi natijasida zamonaviy madaniyat endi odamlarga juda muhtojlik sezmaydi [1]. Ko'p bolali ota-onalarning o'ziga xos xususiyati sifatida ko'p bolali bo'lishni haddan tashqari yuk, ba'zan esa qabul qilib bo'lmaydigan xato deb hisoblaydigan zamonaviy jamiyat bosimi ostida o'zlarining ota-onalik maqomini intensiv ravishda saqlab qolishga majbur bo'lishni ongli his qilish kabilarni kiritish mumkin. Ko'p bolali oilaga ega bo'lgan shaxslar boshqalarga qaraganda ba'zi jihatlarda kuchliroq va mas'uliyatlairoqdir [3].

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Ko'p bolali oila tushunchasini aniqlashda tadqiqotchilar er-xotinning yoshi, birga yashash muddati, oila va nikoh munosabatlarining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar va boshqalarni o'z ichiga olgan bir qator mezonlarga tayanadilar. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining metodologik asosini erkinlik, tenglik va qadr-qimmat nazariyasi tashkil etadi. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining mafkurasi oila farovonligi, oilaviy turmush tarzini mustahkamlash va rivojlanish, shaxsiy rivojlanish uchun teng imkoniyatlar, bola manfaatlarining ustuvorligidan iborat. Oila muammosiga nazariy va amaliy qiziqish insoniyat jamiyatni mavjud ekan, mavjud bo'ladi, va bu ajablanarli emas. Oila - bu insonning ijtimoiy faoliyati tizimi, jamiyatning asosiy institutlaridan biri. U harakatda, nafaqat ijtimoiy-siyosiy sharoitlar ta'sirida, balki uning rivojlanishining ichki jarayonlari tufayli ham o'zgaradi. Psixologiya oilani ijtimoiy-psixologik guruh sifatida o'rghanar ekan, uning a'zolarining shaxslararo munosabatlariga, ularning turli ijtimoiy va oilaviy vaziyatlardagi o'zaro ta'siriga, oilaviy hayotni tashkil etishga va kichik guruh sifatida oilaning barqarorligi omillariga e'tibor beradi. Shu bilan birga, oila ma'lum bir jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga mos keladigan, birgalikdagi faoliyatda shakllanadigan shaxslararo munosabatlar majmui bilan birlashtirilgan ijtimoiy guruh sifatida talqin etiladi [5].

Psixologiya uchun ko'p bolali oila ichidagi munosabatlarning o'ziga xosligi, shuningdek, uning a'zolarining psixologik xususiyatlarining mavjudligi tufayli alohida qiziqish uyg'otadi. Bu xususiyatlar ko'p jihatdan ko'p bolali oilaning paydo bo'lishini ham, uning keyingi mavjudligi va hayot xususiyatlarini ham belgilaydi. Hozirgi vaqtida o'n sakkiz yoshga to'lmagan uch va undan ortiq farzandi (shu jumladan asrab olingan bolalar, shuningdek o'gay farzandlari) bo'lgan oila ko'p bolali oila hisoblanadi. E.F.Achildiyevanig tasnifiga ko'ra, ko'p bolali oilalarning quyidagi turlari ajratiladi:

- Ota-onalar farzandlarini yaxshi ko'radigan va ularga ongli ravishda ega bo'lishni xohlagan oilalar. Bunday oilalarda bola hayotdagi qadriyatlardan biri sifatida harakat qiladi va ota-onalar farzandlarining yaxshi hayot kechirishi uchun qo'lidan kelganini qiladilar.

- Ota-onalar ongli ravishda ko'p farzandli bo'lishga intilmagan oilalar. Uchinchi va keyingi bolalar, asosan, oilani rejalashtirishning yo'qligi tufayli ularda paydo bo'lishi mumkin. Bunday yettita egizak yoki uch egizak tug'ilishi natijasida, homiladorlikni to'xtatishdan qo'rqish, shifokorning onaning sog'lig'i sababli abort qilishni taqiqlashi, diniy e'tiqodlarga ko'ra abort va kontratsepsiyanı rad etishi natijasida paydo bo'lishi mumkin.

- Ikkita to'liq bo'lmagan oilalarning birlashishi natijasida tashkil etilgan oilalar, bunda ularning har biri allaqachon farzandli bo'lgan bo'ladi.

- Ko'p sonli bolalar tug'ilishi muammoning namoyon bo'lishi deb hisoblanishi mumkin bo'lgan oilalar. Bu yerda bolalar ko'pincha turli xil imtiyozlar, qo'shimchalar olish vositasidir. Bundan tashqari, aksariyat hollarda bunday oilalarda bolalar tartibsiz jinsiy aloqalar, alkogol yoki giyohvandlik holati

natijasida tug‘iladi va ota-onalarning tipik psixologik munosabati ularning asosiy vazifasi bolani tarbiyalash ekanligiga ishonishadi [10].

Y.E.Aleshina nikohdan qoniqishni «har bir turmush o‘rtog‘ining o‘zaro munosabatlarining tabiatini subyektiv baholash» xususiyati sifatida belgilaydi. Bunday holda, oila kichik guruhdagi jarayonlarga o‘xshash o‘ziga xos dinamik o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi [1]. “Nikohdan qoniqish” tushunchasining mazmunini belgilab, M.S.Matskovskiyning ta’kidlashicha, qoniqish ajralmas xususiyat bo‘lib, u har bir turmush o‘rtog‘ining o‘z hayoti va o‘zaro munosabatlarining turli tomonlariga bo‘lgan munosabatidan, shuningdek, har bir turmush o‘rtog‘ining bo‘sh vaqt, shart-sharoit, rollarning taqsimlanishi va boshqalardan qoniqishidan iborat. [2]. B.A Sisenkoning fikricha, «oilaviy hayotdan qoniqish juda keng tushuncha bo‘lib, shaxsning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasini o‘z ichiga oladi. Nikohdagi turmush o‘rtoqlarning har biri uchun ehtiyojni qondirishning minimal zarur darajasiga erishish kerak, bundan tashqari allaqachon noqulaylik paydo bo‘ladi, salbiy his-tuyg‘ular va his-tuyg‘ular shakllanadi va mustahkamlanadi. Nikohdan qoniqish bir xil tabiat va bir xil talqinga ega bo‘lgan tushunchalar ekanligini ta’kidlaymiz. Shunday qilib, munosabatlardan qoniqish yoki nikohda subyektiv farovonlik hissi, o‘zaro munosabatlar sifati har bir turmush o‘rtog‘iga mos kelganda paydo bo‘ladi.

S.I.Golod nikohdan qoniqishning quyidagi konseptsiyasini beradi: «Nikohdan qoniqish, shubhasiz, inson ongida shakllangan oila g‘oyasini (timsolini) adekvat hayotga tatbiq etish natijasida rivojlanadi hamda ushbu faoliyat sohasidagi tajribasini (haqiqiy yoki ramziy) oshiriladi». Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, uch yoki undan ortiq farzandi, shu jumladan o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan asrab olingan bolalari bo‘lgan oila ko‘p bolali oilalar hisoblanishi ma’lum bo‘ladi. Ko‘p bolali oilalar - ota-onalar ataylab ko‘p farzandli bo‘lishga qaror qilgan oilalar, ota-onalar ko‘p farzandli bo‘lishga intilmagan oilalar, ikkita to‘liq bo‘lmagan oilalarning shakllanishi natijasida ko‘p bolali oilalar va bolalar soni noqulaylikning natijasi hisoblangan ko‘p bolali oilalar kabi turlarga bo‘linadi. Ko‘p bolali oilalarda bolalar rivojlanishining omillari uning parametrlari, atrof-muhit sharoitlari va a’zolarining shaxsiy xususiyatlari hisoblanadi. Ko‘p bolali oilalar ajralishlar va bolalar o‘rtasidagi turli xil shaxsiy munosabatlar bilan ajralib turadi. Ko‘p bolali oilalarning muammolari - moddiy va maishiy muammolar, ota-onalarning ish bilan ta’minlanishi, uy-joy kabilarga ajratiladi. Ko‘p bolali oilalarning psixologik muammolari - ota-onalar tomonidan bolalarga e’tiborning yetishmasligi, ijtimoiy yoshning o‘sishi, turmush darajasi va sog‘lig‘ining pasayishiga olib keladigan psixologik iqlimning murakkabligi kabilalar bilan tavsiflanadi. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, beqarorlik holati oilaning psixologik tarkibiy qismiga ta’sir qiladi. Oilalarning birlik sifatida ko‘plab yangi shartlarga duch keladi, bu esa mavjud asoslarni o‘zgartirishni nazarda tutadi. Jamiyat tomonidan ilgari surilgan yangi shart-sharoitlarga bog‘liqlik, ayniqsa, “ko‘p bolali oila” bosqichida keskin namoyon bo‘ladi.

**Olingen natijalar va ularning tahlili.** Ko‘p bolali oiladagi ota-onalar odatda kuchli psixologik barqarorlikka ega bo‘lishadi. Ular stressga ko‘proq bardosh beradilar, qadriyatlarni birinchi o‘ringa qo‘yanliklari hamda eng qimmatli narsa - farzandlari foydasiga tanlov qilganliklari bois hayot qiyinchiliklarini osonlikcha yengib o‘tishadi. Har kim qiladigan ishni qilmaslik, mustaqil qaror qabul qilishda ma’lum bir jasorat ko‘rsatishga intilish, ko‘p bolali oilalardagi ota-onalar odatiy tusga kirgan.

#### 1-jadval.

#### «Oilaviy hayotdan qoniqish» metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligi natijalari (N-510)

Shkalalar	Min	Max	M	$\sigma$	Z	p
Turmushini boshqa turmushlar bilan solishtirish	1,00	8,00	4,5137	1,74584	3,233	0,000*
Turmushini tashqaridan baholash	1,00	8,00	4,3078	1,91708	4,373	0,000*
Hozirgi juftining his-tuyg‘ulariga nisbatan konstatatsiya	1,00	8,00	4,5569	1,98018	3,007	0,000*
Turmush o‘rtog‘ining bir qator parametrlarini baholash	1,00	8,00	4,4863	1,96001	3,352	0,000*
Turmush o‘rtog‘ining xarakterini o‘zgartirishga nisbatan ustanonva	1,00	8,00	4,5667	1,90606	3,658	0,000*
Nikoh haqida ijobjiy yoki salbiy fikr	1,00	8,00	4,6196	1,93418	3,117	0,000*
Oilaviy hayotdan qoniqish darjası	9,00	46,00	23,7588	6,64942	1,870	0,002*

\* statistik tafovutlar mavjud

V.V.Stolin, T.L.Romanova hamda G.P.Butenko muallifligidagi «Oilaviy hayotdan qoniqish» metodikasining normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligini tekshirish natijalari aks etgan yuqoridagi

jadvaldan ma'lum bo'lishicha, ushbu metodika oiladagi umumiy oilaviy hayotdan qoniqish darajasini tadqiq etish bilan birga oilaviy hayotning 6 ta jabhasida qoniqish elementlarining strukturasini o'rganish uchun ham mo'ljallangan. Xususan, turmushini boshqa turmushlar bilan solishtirish ( $Z=3,233$ ;  $p=0,01$ ), turmushini tashqaridan baholash ( $Z=4,373$ ;  $p=0,01$ ), hozirgi juftining his-tuyg'ulariga nisbatan konstatatsiya ( $Z=3,007$ ;  $p=0,01$ ), turmush o'rtog'inining bir qator parametrlarini baholash ( $Z=3,352$ ;  $p=0,01$ ), turmush o'rtog'inining xarakterini o'zgartirishga nisbatan ustanovka ( $Z=3,658$ ;  $p=0,01$ ), nikoh haqida ijobiy yoki salbiy fikr ( $Z=3,117$ ;  $p=0,01$ ) va oilaviy hayotdan qoniqishning umumiy darajasi ( $Z=1,870$ ;  $p=0,01$ ) bo'yicha olingan natijalarning barchasi noparametrik mezonzalarga muvofiq tekshirilishi ma'lum bo'ldi.

Oilaviy hayotdan qoniqish so'rovnomani ishlab chiqishda mualliflar «er-xotinni birlashtirgan asosiy omil bu hissiy aloqalar sanalmish, sevgi, hissiy bog'liqlik» degan mulohazadan kelib chiqqan. Shunga ko'ra, ular «oilaviy hayotdan subyektiv qoniqish yoki norozilik, o'z tabiatiga ko'ra, nikoh muvaffaqiyatini ma'lum parametrlar bo'yicha oqilona baholashning natijasi emas, balki umumlashtirilgan hissiyot, umumlashtirilgan tajriba bo'lishi ehtimoli ko'proq» deb taxmin qilishdi.



**1-rasm. Oilaviy hayotdan qoniqish so'rovnomasining o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari**

Oilaviy hayotdan qoniqishning umumiy o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari 23,76 ni tashkil etib, bu metodika interpretatsiyasi bo'yicha sinaluvchilardan nikohdan 23-27 ballar oralig'ini, ya'ni oilaviy hayotdarajada qoniqmaslikni his qilishini anglatadi. Ushbu qayd etilgan natija bizda er-xotinning oilaviy hayot darajasidagi qoniqishi biroz pastligi ko'proq tashqi omillar, emotsiyal jihatdan yaqinlikni his etishda ijtimoiy birdamlikning yetishmasligini ham ko'rsatadi. Metodika shkalalarining qolgan o'rtacha qiymatlarida qayd etilgan natijalarga asoslanib, turmushini boshqa turmushlar bilan solishtirish (4,51), turmushini tashqaridan baholash (4,31), hozirgi juftining his-tuyg'ulariga nisbatan konstatatsiya (4,56), turmush o'rtog'inining bir qator parametrlarini baholash (4,49), turmush o'rtog'inining xarakterini o'zgartirishga nisbatan ustanovka (4,57), nikoh haqida ijobiy yoki salbiy fikr (4,62) nazdimizda, zamonaviy oilalardagi oilaviy hayotdan qoniqishda turmush o'rtog'inining xulq-atvorini o'zgarishga nisbatan ustanovka, hozirgi juftining his-tuyg'ulariga nisbatan konstatatsiya ham bilvosita ta'sirni indekslardan hisoblanadi. Shuningdek, o'z turmushi haqidagi ijobiy fikr oilaviy hayotdan qoniqish darajasi oshirsa, aksincha nikoh haqida salbiy fikrning turmush o'rtoqlar o'zaro munosabatlari dinamikasidagi emotsiyal-hissiy aloqalar chastotasiga negativ ta'sir etishi natijalar tahlilidan ham o'z isbotini topganini ko'ramiz. Shuning bilan birga juftliklarda o'z turmushini tashqaridan baholash ko'rsatkichi biroz pastroq bo'lib, bevosita baholash oilaviy hayotdan qoniqish darajasiga ta'sir etish ehtimoli kamligidan dalolat beradi.

## 2-jadval.

**«Oilaviy hayotdan qoniqish» metodikasining ko'p va kam bolali oilalardagi farqlari (n=510)**

№	Shkalalar	O'rtacha ranklar		Statistik ko'rsatkich	
		Ko'p bolali oilalar (n=296)	Kam bolali oilalar (n=214)	U	p
1	Turmushini boshqa turmushlar bilan solishtirish	256,00	254,81	31523,5	0,927
2	Turmushini tashqaridan baholash	267,52	238,87	28113	0,028*
3	Hozirgi juftining his-tuyg'ulariga nisbatan konstatatsiya	261,50	247,20	29895,5	0,274
4	Turmush o'rtog'inining bir qator parametrlarini baholash	264,86	242,55	28900,5	0,088
5	Turmush o'rtog'inining xarakterini	258,58	251,24	30761	0,574

	o'zgartirishga nisbatan ustanovka				
6	Nikoh haqida ijobiy yoki salbiy fikr	274,51	229,21	26045	0,001*
7	Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi	270,94	234,14	27100,5	0,005*

\* statistik tafovutlar mavjud

Empirik izlanishlarimizdan o'ren olgan navbatdagi metodika oilaviy muhitdan qoniqishni tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, turmushini boshqalar bilan solishtirish ( $U=31523,5$ ;  $p>0,05$ ), hozirgi juftining his-tuyg'ulariga nisbatan konstatatsiya ( $U=29895,5$ ;  $p>0,05$ ), turmush o'rtog'ining bir qator parametrlarini baholash ( $U=28900,5$ ;  $p>0,05$ ), turmush o'rtog'ining xarakterini o'zgartirishga nisbatan ustanovka ( $U=30761$ ;  $p>0,05$ ) kabilarda ko'p hamda kam bolali oilalardagi er-xotinlarning natijalari o'rtasida ishonchli bo'lган tafovutlar kuzatilmadi. Mazkur holat bizga oila turidan qat'iy nazar shaxslarda ma'lum oilaviy sikllardagi inqirozlarni boshdan kechirish bilan bog'liq bo'lган vaziyatlarda turmush o'rtog'ining bir qator jihatlarini solishtirish, to'g'irlashga intilish hamda uning his-tuyg'ularini boshqarish, empatik munosabatlarga kirishish uchun harakat qilishda ba'zi bir psixologik baryerlarni yengib o'tish lozimligini anglatadi. Turmushini tashqaridan baholash jihatidan ko'p bolali oilalardagi juftliklarda ustunliklar qayd etilib, oilaviy holatni, sharoitni solishtirish, tashqi tarafdan oilaviy muhitini kuzatish orqali o'zida shukronalik hissini tuyish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga intilish motivatsiyasining kuchli ifodalanishi mumkinligi bilan izohlanadi ( $U=28113$ ;  $p=0,05$ ). Nikoh haqida ijobiy yoki salbiy fikrning shakllanishida ham ko'p bolali oilalarda ustunliklar qayd etilib, turmush sharoitini, nikohdan qoniqish darajasini tashqaridan baholashga intilish hisobiga ham ularda oilasi borasida yaxlit fikr shakllanishida ikkilanishlar mavjud bo'ladi. Ushbu ikkilanishlarr natijasida nikoh haqida ularning ratsional fikrlari doirasida ijobiy yoki salbiy qarash kombinatsiyalashgan holda yuzaga chiqishi mumkin. Olingan natijalar asosida ko'p bolali oilalarda turmushi haqida ijobiy fikr ustunlik qilishi ma'lum bo'ldi ( $U=26045$ ;  $p=0,01$ ). Oilaviy hayotdan qoniqishning umumiylar darajasi ham solishtirilganda ko'p bolali oilalarda oilaviy sharoitidan, holatidan hamda oiladagi munosabatlardan qoniqish yorqinroq ifoda etilgani aniqlandi ( $U=27100,5$ ;  $p=0,01$ ). Mazkur tendensiyani biz oiladagi farzandlar va ota-onalarning ratsional fikrlari doirasida ijobiy yoki salbiy qarash kombinatsiyalashgan holda yuzaga chiqishi mumkin. Shu boisdan ham oilaviy hayotdan qoniqish turmushning past-balansliklariga qaramasdan ko'p bolali oilalarda yaqqolroq namoyon bo'lган bo'lishi mumkin.

### 3-jadval.

#### «Oilaviy muhit shkalasi» ning ko'p va kam bolali oilalardagi farqlari (N=510)

№	Shkalalar	O'rtacha ranklar		Statistik ko'rsatkich	
		Ko'p bolali oilalar (n=296)	Kam bolali oilalar (n=214)	U	p
1	Uyg'unlik	256,91	253,55	31254,5	0,795
2	Ekspressivlik	258,08	251,93	30907	0,633
3	Nizo	256,78	293,73	21294	0,005*
4	Mustaqillik	257,88	252,21	30968,5	0,663
5	Muvaffaqiyat oriyentatsiyasi	260,27	298,91	30261	0,035*
6	Intellektual-madaniy oriyentatsiya	267,12	239,43	28233	0,033*
7	Faol dam olishga oriyentatsiya	254,88	296,35	31489	0,037*
8	Axloq va tarbiya	253,54	258,21	31092,5	0,719
9	Tashkilotchilik	263,88	243,91	29191	0,023*
10	Nazorat	252,59	289,52	30811	0,009*

\* statistik tafovutlar mavjud

Ko'p bolali oilalardagi oilaviy muhitni ham tadqiq etish bizga shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy ko'lamini ochishga zamin yaratadi. Oilaviy muhitda juftliklarning uyg'unligi ( $U=31254,5$ ;  $p>0,05$ ), his-tuyg'ularini o'zaro erkin ifodalay olishi ( $U=30907$ ;  $p>0,05$ ), qarorlar qabul qilishda mustaqillik ko'rsatishi ( $U=3068,5$ ;  $p>0,05$ ) hamda oiladagi axloq va tarbiyaviy ishlarga mas'ulligi jihatidan ( $U=31092,5$ ;  $p>0,05$ ) kam bolali oilalar bilan taqqoslanganda unchalik katta bo'lмаган, biroq ishonch darajasi kam bo'lган farqlar aniqlandi. Ko'p bolali oilalardagi muhitda xuddi kam bolali oilalarda bo'lгани kabi er-xotinning uyg'unligi, his-tuyg'ularini ifoda etib tushuntirishga intilish, juftliklarning mustaqil rivojlanishi uchun imkoniyat yaratish holatlarida o'xshashliklar aks etadi. Nizoning namoyon bo'lishi jihatidan kam bolali oilalarda ustunliklar kuzatilib, er va xotinning qarashlardagi xilma-xillikni ba'zi oilaning kundalik holatlaridagi masalalarida yon bosmalik, qarshilik ko'rsatish kabi shakllari tez-tez namoyon bo'lishi bilan tushuntiriladi.

Shu bois, kam bolali oilalarda nizolar ko‘p bolali oilalarga qaraganda vaqtı-vaqtı bilan takrorlanishi mumkin ( $U=21294$ ;  $p=0,01$ ).

Oiladagi muvaffaqiyat oriyentatsiyasi jihatidan ham ko‘p hamda kam bolali oilalarning natijalari o‘rtasida ishonchli tafovutlar kuzatilib, er va xotinning karyeraviy motivlarining balandligi hisobiga o‘zini uy sohibi yoki sohibasi rolida kamroq sinab ko‘rish evaziga asosan ish jarayonida farzandlar kelajagi uchun muvaffaqiyat qozonish istagi kam bolali oilalarda urg‘uni bazal-karyeraviy tarafga qaratishga undagan ( $U=30261$ ;  $p=0,05$ ). Intellektual-madaniy oriyentatsiya borasida esa ko‘p bolali oilalarda ustunliklar kuzatilib, uy sohibasi rolidagi onaning hamda ro‘zg‘or qo‘riqchisi pozitsiyasidagi otaning sa’y-harakatlari evaziga ham oilaning intellektual salohiyatini oshirishga bo‘lgan xohish hamda yo‘nalganlik yuqori ko‘rinish olgan bo‘lishi mumkin ( $U=28233$ ;  $p=0,05$ ). Faol dam olishga yo‘nalganlik borasida kam bolali oilalar o‘zini nafaqat farzandlari bilan xordiq chiqarishga, balki shaxs sifatida takomillashish uchun sog‘ tanda sog‘lom aql tamoyiliga muvofiq o‘zlarining dam olish ehtiyojini qondirishga ham xohishi baland bo‘lishi aniqlandi. Shu sababli ham kam bolali oilalardagi er-xotinlar hamda farzandlar faol dam olishga yo‘nalganlik jihatidan ustunliklar ega bo‘lgan ( $U=31489$ ;  $p=0,05$ ).

Oiladagi tashkilotchilik oilaviy muhitda hamma o‘z rolini to‘g‘ri bajarishi ustidan nafaqat nazoratni, balki rollarni oila a‘zolari o‘rtasida to‘liq adolat tamoyiliga muvofiq taqsimlanishi ham o‘z ichiga oladi. Tashkilotchilik oilaviy bayramlar, tadbirlarni uyuştirish, madaniy xordiq uchun imkoniyat yaratishni ham inobatga olgani holda, ko‘p bolali oilalarda bolalar soni hisobiga ham ular o‘rtasida ahillik, sog‘lom psixologik ijobjiy muhitni yaratish uchun turli mazmunli tadbirlarni tashkil etishda ustunliklar mavjud ekan ( $U=29191$ ;  $p=0,05$ ). Nazorat er va xotinning nafaqat bir-birlari ustidan, balki bolalarning xulq-atvorini boshqarish, to‘g‘irlash, oilaviy hayot tarzini bir maromda ushlab turishga intilish kabi aspektlarda namoyon bo‘lib, kam bolali oilalarda bolalar, arning xotin, xotining er ustidan nazorat o‘rnatish imkoniyati balandroq ekani ma’lum bo‘ldi. Bu jihatni biz ko‘pincha bolalarning kamligi hisobidan rollar taqsimlanishida tenglik bo‘lgani hisobidan er va xotinning har bir bolaga individual yondashish imkoniyati mavjudligi bilan tushuntirishimiz mumkin ( $U=30811$ ;  $p=0,01$ ).

#### 4-jadval.

#### Ko‘p bolali oilalardagi «Oilaviy hayotdan qoniqish» metodikasining jins tafovuti (n=296)

№	Shkalalar	O‘rtacha ranklar		Statistik ko‘rsatkich	
		Erkaklar (n=148)	Ayollar (n=148)	U	p
1	Turmushini boshqa turmushlar bilan solishtirish	147,84	188,90	9230	0,005*
2	Turmushini tashqaridan baholash	172,91	145,82	9810	0,002*
3	Hozirgi juftining his-tuyg‘ulariga nisbatan konstatatsiya	146,08	149,98	9032,5	0,701
4	Turmush o‘rtog‘ining bir qator parametrlarini baholash	177,41	149,16	9182	0,003*
5	Turmush o‘rtog‘ining xarakterini o‘zgartirishga nisbatan ustanova	141,02	173,05	9466	0,004*
6	Nikoh haqida ijobjiy yoki salbiy fikr	148,86	148,28	10263,5	0,954
7	Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi	176,72	143,50	9383,5	0,007*

\* statistik tafovutlar mavjud

Oilaviy hayotdan qoniqish darajasining ko‘p bolali oilalardagi juftliklarda alohida o‘rganilishi ularning shaxslararo munosabatlarda qoniqish, ehtiyojlarning qoplanganligi, oilaviy turmush tarzidan ko‘ngli xotirjamligi kabi jihatlarda namoyon bo‘lishiga yo‘l ochadi. Yuqoridaq psixologik metodikadan o‘rin olgan hozirgi juftining his-tuyg‘ulariga nisbatan konstatatsiya ( $U=9032,5$ ;  $p>0,05$ ), nikoh haqida ijobjiy yoki salbiy fikr ( $U=10263,5$ ;  $p>0,05$ ) kabi ko‘rsatkichlarda ishonch darajasidagi farqlar er va xotinlarning natijalari o‘rtasida qayd etilmadi. Bundan aniqlanadi, oiladagi mavjud holatning beqaror yoki barqaror ko‘rinish olishiga qarab turmush o‘rtoqlarda bir-birining his-tuyg‘ulariga nisbatan bepisandlik, e’tiborsizlik kabilar shakllanadi. Shuningdek, juftliklarda o‘z nikohi haqida ijobjiy va salbiy fikr kombinatsiyalashgan holda yuzaga chiqishi ma’lum bo‘ladi. Ushbu jihat bir qancha omillar, xususan, bolalar tarbiyasidagi qiyinchiliklar, bir-birini emotsiyal, intim, kognitiv hamda moliviyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda tushunmovchiliklar sodir bo‘lishi bilan bog‘liq holda tushuntiriladi.

Turmushini boshqa turmushlar bilan solishtirish jabhasida ayollarda ustunliklar kuzatilib, uy yumushlaridan charchash, maishiy ishlarga ulgurmaslik jihatidan ham ko‘pincha o‘z oilasini boshqalarning oilalari bilan solishtirish holatlari kuzatilar ekan ( $U=9230$ ;  $p=0,01$ ). Natijada ayollarda nizolashuvchanlikka

moyillik, farzandlar tabiyasiga e'tiborsizlik hamda kutilmalar oqlanmagan taqdirda turmush o'rtog'idan "alamini" olish holatlari sodir bo'ladi. Bu o'z navbatida, ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarda psixologik inqiroz holatlarini vujudga keltirishga imkon beradi. Turmushini tashqaridan baholash ko'p bolali oilalardagi erkaklarda ifodalanib, o'z yashash sharoiti, ayoli bilan bo'ladigan munosabatlar, oilaga vaqt ajratish kabi jihatlarda oilasini tashqaridan baholash holatlari namoyon bo'ladi ( $U=9810$ ;  $p=0,01$ ). Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda turmush o'rtog'ining bir qator parametrlarni baholash erkaklarda qayd etildi. Bunda turmush o'rtog'idan emotsiyal, jinsiy, ma'naviy, psixologik jihatdan qoniqish kabilar baholanishi mumkin. Agar mazkur jabhalarda baho salbiy bo'lsa, erkak tarafidan ayolini qadrlamaslik, u bilan nizolashishga moyillik darajasi ortadi ( $U=9182$ ;  $p=0,01$ ).

Turmush o'rtog'ining xarakterini o'zgartirishga nisbatan ustanovka ayollarda yuqori bo'lib, juftidan oilaga ko'proq vaqt ajratish, farzandlar tarbiyasida unga ko'maklashish, oilaviy farovonlikni to'liq ta'minlash kabi aspektlarda namoyon bo'ladi ( $U=9466$ ;  $p=0,01$ ). Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi ko'p bolali oilalardagi erkaklarda yuqori bo'lib, turmush o'rtog'ini bir qator parametrlarini baholash, turmushini tashqaridan baholashga moyillikka qaramasdan ularda oilaviy hayot tarzidan qoniqish baland ko'rinish olganligi ma'lum bo'ldi ( $U=9383,5$ ;  $p=0,01$ ). Ayollarda nisbatan oilaviy hayotdan qoniqishning erkaklarga nisbatan pastroq natijalar olganligi juftidagi xarakterni o'zgartirishga nisbatan ustanovkaning yuqoriligi, shuningdek, oilaviy hayotda mukammallikka intilish motivatsiyasining balandligi bilan izohlanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nikohdan qoniqish - bu subyektiv bo'lgan va turmush o'rtoqlarning bir-biriga va ularning nikohiga bo'lgan bahosini aks ettiruvchi nikoh munosabatlarining o'ziga xos xususiyati. Ko'pgina omillar nikoh barqarorligiga va qoniqishning oshishiga ta'sir qiladi.

Ko'p bolali oilalarda nikoh munosabatlarini o'rganish doirasida A.Y.Tavit nikohdan qoniqish omillarining ikki guruhini belgilaydi [9]:

1) Nikohdan oldin vujudga kelgan omillar: nikohning psixologik asosi, u kelib chiqishi, shaxsiy xususiyatlari, turmush o'rtog'i va nikoh ideali, nikoh motivlari kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

2) Nikoh davrida yuzaga kelgan omillar: er-xotinning axloqiy va hissiy munosabatlari, er-xotinning psixofiziologik munosabatlari, bolalarni tarbiyalash bo'yicha qarashlarning birligi, uy-ro'zg'or va xo'jalik vazifalarini taqsimlash, bo'sh vaqt va undan foydalanish, turmush o'rtoqlarning ota-onalari va oilalari bilan munosabatlari. Y.E.Aleshina nikohdan qoniqishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat deb hisoblaydi: birga yashash muddati (nikoh) va oilada birinchi bolaning tug'ilishi, sibling munosabatlari. Birinchi mezon oilaviy rivojlanish siklining uchta davridan bire, ikkinchisi esa o'zgarishlarning asosiy tabiatining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

M.S.Matskovskiy va A.G.Xarchev turmush o'rtoqlarning nikoh motivlari va nikohdan qoniqish o'rtasidagi munosabatlar haqida gapirdi [11]. Ular o'zlarining nikohlarini qoniqarli deb hisoblagan er-xotinlar unga quyidagi sabablar bilan kirganligini ta'kidladilar: umumiy manfaatlar va qarashlar, sevgi va boshqalar. Nikohdan norozi bo'lgan turmush o'rtoqlar, birinchi navbatda, bunday motivlarni nomlashdi: moddiy hisob-kitob, imkoniyat, turmush sharoitini yaxshilash istagi, beparvolik, yolg'izlikdan qochish istagi va boshqalar. Nikohdan qoniqish to'g'ridan-to'g'ri tarbiya uslubiga bog'liq va aksincha. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, nikohdan qoniqish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tarbiyatagi og'ishlar shunchalik kam bo'ladi, agar nikoh munosabatlaridan qoniqish darajasi past bo'lsa, tarbiyada og'ish va xatolar soni ko'payadi Erning nikohdan qoniqishi qanchalik ko'p bo'lsa, xotinning qoniqishi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha, arning nikohdan qoniqishi past bo'lsa, uning xotini ham norozi bo'lish ehtimoli ortadi [12].

Shuningdek, olingen empirik ma'lumotlarga ko'ra nikoh qoniqishiga erkaklar va ayollar uchun har xil bo'lgan ijtimoiy-psixologik omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, oilada rollarning an'anaviy taqsimoti (bu oilada turmush o'rtoqlarga jinsiga qarab ma'lum rollar beriladi - xotin ona va uy bekasi rolini o'ynaydi, er asosan moddiy yordam uchun javobgardir. oila va jinsiy munosabatlari) nikohdan qoniqish hosil qilmaydigan ayollarga, rollarning teng taqsimlanishi esa nikohlarini muvaffaqiyatli deb baholagan ayollarga xosdir. Erkaklarda turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlardagi jinsiy rollarning nomuvofiqligi nikohdan qoniqishga salbiy ta'sir qiladi. Ayollar va erkaklar uchun qadriyatlar tizimining o'xshashligi nikohdan qoniqishga ta'sir qiladi. Shunday qilib, nikohdan eng ko'p qoniqish hosil qiladigan oilalar quyidagilardir: 1 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar (taxminan erta yosh), hayotning barcha sohalarida rollarni taqsimlashda tenglik va ikkala turmush o'rtog'i uchun ularni taqsimlashda izchillik bo'lgan oilalar hamda farzandlari soni ko'p bo'lishiga qaramasdan bir xil funksiyani aralash uddalashga harakat qiladigan ko'p bolali oilalardir.

**Adabiyotlar:**

1. Костюшина Е.В. Проблема конфликтов в подростковом возрасте / Е.В. Костюшина, Н.Н. Парусова // Наука и Образование. – 2018. - Т.1. – № 3- 4. – С. 24.
2. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование М., 1993. 175 с.
3. Кулакова Н.А. Особенности развития общения дошкольников со сверстниками / Н.А. Кулакова, В.Н. Обносов // Наука и Образование. - 2020. - Т. 3. - № 2. - С. 227.
4. Обносов В.Н. Традиции воспитания молодежи в русской истории / В.Н. Обносов // Сб.: Молодежь и ответственность: материалы IV Владимирских духовно-образовательных чтений / сост. Р.С. Леонов. - Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 111 – 115.
5. Новгородова А.П. Гендерные различия удовлетворенности браком // Ананьевские чтения-2005: Материалы научно-практической конференции. Спб., 2005. С. 211-212.
6. Гурко Т.А. Влияние добрачного поведения на стабильность молодой семьи // Социологические исследования, 1982. № 2. С. 88-93.
7. Попов А.С. Формирование представления о развитии личности у будущих педагогов / А.С. Попов, Т.И. Попова // Актуальные проблемы образования и воспитания: интеграция теории и практики: сборник материалов Национальной контент-платформы (12 декабря 2019 г.) / под общ. ред. Г.В. Коротковой. – Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 93.
8. Зиммель Г. Большие города и духовная жизнь.
9. Харчев А.Г., Мацковский М.С. Современная семья и её проблемы М., 1993. 224 с.
10. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания. М., 1995.
11. Сысенко В.А. Устойчивость брака: проблемы, факторы и условия. М., 1981. 210 с.
12. Голод С. Стабильность семьи: социологический и демографический аспекты. Л., 1984. 325 с.

*Yusupjonova Iroda Abdirayimjonovna,  
Andijon davlat universiteti umumiyy psixologiya kafedrasini dotsenti, PhD*

## TALABALARDA KASBIY MOTIV VA MOTIVATSIYA MUAMMOSINING ILMY- NAZARIY TAHLILI

**Annotatsiya.** Maqolada talaba shaxsida kasb motivatsiyasi shakllanishining ilmiy-nazariy tahlili bayon etildi. Shuningdek, o'quvchi shaxsida kasb motivatsiyasi shakllanishi va uni tadqiq qilish uslubi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** kasbga yo'naltirish va kasbga o'rgatish, kasbiy motiv, kasb tanlash motivatsiyasi, kasb tanlash, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy kamolotining psixologik jihatlari, kasbiy tajribalarini o'zlashtirish.

### НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МОТИВА И МОТИВАЦИИ У СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В статье представлен научно-теоретический анализ формирования профессиональной мотивации у студентов. Также определены особенности формирования профессиональной мотивации у учащихся и методика её исследования.

**Ключевые слова:** профессиональная ориентация и профессиональное обучение, профессиональный мотив, мотивация выбора профессии, выбор профессии, профессиональное самосознание, психологические аспекты профессионального становления, усвоение профессионального опыта.

### SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF PROFESSIONAL MOTIVE AND MOTIVATION IN STUDENTS

**Abstract.** The article presents a scientific and theoretical analysis of the formation of professional motivation in a student's personality. Additionally, the development of professional motivation in a student's personality and the methodology for researching it were identified.

**Keywords:** career guidance and vocational training, professional motives, motivation for choosing a profession, career selection, professional self-awareness, psychological aspects of professional development, acquisition of professional experiences.

**Kirish.** Bugungi kundagi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadi ham yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish, imkoniyatlarni belgilashdan iboratdir. Shu jihatdan ham har bir insonning ma'naviy jihatdan yuksak rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiqlol g'oyasini o'zida mujassam yetgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim. Kasbga yo'naltirish muammosini hal qilish nafaqat u yoki bu shaxsning, oilaning, balki butun bir davlatning muhim strategik vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jarayonni har jihatdan puxta o'rganish, tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq yetish orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga ma'lum darajada hissa qo'shish mumkin.

Darhaqiqat, bugun har jihatdan omilkor, mas'uliyatli, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti uchun ongli – faol ijtimoiy shaxsni tarbiyalash, uni o'z salohiyatiga mos kasbga yo'naltira olish nafaqat ta'lim tizimining, balki butun bir davlatning ham kelajak taraqqiyotiga daxldor bo'lgan muhim vazifalardan biridir. Kasbga yo'naltirish va kasbga o'rgatish masalasi Sharq mutafakkirlari ta'limotida ta'lim va tarbiya berish bilan birga olib borilgan. Bundan ko'rindiki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish masalalari nafaqat hozirgi kunning muammosi, balki azaliy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Kasbiy motiv va motivatsiya muammosi rus psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida Y.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, K.M. Gureyevish, S.S. Grinshpun, V.K. Vilyunas, L.I. Bojovish, A.V. Brushlinskiy, A.P. Vasilev, A.Y. Golomshtok, V.I.Jukovskaya va boshqalarni kiritishimiz mumkin. V.K. Vilyunas o'z tadqiqotlarida o'quvchilarda kasb tanlash motivatsiyasiga bevosita ta'sir yetuvchi omil sifatida o'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, ma'lum bir qiziqishi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga

moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni tavsiflab o'tadi.

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy o'zlikni anglash kasbga yo'naltirish, kasbiy o'zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan (A.N.Leontev, T.V.Kudryavsev, P.A.Shavir, A.A.Stolyarov, L.A.Yasyukova, V.D.Shadrikov, V.G.Aseev, V.S.Merlin, P.M.Yakobson, L.I.Bojovish, P.K.Anoxin N.A.Bernshteyn, M.X.Titma va boshqalar) [1,2,3,4,5].

Taniqli psixolog A.N.Leontev o'zining «Faoliyat, ong, shaxs» nomli monografiyasi orqali kasbga taaluqli motivatsiya talqiniga yangicha yondashuv nazariyasini fanga kiritdi, bu yondashuv esa kasb motivatsiyasi va munosabat uyg'unligining shaxs faoliyatida namoyon etilishini nazariy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. I.I.Shesnakova [2,3] tadqiqotlaridagi shaxs munosabatlari tizimiga daxldor bo'lgan boshqaruv motivatsiyasi, V.S.Merlin [1,2,5] tadqiqotlaridagi shaxs va kasbning induvidual motivatsiyasi, P.M.Yakobsonning [240] munosabat motivatsiyasi va ijtimoiy lashuvi kabi nazariy qarashlarning yaratilishi munosabat tizimida ma'lum metodologik asoslarni izohlab berishga xizmat qiladi. Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o'zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan. Bu yo'nalishlarda M.X.Titma, Y.A.Klimov, E.A.Golubeva, A.P.Shernyavshkaya, Y.A.Golomstok, K.M.Guriyevish, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin [4,5,6]. Tadqiqotchi A.K. Markova [6] —Kasbiy qobiliyatlarning to'laqonli safarbar qilinishi shaxsning boshqa xususiyatlari bilan integrallashganda o'z natijasini beradi, - deb hisoblaydi. N.A.Bernshteyn —Kelajak yekstrapolyatsiyasi degan muammo yechimini topishga ham harakat qiladi. Bu bilan muallif motivatsiyaning biologik mexanizmlarini yuksak darajada tushuntirib berishga muvaffaq bo'lgan [3].

O'quvchilarni kasbga yo'nalitirish, ulardag'i kasbiy munosabat tizmini tahlil qilish, kasbiy konsultatsiyalar shaxs xossalari, xususiyatlari, sifatlari tashxis metodlarini ishlab chiqish psixologiya fanining markaziy vazifalaridan biridir. Shunday qilib, insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental, ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. R.Z.Gaynutdinov rahbarligida kasbiy tiklanishning turli muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan [5]. D.N.Arziqulovning dissertasion tadqiqotida Agrar universitet talabalarining kasbiy shakllanish bosqichlari psixologik xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi [20]. B.N.Sirliev —O'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlari ustalari kasbiy kamolotining psixologik jihatlari mavzusidagi tadqiqot ishi kasb-hunar o'quv yurtlarining ustalari misolda kasbiy kamoloti va kasbiy o'zini o'zi belgilanishning dolzarb muammolarini tadqiq qilishga bag'ishlangan. E.G'.G'oziyev ham o'z ilmiy tadqiqotlarida kasbiy motivlar to'g'risida ish olib borgan. Bu borada Y.G'.G'oziyevning "Kasb tanlashning psixologik asoslari", "Shaxs va kasb tanlash", "Kasb psixologiyasi", "O'quv faoliyatini boshqarish" singari asarlari muhim ahamiyatga yega. Olimning motivatsiyaga bag'ishlangan bir talay asarlari muammoning metodologik, nazariy jabhalarini tekshirishga keng imkon beradi. Ye.G'.G'oziyev shunday yozadi: —Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy maqsadi eng avvalo, individga, o'z qiziqish qobiliyati va imkoniyatlarini to'liq anglash, xohish-istikclarini amalga oshirishning vosita va usullarini to'g'ri belgilash hamda mustaqil qarorga kelishi uchun imkoniyat va zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari va kasbiy diagnostika muammolariga doir tadqiqot ishi K.B.Qodirov tomonidan olib borilgan. Bunda asosiy qoida kasbiy yo'naganlik umuman moyilliklarda, qiziqish va qadriyatlarda ifodalanib, kasbiy rivojlanishning mazmuniy tomoni sanaladi. Kasb tanlash chog'ida psixologik tayyorgarlik yoki yetuklik kasbiy o'zini o'zi anglashning muhim omili bo'lib, kasbni to'g'ri tanlashga yordamlashadi. V.M.Karimovaning ilmiy izlanishlarida kasb tanlash motivi va motivatsiyasi muammosiga ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan yondashish o'z ifodasini topgan. Biror aniq kasb-hunarni tanlash va o'z faoliyatini shunga yo'naltirish o'spirin shaxsi uchun juda katta ahamiyatga ega.

R.Z.Asomova - Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi nomli ilmiy izlanishida kasb tanlash motivlari mexanizmlari, ularning birlamchi manbalari, harakatlantiruvchi kushlari, dinamikasi va shaxsning individualligi masalalari atroflicha ochib berilgan. Shuningdek, kasbiy motivlarning mutaxassisni kasbiy tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik, hamda kasbiy va o'quv motivlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari ham keng doirada tadqiq qilingan [4]. F.S. Ismagilova mutaxassis sifatida shakllanishda kasbiy tajribaning ahamiyatini e'tirof etgan holda, bir qator ijobjiy mulohazalarni ilgari suradi. Uning fikricha, - mutaxassisning kasbiy tajribasi hozirgi kundagi yangi texnologik o'zgarishlarga xohish sezib, eskilarini bilan o'rnini almashtirishi bilan xarakterlanadi. Bu muttasil yuz beradigan va amaliyotni taqozo etuvchi muammolardandir. Kasbiy tajriba mutaxassisni ma'lum bir kasb uchun saralashda foydalaniladigan mezon

hisoblanadi. Biroq muhimi shaxsning o'zi. Chunki o'z ish o'rmini yo'qotishi yoki uning kafolatlovchisi ham shaxsning o'zidir. N.Majidov o'zining tadqiqot ishlarida yoshlarni kelgusida hayotga, mehnatga, ma'lum kasblarga tayyorlash masalalari, kasbiy ta'llimining pedagogik, metodik asoslarini yoritish orqali mahalliy sharoitlarda o'quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi hamda bo'lg'usi o'qituvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash masalalari bilan shug'ullandi. Kasb tanlashning psixologik masalalari F.Temurov, texnik kasblariga yo'naltirish motivatsiyasi Q.Turg'unov, B.Boymuratov, o'qituvchilik kasbini tanlash motivlari N.Majidov, kitobxonlik qiziqishlari M.Muratxonova, o'quv motivlari F.Haydarov, I.B.Suvanov, Y.Quljonovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan. Shunday qilib, yurtimiz psixologlarining kasbiy tiklanishining turli bosqichlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlilida rivojlanishning shaxsiy omillari, shaxsning kasbiy faoliyati doirasida tiklanishining hal qiluvchi roliga asosiy e'tibor qaratiladi. Yuqorida fikrlardan ko'rindiki, respublikamiz psixologlari tomonidan kasbga yo'naltirish, kasb tanlash masalalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tadqiqotlarimizda asosiy e'tibor shaxsning kasbiy shakllanishi bilan bog'liqligini ularning kasbiy tasavvurlari, kasbiy motivatsiyasi, qiziqishlari, ustanovkalari va boshqa psixologik jihatlariga bog'liq holda o'rganishga bag'ishlanganligi sababli ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar ham shaxsning kasbiy kamoloti masalasiga borib taqaladi. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda kasbiy o'zini o'zi belgilash, pedagogik yo'nalishdagi kasbiy motivlarning shakllanishi, psixologlarning kasbiy kamoloti, pedagogik oliy o'quv yurti abituriyentlarining psixologik xususiyatlari, kasbiy tajribalarini o'zlashtirish, mutaxassisning bozor munosabatlaridagi kasbiy xususiyatlari, kasbiy xususiyatlarning faoliyat natijalarini belgilashdagi roli, kasbiy rivojlanishning metodologik masalalari, kasbiy kamolotning psixologik xususiyatlari, akmeologiya masalalari singari bir qator kasbga oid muammolar psixologik jihatdan o'rganilgan.

Tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili va o'z kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy tadqiqiy mulohazalar bugungi kunda amaliy psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy shakllanish xususiyatlarini psixologik jihatlari va uning shakllanganlik darajalarini tadqiq qilishni atroficha amaliy o'rganishni taqazo qilmoqda.

Amaliy psixologiya yo'nalishi talabalarining kasbiy shakllanish jarayonini o'rganish uchun V.V. Sinyavskiy, V.A. Fedoroshinlarning «Kommunikativ va tashkilotchilikka moyillik» testi (KTM); Y.M. Orlov va Y.N. Emelyanovning «Empatik qobiliyatlarini o'z-o'zi baholashi» bo'yicha test-so'rovnomasi; M. Snayderning «Muloqotda o'z-o'zini nazorat qilish» test-so'rovnomasi; A.A. Reanning «Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qochish» so'rovnomasi; A.V. Zverkova va Y.V. Eydmanning «O'z-o'zini boshqarish irodasini o'rganish» test-so'rovnomasi; B.Qodirovning "Yoshlarni kasbga yo'naltirish", E.P.Ilin va Y.K.Feshenko tomonidan ishlab chiqilgan va sabr-toqatlilikni baholash so'rovnomasi, T.I.llinning «O'quv motivatsiyasini o'rganish metodikasi, N.N.Obozovning «Iroda kuchini baholash» so'rovnomasi so'rovnomalaridan foydalanildi.

Tadqiqotimizing asosiy maqsadi bo'lg'usi psixologlarning kasbiy salohiyatini takomillashtirishga qaratilganligi sababli talabalar bilan tadqiqot olib borildi. Tadqiqot obyekti qilib, Andijon davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat universiteti tanlab olindi. Tadqiqotda 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan jami 450 nafar talabalar qatnashdilar, shundan 434 nafari tadqiqotning barcha bosqichida ishtirot qildi. Quyida tadqiqotning tashkil qilinish yuzasidan chastotali tahlil natijalari keltiriladi.

**Tadqiqotning tashkil qilinishi.** Tadqiqotda ishtirot qilgan jami respondentlar 434 nafar bo'lib, ulardan 18-21 yoshdagilar 202 nafar (46,5%), 22-32 yoshdagilar 232 nafar tashkil qildilar. Tadqiqotda ishtirot qilgan sinaluvchi talabalarning jinsi bo'yicha 123 tasi yigitlar (28,3 0/0), 311 tani qizlar Sinaluvchilaming yo'nalishiga ko'ra taqsimlanishida psixologiya yo'nalishi Sinaluvchilari 71,4 % ni (310), boshqa yo'nalish sinaluvchilari 28,6 % ni (124) ko'rsatgan. Unga ko'ra sinaluvchi talabalar jami 434 ni tashkil qilib, ulardan 61 nafari (14,1 %) shaharlik, 373 nafari (85,9 %) qishloq hududidan ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotda o'tkazilgan metodikalar bo'yicha tavsiflovchi statistika amalga oshirildi va har bir metodikadan olingan natijalar alohida keltirildi.

#### 1-jadval.

#### Talabalarda iroda kuchini namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari

	N	Minimum	Maksi mum	O'rtacha	Standart og'ish	Dispersiy	Asimmetriya	Eksess
Iroda kuchi	434	8,00	30,00	19,3687	3,82136	14,603	-,216	,287

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, N.N.Obozovning «Iroda kuchini baholash» so'rovnomasidagi iroda kuchi shkalasi bo'yicha sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 8 ballni, maksimal ball 30 ballni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 19,36 ni, standart og'ish esa 3,82 ni tashkil qilganligini ko'rshimiz mumkin. Iroda kuchi shkalasi uchun 15,54 dan 23,19 ballgacha me'yor hisoblanadi. Asimmetriya ( $A=-0,216$ ) va eksess ( $E=0,287$ ) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz Chap tomonlama asimmetriya va kuchsiz musbat eksess kuzatildi.

### 2-jadval.

#### Talabalarda o'quv motivatsiyasi namoyon bo'l shining psixologik xususiyati natijalarining tavsiflovchi statistikasi

	n	Minim um	aksi	O'rtacha	Stdandart Sish	ispersiy	simmetr	Kssess
Bilimlarni o'zlashtirish	434	00	12,	8,254	2,677	7,17	-,62	-,13
Kasbni o'zlashtirish	434	00	10,8	5,8581	2,303	5,3	-,05	-,571
Diplom olish	434	00	10,0	6063	24132	5,824	- 472	- .287

T.1.Ilinning «O'quv motivatsiyasini o'rganish usullari» bo'yicha natijalardagi bilimlarni o'zlashtirish shkalasining tavsiflovchi statistika bo'yicha tahlilida shuni ko'rshimiz mumkinki, bunda respondentlarning javobi bo'yicha minimal ball 0 ballni tashkil qilsa, maksimal ball 12,6 ballni tashkil qildi, bu shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 8,25 ni. standart og'ish esa 2,67 ni tashkil qilgan va bilimlarni o'zlashtirish shkalasining me'ori 5,58 dan 10,92 ballgacha me'yor hisoblonadi. -0,624) va eksess (Ez - 0,132) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida Chap tomonlama manfiy asimmetriya va kuchsiz Chap tomonlama manfiy eksess kuzatildi. Kasbni o'zlashtirish shkalasining ko'rsatkichlari bo'yicha minimal ball 0 balini tashkil qilsa, maksimal ball 10,8 ballni tashkil qildi, mazkur shkala boyicha O'rtacha qiymat 5,85 ni, standart og'ish 2,3 ni ko'rsatgan va me'yor qilib 3,55 dan 8,15 ballgacha me'yor hisoblandi. Asimmetriya A= -0,5) va eksess (E= - 0,571 ) ni qayd qildi. Tavsiflovchi statistika tahlilida kuchsiz Chap tomonlama manfiy asimmetriya va kuchsiz Chap tomonlama manfiy eksess aniqlandi. Diplom olish shkalasida sinaluvchi talabaldan olingan natijalar ko'rsatkichi boyicha minimal ball 0 ballni tashkil qilsa, maksimal ball 10 ballni aniqladi. Yuqoridagi shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 6,06 ni, standart og'ish esa 2,41 ni qayd etib, 3,65 dan 8,47 ballgacha me'yor hisoblandi. Asimmetriya (A= - 0,472) va eksess (E -0,287) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz Chap tomonlama manfiy asimmetriya va Chap tomonlama kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

**Xulosa.** Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda kasb motivatsiyasi shakllanishi muammosi, o'zining nazariy-metodologik bazasiga ega ekanligini ko'rsatsa-da, aynan mavzu doirasidagi tadqiqotlarning yetarli emasligi, ushbu masalani chuqur tahlil qilishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Jahon psixologiyasida shaxsning kasbiy shakllanishi borasidagi izlanishlardagi xilma- xillik hali ham mazkur masala yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish imkonini bermaydi.

### Adabiyotlar:

1. Arziulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari // Avtoref.psix.fan.nomz.dis. –T.: 2002. – 22 b.
2. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi (Avtoref.diss. kand. psix. nauk).-T., 2002. – 28 s.
3. Асеев В.Г. Мотивация поведения и формирования личности. – М., 1976. – 158 с.
4. Barotov SH.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. – Т.: «O'qituvchi», 1995. – 56 б.
Мақсадга кўра, ўқувчи ёшларда ҳарбий ватанпарварлик ҳислатларини ҳамда Ватангага хизмат қилиш бурчини шакллантириш, шунингдек, ҳарбий соҳани эгаллашга бўлган қизиқишиларини ошириш ҳарбий таълим муассасалари олдида турган вазифаларидан бири ҳисобланади.

**Натижалар.** Мазкур вазифалар ҳарбий соҳа бўйича маҳаллий ижтимоий мухитда тадқиқот ишлари етарли даражада ўтказилмаганлигини инобатга олган ҳолда “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицей ўқувчиларида ҳарбий касбга қизиқишиларини оширишда ҳарбий ватанпарварлик руҳини шакллантириш ҳам мухим аҳамиятга эгадир.

*Юқоридаги фикрларга асосланган ҳолда биз ўқувчиларни ҳарбий касбга қизиқтириши ҳамда ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашининг педагогик ва психологик асосларига қўйдаги фикрларни киритдик:*

- ёшларда жамиятнинг турли тармоқлари, айниқса, ҳарбий соҳа билан боғлиқ бўлган давлат хизмати турларида фаоллик кўрсатиш, Конституция ва ҳарбий бурчга садоқатли бўлиш, уларда ўз юрти ва халқининг тақдири учун юксак масъулият ҳамда жавобгарлик каби мухим хусусиятларни мустаҳкамлаш;

- ёшларни миллий ғоя ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг онги-шуурига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканлигини чуқур сингдириш;
  - Ватан озодлиги ва мустақиллиги йўлида жон фидо килган юртдошларимиз кўрсатган ватанпарварлик ва қаҳрамонлик, улардаги садоқат, фидойилик, матонат ҳамда жасорат каби хислатларни, шунингдек, юрт, оила, ота-она ва фарзандлар ҳимояси халқ ва аждодлар хотираси олдида муқаддас бурч эканини ёшлар онгига сингдириш;
  - ёшларда ён-атрофимиз ва жаҳонда рўй берадиган сиёсий-ижтимоий жараёнларга миллий манфаатларимиздан келиб чиққан ҳолда ёндашиш кўниммаларини, оммавий ахборот воситалари, шу жумладан, Интернет жаҳон ахборот тармоғи орқали тарқатилаётган ғаразли ахборотлар, одоб-ахлоқни емирувчи иллатлар, ёшларни залолатга бошловчи бузгунчи ғояларга қарши соғлом дунёкарашни шакллантириш;
  - худудларда туркум ҳарбий-ватанпарварлик тадбирлари ҳамда “Жасорат мактаби” номли ҳарбий-ватанпарварлик ўкув йигинларини ўтказиш орқали ёшлар онгига миллий армиямизга бўлган ишонч ва ҳурматни янада ошириш, ҳарбий хизматни ўташ Ўзбекистон фуқаросининг муқаддас бурчи эканлиги ҳақидаги тушунчаларни мустаҳкамлаш;
  - Ўзбекистон манфаатларини нафақат ҳарбий соҳада, балки ҳаётнинг барча жабхаларида ҳимоя қилишга тайёр туриш, юрт учун фидойи бўлиш – бу бугунги кун талаби эканини ҳаётий мисоллар ва таъсирчан воситалар орқали ёшлар оммасига кенг етказиш;
  - ёшларда аждодларимиз ва ота-боболаримизнинг Ватанни ҳимоя қилишга оид анъана ва қадриятларига садоқатли бўлиш хусусиятларини шакллантириш;
  - Ватанни ҳимоя қилиш, уни асрар тўғрисидаги замонавий тушунчаларни, дунёкарашни, мазкур масала бўйича шахсий эътиқодни шакллантириш ва мустаҳкамлаб бориш, ёшларни ҳарбий хизматга тайёрлаш, уларнинг маънавий-руҳий тайёргарликларини оширишга ёрдам берувчи таълим-тарбиявий тадбирларни ташкил этиш.
  - ёшларнинг турили хил вазиятларга бўлган иродавий сифатларини тарбиялаш ва шакллантириш;
  - ёшларда ўз-ўзига ва келажакка бўлган ишончни тарбиялаш;
  - оиласда, таълим муассасасида ҳарбий соҳа касбий маданияти ҳакида тушунчаларини шакллантириш.
- Шунингдек, ўқувчиларни ҳарбий касбга қизиқишлиарини оширишда гурух раҳбарлари ва командирлари қўйидаги қоидаларга амал қилиши лозим бўлади:
1. Ўқувчилар фаолиятини баҳолаб бориши ва шахсий хусусиятларини хисобга олиши;
  2. Ўқувчиларнинг руҳиятига ва ёш хусусиятларига мос равишда муносабатда бўлиши;
  3. Ўқувчиларни турли фаолиятга қизиктира олиши ва диққатини жалб қила олиши;
  4. Гурухга ва ҳар бир ўқувчига руҳий таъсир ўтказа олиши;
  5. Дарс жараёнини ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражалари ҳамда руҳий ҳолатини хисобга олган ҳолда ташкил қилиш;
  6. Баҳолаш, рағбатлантириш ва жазолашда ҳар бир ўқувчига хос руҳий ҳолатни хисобга олиш;
  7. Иродавий сифатлар (ишонтириш, мақсадга эриша олиш, изчиллик. қатъийлик)ни шакллантиришга эришиш;
  8. Ҳар бир ўқувчининг имкониятини, қобилиятини ва ўзлаштириш даражасини инобатга олиши;
  9. Гурухда юз бериши мумкин бўладиган ҳолатларни олдиндан англай олиш ва бошқариш.
- Илмий адабиётлар таҳлилидан келиб чиқиб, машгулот ва дарсдан ташқари вақтда ҳарбий ватанпарварлик тарбияси шакл ва услублари бўйича қўйидаги тавсияларга амал қилиниши максадга мувофиқ, деб хисоблаймиз:
1. Буюк саркардаларимиз, хусусан, Амир Темур ва бошқа саркардалар жанговар мероси ютуқлари ҳақидаги маъруза, сухбатлар тайёрлаш ва ўтказиш;
  2. Уруш ва меҳнат фахрийлари, Ўзбекистонлик жангчилар билан учрашувлар ташкиллаштириш;
  3. Эътиборга сазовор саналарга бағишлиланган кечалар, ҳарбий ватанпарварлик тарбияси мавзуси бўйича анжуманлар ўтказиш;
  4. Ҳарбий қисм ва ҳарбий таълим муассасаларига экспурсиялар уюштириш, бевосита таълим жараёни билан танишиш;

5. Турли ҳарбий спорт мусобақалари ва ўйинларида, ҳарбий-техник тўгараклар ишида иштирок этиш;

6. Ҳарбий ватанпарварлик тарбияси мавзусига оид кинофильм, телекўрсатувлар кўриш, тегишли мазмундаги бадиий, тарихий, илмий китобларни жамоада муҳокама қилиш, қаҳрамонлар (прототиплари), ёзувчилар, олимлар билан учрашиш;

7. Музейлар, мемориал комплексларга бориш, урушда ҳалок бўлган жангчилар биродарлик қабрларини зиёрат қилиш, жанговар ва меҳнат шон-шуҳрати жойларига сафарлар уюштириш;

8. Ҳарбий ватанпарварлик мавзусига бағишлиланган энг яхши иншо, хикоя, расмлар кўргазмаси, кўрикларини ташкил қилиш.

Ҳарбий таълим муассасаларига қўйиладиган энг муҳим талаб ва илмий-техникавий, ижтимоий тараққиётнинг қатъий шарти – кенг дунёкарашли, эгилувчан тафаккурга эга, ностандарт фикр юритувчи, тезкор қарор қабул қилишга қодир, ҳарбий соҳани эгаллашга юқори қизиқиш, ижодий фаолият юрита оладиган креатив ҳарбий мутахассисни шакллантиришдан иборат.

“Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицей ўқувчиларининг шахс хусусиятларини ҳар томонлама ўрганиш билан биргаликда танлаган касбида меҳнат қилишга лаёқати, қобиляти, қизиқишини аниқлашдаги методикалар ишланамаларидан фойдаланиш – ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда ҳарбий касбга йўналтириш энг муҳим восита ҳисобланади.

**Таҳлил.** Биз илмий тадқиқот ишимизда “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицей ўқувчиларини ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишларини олиб бориш билан биргаликда уларнинг ҳарбий соҳани эгаллашга бўлган қизиқишиларини ўрганиш мақсадида “Ҳарбий хизматчи бўлишни хоҳлайсанми” номли махсус сўровнома тузиб чиқдик ва ўқувчиларда ўтказиб таҳлил ишларини олиб бориб қўйидаги натижаларга эга бўлдик.

Сўровнома 10 та қўйидаги саволлардан ташкил топган бўлиб, яъни:

1. Ҳарбий лицейга ўз хоҳишингиз ва қизиқишингиз билан кирганмисиз?

2. Ҳарбий лицейга ўқишга кирмасдан олдинги тасаввурларингиз, киргандан кейинги тасаввурлар билан мос келдими?

3. Ҳозирги вақтда ҳам ҳарбий хизматчи бўлиш фикрингиз мавжудми?

4. Ҳарбий хизматчи бўлиш учун қандай шахс сифатларига эга бўлиш керак?

5. Оиласизиз ва қариндошларингиз орасида ҳарбий хизматчилар борми?

6. Нима учун ҳарбий хизматчи бўлмоқчисиз?

7. Ҳарбий хизматчи бўлиш учун атрофдагиларнинг қўллаб қувватлашлари (мотивация) кераками?

8. Нима деб ўйлайсиз келажакда ҳарбий хизматчи бўлиш учун сизда ирова кучи етарлики, ҳар қандай қийинчиликка чидай оласизми?

9. Ҳарбий соҳага қизиқишингизни ошириш учун нималарга эътибор бериш керак деб ўйлайсиз?

10. Сизда ҳарбий хизматчи бўлиш учун қандай ҳарактер хусусияти етишмайди, ўзингизда қайси характерни (сифатни) шакллантиришни хоҳлайсиз каби саволлардан иборат бўлди.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
80%	70%	75%	75%	60%	70%	62%	80%	80%	70%
10%	30%	10%	25%	40%	30%	38%	10%	20%	20%
10%	-	15%	-	-	-	-	10%	-	10%

**Миллий гвардия “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицей ўқувчиларида ўтказилган сўровнома натижалар таҳлилига кўра:**

**1-устунда** “Ҳарбий лицейга ўз хоҳишингиз ва қизиқишингиз билан кирганмисиз” саволига 80% ўқувчилар ўз хоҳиши билан кирганларни, 10% ўқувчилар ота-онаси хоҳиши билан, 10% дўстим, синфдошим киргани учун деб жавоб беришганлиги.

**2-устунда** “Ҳарбий лицейга ўқишга кирмасдан олдинги тасаввурларингиз, киргандан кейинги тасаввурлар билан мос келдими” саволига 70% ўқувчилар “Ҳа” деб, 30% ўқувчилар “Йўқ” деб жавоб беришганлиги.

**3-устунда** “Ҳозирги вақтда ҳам ҳарбий хизматчи бўлиш фикрингиз мавжудми” саволига 80% ўқувчилар 75% ўқувчилар “Хоҳлайман”, 10% ўқувчилар “Хоҳламайман”, 15% ўқувчилар “Ҳали ҳам бир қарорга келмадим” деб жавоб беришганлиги.

**4-устунда** “Харбий хизматчи бўлиш учун қандай шахс сифатларига эга бўлиш керак” саволига 75% ўқувчилар ўз фикрларини билдирганлар, 25% ўқувчилар “Билмайман” деб жавоб беришганлиги.

**5-устунда** “Оиласиз ва қариндошларингиз орасида ҳарбий хизматчилар борми” саволига 40% ўқувчилар “Йўқ” деб, 60% ўқувчилар “Ҳа” деб жавоб беришганлиги.

**6-устунда** “Нима учун ҳарбий хизматчи бўлмоқчисиз” саволига 30% ўқувчилар билмайман деб, 70% ўқувчилар ўз фикрларини билдирганлар.

**7-устунда** “Ҳарбий хизматчи бўлиш учун атрофдагиларнинг кўллаб қувватлашлари (мотивация) кераками” саволига 62% ўқувчилар “Керак эмас бусиз ҳам эплайман” деб, 38% ўқувчилар “Ҳа керак” деб жавоб беришганлиги.

**8-устунда** “Нима деб ўйлайсиз келажакда ҳарбий хизматчи бўлиш учун сизда ирода кучи етарликми, ҳар қандай қийинчиликка чидай оласизми” саволига 80% ўқувчилар “Ҳа чидайман”, 10% ўқувчилар йўқ чидамасам керак; 10% ўқувчилар билмасам, ўйлаб кўрмапман деб жавоб беришганлиги.

**9-устунда** Ҳарбий соҳага қизиқишингизни ошириш учун нималарга эътибор бериш керак деб ўйлайсиз саволига 80% ўқувчилар ўз ижобий фикрларини, 20% ўқувчилар билмайман деб жавоб беришганлиги аниқланди.

**10-устунда** “Сизда ҳарбий хизматчи бўлиш учун қандай ҳарактер хусусияти етишмайди, ўзингизда қайси ҳарактерни (сифатни) шакллантиришни хоҳлайсиз” саволига 70% ўқувчилар ўз фикрларини, 20% ўқувчилар “Шарт эмас”, 10% ўқувчилар “Билмайман” деб жавоб беришганлиги аниқланди.

**Хуроса.** Юқоридаги натижалар таҳлили ва фикрларга асосланган ҳолда шуни хуроса қилиш мумкинки, ҳарбий лицей ўқувчиларининг ҳарбий лицейда таълим олиш ва ҳарбий хизматчи бўлишига бўлган интилишлар борлиги маълум бўлди, бироқ ўқув йил давомида ҳарбий соҳани эгаллаш, ҳарбий Ватанпарварлик туйғуларини бардавом руҳда бўлишини таъминлаш мақсадида ўқувчиларни ҳарбий соҳани эгаллашда ўз қобилиятларига яраша тўғри танлашларига эришиш, ҳарбий соҳани эгаллашга бўлган қаътийлик, ирода кучи ҳамда ҳарбий Ватанпарварлик туйғусини мустахкамлашда ҳарбий лицей ўқитувчилари, командирларининг билим маҳорати ва билим савияси, дидактик (шунингдек, академик, ташкилотчилик, перцептив ва х. к.) қобилиятлари юксак бўлиши, фан асосларини турмуш билан боғлаб ўрганилиши, тўғарак ва қўшимча, ёрдамчи курслар оқилона уюштирилиши, психологик машғулотлар асосида руҳан чиниктириш, тетиклик, бардамлик, ўз-ўзига ишонч каби ҳислатларни ривожлантириш шунингдек, ҳарбий соҳа ва бошқа касблар тўғрисида маърузалар ўқилиши, сухбатлар, мунозаралар ўтказилиши, саёҳатлар, учрашувлар, касб-хунар фотокўргазмаларини ташкил этиш орқали ўқувчиларда ҳарбий Ватанпарварлик туйғуси ҳамда ҳарбий касбий соҳани эгаллашга бўлган қизиқишиларини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга хисобланади.

#### Адабиётлар:

1. Сатиб-Алдиев А.А. Таълимнинг фаол шакл ва методлари. // Методик тавсиялар: – Тошкент ОУҚБО, 2007. – 45 б.
2. Журавлев А.Л. Патриотизм как объект изучения психологической науки / А.Л. Журавлев, А.В. Юрьевич. // Психологический журнал. – 2016. – Т. 37. – № 3. – С. 88-98.
3. Махмудов Р.М, Акбаров Л.И. Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси амалда. PEDAGOGS international research journal. Volume-1, Issue-1, January-2022, v 223-230.
4. Сайдов О.Б, Ватанпарварлик – психологик феномен сифатида. - DOI: 10.34920.

*Муҳаммадиева Шаҳло Фаниевна,*

*Тошкент шаҳридаги ММФИ Миллий тадқиқот ядроуниверситети*

*Федерал давлат автоном олий таълим муассасасининг филиали катта ўқитувчиси  
mikhmatmadiyevashaxlo9@gmail.com*

## **НОГИРОНЛИГИ БОР (КЎРИЩДА МУАММОСИ БОР) ШАХСЛАР ТАЪЛИМНИ ИЖТИМОИЙЛАШУВИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Аннотация.** Мақолада автор кўришида нуқсони бор бўлган шахсларнинг турлари, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, уларнинг таълимни ижтимоийлашиудаги муаммолар, шунингдек, инклузив таълим ва алоҳида эҳтиёжга эга ёшларнинг ижтимой мослашуvinинг психологик хусусиятларини ҳам таҳдил қиласди. Бундан ташқари кўришида нуқсонга эга шахсларнинг жасият билан бирлашишига, таълим олишига ёрдам берадиган бир қатор замонавий технология турларининг тавсифи ҳам мақолада келтирилган.

**Калим сўзлар:** ногиронлик, инклузив таълим, ижтимоийлашув, мослашув, руҳий аҳвол, ҳимояланиш, методлар, кўриши қобиляти, «ҳис қилиши орқали кўриш».

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛИЗАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ (С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ)**

**Аннотация.** В статье автор анализирует виды лиц с нарушениями зрения, их специфические особенности, проблемы их социализации в образовательном процессе, а также психологические аспекты инклюзивного образования и социальной адаптации молодёжи с особыми потребностями. Кроме того, в статье представлено описание ряда современных технологий, которые помогают лицам с нарушениями зрения интегрироваться в общество и получать образование.

**Ключевые слова:** инвалидность, инклюзивное образование, социализация, адаптация, психологическое состояние, защита, методы, зрительная способность, “видение через ощущения”.

## **PSYCHOLOGICAL FEATURES OF EDUCATIONAL SOCIALIZATION OF PERSONS WITH DISABILITIES (VISUAL IMPAIRMENT)**

**Abstract.** In this article, the author analyzes various types of visually impaired individuals, their unique characteristics, and the challenges they face in educational socialization. The article also examines the psychological aspects of inclusive education and social adaptation for young people with special needs. Furthermore, it provides a description of several modern technologies that assist visually impaired individuals in integrating into society and accessing education.

**Keywords:** disability, inclusive education, socialization, adaptation, mental state, protection, methods, visual ability, “tactile vision”.

**Кириш.** Бугунги кунда, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, дунёда камиди 2,2 миллиард одам жиддий кўриш муаммоси ёки кўрликтан азият чекмоқда [1]. Ҳозирги вақтда инклузив таълим ва алоҳида эҳтиёжли ёшларнинг ижтимой мослашуви масаласи жуда муаммоли. Ҳолбуки, қўпчилик ўқитувчилар бундай талабалар билан ишлаш усусларини билишмайди, шунингдек, ўқув материалларини ўқув жараёнига мослаштиришни яхши шакллантирганлар. Йиллар давомида болалар ривожланиши, социологияси ва маҳсус таълим соҳасидаги тадқиқотлар ўқитувчиларни кўр болалар чекловларсиз мухитда тарбияланишса улар ўсади, ривожланади ва кўпроқ ижтимой ҳаётга эришади деган холосага келди. Кўзи ожизлар таълими бўйича яхши тайёрланган мутахассислар томонидан қўллаб-куватланадиган маҳаллий таълим орқали бу болалар атрофдаги дунё ҳақиқатларини чукур англаш учун зарур бўлган кундалик умумий тажрибалардан баҳраманд бўлишлари мумкин. Шунга кўра, ногиронликка эга инсонлар, хусусан кўзи ожиз шахсларнинг таълим олиш масаласи долзарбdir. Ўзбекистонда инклузив таълимни ривожлантириш, алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини такомиллаштириш ҳамда уларга кўрсатиладиган таълим хизматлари сифатини яхшилаш мақсадида 2020 - 2025 йилларда халқ таълими тизимида инклузив таълимни ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилган. Концепция Ўзбекистон Республикасида инклузив таълимни ривожлантиришнинг мақсадлари, вазифалари, устувор йўналишлари, ўрта ва узок муддатли

истиқболдаги босқичларини белгилайди ҳамда инклузив таълимни ривожлантиришга йўналтирилган дастурлар ва комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш учун асос бўлади [2]. Ҳозирги босқичда инклузив таълимнинг долзарб вазифаларидан бири ўқув жараёнида кўзи ожиз ва кўр ўқувчиларни ижтимоийлаштиришнинг янги шаклларини аниқлашдан иборат. Интернет ижтимоийлашувининг функционаллигини тушуниш айниқса мухимдир - бу умумий таълим тизимини ва хусусан, инклузив таълимни ривожлантириш механизмларини ўз ичига олади. Алоҳида таълимга муҳтож одамлар учун ўқитиши ташкил этиш давлатдаги иқтисодиётнинг ҳолати, сиёсий тизим, давлатнинг ижтимоий сиёсати, дин, маълум бир миллатнинг менталитети каби кўплаб омилларга боғлиқ.

**Методология.** Автор мақолада М.Селигман, Б.Г. Ананьев, А.Г. Литвак, А.И. Мещеряков ва бошқаларнинг ёш ногиронларни турли даврларда жамиятта муваффақиятли мослашишлари ҳақидаги ишларини таҳлил қиласди.

Ўзбекистонда ногиронлиги бўлган шахсларни ижтимоийлаштириш ва ҳимоя қилиш масалалари бир қатор социолог олимлар жумладан, З.Ф.Узакова, Д.Юсупов, А.Абдухалилов кабилар томонидан таҳлил қилинган ва автор ушбу олимлар ишларидан ҳам бир қаторларини кўриб чиқкан. Бундан ташқари, 2020-2025 йилларда ҳалқ таълими тизимида инклузив таълимни ривожлантириш концепцияси келтирилган фикр-мулоҳазалар ва таҳлил қилинган рақамларга ҳам мурожат қилинган. Мақолада кўзи ожизлар учун яратилган электрон платформалар ва уларнинг хусусиятлари, фарқлари ҳақида ҳам таҳлил олиб борилган.

**Асосий қисм.** Кўришда муаммоси бор бўлган шахсларнинг аввало ижтимоий ҳаётга мослашуви мухимдир. А.И. Мещеряковга кўра, меҳнат фаоллининг мавжудлиги инсоннинг атроф-мухитга ижобий мослашуви кўрсатиши мумкин. Кўр, кар-соқовларнинг органик эҳтиёжларни қондиришдаги бу фаоллик, ногиронлиги бор одамларни мослаштириш бўйича барча ишлар уларда эрта ёшда индикатив тадқиқот фаолиятини ривожлантиришга асосланган бўлиши керак [3,-С.93]. Б.Г.Ананьевнинг таъкидлашича, одамларда "сезгиларнинг ўзи овқатланиш ва кўпайишдан ташқари мустақил ҳаётий аҳамиятга эга бўлган ташқи дунёни билиш ва унга мослашишга бўлган эҳтиёжнинг алоҳида турига айланади" [4,-С.61]. Ўрганилган ночорлик" тушунчаси М. Селигман томонидан киритилган бўлиб, ногироннинг бошқалардан ҳаддан ташқари ҳимояланиш таъсири остида нафакат кундалик (одатий) вазиятларда, балки у ҳали ҳаракат қилишга уринмаган янги вазиятларда ҳам ижобий натижага эришишга интилишдан бош тортишидир [5, -Р.47]. Шу фикрга таянадиган бўлсак ногиронлиги бор шахсларнинг , хусусан кўришда муаммоси бўлган инсонларни маълум бир гурухга ажратиб иҳоталаш орқали биз уларга нафакат ёрдам берадиган, балки бутунлай акс таъсир кўрсатадиган натижаларга эришишимиз мумкин.

Узакова З.Ф. фикрига кўра, ижтимоийлашув барча ижтимоий жараёнларни қамраб олган икки томонлама жараёндир. Бунинг натижасида шахс маълум бир билимлар, меъёрлар ва қадриятлар тизимини ўзлаштиради ва кўпайтиради [6]. Бу эса ўз навбатида ногиронлиги бор инсонларга ўзларини жамиятнинг бир қисми сифатида хис қилишларига ёрдам беради, изоляция ва ёлғизлик туйғуларини камайтиради. Бу ўз-ўзини хурмат қилиш ва ўзига ишончни оширишга ёрдам беради.

Абдухалилов А. таъкидлашича, ногиронлиги бор бўлган ва ногирон бўлмаган талабалар ўртасида ижтимоий-психологик параметрларида глобал фарқлар мавжуд эмас, бу инклузив олий таълимни янада кенгайтириш ва ривожлантириш учун қулай шароит яратади [7, -Р .70]. Ушбу фикрга таянадиган бўлсак, ногиронлиги бор шахсларнинг ижтимоийлашувининг маъкул ечимларидан бири-инклузив таълим, хусусан инклузив олий таълимни самарали тарзда йулга кўйиш, деган хulosага кела оламиз.

Олим Д.Юсуповнинг фикрига кўра, ногиронлиги бор инсонларнинг ҳақ-хукуқлари кўп йиллардан бери поймол қилиб келинган. «Шуни таъкидлаш керакки, бир жойда ўқиши, ишлаш, яшаш ва маданий, кўнгилочар ва спорт тадбирларида қатнашиш қулай бўлса-да,кар ва кўр одамлар узок вақтдан бери асосий жамиятдан ажратилган. Бунинг асосий сабаби шундаки, Совет ҳукумати кар ва кўр одамларни утопик коммунистик мағкурани сингдириш вазифасини юклаган Карлар жамияти ва Кўрлар жамияти институтлари орқали назорат қилиш осонроқ бўлган», таъкидлайди Д.Юсупов [8,-Р. 221]. Бундан шу хulosага келишимиз мумкинки, ҳар қандай ногиронлиги бўлган шахс – жамиятнинг teng ҳукукли аъзоси ва уларнинг жамият билан ижтимоийлашувига тўсик бўлувчи у ёки бу ҳолатнинг бартараф этилиши доимо долзарбdir.

Кўришда нуқсони бор шахсларнинг ижтимоийлашувидан ташқари уларнинг руҳияти билан боғлиқ ҳолатлар мавжудки, уларни таҳлили кўпгина муаммоли вазиятларни ечишда мухим ўрин тутади. Визуал нуқсон шароитида психо-эмоционал стресс кучаяди, шахснинг қийин ҳаётий вазиятларни идрок этиши кескинлашади, уларни бартараф этишининг адекват воситаларини танлаш

қийинлашади, ички рухий зиддият ҳолати, ижтимоий мослашув, хатти-харакатларнинг бузилиши ва шу каби муаммолар намоён бўлади. А.Г. Литвакга кўра, оғир интеллектуал бузилишлар, нейропсик аномалиялар ва психофизик инфантилизм ҳам кўр ва заиф кўрадиганлар орасида жуда кенг тарқалган. Унинг таъкидлашича, кўзи ожизлар ва кўриш қобилияти заиф одамларнинг психикасини ўрганишнинг қийинлиги шундаки, ушбу таърифга кирувчи одамлар контингенти касалликнинг табиати ва асосий кўриш функцияларининг бузилиши даражасида жуда хилма-хилдир [9,-С.8].

**Таҳлил ва натижалар.** Кўришни йўқотишнинг турли даражалари мавжуд: иккала кўзнинг мутлақ (тўлиқ) кўрлиги, бунда ёруғлик хиси ва рангни кўриш бутунлай йўқолади; амалий кўрлик, бунда ёруғликни идрок этиш ёки қолдик кўриш сақланиб қолади, бу маълум даражада ёруғлик, ранглар, обьектларнинг контурлари ва силуэтларини идрок этишга имкон беради.

Белгиланган таснифга кўра, кўриш кескинлиги 0% дан 0,04% гача бўлган шахслар кўрлар деб таснифланади. Шундай қилиб, кўр аҳолига бутунлай кўр (тўлиқ кўр) ва қолдик кўриш қобилиятига эга (ёруғликни идрок этишдан кўриш кескинлиги 0,04% гача) бўлган одамлар киради. Кўриш кескинлиги 0,05% дан 0,2% гача бўлган кишилар кўриш қобилияти заиф гурухга кирадилар ва улар маълум гигиеник талабларга риоя қилган ҳолда кўриш қобилияти билан ишлаши мумкин бўлган одамлардир.

Кўриш қобилияти паст бўлган талабалар (ёки кўриш қобилияти паст ва нормал ўртасида чегара чизиги бўлган) кўриш кескинлиги 0,5 (50%) дан 0,8 (80%) гача бўлган кўзни тузатиш билан яхши кўрадиган шахслардир. Кўриш қобилияти паст бўлган талабалар (ёки кўриш қобилияти паст ва нормал ўртасида чегара чизиги бўлган) кўриш кескинлиги 0,5 (50%) дан 0,8 (80%) гача бўлган кўзни тузатиш билан яхши кўрадиган шахслардир. Шундай қилиб, юкорида таъкидланганидек, кўрлик ва паст кўришдаги кўриш ҳолати маълум фарқлар билан тасвириларни ишлаб чиради ва буни 1-жадвалда кузатишимииз мумкин.

#### 1-жадвал.

#### Кўришда муаммоси бор болаларнинг кўриш даражаси бўйича фарқ таснифи

Болалар тоифалари	Болалар гуруҳлари	Визуал қобилиятлар ва чекловлар
Кўрлик	бутунлай кўрмаслик	визуал сезгиларнинг тўлиқ йўқлиги (ёруғлик ва қоронғуликни ажратади)
	ёруғлик идроки билан а) нотўғри проекция билан: улар ёруғлик йўналишини тўғри аниқлай олмайдилар ва натижада мустақил йўналиш учун ёруғлик идрокидан фойдаланадилар; б) тўғри проекция билан: ёруғлик йўналишини тўғри аниқлай оладилар; в) ранг идроки билан: ёруғлик, қоронғулик ва рангларни фарқлай оладилар.	визуал сезгиларга эга
	қисман оптик тузатиш шароитида(яъни кўзойнаклар билан) яхши кўрадиган кўз учун кўриш кескинлиги 0,005 дан 0,04 гача)	объектларни визуал тарзда идрок эта олади, лекин визуал тасвирилар сифатсиз
Кўриш қобилияти паст (оптик узатиш шароитида яхши кўрадиган кўзниң кўриш кескинлиги кўрсаткичи 0,05-0,4).	оғир даражаси(оптик тузатиш билан яхши кўрадиган кўз учун кўриш кескинлиги 0,05 дан 0,09 гача)	Одатда бир қатор кўриш функциялари бузилади: кўриш майдони (торайиши), ёруғликни идрок этиш (фотосенситивликнинг ошиши ёки пасайиши), рангларни фарқлаш, окуломотор функциялар сезиларли даражада мураккаблашади. Анъанавий ёзиш ва ўқиш тизимини ўзлаштириш

		билин бир қаторда, бу болалар ёзиш ва ўқишиңинг рельф-нуқта тизимини ўрганишлари керак.
	ўртача даражса (оптик тузатиш билан яхши кўрадиган кўз учун кўриш кескинлиги 0,1 дан 0,2 гача)	Визуал тасвирларда бузилишлар ва ҳаракатланаётганда визуал назорат қилишда қийинчиликлар мавжуд. Кўпгина болалар монокуляр кўриш қобилиятига эга. Болаларда кўриш кескинлигининг пасайиши билан бирга, бошқа кўриш функциялари (кўриш майдони, ёруғликни идрок этиш, кенглик контраст сезигирлиги, рангларни фарқлаш, окуломотор функциялар ва бошқалар) бузилиши (индивидуал ёки комбинацияланган) бўлиши мумкин.
	затиф даражса (оптик тузатиш билан яхши кўрадиган кўз учун кўриш кескинлиги 0,3 дан 0,4 гача)	Марказий кўришнинг доимий пасайиши ва иккиламчи визуал асоратлар (ғилайлик) тез-тез учрайди.

Кўзи ожиз инсоннинг ўз ногиронлигига бўлган ўзига хос муносабатини белгилайдиган муҳим омил - бу кенг қўламли барқарор ижтимоий алоқаларнинг мавжудлигини ўз ичига олган ижтимоий қўллаб-кувватлашдир. Ижтимоий ёрдамнинг мавжудлиги биргалиқда яшаш ва бошқа одамлар билан бўш вакт ўтказиш, дўстларга эга бўлиш, қизиқиқарли клублар ёки жамоат бирлашмаларига аъзолик билан тавсифланади.

Кўзи ожиз одамларни ўргатишда дунёни ҳис қилиш орқали «кўриш» долзарб бўлиб қолади, шунинг учун "болаларга тайёргарлик синфларидан то тўққизинчи синфгача ҳис қилиш орқали «кўриш»ни шакллантириш муҳимдир. Шунингдек, «бу вакт оралиғида уларга мўлжал олишни ўргатилади. Бошланғич мактабда микромухитда, масалан, кичкина хонада, иш столида тана билан ишлашни ўргатилади. 3-4-синфларда синфхоналар, турап-жой бинолари ва мактаб худудида ҳаракат қилишни ўргатилади. Бу ёшда болалар ҳассадан фойдаланишни бошлашади. 6-7-синфларда эса мактабдан ташқарида кўчада ҳаракат қилишни ўргатилади».

Баъзи худудларда кўзи ожиз болалар учун маҳсус овозли светофорлар ўрнатилаётгани қувонарли ҳолдир. Бунда шаҳарнинг ўта гавжум кўчаларида жойлашган кўзи ожиз болаларнинг маҳсус мактаблари олдида ўрнатилган овозли светофорлар болаларга огоҳлантирувчи овозлар ёрдамида кўрсатма бериб туради. Бу эса мактаб ўқувчиларининг хавфсизлигини таъминлашнинг асосий мезонидир.

Давлатимизда алоҳида таълимга эга ёшларни эҳтиёжларни қондириш мақсадида бир қатор чора-тадбирлар кўрилмоқда. Умумтаълим муассасаларида имконияти чекланган болаларни ўқитиш учун зарур шароитларни яратишни кенгайтириш мақсадида инклузив таълим тизимини ташкил этиш бўйича янгича ёндашув республикада татбиқ этилмоқда. Умумий ўрта таълим ташкилотларида инклузив таълимни ташкил этиш соҳасини тартибга солувчи норматив-хуқуқий хужжатлар ишлаб чиқилмоқда. Халқ таълими тизимида жисмоний ёки психик ривожланишида нуқсони бўлган болалар учун 86 та ихтисослаштирилган мактаб ва 21 та мактаб-интернат мавжуд бўлиб, уларда 20 610 нафар бола таълим олмоқда. Шунингдек, жисмоний ёки психик ривожланишида нуқсони бўлган ва узок муддатли даволанишга муҳтоҷ 13 437 нафар болалар уйда таълим олмоқда. Алоҳида шароитларда тарбиялаш ва таълим беришга муҳтоҷ болаларнинг таълими 2 та ихтисослаштирилган ўқув-тарбия муассасасида амалга оширилмоқда. 19 та Мехрибонлик уйи ва 3 та болалар шаҳарчасида 2 577 нафар етим ҳамда ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болалар тарбияланмоқда [10].

Кўзи ожиз одамлар учун таълим жараёнининг асосий ўзига хослиги визуал идрок этишнинг ўқулиги (ёки сезиларли даражада чекланиши) шароитида ахборот алмашинувини амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари билан белгиланади [11,-С.18]. Кўзи ожизлар учун ўқув жараёнининг асосий хусусияти - ўқувчиларда барча зарур кўникма ва билимларни ривожлантириш учун ўқув материали ва ўқитиш усувларини мослаштириш зарурати. Бунинг учун идрокнинг тактил ва эшитиш воситаларидан фойдаланиш, эшитиш ва тегиниш сезигиларига ургу бериб ўргатиш, инклузив таълим сингари маҳсус технологиялар, материаллар ва ёндашувлардан фойдаланиш керак.

Кўзи ожиз ва заиф кўрадиган ўқувчилар кўриш қобилиятининг бузилиши натижасида маҳсус таълим эҳтиёжларига эга. Кўзи ожиз ва заиф кўраётган ўқувчиларнинг маҳсус таълим эҳтиёжлари таркибига, бир томондан, барча ногирон ўқувчиларга хос бўлган таълим эҳтиёжлари, бошқа томондан, факат ушбу гурухларнинг ҳар бирига хос бўлган таълим эҳтиёжлари ўз ичига олади.

Кўзи ожиз ва заиф кўрувчиларга ёрдам беришга мўлжалланган бир нечта умумий ва таълим платформалари, шунингдек, янги технологиялар мавжуд. Улардан баъзиларига тўхталиб ўтамиш:

### 1. Экранни ўқиш дастурлари ва ёрдамчи дастурлар

- JAWS (Job Access With Speech)- Экрандаги матнни нутққа айлантирувчи кенг кўлланиладиган экран ўқувчи. Бу кўр фойдаланувчиларга веб-сайтлар, хужжатлар ва дастурий таъминот билан навигация қилиш ва ўзаро алоқада бўлишга ёрдам беради.
- NVDA (NonVisual Desktop Access): Нутқ ва Брайл ёзувларини тақдим этувчи Windows учун бепул, очик манбали экран ўқувчи. NVDA ўзининг қулиялиги ва арzonлиги туфайли машҳурдир.
- VoiceOver (Apple): Барча Apple қурилмаларига (iPhone, iPad, Mac) ўрнатилган. VoiceOver экрандаги контентни овоз чиқарib ўқийди ва сенсорли навигацияга имкон беради.
- TalkBack (Android): Android қурилмаларига ўрнатилган экранни ўқиш мосламаси кўриш қобилияти заиф фойдаланувчиларга ўз телефонлари ёки планшетларига кириш ва улар билан мулоқот қилишда ёрдам беради

### 2. Таълим платформалари ва ўқув воситалари

- Learning Ally: Кўришда нуқсони бўлган талабалар учун аудиокитоблар ва ўқув материалларини таклиф қилувчи онлайн платформа. Унда аудио форматдаги дарсликлар ва адабиётларнинг катта кутубхонаси мавжуд.
- Bookshare: Босма имконияти чекланган шахслар учун рақамли китоблардан бепул фойдаланиш имконини берувчи онлайн хизмат. Аъзолар китобларни аудио, Брайл алифбоси ёки катта ҳажмдаги босма форматларда юклаб олишлари мумкин.
- Braille eReaders: Braille Note Touch Plus каби қурилмалар Брайл алифбосидаги таълим ресурсларига кириш имконини беради. Ушбу электрон ўқувчилар рақамли контент ва иловаларга киришда Брайл алифбосида ўқиш ва ёзиш учун фойдалидир.

### 3. Янги технологиялар:

- Ақлли кўзойнаклар ва тақиладиган қурилмалар
- Aira: Кўзи ожиз фойдаланувчиларни ўз смартфонлари ёки ақлли кўзойнаклари орқали малакали мутахассислар билан боғлайдиган хизмат. Мутахассис атрофни тасвирлаши, матнларни ўқиши ёки навигацияда ёрдам бериши мумкин.
- OrCam MyEye: Кўзойнакларга уланадиган ва матнни ўқиш, юзларни таниб олиш ва маҳсулот ва нарсаларни аниқлаш учун сунъий интеллектдан фойдаланадиган тақиладиган қурилма.
- Envision Glasses: Атроф-муҳитни тасвирлаш, матнни ўқиш ва кундалик ишларда ёрдам бериш учун АИдан фойдаланадиган ақлли кўзойнаклар. Ушбу кўзойнаклар визуал вазифаларни янада қуляйроқ қилиш учун мўлжалланган. Бу инновациялар кўришда нуқсони бўлган шахслар учун қуляйлик, ўрганиш ва мустақилликни оширишга қаратилган.

**Тавсиялар.** Юқорида кўзи ожиз ўрганувчиларнинг умумий таълим эҳтиёжларини келтириб ўтган бўлсақ, қуйида дарс жараёнида ўргатувчи -ўқитувчи эътибор қартиш лозим бўладиган айrim кўрсатмаларга тўхталиб ўтмоқчимиз(инглиз тили дарси мисолида)

-доимий овоз чиқарib туришини унумаслик;

Бу шуни англатадики, масалан, ўқитувчи доскада ёзаётганида, нима ёзаётганини айтиши керак. Ҳар қандай кўриш қобилияти заиф талаба уни фойдали деб топади ва кўриш қобилиятига эга бўлган кўплаб талабалар учун ҳам фойдали бўлади.

-талабани синфнинг қолган қисмига жалб қилиши;

Бу камдан-кам ҳолларда (агар бўлса) муаммо; ўқувчиларни гурухларга бўлишда ҳаммани бирдек қамраб олиш ва кўзи ожиз ўқувчини алоҳида ёрдам учун ажратмаслик.

- кўзи ожиз ўқувчи бутун синф билан танишиши учун ҳамма гапираётганига ишонч ҳосил қилиши;

Масалан, дарс учун давомат қилаётib исмларни чақириш, шунчаки, ҳа, деб жавоб бериш ўрнига, талаба "ҳа" деб айтиши ва ўзининг севимли қўшиқчиси ёки кўллаб-қувватлаётган футбол жамоаси ёки ёқтирадиган актёрини бериши керак. Бу кўзи ожиз ўқувчига бошқа ўқувчиларнинг қаердалигини ва хонанинг қаерида ўтирганини кўрсатишга имкон беради.

-иложи борича реалидан фойдаланиши;

Автомобилнинг флеш-картасини қўрсатиш ўрнига, қўриш қобилияти заиф ўқувчи тегиши ва хис қилиши мумкин бўлган модел автомобилдан фойдаланиш, шунда ўқувчилар буни хис қилишлари ва тассавур қилишлари мумкин.

**Хулоса.** Хулоса қилиб айтганда, олиб борилган тадқиқот шуни кўрсатдики, кўзи ожиз ўқувчилар кўра олмасликлари мумкин, лекин улар бошқа соҳаларда мукаммал қобилиятга эга, шунинг учун керак бўлганда ўқитувчи кичик тузатишлар киритиши керак, лекин уларга ўрганишга ёки бошқа ҳеч нарса қилишга қодир эмасдек муносабатда бўлмаслик керак.

Кўзи ожиз шахс жамиятнинг бир бўлаги бўлиб хис қилаолишини таъминлаш шароитини нафақат синфхонада балки бутун кундалик хаётда яратиш керак.

Ўзбекистонда кўзи ожиз ёки кўр одамлар таълимни ижтимоийлаштиренинг психологик жиҳатларини таҳлил қилувчи илмий тадқиқотлар деярли йўқ ва буни ўрганишга эҳтиёж катта. Бу ўз навбатида кўзи ожиз ва заиф кўрувчиларни касбий фаолиятга сифатли тайёрлашни таъминлаш учун шароит яратиш имконини беради.

#### Адабиётлар:

1. Mani MN. The role of integrated education for blind children. Community Eye Health. 1998;11(27):41-2. PMID: 17492039; PMCID: PMC1706061. [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC1706061/> (мурожат санаси: 30.11.2024).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 сентябрьдаги ПҚ-4860-сон “Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада тасомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори, // [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: <https://lex.uz/ru/docs/5044711> (мурожат санаси: 30.11.2024).
3. Пути совершенствования социально-трудовой реабилитации инвалидов по зрению: Метод. рекомендации/Сост. В.П. Жохов, А.Г. Литвак и др 1988. С.93
4. Ананьев Б.Г. Теория ощущений / Ананьев Б.Г. – Л.: ЛГУ, 1961. – 457 с. – С. 61.
5. Seligman, Martin E.P. Helplessness: On Depression, Development, and Death. 1975. Р-47
6. Узакова З.Ф. Особенности социализации и трудовой интеграции молодежи с ограниченными возможностями [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: <https://diss.natlib.uz/tanishish> (мурожат санаси: 30.11.2024).
7. Abdulkhalilov A. The main features of providing employment for young people with disabilities in Uzbekistan. // Current research journal of pedagogics 2(10): 67-70, October P-70.
8. Yusupov D. Disability and Citizenship in Post-Soviet Uzbekistan: the role of disabled people's // Organisations, mahalla and Islam. Р-221
9. Литвак А.Г. Психология слепых и слабовидящих: учеб.пособие/ А Рос. гос. пед. Ун-т им. А.И. Герцена. - СПб : Изд-во РГПУ,1998.С-8
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрельдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони, // [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: <https://lex.uz/docs/4312785> (мурожат санаси: 30.11.2024).
11. Методические рекомендации «Особенности обучения и психолого-педагогического сопровождения слабовидящих детей в условиях ФГОС ОВЗ», /Маркелова Ю.- Иваново, 2021. С-18.

**Нарзикулова Фируза Ботировна,**  
профессор кафедры «Педагогика, психология и физическая культура»  
Самарканского государственного института иностранных языков,  
доктор психологических наук (DSc)  
*firuza-narzikulova@mail.ru,*  
ID ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-7809-2888>

**Рахиммирзаев Санжар Ботурович,**  
доцент кафедры Психологии факультета социальных наук Национального Университета  
Узбекистана им. М.Улугбека, кандидат психологических наук  
*sanjar-rah@list.ru,*  
ID ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-0151-2175>

## ОСНОВНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ БЛАГОПОЛУЧИЯ СОТРУДНИКОВ КОМПАНИЙ

**Аннотация.** Статья посвящена изучению основных подходов исследования благополучия сотрудников компаний. Рассмотрены различные подходы учёных относительно понимания благополучия сотрудников, раскрыты особенности структурного содержания изучаемого явления, выделены слабые аспекты предлагаемых подходов, требующие эмпирического исследования.

**Ключевые слова:** благополучие сотрудников, структурные компоненты благополучия сотрудников, подходы, концепции благополучия, гедонистический подход к пониманию благополучия, эвидемонический подход к пониманию благополучия, социальный подход к пониманию благополучия, междисциплинарный подход к пониманию благополучия, модель благополучия сотрудника.

### KOMPANIYA XODIMLARINING FAROVONLIGINI O'RGANISHDA ASOSIY YONDASHUVLAR

**Annotatsiya.** Maqola kompaniya xodimlarining farovonligini o'rganishning asosiy yondashuvlari o'rganishga bag'ishlangan. Xodimlarning farovonligini tushunish bo'yicha olimlarning turli xil yondashuvlari ko'rib chiqiladi, o'rganilayotgan hodisa tarkibining xususiyatlari ochib beriladi, empirik tadqiqotlarni talab qiladigan taklif etilayotgan yondashuvlarning zaif tomonlari ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** xodimlarning farovonligi, xodimlar farovonligining tarkibiy qismlari, yondashuvlar, farovonlik tushunchalari, farovonlikni tushunishga hedonistik yondashuv, farovonlikni tushunishga evdemonik yondashuv, farovonlikni tushunishga ijtimoiy yondashuv, farovonlikni tushunishga fanlararo yondashuv, xodimlarning farovonligi modeli.

### BASIC APPROACHES IN STUDYING THE WELL-BEING OF COMPANY EMPLOYEES

**Abstract.** The article is devoted to the study of the main approaches to studying the well-being of company employees. Various approaches of scientists to understanding the well-being of employees are considered, the features of the structure of the phenomenon under study are revealed, and the weaknesses of the proposed approaches that require empirical research are highlighted.

**Keywords:** employee well-being, structural components of employee well-being, approaches, concepts of well-being, hedonistic approach to understanding well-being, eudaimonic approach to understanding well-being, social approach to understanding well-being, interdisciplinary approach to understanding well-being, employee well-being model.

**Введение.** На сегодняшний день современные организации всё больше уделяют внимание благополучию сотрудников как важному аспекту успешного функционирования бизнеса. Благополучие сотрудников включает в себя не только физическое и психологическое здоровье, но и уровень удовлетворённости работой, ощущение безопасности, возможности для профессионального роста и баланс между работой и личной жизнью. Исследования в этой области показывают, что внимание к благополучию сотрудников напрямую связано с повышением их производительности, снижением уровня текучести кадров и укреплением корпоративной культуры.

Разнообразие подходов к изучению благополучия сотрудников обусловлено междисциплинарным характером этой темы. Экономика, психология, социология и менеджмент

предлагают различные перспективы анализа, начиная от изучения материальных условий труда и заканчивая исследованием эмоционального выгорания и вовлечённости. При этом каждая из этих областей подчёркивает значение системного подхода, учитывавшего как личные, так и организационные факторы.

**Цель** данной статьи – рассмотреть основные подходы к исследованию благополучия сотрудников компаний, выделить их особенности и определить направления для дальнейшего изучения. Такой анализ позволит углубить понимание роли благополучия в развитии современного бизнеса и создать основу для разработки эффективных практик управления персоналом.

**Анализ литературы.** Е.И. Рут, Л.И. Августова и другие, придерживаясь преимущественно эвдемонического подхода к пониманию благополучия сотрудников фокусируют внимание на глубоком удовлетворении и самореализации. Основные аспекты этого подхода, как правило, включают:

самореализацию, т.е. создание условий для раскрытия потенциала сотрудников, предоставления возможностей для профессионального роста и развития;

смысл и цель, т.е. помочь сотрудникам в понимании важности их работы и их вклада в общие цели компании, разработка миссии и ценностей, с которыми сотрудники могут себя идентифицировать;

вовлечённость, т.е. поощрение активного участия сотрудников в жизни компании, развитие культуры сотрудничества и обмена идеями;

качество межличностных отношений, т.е. стимулирование открытого и честного общения, поддержка команды и укрепление связей между сотрудниками;

автономия и ответственность, т.е. предоставление сотрудникам свободы в принятии решений и ответственности за свою работу, создание условий для проявления инициативы [11].

Эвдемонический подход в целом способствует более глубокому удовлетворению, повышая вовлечённость и лояльность сотрудников, что ведёт к улучшению общей эффективности компании. Кроме того, эвдемонический подход к благополучию основан на идеях, которые уходят корнями в философию Аристотеля, где благополучие связано с самореализацией и достижением жизненного смысла. В контексте современного понимания благополучия сотрудников в рамках данного подхода, значительный вклад внесли исследователи из области позитивной психологии [5].

Подход Д. Леонтьева охватывает вопросы смысла жизни и самореализации, что связано с эвдемоническим подходом и трактует благополучие сотрудников, фокусируясь на следующих ключевых аспектах:

смысложизненные ориентации, т.е. значимость работы и её соответствие личным ценностям и целям. Ощущение смысла в деятельности способствует повышению удовлетворённости и мотивации;

баланс работы и личной жизни, т.е. способность гармонично сочетать профессиональные и личные обязательства, что способствует снижению стресса и повышению качества жизни;

социальная поддержка, т.е. наличие поддержки со стороны коллег и руководства, что укрепляет чувство принадлежности и снижает уровень профессионального выгорания;

условия и среда труда, т.е. комфортные и безопасные условия работы, способствующие продуктивности и благополучию;

При этом автор подчёркивает важность комплексного подхода к благополучию, учитывая личностные и профессиональные аспекты жизни сотрудников [6].

Придерживаясь эвдемонического подхода к пониманию благополучия Н.С. Глуханюк, О.А. Коропец, М.Н. Юртаева сосредотачиваются на следующих его аспектах:

самореализация, т.е. осуществление личного потенциала и стремление к достижению собственных целей и идеалов;

смысл и значимость, т.е. поиск и реализация смысла жизни, участие в деятельности, которая приносит удовлетворение и соответствует внутренним ценностям;

личностный рост, т.е. постоянное развитие и открытость новому опыту, стремление к самосовершенствованию;

автономия, т.е. способность действовать в соответствии с собственными убеждениями и ценностями, независимо от внешнего давления;

аутентичность, т.е. жизнь в соответствии с истинной сущностью, честность с самим собой и окружающими.

По мнению учёных, эвдемонический подход акцентирует внимание на глубоком внутреннем удовлетворении и смысле, в отличие от более гедонистического фокуса на удовольствия и избегание боли [2].

Согласно позициям Д.Г. Мухамедовой, С.А. Водяха, Д.Г. Орловой, А.Е. Созонтовой и других понимание благополучия сотрудников ориентировано на достижение удовольствия и удовлетворения от профессиональной деятельности, проведённой, проводимой работы. Такое понимание можно отнести к так называемому гедонистическому подходу, основные аспекты которого включают:

удовлетворение потребностей, т.е. обеспечение конкурентоспособной заработной платы и бонусов, предоставление разнообразных льгот, таких как медицинское страхование, питание и транспорт;

комфортная рабочая среда, т.е. создание приятной и удобной обстановки в офисе, обеспечение современным оборудованием и технологиями;

управление стрессом, т.е. проведение мероприятий для снижения стресса, таких как тренинги по управлению стрессом и занятия йогой, предоставление возможности для отдыха и восстановления, в том числе через гибкий график и перерывы;

признание и награды, т.е. регулярное признание достижений сотрудников, использование систем вознаграждения, организация корпоративных мероприятий и праздников для поднятия командного духа;

социальные взаимодействия, т.е. поддержка дружелюбной и открытой корпоративной культуры, организация различных социальных мероприятий для укрепления связей между сотрудниками.

В целом, гедонистический подход помогает создать позитивную рабочую атмосферу, что может повысить благополучие сотрудников, их удовлетворённость, лояльность к компании [1, 8, 10, 12].

По своей сущности, гедонистический подход к благополучию в более широком смысле, включая благополучие сотрудников, основывается на идеях, которые восходят к древнегреческим философам, таким как Эпикур. В современном контексте этот подход часто связан с позитивной психологией. Хотя нет ни одного конкретного автора, который бы разработал гедонистический подход именно к благополучию сотрудников, многие современные исследователи и практики в области организационного поведения и человеческих ресурсов применяют принципы гедонизма. В целом, их работа направлена на создание условий, которые способствуют повышению удовольствия и удовлетворенности сотрудников от работы [7].

Следующим значимым подходом вступает социальный, согласно которого ряд исследователей раскрывают понимание, а также структуру благополучия работников. Так, Л. Григорьева, придерживаясь социального подхода, исследовала благополучие сотрудников, уделяя внимание факторам, влияющим на их психологическое, социальное и профессиональное состояние. Это направление исследований имеет большое значение для понимания и улучшения условий труда, повышения мотивации и продуктивности сотрудников, а также предотвращения профессионального выгорания. По мнению автора, основными компонентами благополучия сотрудников выступают следующие:

физическое благополучие, т.е. здоровье, условия труда, доступ к ресурсам для поддержания здорового образа жизни;

психологическое благополучие, т.е. уровень стресса, эмоциональная устойчивость, удовлетворённость работой и жизнью;

социальное благополучие, т.е. взаимоотношения с коллегами, поддержка от руководства, участие в корпоративной культуре.

Кроме того, учёным выделены следующие факторы, которые имеют значимое влияние на благополучие сотрудников:

условия труда, т.е. наличие гибкого графика, комфортного рабочего места и пр.;

социальная поддержка, т.е. поддержка от коллег, руководителей, семьи;

уровень заработной платы и системы мотивации;

корпоративная культура и возможности для профессионального роста [3, 4].

Дж.С. Хаус, также придерживаясь преимущественно социального подхода, понимание благополучие сотрудника базирует на собственной теории социальной поддержки и организационного стресса. Автор исследовал, как различные формы поддержки и ресурсы на рабочем

месте влияют на благополучие сотрудников, их здоровье, продуктивность и удовлетворённость работой. Согласно авторскому подходу, благополучие сотрудника включает в себя:

физическое здоровье - уровень стресса, отсутствие заболеваний, вызванных работой;

психологическое благополучие - чувство удовлетворённости, эмоциональная стабильность;

социальное благополучие - наличие поддержки коллег, руководителей и семьи;

организационное благополучие - удовлетворенность работой, баланс между профессиональной и личной жизнью.

Таким образом, предлагаемый подход Дж.С. Хауса к благополучию сотрудника фокусируется на взаимодействии рабочего стресса и социальной поддержки, где последний играет ключевую роль в смягчении негативных последствий. Учёный подчёркивает важность не только индивидуальных, но и организационных факторов в обеспечении здоровой и продуктивной рабочей среды [14].

В свою очередь, А.Ю. Лисовская, придерживаясь преимущественно междисциплинарного подхода предлагает трактовать благополучие сотрудника как некое состояние, при котором работник эффективно реализует собственный потенциал, продуктивно работает и вносит свой вклад в развитие компании и общества в целом. Базовыми компонентами благополучия, по мнению автора, выступают:

физическoе благополучие, т.е. состояние здоровья и комфорт человека, которое характеризуется хорошим функционированием организма, отсутствием заболеваний и высоким уровнем физической активности. Оно является одним из ключевых компонентов общего благополучия и тесно связано с психологическим и социальным состоянием;

психологическое благополучие, т.е. состояние, характеризующееся гармонией между внутренними потребностями и внешними условиями жизни, ощущением удовлетворённости собой, своими действиями и жизнью в целом. Оно включает эмоциональный комфорт, устойчивость к стрессу, осмысленность жизни и способность эффективноправляться с трудностями;

социальное благополучие, т.е. состояние, при котором человек ощущает себя частью общества, имеет качественные и поддерживающие межличностные отношения, доступ к необходимым ресурсам, и способен эффективно взаимодействовать с окружающими. Оно связано с чувством принадлежности, социальной защищённости и позитивным восприятием социальной среды;

финансовое благополучие, т.е. состояние, при котором человек обладает достаточными финансовыми ресурсами для удовлетворения своих текущих и долгосрочных потребностей, чувствует себя уверенно в вопросах финансового управления и защищённости, а также может достигать своих финансовых целей без излишнего стресса [7].

Наряду с предыдущим, Н.И. Нагибина – сторонник междисциплинарного подхода, понятие благополучия она представляет как многомерную категорию, которая охватывает различные аспекты жизни сотрудника и напрямую влияет на его производительность и удовлетворённость. Автор рассматривает благополучие как ключевой фактор, формирующий успешность и устойчивость бизнеса. По мнению автора, благополучие сотрудника включает следующие структурные составляющие:

Tahlillar zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning qibiliyatlarini samarali rivojlantirish imkonini berishini tasdiqladi. Masofaviy ta'lif platformalari, o'yninli dasturlar va test tizimlari orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi oshgani kuzatildi.



Tarbiyada milliy an’analardan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning shaxs sifatida shakllanishiga yordam berdi. Shu bilan birga, global talablarga mos yondashuvlarning qo’llanilishi ularni zamonaviy dunyo talablari bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi.

Mazkur natijalar va tahlillar shaxs qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va individual yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishda milliy qadriyatlar va an’analarga asoslangan tarbiya usullari, shuningdek, global talablarga mos universal yondashuvlarni uyg‘unlashtirish yuqori natijalar beradi. Tarbiyada milliy an’analardan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, global talablarga mos yondashuvlarning qo’llanilishi ularni zamonaviy dunyo talablari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

**Xulosa.** Shaxs qobiliyati va uni shakllantirish pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, bu borada o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar zarur. Zamonaviy ta’lim tizimida individual yondashuv, innovatsion texnologiyalar va pedagogik kompetensiyalar qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy omillaridir. Shu boisdan, pedagoglar doimiy ravishda o‘z mahoratlarini oshirib, talabalarga moslashtirilgan ta’lim berish usullarini ishlab chiqishlari zarur. Demak, quyidagi yondashuvlar va usullarni pedagoglar o‘z dars jarayonlarida qo’llashi shaxs qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi:

1. O‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash: dars davomida o‘quvchilarning qobiliyatları va qiziqishlarini kuzatib boorish, diagnostik testlar, psixologik so‘rovnomalar va amaliy topshiriqlar yordamida har bir o‘quvchining qobiliyatlarini aniqlash, o‘quvchilar bilan suhabatlar o‘tkazish va ularning qiziqishlari haqida ma’lumot to‘plash. Buning uchun har bir o‘quvchi uchun “Shaxsiy o‘sish xaritasi” (Growth Map) tayyorlash va ular qanday yo‘nalishda rivojlanayotganini kuzatish mumkin.

2. Differensial va individual yondashuvdan foydalanish: har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos murakkablik darajasidagi mashqlar berish, kuchli va ortda qolayotgan o‘quvchilar uchun alohida o‘quv rejaliari ishlab chiqish, iqtidorli o‘quvchilar uchun qo‘srimcha topshiriqlar va ilmiy loyihamalar tayyorlash.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish: interaktiv darslar, o‘yin elementlari va vizual taqdimotlar orqali o‘quvchilarning diqqatini oshirish, Google Classroom, Kahoot, Quizizz kabi platformalar yordamida interaktiv baholash tizimlarini qo’llash.

4. Mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: o‘quvchilarga muammoli vaziyatlar berib, ularning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish, o‘quvchilarga loyiha ishlari va mustaqil tadqiqotlar topshirish, fikrlarni tanqidiy baholash va muhokama qilishga o‘rgatish. Masalan, dars jarayonida o‘quvchilarga muammo yoki savol berilib, ularning turli nuqtai nazardan fikr bildirishiga imkon yaratish ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. O‘quvchilarda ijtimoiy qobiliyatlarni shakllantirish: jamoaviy ishlashga asoslangan topshiriqlar tayyorlash, guruhli loyihamalar, babs-munozaralar va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarga yetakchilik (liderlik) vazifalarini topshirish. Misol uchun, har hafta “Guruh sardori” tizimini joriy qilish o‘quvchilarga darsda yetakchilik qilish imkoniyati beriladi va ular o‘z guruhini boshqarib, mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

6. Rag‘batlantirish va motivatsiya berish: o‘quvchilarning yutuqlarini muntazam rag‘batlantirish (maqtov, sertifikat, maxsus unvonlar berish), o‘quvchilar uchun ilg‘or ta’lim dasturlari va tanlovlari haqida ma’lumot berish, qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mukofot tizimini joriy qilish. Masalan, “Oylik muvaffaqiyat taxtasi” yaratish o‘quvchilarni o‘z yutuqlari uchun rag‘batlantirilishiga va motivatsiyasi oshishiga yordam beradi.

7. Chet el tajribasidan foydalanish: Finlandyaning individual ta’lim yondashuvini o‘rganish, AQShning STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) modeli bo‘yicha o‘quvchilarni tadqiqot ishlari bilan shug‘ullantirish, Yaponianing “Hayotiy ko‘nikmalar” metodikasini qo’llash. Misol uchun, STEAM metodikasini joriy qilib, o‘quvchilarga “Ilmiy loyiha” tayyorlashni topshirish ularning ilmiy fikrlashini va qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O‘qituvchi shaxs qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va motivator sifatida ham faoliyat yuritishi kerak. Yuqorida yo‘nalish va usullarni dars jarayoniga qo’llash orqali o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini samarali rivojlantirish mumkin.

### **Adabiyotlar:**

1. Umumiy pedagogika. R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinova, S. Hafizov. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2018.

2. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O’zR Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2011.
3. Общая педагогика: учебное пособие / Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П. Астафьева. – Красноярск, 2017.
4. Zufarova, M.E. Umumiy psixologiya: o’rta maxsus, litsey va kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun o‘quv qo’llanma / M.E. Zufarova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
5. Ilmiy texnika salohiyati va uning tarkibiy qismlari / Ochilova Go‘zal Aralovna, Mahmudova Zilola Yoqub qizi. // International Journal of Scientific Researchers, Volume 8, Issue 2, November 2024.
6. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim loyihalariga integratsiya qilishning samarador usullari / Qodirov Farrux Ergash, Mahmudova Zilola Yoqub qizi. // International Journal of Scientific Researchers, Volume 8, Issue 1, 2024.

*Mamasadikova Nodira Olimovna,  
“Impuls” tibbiyot instituti o‘qituvchisi*

## O‘SPIRINLAR DEVIATSIYASIDA AYBDORLIK MUHIM OMIL SIFATIDA

**Annotatsiya.** Maqolada o‘spirinlar xulqi og‘ishida aybdorlik hissi muhim omil ekanligi haqida so‘z yuritilgan. O‘spirinlik davrida aybdorlik hissini yengib o‘tolmaslik, to‘g‘ri yo‘naltirolmaslik shaxsni o‘ziga bo‘lgan bahoni tushishiga, ichki nizolarni yuzga keltirishiga shu sababdan o‘zini yoki boshqalarni jazolash holatlarini namoyon qilishiga sabab bo‘lishi olib borilgan tadqiqotlar misolida yoritilgan.

Maqola psixologlarning ilmiy va nazariy tadqiqot ishlarida, amaliy faoliyatlarida, huquqbuzarlik va ijtimoiy muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan soha mutaxassislari foydalanishlari uchun mo‘ljallangan.

**Kalit so‘zlar:** o‘spirinlik, aybdorlik hissi, deviant xulq-atvor, norasolik hissi, endogen depressiya, dezadaptatsiya, o‘zini jazolash, autoagressiv xatti-harakatlar, o‘z joniga qasd qilish, ichki ziddiyat, o‘zini past baholash, ijtimoiy intervensiylar, alternativ yondashuv.

## ВИНА – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОДРОСТКОВОЙ ДЕВИАЦИИ

**Аннотация.** В статье говорится о том, что чувство вины является важным фактором поведения подростков. Неспособность преодолеть чувство вины в подростковом возрасте, неумение правильно руководить человеком приводит к снижению внутренней самооценки, конфликтов, на примере исследований подчёркивается, что это заставляет их показывать случаи наказания себя или других по этой причине.

Статья предназначена для психологов в их научно-теоретических исследованиях, практической деятельности и специалистов в области, направленной на ликвидацию преступности и социальных проблем.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, вина, девиантное поведение, чувство неадекватности, эндогенная депрессия, дезадаптация, самонаказание, аутоаггрессивное поведение, суицид, внутренний конфликт, низкая самооценка, социальные интервенции, альтернативный подход.

## GUILT IS AN IMPORTANT FACTOR IN ADOLESCENT DEVIATION

**Abstract.** The article discusses the important role of the feeling of guilt in adolescent behavior problems. During adolescence, the inability to overcome the feeling of guilt and the failure to direct it correctly can lead to a decrease in self-esteem, internal conflicts, and, as a result, the manifestation of self-punishment or punishing others, as illustrated by the conducted research.

The article is intended for use by psychologists in their scientific and theoretical research, practical activities, and specialists in fields aimed at addressing delinquency and social problems.

**Keywords:** adolescence, guilt feeling, deviant behavior, insecurity feeling, endogenous depression, maladaptation, self-punishment, auto-aggressive behaviors, suicide, internal conflict, low self-assessment, social interventions, alternative approach.

**Kirish.** Globallashib borayotgan bu zamonda har tomonlama insonning yetuk shaxs bo‘lib shakllanishi muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘spirinlik davri — jismoniy, hissiy va psixologik o‘zgarishlar bilan ajralib turadigan shakllanish va dinamik davrdir. Ushbu davrda o‘spirinlarda o‘z xulq-atvori, shaxsiyati va qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadigan ichki va tashqi omillarga nisbatan sezgirlik oshadi. Jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga intilayotgan o‘spirindagi ruhiy iztiroblar, yengib o‘tishi qiyin bo‘lgan his-tuyg‘ular, xossatan aybdorlik hissi uni turli xil no‘joya xatti-harakatlarni anglagan va anglamagan tarzda amalga oshirishiga sabab bo‘ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Aybdorlik — bu o‘zini yoki jamiyatning etikaviy standartlarini buzganini anglaganida yuzaga keladigan o‘z-o‘zini aybdorlash hissiyotidir. Tangney va Dearingni ta’kidlashicha, aybdorlik bu axloqiy normalarni buzganini tan olishga nisbatan hissiy reaksiyadir [1]. Ushbu his-tuyg‘u xulqni boshqarish va axloqiy rivojlanishni rag‘batlantirishda muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi, shaxslarni jamiyat kutgan tarzda harakat qilishga yo‘naltiradi. Ammo, agar aybdorlik noto‘g‘ri boshqarilsa yoki hal qilinmasa, bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shu jumladan, o‘spirinlar orasida deviant xulq-

atvorni rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin. Aybdorlikni qanday his qilish, qay tarzda qabul qilish va hal qilish o'spirinning rivojlanish yo'liga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun bu o'spirinlik davrida ijobjiy va salbiy xulq-atvor oqibatlarida muhim omil hisoblanadi. O'spirinlar aybdorlikning ta'siriga ayniqsa moyil, chunki ular o'zlarining qadriyatlarini belgilash va o'z o'mini katta ijtimoiy tuzilma ichida tushunish jarayonida bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'spirinlik davridagi aybdorlik tajribasi aynan shu ijtimoiy dinamikalardan kuchli ta'sirlanadi va uni qanday boshqarish o'spirinning axloqiy rivojlanishi va xulq-atvorini sezilarli darajada shakllantirishi mumkin.

O'spirinlarda aybdorlik rivojlanishida ikki tomonlama rol o'ynaydi. U ham himoya omili, ham potensial xavf sifatida, qanday tajriba va boshqarilishiga qarab. Agar aybdorlik to'g'ri qayta ishlansa, u axloqiy o'sish, javobgarlik va hamdardlikni rag'batlantirish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. Sog'lom aybdorlik o'spirinlarga o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, xatolardan o'rganish va ularning xulqini jamiyat va axloqiy me'yordarga moslashtirishga intilishlariga yordam beradi. Masalan, yolg'on gapisirish yoki zararli xatti-harakatlar haqida aybdorlik his qilgan o'spirinlar, kelajakda bu xulqlardan qochishga motivatsiya topib, shaxsiy javobgarlik va ijtimoiy xulqni rivojlanadir [2]. Shu ma'noda, aybdorlik ijobjiy munosabatlar va axloqiy poklikni rivojlanirishga yordam beradi. Ammo, agar aybdorlik haddan tashqari kuchli, hal qilinmagan yoki noto'g'ri boshqarilsa, bu o'spirinning hissiy salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haddan tashqari aybdorlik his-tuyg'ulari hissiy stressga, o'zini past baholashga olib kelishi va ruhiy salomatlik muammolariga moyillikni oshirishi mumkin. V.Frankl aybdorlikni ruhiy kasalliklarning rivojlanish manbai deb hisoblagan. Agar inson o'z oldiga imkonsiz vazifalarni qo'ysa, ular bilan shug'ullanmasa va hayotini qadrsizlantirsa unda endogen depressiya shakllanishiga sabab bo'ladi deydi [3]. Ba'zi hollarda, o'spirinlar hal qilinmagan aybdorlikning hissiy yukini yengish uchun deviant yoki noto'g'ri xatti-harakatlarga murojaat qilishlari mumkin, bu esa xavfli yoki zararli xatti-harakatlar orqali qochish yoki yengillik izlashga olib keladi [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Madaniy va ijtimoiy me'yorlar, aybdorlik qanday tajriba qilinishi, qabul qilinishi va boshqarilishi jihatidan muhim rol o'ynaydi. Chunki ular bu murakkab tuyg'u bilan bog'liq bo'lgan kutishlar va hissiy javoblarni shakllantiradi. Ijtimoiy madaniyatlarda, aholining uyg'unligi, oila obro'si va ijtimoiy kutishlar katta ahamiyatga ega bo'lib, aybdorlik ko'pincha yanada kuchaygan bo'ladi. Bunday jamiyatlardagi o'spirinlarda o'z oilalari va jamiyatlariga nisbatan yuqori mas'uliyat hissi paydo bo'lishi mumkin, bu esa ularning bu jamiyatning umumiy me'yorlariga javob bera olmaganini sezganida, aybdorlik hissini yanada kuchaytirishi mumkin. Masalan, Li va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, Sharqiy Osiyo madaniyatlaridagi o'smirlarda, oila va jamiyatga bo'lgan kuchli majburiyatlarini bajarishda yuqori darajadagi aybdorlik hissi yuzaga kelishi aniqlangan [5]. Tadqiqotlar, surunkali aybdorlik o'spirinlarni bu psixologik yukni yengillashtirish maqsadida xavfli yoki deviant xatti-harakatlarga yo'naltirishi isbotlangan.

Xoffman tomonidan o'tkazilgan uzoq muddatli tadqiqotda yuqori darajadagi aybdorlikni his qilgan o'spirinlarning xulq-atvori o'rganildi [8]. Ushbu tadqiqotning natijalari turli xulq-atvor javoblarni ko'rsatdi, ba'zi o'spirinlar aybdorliklarini konstruktiv va ijtimoiy jihatdan foydali faoliyatlariga yo'naltirgan. Ushbu shaxslar o'zlarini aybdorlik hissidan xalos qilish va xulqlarini axloqiy yoki ijtimoiy kutishlar bilan moslashtirish uchun boshqalarga yordam berish, ko'ngilli ishlarda ishtirot etish yoki xayrixohlik faoliyatları bilan shug'ullanish kabi xatti-harakatlarga jalb qilingan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bu o'spirinlarda aybdorlik motivatsion kuch sifatida ishlagan, ularni o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni olishga va o'z jamoalariga ijobjiy hissa qo'shishga undagan. Biroq barcha o'spirinlarda aybdorlikka bunday sog'lom yoki moslashuvchan tarzda javob berishmasdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'spirinlarning sezilarli bir qismi, hal qilinmagan hissiy og'riq va surunkali aybdorlikning psixologik yukini boshdan kechirgan holda, deviant xulqlarga murojaat qilishgan. Ushbu shaxslar aybdorlikdan kelib chiqqan noqulaylik va hissiy ziddiyatni yo'qotish yoki vaqtinchalik yengillik izlash uchun xavfli yoki moslashuvchan bo'lмаган harakatlarga, masalan, giyohvand moddalar iste'mol qilish, maktabga bormaslik yoki jinoyatchilikka qo'shilishga moyil bo'lgan. Ularning aybdorlikning hal qilinmaganligi ichki ziddiyatni kuchaytirgan va ular o'zlarini og'riq va hissiy muammolarni tashqi tomonidan deviant xulq-atvor bilan ifodalashga undagan.

Xofman tadqiqotida kuzatilgan javoblar xilma-xilligi, har bir o'spirinning o'ziga xos tajribalari va hissiy ehtiyojlarini hisobga oladigan individualizatsiyalangan aralashuvlarning muhimligini ta'kidlaydi.

Dunyo bo'yicha ko'plab olim va tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida aybdorlik hissi o'rganilganligini kuzatishimiz mumkin. Ferguson va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, davomiy aybdorlik hissini boshdan kechirgan o'spirinlar, o'z hissiy ixtiroblaridan vaqtinchalik xalos bo'lish yoki o'zini tinchlantirish uchun xavfli xatti-harakatlarga ko'proq moyil bo'lishgani aniqlangan [6]. Ushbu natija Z.Freydning hal qilinmagan aybdorlik haqidagi psichoanalitik nazariyasiga mos keladi. Freydning

ta’kidlashicha, hal qilinmagan aybdorlik ichki psixologik ziddiyatni yaratadi va bu ziddiyat hal qilinmagan bo’lsa, deviant xulq-atvor sifatida tashqi olamda namoyon bo’lishi mumkin, chunki shaxs hissiy iztiroblarini yashirish yoki ifodalashga intiladi [7]. Hal qilinmagan aybdorlik va deviant xulq-atvor o’rtasidagi bog‘lanish o’spirinlardagi hissiy va axloqiy muammolarni hal qilishning ahamiyatini ta’kidlaydi, chunki bu muammolarni hal qilmaslik zararli moslashuv mexanizmlari va uzoq muddatli xulq-atvor muammolariga olib kelishi mumkin.

Shu o’rinda deviant xulq-atvorga to‘xtalish o‘rinli. Deviatsiya (lotincha deviatus-og‘ish) psixologiyada asosan o’smirlik davriga bog‘lab yoritiladi. Ammo deviatsiya har bir yosh davrida kuzatilishi va o‘zining salbiy oqibatlari bilan atrofdagilarga, jamiyatga zarar yetkazishi mumkin.

Deviant xulq-atvor - ijtimoiy normalarni buzadigan, urf-odat va an’analarga zid, insoniyat jamiyatiga zarar beruvchi xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi xulq-atvor majmui hisoblanadi. Deviant xulq-atvor shakllariga jinoyatchilik, huququbuzarlik, yolg‘onchilik, dangasalik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, giyohvandlik, kashandalik, qimor o‘yinlari, o‘g‘rilik, talonchilik, o‘z joniga qasd qilish va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Alfred Adlerning individual psixologiyasi-og‘ma xulq-atvorni norasolik hissi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, har qanday to‘g‘ri insonda norasolik hissiyoti va undan paydo bo‘lgan o‘zini tasdiqlashga intilish o’rtasidagi nizo borligi ma’lumdir. Norasolik hissiyotini o‘rnini bosish uchun insonlar turli usullardan foydalanadilar. Ba’zi birlari boshqalarga bosim o’tkazish yoki zo‘ravonlikni qo‘llaydilar, boshqalari ruxsat etilgan usullardan foydalanadilar – yutuqqa erishish, hokimlik, guruhlarga birlashish [9].

O’spirinning bolalik davridan beri o’tkazgan og‘ir ruhiy jarohatlari, yaqinlari yoki tengdoshlari tomonidan qaysidur tashqi yoki ichki xususiyatini kamsitish unda norasolik hissini keltirib chiqaradi. Norasolik hissi uni doimo o‘zidan ko‘ngli to‘lmay, qabul qilinmagan shu xususiyatiga yoki o‘zini yoki atrofidagilarni aybdorlab o‘tishiga olib keladi. Natijada esa buning o‘rnini to‘ldirish uchun anglamagan holda o‘zini tasdiqlash usullaridan foydalanadi.

Aaron Bekning kognitiv modeli va Albert Ellisning ratsional-emotiv nazariyasiga muvofiq, og‘ma xulq-atvor asosida noadaptiv (yoki dezadaptatsiya) fikrlash sxemalari yotadi. Noadekvat kognitsiyalar noadekvat his va harakatlarni jonlantiradi [10].

O.Mayerning fikricha, aybdorlik hissi insonni jazoga muhtoj qiladi. Lekin bu jazodan qo‘rqish bilan teng emas. Bu tuyg‘u ko‘pincha insonni o‘zini azoblash va jazolashga yetaklaydi. Masalan jinoyatchilar yaqinlashib kelayotgan hukmdan qo‘rqishlari mumkin, lekin o‘zlarini qilgan ishlari uchun aybdorlikdor his qilishmaydi [11].

R.Beron va D.Richardsonlar aybdorlik hissi tajovuzkor xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga yoki bostirilishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri deb hisoblashgan [12].

I.F. Nurmuhamedova va E.A. Nurmuhamedovalar autoagressiv xatti-harakatlarga moyil shaxslarda aybdorlik hissini o‘rganib chiqishgan [13]. Anglanmagan, bostirilgan, o‘z vaqtida hal qilinmagan aybdorlik hissi shaxsda surunkali charchoq, qotib qolishlik, qiyin yoki oz moslashuvchanlikni, keyinchalik esa o‘z joniga qasd qilishni namoyon bo‘lishiga olib keladi. O‘z joniga qasd qilishning asosida o‘z-o‘zini jazolash istagi yotadi.

**Tahsil va natijalar.** Talabalarda aybdorlik hissini o‘rganish bo‘yicha kompleks psixologik tadqiqot o’tkazildi. Ushbu tadqiqotda Petrozavodsk davlat universitetining 32 nafar talabasi (19-21 yosh oralig‘ida, 15 yigit va 17 qiz) ishtirok etdi. Tadqiqot davomida quyidagi metodikalardan foydalanildi:

1. Bass – Darki hissiyotlar testi (mualliflar: A. Buss, A. Durkee; G. V. Rezapkina modifikatsiyasi, 2005). Ushbu metodika qiyin hayotiy vaziyatlarda turli hissiyotlarning, jumladan, aybdorlik hissining uchrash chastotasini aniqlash uchun qo‘llanildi. Aybdorlik hissi bu yerda tajovuz shakllaridan biri sifatida baholandi.

2. Kugler – Jones aybdorlik hissi so‘rovnomasi (mualliflar: W. H. Jones, K. E. Kugler; I. M. Belik adaptatsiyasi, 2006). Ushbu metodika aybdorlik hissini holat va shaxsiy xususiyat sifatida baholash hamda axloqiy normalarga rioya qilish darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Mualliflarning fikricha, aybdorlik hissi bu – shaxsiy axloqiy tamoyillar va ijtimoiy normalar buzilganda paydo bo‘ladigan bezovtalik va norozilik tuyg‘usi.

3. “Noadaptiv aybdorlikni o‘lchash” testi (IGQ) (muallif: L. O’Connor; E. V. Korotkova adaptatsiyasi, 2002). Ushbu metodika to‘rtta irratsonal aybdorlik turini aniqlashga qaratilgan:

- Omon qolganlik aybdorligi
- Ajralish aybdorligi
- Ortiqcha javobgarlik aybdorligi
- O‘zini yomon ko‘rish aybdorligi

Olingen ma'lumotlarga ko'ra, talabalar qiyin hayotiy vaziyatlarda eng ko'p bezovtalik (31%) hissini namoyon qilgan. Ikkinchisi o'rinda aybdorlik hissi (21%) bo'lib, eng kam uchraydigan hissiyotlar jismoniy tajovuz va xafagarchilik (2%) bo'ldi. Shubhalanish esa umuman kuzatilmagan (0%).

Chastota jadvali (foizlarda):

Hissiyot	Foiz (%)
Shubhalanish	0
Xafagarchilik	2
Jismoniy tajovuz	2
Bilvosita tajovuz	8
Og'zaki tajovuz	17
Negativizm	19
Aybdorlik hissi	21
Bezovtalik	31

Aybdorlik hissining boshqa tajovuz shakllari bilan bog'liqligi

Tahlil natijalariga ko'ra, bezovtalik eng ko'p bog'langan hissiyot bo'lib, u:

- Xafagarchilik ( $r = 0,590^{**}$ )
- Shubhalanish ( $r = 0,375^*$ )
- Aybdorlik hissi ( $r = 0,417^*$ )

Bundan tashqari, jismoniy tajovuz bilvosita tajovuz ( $r = 0,465$ ) va og'zaki tajovuz ( $r = 0,392^*$ ) bilan bog'liq, shubhalanish esa bilvosita tajovuz bilan ( $r = 0,410$ ) bog'langan\*.

Aybdorlik hissining shakllari va turlari bo'yicha natijalar

Kugler – Jones metodikasi bo'yicha:

- Talabalarda axloqiy normalarga sodiqlik (44%) eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, bu aybdorlik hissining axloqiy qadriyatlarga, tamoyillarga va normalarga asoslanganligini ko'rsatadi.
  - Eng kam kuzatilgan aybdorlik shakli holat sifatidagi aybdorlik (21%) bo'lib, u yaqinda sodir bo'lgan yoki sodir etilayotgan harakatlar tufayli paydo bo'lgan vaqtinchalik hissiy holat sifatida namoyon bo'ladi.

"Noadaptiv aybdorlikni o'chash" testi (IGQ) bo'yicha:

- Omon qolganlik aybdorligi (84%) eng kuchli ifodalangan aybdorlik turi bo'lib,
- Ajralish aybdorligi va o'zini yomon ko'rish aybdorligi (3%) eng kam uchraydigan hissiyotlar sifatida aniqlangan.

Aybdorlik hissining tajovuz shakllari bilan bog'liqligi

Korrelatsion tahlil natijalariga ko'ra:

- Holat sifatidagi aybdorlik tajovuzning quyidagi shakllari bilan bog'liq:
  - Bezovtalik ( $r = 0,371^*$ )
  - Xafagarchilik ( $r = 0,381^*$ )
  - Shubhalanish ( $r = 0,467$ )
  - O'zining aybdorlik hissi ( $r = 0,553$ )
- Shaxsiy xususiyat sifatidagi aybdorlik ham shunga o'xshash bog'liqliklarga ega, biroq bezovtalik bilan bog'liq emas.
  - Aybdorlik hissining axloqiy normalarga bog'liqligi esa tajovuzning kamayishi bilan bog'liq:
  - Negativizm ( $r = -0,423^*$ )
  - Og'zaki tajovuz ( $r = -0,376^*$ )

Aybdorlik hissining turlari bo'yicha bog'liqlik:

- Ajralish aybdorligi bezovtalik bilan \*salbiy bog'liq ( $r = -0,382^{**}$ ), ya'ni bunday aybdorlik hissi mavjud bo'lsa, bezovtalik kamroq kuzatiladi.

• Ortiqcha javobgarlik aybdorligi \*jismoniy tajovuz bilan salbiy bog'liq ( $r = -0,381^{**}$ ), ya'ni javobgarlik hissi kuchli bo'lsa, jismoniy tajovuz pasayadi.

- O'zini yomon ko'rish aybdorligi esa barcha tajovuz shakllari bilan bog'liq:
  - Jismoniy tajovuz ( $r = 0,372^*$ )
  - Bilvosita tajovuz ( $r = 0,383$ )
  - Xafagarchilik ( $r = 0,393^*$ )
  - Shubhalanish ( $r = 0,451$ )

- Aybdorlik hissi ( $r = 0,389$ )\*
- 1. Talabalarning qiyin vaziyatlardagi asosiy reaksiyasi bezovtalik (31%) va aybdorlik hissi (21%) bo‘lib, jismoniy tajovuz deyarli kuzatilmaydi (2%).
- 2. Aybdorlik hissi va bezovtalik kuchli bog‘langan bo‘lib, ayniqsa xafagarchilik va shubhalanish hissi bilan birga namoyon bo‘ladi.
- 3. O‘zini yomon ko‘rish aybdorligi eng zararli bo‘lib, deyarli barcha tajovuz shakllari bilan bog‘liq.
- 4. Aybdorlik hissi axloqiy normalar bilan bog‘langanida, tajovuz darajasi pasayadi.

**Xulosa.** O‘sirinlarda aybdorlikni samarali hal qilish, psixologik, oilaviy va ijtimoiy strategiyalarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunday yondashuvning asosiy tarkibiy qismi psixologik yordamdir, xususan, o‘sirinlarga o‘z hissiyotlarini qayta ishlash va boshqarishda yordam beruvchi terapevtik aralashuvlar. Masalan, kognitiv-behavioral terapiya (CBT) o‘sirinlarga aybdorlikni qayta shakllantirmasligida, salbiy fikrlarni chiqirishda, sog‘lomroq, moslashuvchanroq moslashuv mexanizmlarini rivojlantirishda samarali bo‘lib chiqqan [14]. CBT o‘sirinlarga aybdorlikni kuchaytirishi mumkin bo‘lgan kognitiv buzilishlarni aniqlashga yordam beradi, shu bilan birga, muvozanatli va ratsional nuqtai nazarni rivojlantiradi. Shaxsiy terapiyadan tashqari, oila ishtiroki aybdorlikning salbiy ta’sirlarini yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ochiq muloqot va qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy dinamikalar o‘sirinlarga aybdorlik hissini konstruktiv tarzda boshqarishda yordam berishda muhim rol o‘ynaydi. Oiladagi tushunish, bir-birini qo‘llab quvvatlash, o‘sirinlarda aybdorlikni zararli tarzda kechish ehtimolini kamaytiradi, bu esa deviant xulq-atvorning oldini oladi. Bundan tashqari, ijtimoiy intervensiylar, masalan, ijtimoiy hayotni yaxshilashga qaratilgan dasturlar, kasblarga o‘qitish, shaxsning qobiliyat va iqtidorlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan loyihiilar, sog‘lomlashtirish maskanlariga yo‘llanmalar berish va mas’uliyatni oshirishga yo‘naltirilgan alternativ yondashuvni talab qiladi. Ushbu dasturlar, o‘sirinlarga o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni konstruktiv va jamiyatga yo‘naltirilgan tarzda olishni rag‘batlantirishda muvaffaqiyatli bo‘lib chiqqan [15]. Psixologik, oilaviy va ijtimoiy yordam tizimlarini birlashtirib, o‘sirinlarga aybdorlikni boshqarishda yordam beradigan, shaxsiy o‘sish, axloqiy rivojlanish va ijobjiy xulq-atvorni rag‘batlantiradigan tarzda namoyon qilishiga erishish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Tangney, J. P., & Dearing, R. L. (2002). “Shame and Guilt”. New York: Guilford Press.p.18.
2. Eisenberg, N. (1989). “The Roots of Prosocial Behavior in Children”. Cambridge: Cambridge University Press. p.76.
3. Спиваковская А.С., Луценко А.М. ”Взаимосвязь переживания чувства вины и ответственности у лиц, выросших в алкогольной семье”. // Вестник московского университета. серия 14. психология. 2022. № 1. С. 323–343 Moscow university psychology bulletin. 2022. No. 1. P. 323–343
4. Tangney, J. P., & Dearing, R. L. (2002). “Shame and Guilt”. New York: Guilford Press.p.112
5. Li, J., Wang, X., & Fischer, K. W. (2015). Cultural Dimensions of Guilt and Shame. // Beijing: China Social Sciences Press.
6. Ferguson, T. J., Brugman, D., White, J. E., & Eyre, H. L. (2011). The Influence of Guilt on Adolescent Behavior. // Journal of Adolescence, 34(1), p.23. Freud, S. (1923). “The Ego and the Id”. London: Hogarth Press.p.41
7. Hoffman, M. L. (1982). Guilt, Empathy, and Altruistic Behavior in Adolescents. // Developmental Psychology, 18(1), 122-130
8. Olimov L.Y., Avezov O.R., Eshov E.S. ”Deviant xulq-atvor psixologiyasi”. Buxoro-2017. 16-bet.
9. Olimov L.Y., Avezov O.R., Eshov E.S. ”Deviant xulq-atvor psixologiyasi”. Buxoro-2017. 16-bet.
10. Maher B. A. “Principles of psychopathology”. – N. Y.: McGraw Hill, 1966. p.525
11. Beron R., Richardson D. “Agressiya”. -SPB.:Piter, 2001 c.352.
12. Нурмухаметова И. Ф., Нурмухаметов Э. А. К вопросу о переживании чувства вины у лиц, склонных к аутоаггрессивному поведению // Science Time. – 2022. – № 11 (107). – С. 34–39.
13. Beck, A. T. (1979). Cognitive Therapy of Depression. New York: Guilford Press.p.158.
14. Zehr, H. (2002). The Little Book of Restorative Justice. Intercourse, PA: Good Books.p.45
15. Сафронова Е. А., Уторина О. Д. Комплексное психологическое исследование чувства вины у студентов // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2024. – № 10 (октябрь). – 0,5 п. л. – URL: <http://e-koncept.ru/2024/242018.htm>.

*Polvanova Dilrabo Tagaymuratovna,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Pedagogika va psixologiya kafedrasи katta o'qituvchisi*

## KIBERBULLING TAHIDLARINING TARQALISH OMILLARI TAHЛИI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston yoshlarining axborot-psixologik xavfsizligini kiberbullying tahdididan himoya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalarining bir qismi yoritilgan. Kiberbullying tarqalishiga ta'sir etuvchi barcha omillar atroflicha o'rganilgan va kiberbullyingdan himoyalanishda shaxs endopsixikasiga tegishli himoya mexanizmlari tadqiq etish natijasida, jamiyatda kiberbullying hodisalari tarqalishining psixologik omillari yoritilgan..

**Kalit so'zlar:** kiberbullying, davlat darajasidagi omillar, jamiyat darajasidagi omillar, shaxs darajasidagi omillar.

### АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАСПРОСТРАНЁННОСТИ УГРОЗ КИБЕРБУЛЛИНГА

**Аннотация.** В статье представлены некоторые результаты научно-практического исследования, проведённого с целью совершенствования системы защиты информационно-психологической безопасности молодёжи Узбекистана от угрозы кибербуллинга. Все факторы, влияющие на распространение кибербуллинга, были тщательно изучены, и в результате исследования эндопсихических защитных механизмов личности при защите от кибербуллинга были выделены психологические факторы распространения инцидентов кибербуллинга в обществе.

**Ключевые слова:** кибербуллинг, факторы государственного уровня, факторы общественного уровня, факторы индивидуального уровня.

### ANALYSIS OF FACTORS OF PREVALENCE OF THREATS OF CYBERBULLYING

**Abstract.** The article presents some results of scientific and practical research conducted to improve the system of protection of information and psychological security of youth of Uzbekistan from the threat of cyberbullying. All factors influencing the spread of cyberbullying were carefully studied, and as a result of the study of endopsychic defense mechanisms of the individual in protection from cyberbullying, psychological factors of the spread of cyberbullying incidents in society were identified.

**Keywords:** cyberbullying, factors of the state level, factors of the public level, factors of the individual level.

**Kirish.** Bugungi kunda butun dunyoda insonlar, hatto voyaga yetmaganlarning Internet jahon axborot tarmog'i orqali muloqot qilish darjasasi kun sayin o'sib bormoqda. Internet jahon axborot tarmog'i barchamizga cheksiz imkoniyatlar taqdim etuvchi, shu qatorda bir qancha ko'zga tashlanmaydigan, ammo o'z ta'sir kuchiga ega xavf va tahdidlar mavjud bo'lgan virtual makon. Virtual tarmoq ishtirokchilariga o'zaro kommunikatsiya jarayonlarida muloqot qilishning turfa qulayliklar taqdim etilgan. Biroq Internet jahon axborot tarmog'i foydalanuvchilarining deyarli ko'p qismi mavjud xavf va tahidlarning imkoniyatlardan-da ko'p ekanligini tasavvur ham qilmaydilar. Ana shunday tahidlardan biri kiberbulullingdir.

Xorijiy va milliy doiralarda kiberbullying hodisasiga berilgan tushuncha va ta'riflar o'z kategorial va fenomenologik mazmuniga ko'ra turlicha talqin qilingan. Biz, o'z o'mnida, tadqiqotimiz doirasida kiberbullying hodisasiga "xavfsizlik tadqiqotlari" yondashuvidan kelib chiqib quyidagi mualliflik ta'rifimizni shakllantirdik: "Internet yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali boshqa bir shaxs ongiga, g'arazli maqsadda, qasddan va takroriy tarzda ta'sir ko'rsatish (qo'rquvg'a solish, kamsitish, nafratlanarli takliflarni bildirish, tahdid, shantaj, tuhmat va h.klar) ni kiberbullying sifatida baholash mumkin". Ushbu ta'rifning boshqa ilmiy ishlarda berilgan ta'riflardan farqi shundaki, unda kiberbullying "xavfsizlikka tahdid" sifatida ko'rib chiqiladi. Boshqa ishlarda, ushbu fenomen ijtimoiy hodisa, nizo, axloqbazarlik, shaxslararo munosabatlardagi bosim sifatida ko'rib chiqilgan.

Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, BMT xalqaro tadqiqoti, Koreya ta'lim vazirligi tadqiqoti; Yevropa miqyosida o'tkazilgan, Arabistonda o'tkazilgan tadqiqotlarda ham yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid sifatida ko'rileyotgan kiberbullying o'spirin yoshlari o'rtasida keng tarqalayotganligi va salbiy oqibatlarining ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Bugungi ziddiyatli davrda

nafaqat yoshlar, balki, insoniyat katta hajmdagi, turli mazmun va mohiyat kasb etuvchi informatsiyalar ta’sirida yashamoqda, axboriy aloqaning to’xtab qolishi ham shaxs tomonidan psixologik anomal holat sifatida his qilinmoqda va shaxs psixikasidagi ruhiy buzilishlarga sabab bo’lmoqda. Psixologik konsultatsiyalarda ruhiy xotirjamlikning yo’qolishi bilan bog’liq holatlarning sabablari sifatida axborotning ko’rsatilayotgani shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini turli tahdidlardan himoyalash jarayonining dolzarbligini ko’rsatmoqda.

Ayni paytda, dunyoning ko’plab rivojlangan davlatlarida kiberbullyingga qarshi kurashish chora-tadbirlarini tashkil etish, ya’ni Internet jahon axborot tarmog’ida shaxslarning xavfsizligini ta’minalash borasida maxsus qonunlar yaratilmoqda, takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelgan.

Respublikamizda so’nggi yillarda o’spirin yoshlar o’rtasida kiberbullying tahdidlarining ortib borayotganligi, kiberbullyingdan jabrlanish psixikaning turli sohalarida chuqur ruhiy buzilishlarga sabab bo’lib, pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga ega bo’lgan oqibatlarni keltirib chiqarayotganini kuzatmoqdamiz. Kiberbullyingdan jabrlangan yoshlarning suitsidga qo’l urishi, jinoyat sodir etish holatlari uchragan. O’zbekistonda ham kiberbullying profilaktikasi, diagnostikasini yo’lga qo’yish, kiberbullyingdan jabrlangan ishtirokchilarga, texnik, huquqiy va psixologik yordam ko’rsatishni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Zero, O’zbekiston yoshlarining axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid soluvchi, Internet jahon axborot tarmog’i orqali tarqatilayotgan turli ta’sirlarning kuchini har birimiz his qilmoqdamiz. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “... zamonaviy tahdidlarning tabiatini va miqyosi sezilarli darajada o’zgardi. Ekologik va tabiiy ofatlar, suv resurslari va oziq-ovqat taqchilligi, kiberhujumlar, suverenitet va iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazishning yangi uslublari kuchayib borayotgan tahdidlardir”. Internet jahon axborot tarmog’i har bir foydalanuvchiga axborot tarqata olish imkonini taqdim etgan, bu esa yoshlarni kiberbullying tahdidlaridan asrash, ularda kiberbullying tahdidlaridan himoyalanish ko’nikmalarini shakllantirish bugungi kun zaruriyati ekanligini va dissertatsiya ishining naqadar dolzarbligini asoslaydi.

**Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar.** Yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligiga kiberbullying tahdidini nazariy o’rganish va amaliy tadqiq etish natijalariga ko’ra, kiberbullying tahdidini yuzaga kelishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar o’rgandik va shaxs, jamiyat va davlat darajasida tasniflab, unda psixologik omillar chuqur tahlil etdik. Jumladan, kiberbullying tahdidini yuzaga kelishiga sabab bo’luvchi **shaxs darajasidagi omillar:**

- tashqi ko’rinish masalan, jismonan zaif ko’rinish, semizlik, ko’rishning buzilishi, nutq buzilishi va hk;
- shaxslararo munosabatlar va muammolarni yechishdagi salbiy ko’nikmalar;
- o’z-o’zini salbiy baholash va o’z-o’ziga past baho;
- zo’ravonlikka ijobjiy munosabat;
- zaif ijtimoiy ko’nikmalar va past darajadagi empatiya;
- kiberbullying tahdidiga oid tushunchalar va himoyalanish coping strategiyalari haqida tasavvurga ega emaslik.

**Jamiyat darajasidagi omillar:**

- Oilada ota-onaning ta’qilovchi va haddan tashqari himoya qiluvchi tarbiya uslubi;
- Ota onalarning negativ hatti-harakatlari, avtoritar boshqarish, kam qo’llab quvvatlash, jazolash;
- noto’liq oila, yolg’iz ota, yolg’iz ona;
- agressiv xulqqa nisbatan tolerantlik;
- jabrlanuvchilarning passiv munosabati va muammoni hal qilish ko’nikmalarining yo’qligi, masalan, sukul saqlash;
- jamiyat a’zolarining munosabat bildirmasligi yoki agressorni faol qo’llab-quvvatlashi, kiberbullyingni inkor etishi;
- yoshlar bilan ishlaydigan mutaxasislarning kiberbullying tahdidi va uning shakllaridan xabardor emasligi;
- yoshlar hayotining virtuallashuvini, Internet orqali muloqotning “ehtiyojlar piramidas” dan mustahkam o’rin olishi;

**Davlat darajasidagi omillar:**

- kiberbullying bilan bog’liq ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslarini rivojlanmaganligi;
- kiberbullyingga nisbatan alohida huquqiy yoki deklorativ ta’rifning mavjud emasligi tufayli kiberbullying hodisasini aniqlash imkoniyatining cheklanganligi;
- kiberbullying turlarini alohida mezonlar asosida aniqlash, subyektini identifikasiya qilish, jabrlanuvchiga yordam berishning protsessual standartlari ishlab chiqilmaganligi;

• kiberbulling profilaktikasi bo‘yicha kurslarni tashkil etishda nodavlat-notijorat va xalqaro tashkilotlarning davlat ta’lim tashkilotlari bilan doimiy hamkorligini yo‘lga qo‘yilmaganligi.

Empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, kiberbulling tahdidi tarqalishining shaxs darajasidagi quyidagi psixologik omillari aniqlandi.

1. Anonimlik va kiberbullingni istalgan vaqtida amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi;

2. Shaxs psixikasining kognitiv sohasidagi muammolar;

3. Shaxs psixikasining hissiy-irodaviy va ehtiyojli –motivatsion sohasidagi o‘ziga xos muammolarning mavjudligi;

4. Shaxs psixikasining xulq-atvorni boshqarish sohasida o‘ziga xos muammolarning mavjudligi;

5. Kommunikativ tolerantlik past ko‘rsatkichlarini beruvchi, salbiy kommunikativ ustanovkalarning mavjudligi.

Har bir omil tagida uni keltirib chiqaruvchi sabablar va ijtimoiy muhit ta’sirlari mavjud bo‘lib ular atroficha o‘rganildi. Jumladan:

**1. Anonimlik va kiberbullingni istalgan vaqtida amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi.**


Bugungi kunda Internetdan foydalanish imkoniyati deyarli barchada mavjud. Hatto yosh bolalar ham, turli gadjetlardan, uyali aloqa vositalaridan keng foydalanishi, Internet tarmog‘ida axborot tarqatish imkoniyatiga ega ekanligi, turli ijtimoiy tarmoqlarda shaxs o‘z haqiqiy nomidan foydalanmagan holda istagancha muloqot qila olishi mumkin. Buning uchun vaqt va imkoniyatlar cheklanmaganligi, Internetda anonimlik saqlab qolish imkoniyati shaxsga kiberbullingni istalgan vaqtida amalga oshirish imkoniyatini beradi. Kiberbullingdan jabrlanuvchisi kuniga 24 soat, haftada yetti kun azoblanishi, o‘z uyida ham, o‘zini xavfsiz his qilmasligi mumkin. Zero, bir necha marta klaviaturani bosish bilan yuzlab va hatto minglab odamlar tahqirlanishning guvohi bo‘lishda davom etadi. Kiberbullingni amalga oshirish usullari va texnologiyalari xilma-xilligi, an’anaviy bullingdan farqli ravishda yuzma-yuz aloqa qilishni, jismoniy kuchni talab qilmasligi kiberagressorga qulaylik tug‘diradi va kiberbullingni yoshlar va kattalar o‘rtasida keng tarqalishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari tarbiya jarayonida ota-onalar bolalardagi agressiyani kuch bilan bostirishga, ta’qilar qo‘yishga harakat qiladilar. Natijada bostirilgan hissiyotlar bilan bog‘liq muammolar emotSIONAL sohadagi yopiqlikni, o‘z hissiyotlarini ekologik realizatsiya qila olmaslik kabi psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Yuqoridaq holatlар kelgusida shaxsda o‘z agressiyasini namoyon qilishning anomim shaklini tanlash ehtimolini oshiradi.

**2. Shaxs psixikasining kognitiv sohasidagi muammolar.** Yoshlarda Internetdan foydalanish kompetensiyasining, madaniyati va huquqiy ongingin shakllanmaganligi, Interenetda masxara qilganlik uchun jazo choralarini mayjudligini bilmaslik, shaxsga oid ma’lumotlarni uning roziligidiz tarqatish, ma’lum bir shaklda umume’tirof etilgan shaxs huquqlarini buzish ekanligini bilmaslik kiberbullinglarni amalga oshirishga olib kelmoqda. Bunday misollar juda ko‘p. Ko‘p holatlarda javobgarlar bu holatni huquqiy baholanishini bilmasliklarini e’tirof etadilar. Haqiqatdan ham mакtab darsliklarida va ijtimoiy tarmoqlarda bu haqida targ‘ibot ishlari yetarli emas. Kiberbullingga uchragan shaxsning holatini to‘liq idrok etolmaslik, haqorat natijasida jabrlanuvchi va uning yaqinlari ayanchli ahvolga tushishlari, hattoki jabrdiydaning o‘limiga sababchi bo‘lib qolishi, ya’ni og‘ir oqibatlarga olib kelishini bilmaydilar. Huquqiy javobgarlik kriteriyalari bo‘yicha targ‘ibotning yetarli emasligi va mavjudlaridan ham bexabarlik kiberbullinglarni keng tarqalish sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Empirik tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilar “Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda boshqa shaxsni kamsitish, tahqirlash, haqoratlash va qo‘rqitish maqsadida tarqatilgan xabar (SMS, MMS, video, ko‘rsatuvlar qilish va xk)larni kiberbulling ekanidan xabardormisiz?” degan savolga 29,3 foizi ha, 70,7 foizi yo‘q degan javobni belgilaganlar. Demak, kiberxavfsizlik va kiberbullingni profilaktikasi bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlari sust.

Psixoprofilaktik tadbirlar doirasida yoshlar jamoasi va ota-onalarga Internetdan foydalanish qoidalari, vaqt, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishga doir qo‘rsatmalarni, kiberbullingni oldini olish bo‘yicha strategiyalar, kiberbulling to‘g‘risida ma’lumotlardan iborat buketlar, devoriy gazetalar, rasmlar, tarqatma materiallarini yetkazish, qisqa metrajli filmlarni namoyish qilish, ta’lim maskanlarida qoidalari, aniq ko‘rsatmalar ko‘rinishida joylashtirish maqsadga muvofiq. Bu borada ongga ta’sir etish qonuniyatlariga amal qilish, shaxs ongiga to‘g‘ri ko‘rsatma berish juda muhim. Ota-onalar o‘z farzandlarini kiberbulling tahdididan himoyalashlari uchun maxsus tavsiyalarni ommaviy axborot vositalarida berib borish, ta’lim maskanlarining hovlisida eslatmalar ko‘rinishida joylashtirish maqsadga muvofiq.

**3. Shaxs psixikasining hissiy-irodaviy va ehtiyojli – motivatsion sohadagi o‘ziga xos muammolarning mavjudligi.** O‘spirinlarning o‘zi va o‘zgalarning hissiyotlarini to‘liq anglamasligi kiberbullinglarni amalga oshirish va tarqatishga sabab bo‘lishi mumkin. Dissertatsiya doirasida o‘tkazilgan tajriba sinov ishlaringin matematik statistik tahlili va anketa savollaridan anglashildiki, yoshlarda Internetdan

foydalanish motivlarining yetarlicha anglab yetilmaganligi, shunchaki vaqt o’tkazish maqsadida Internetdan foydalanish, zavqlanish hissini tuyish uchun birovlarni mazax qilishga, videomateriallarni tarqatishga sabab bo‘lib qolmoqdda. Shu sababli maktablarga amaliy psixologiya darslarini kiritish, yoshlar ongida bolalik davrlaridan boshlab, identifikasiya, refleksiya, empatiya, kauzal atributsiya kabi boshqalarni idrok qilish va tushunish ko‘nikmalarini yuzaga keltirish zarur. Yoshlarda bo‘s sh vaqlarini qanday o’tkazish borasidagi o‘rganishlar tahliliga ko‘ra, o’spirinlarning o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlamaganligi, nazoratning yo‘qligi yoki pedagogik qarovsizlik natijasida, ehtiyojli – motivatsion sohadagi muammolar yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda Internet yoshlarning 18,4 foizi uchun yaqin do‘sst, 7,4 foizi uchun sport, 66,8 foiz yoshlar uchun hordiq chiqarish vositasi, 7,4 foiz yoshlar uchun pul ishslashning qo‘srimcha vositasi vazifasini bajarmoqda. Yoshlarning 66,8 foizi uchun Internet shunchaki hordiq chiqarish vositasi vazifasini o‘tayotgani yaqin keljakda kiberbulling hodisasining tarqalish ehtimoli yuqori ekanligidan dalolat beradi.(1-rasmga qarang)



**1-rasm. Internetdan foydalanish motivlari**

**Tahlil va natijalar.** So‘rovnoma qatnashgan yoshlarning 33,4 foizi 1 soatgacha, 46,4 foizi 2-3 soatgacha. 7,9 foizi 3-5 soat, 9,9 foizi 5-7 soat, 2,4 foizi 7 soatdan ko‘proq vaqtini uzluksiz ravishda Internetda o’tkazayotganini bildirgan. Kuniga 2-3 soatdan ortiq foydalanish internet addiksiyasini yuzaga keltiradi. Internet orqali muloqotning ortib borishi natijasida, kiberbulling to‘g‘risida tasavvurning yo‘qligi uni amalga oshirish va tahdid nishoniga aylanish xavfini oshiradi. Kibebulling bilan shug‘ullangan yoshlar keljakda uning ijtimoiy oqibatlari o‘ta og‘ir turlari (kiberstalking, seksting, heppi-slepping)ni amalga oshirishga moyil bo‘lib boradilar.

Jumladan, xitoylik olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, uzoq vaqt kompyuter o‘ynlarini o‘ynash bosh miya faoliyatining sustlashishiga olib keladi. Jumladan, har kuni ikki soatdan kompyuter o‘ynagan kishining fikr yuritish qobiliyati, ijodiy salohiyati va tuyg‘ularni jilovlay olish layoqati me’yori o‘namayotgan insonlarnikigan nisbatan ancha sust. Mutaxassislar bunday holatni “o‘yin miyasi fenemoni”, deya atashmoqda. Xitoyli olimlar tomonidan eng zamонави texnika vositalari yordamida 6 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan 240 nafar erkak va ayolda o’tkazilgan elektroensefalogrammik tekshiruv natijalariga ko‘ra, uzoq muddat kompyuter o‘ynlarini o‘ynagan odamning bosh miyasi me’yoriy holatdagi inson miyasidan sezilarli darajali farq qiladi. Bunday kishilarda ko‘pincha, old miya faoliyatining shikastlanishi holatlari uchraydi. Test ishtirokchilarining 20 foizi har kuni ikki soatdan ortiq vaqt mobaynida kompyuter o‘ynlari bilan mashg‘ul bo‘lgan va ularning barchasida old miya nofaol ko‘rinishga kelgan. Mutaxassislar bunday “bosh”ni, “o‘yin miyasi”, deya nomlashgan, 40 foiz atrofidagi tekshiriluvchilarda esa, old miya faoliyati sustlashgani kuzatilgan. Olimlar miyaning bunday holatini “yarimta o‘yin miyasi”, deya atashgan. “O‘yin miyasi” egasining xarakterli jihatlari yuz ifodasida kuchli charchoq alomatlarining zohirligida, fikrni jamlay olmasligida, xotira susayishida, o‘qib tushunish va yozish layoqatining pasayishida, jamiyat va o‘zgalar hayoti bilan qiziqmasligi, voqeа-hodisalarga nisbatan e’tiborsizlik va shaxsiy fikrning yo‘qligi, kayfiyatni nazorat qila olmaslik va tez jahl chiqishida ko‘rinishi mumkin. Tibbiyotdan ma’lumki, old miya insonning ijodiy qobiliyati, fikrashi, shuningdek, tuyg‘ularni nazorat qilishida «mas’ul»dir. Miyadagi ushbu funksianing zararlanishi oqibati va kayfiyatni nazorat qila olmaslik kiberagressiyani keltirib chiqarishga sabab bo‘lishi mumkin. Salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida, yoshlarning internetda o‘yin o‘ynash, foydalanish davomiyligini 2 soatdan kam, to‘g‘rirog‘i yarim soat qilib belgilash maqsadga muvofiq.

**4. Shaxs psixikasining xulq-atvorni boshqarish sohasida o‘ziga xos muammolarning mavjudligi** kibebullingni amalga oshirish omillaridan biridir. Jumladan, ushbu omilni nazariy va amaliy o‘rganish natijalariga ko‘ra, bolalik davrida shakllangan agressiv xulq-atvor, xarakter xususiyati sifatida ontogenezning

keyingi bosqichlarida ham saqlanib qolishi kuzatilgan. Umuman olganda shaxsda o‘z-o‘zini himoyalash va yashash uchun kurash maqsadidagi instinktiv xulq-atvor sifatida agressiya mavjud bo‘lib, bulling ishtirokchilarining turli pozitsiyalari va agressiv xulq-atvor ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, qachon bullingni initsiator rolida amalga oshirgan ishtirokchida jahldorlikning oshishi ( $p=0,135$ :  $r<0,05$ ) qiymatda musbat bog‘liqlik namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Olweus (2006), Scheithauer xavf omillarini sharhida initsiator, bezorilikni boshlovchi, boshqalarni qo‘rqitish, urish, faoliyatdan chetlashtirish, mish-mishlar tarqatish bilan shug‘ullanishini ta’kidlaydi.

Himoyachi shkalasi bilan bilvosita agressiya shkalasi o‘rtasida ( $p=-0,127$ :  $p<0,05$ ), jahldorlik shkalasi bilan ( $p=-0,125$ :  $p<0,05$ ) verbal agressiya shkalasi o‘rtasida ( $p=-0,166$ :  $p<0,01$ ) qiymatdagi ishonch darajasida manfiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rish mumkin. Ya’ni, bilvosita agressiya, verbal agressiya va jahldorligi pasaygan ishtirokchilar himoyachi rolida ishtirok etadilar (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval.

#### Bulling ishtirokchilarining turli pozitsiyalari va agressiv xulq-atvor ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik (Spirmen mezoni, n=350)

	Korelyatsiya								
3. Shalom Shvarts – "Qadriyatlар назариysi" (1992, 2006): Shvarts qadriyatlар tizimi haqida fundamental tadqiqotlar olib borgan. U texnologik taraqqiyot inson qadriyatlarni o'zgartirishini, masalan, muloqot, ijodkorlik va o'zini ifodalash qadriyatlari mustahkamlanib, an'anaviy qadriyatlarni esa sustlashishini ko'rsatgan.

4. Jean Twenge – "iGen" (2017): Twenge zamonaviy yoshlarni, ayniqsa Z avlod texnologiyalar ta'sirida qanday o'zgarayotganini tahlil qilgan. U ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot oqimi yoshlarning qadriyatlarda insoniy munosabatlardan ko'ra raqamli identifikatsiya va virtual faollik ustunlik qilayotganini qayd etgan.

5. Sonia Livingstone – Raqamli yoshlarni tadqiqotlari: Livingstone yoshlarning internet va media bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qilib, raqamli madaniyat va axborot oqimi ularning qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynashini isbotlagan.

Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, axborot texnologiyalarini:


- ✓ Yoshlarning qadriyat tizimini sezilarli darajada o'zgartiradi.
- ✓ An'anaviy qadriyatlardan zamonaviy, global qadriyatlarga o'tish kuzatiladi.
- ✓ Individualizm va ijodiy ifodalash qadriyatlari oshadi, ijtimoiy faollik esa kamayishi mumkin.

**O'g'il va qiz bolalarning axborot texnologiyalarining yoshlarni qadryatlariga ta'sirini baholash natijalari:**

4-jadval.

No	Qadriyatlarning umumlashgan ko'rinishi	O'g'il bolalar(M)	Qiz bolalar(M)	Farq +qizlar - o'g'il bola
1	Maroqli hordiq chiqarish, dam olish;	0.621	0.629	+0.008
2	Yuqori moddiy farovonlik;	0.583	0.485	-0.098
3	Go'zallikni izlash va undan zavqlanish;	0.479	0.553	+0.074

4	Boshqa odamlarga yordam va rahm-shafqat;	0.667	0.750	+0.083
5	Sevgi;	0.479	0.576	+0.097
6	Dunyoda, tabiatda, odamlarda yangi narsalarni bilish;	0.479	0.705	+0.226
7	Yuqori ijtimoiy mavqe va odamlarni boshqarish;	0.396	0.614	+0.218
8	Odamlarni tan olish va hurmat qilish, ularning e'tiboridan umidvorlik;	0.479	0.583	+0.104
9	Jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishish uchun ijtimoiy faoliyk;	0.396	0.424	+0.028
10	Muloqot;	0.521	0.515	-0.006
11	Salomatlik	0.396	0.621	+0.225



**Izoh:** Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, o'g'il va qiz bola respondentlarning qadriyatlar tizimida ma'lum darajadagi tafovutlar kuzatilmogda. Shkalalar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar tahlili natijalariga asoslanib, ayrim qadriyatlarning gender jihatdan sezilarli farqlarga ega ekani aniqlangan. Engyuqori tafovut “Dunyoda, tabiatda, odamlarda yangi narsalarni bilish” qadriyatida kuzatilgan bo'lib, qiz respondentlarda ( $M=0.705$ ) ushbu ko'rsatkich o'g'il bolalarga ( $M=0.479$ ) nisbatan +0.226 ga yuqori. Bu natija, qiz bola respondentlarning yangiliklarni izlash va bilishga bo'lgan intilishlari yuqori ekanini ko'rsatadi. “Salomatlik” qadriyati ham qiz bolalarda ( $M=0.621$ ) o'g'il bolalarga ( $M=0.396$ ) nisbatan sezilarli darajada yuqoriroq (+0.225). Bu esa qiz bolalarning sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan e'tiborining yuqoriligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, “Boshqa odamlarga yordam va rahm-shafqat” qadriyati bo'yicha qiz bolalar ( $M=0.750$ ) o'g'il bolalarga ( $M=0.667$ ) qaraganda sezilarli yuqorilikka ega (+0.083). Ushbu natija qiz bola respondentlarning ijtimoiy yordam va empatiya kabi hissiy jihatlarga ko'proq e'tibor berishlarini tasdiqlaydi. Shuningdek, “Odamlarni tan olish va hurmat qilish, ularning e'tiboridan umidvorlik” qadriyati qiz bolalarda ( $M=0.583$ ) o'g'il bolalarga ( $M=0.479$ ) nisbatan +0.104 ga yuqori. Bu esa ijtimoiy maqom va tan olinishi muhim bo'lgan qadriyat sifatida qiz bola respondentlar uchun ko'proq ahamiyatlitekanini ko'rsatadi. Biroq, ba'zi qadriyatlar bo'yicha o'g'il bolalar yuqoriroq natija qayd etgan. Masalan, “Yuqori moddiy farovonlik” qadriyati o'g'il bolalarda ( $M=0.583$ ) qiz bolalarga ( $M=0.485$ ) nisbatan +0.098 ga yuqoriroq. Bu o'g'il bola respondentlarning iqtisodiy barqarorlik va moddiy mustaqillikka bo'lgan ehtiyojining yuqoriligini ko'rsatishi mumkin. Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, qiz bolalar ko'proq ijtimoiy va hissiy qadriyatlarga urg'u berishsa, o'g'il bolalar moddiy va mustaqillikka yo'naltirilgan qadriyatlarga ko'proq e'tibor qaratadilar. Ushbu farqlar axborot texnologiyalarining yoshlar qadriyatlariga ta'sirini o'rganishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, zamonaviy axborot muhitini turli xil qadriyatlarning shakllanishida va ularning gender bo'yicha farqlanishida hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.

**Muhokama.** Empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning qadriyatları individualizatsiya va pragmatizm tomonga siljiyotgan bo'lib, bu ularning ijtimoiy munosabatlarida instrumentalizm unsurlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Xususan, axborot texnologiyalarini ta'sirida utilitaristik yondashuv shakllanib, altruistik va kollektiv qadriyatlar nisbatan zaiflashmoqda. Bundan tashqari, erkak va ayol respondentlar orasida ijtimoiy tarmoqlarning xavfini baholashda sezilarli gender tafovutlari kuzatildi. Ushbu

tafovutlar shuni anglatadiki, axborot xavfsizligi va raqamli xulq-atvor madaniyatiga oid profilaktik choralar yoshlarning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

**Xulosa.** Zamonaviy axborot texnologiyalarining yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga ta'siri ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, uning ta'sir doirasi kognitiv, affektiv va xulqiy komponentlarga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli axborot muhitni shaxsiy ijtimoiylashuv dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, qadriyatlar tizimining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumotlar yoshlarni ongida stereotipik tasavvurlarni shakllantirish, hayotiy maqsadlarni belgilash va axloqiy mezonlarni o'zgartirish jarayonlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda Bubnovning qadriyatlar metodikasi asosida olingan natijalar SPSS dasturida tahlil qilinib, statistik jihatdan ishonchli xulosalar chiqarildi. Grafik va diagrammalar yordamida aks ettirilgan natijalar axborot muhitining yoshlarni qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarga qanday yo'nalishda ta'sir ko'rsatayotganini vizual tarzda tasdiqladi. Natjalarga asoslanib, yoshlarni orasida axborot tanqidiy tahlilini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va madaniy-identifikatsion barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot zamonaviy raqamli muhitning yosh avlodning dunyoqarashi va qadriyatlariga ko'rsatayotgan ta'sirini empirik asosda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, kelajakda yanada chuqurroq o'rganishlar va ko'p omilli modellarga asoslangan tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi. Shu bois, axborot texnologiyalarining shaxs taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirini yanada aniqroq o'rganish hamda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy barqarorligini ta'minlash maqsadida ilmiy-tahliliy izlanishlarni davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tavsiyalar:

1. Raqamli savodxonlikni oshirish – yoshlarni tanqidiy fikrlashga, ishonchli manbalarni ajratishga o'rgatish.
2. Ota-onalar va pedagoglar tomonidan nazorat – AT vositalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish.
3. Ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini ilmiy o'rganish – yoshlarning qadriyat tizimidagi o'zgarishlarni doimiy tahlil qilish.

#### **Adabiyotlar:**

1. Anderson, J., & Rainie, L. (2018). The Future of Well-Being in a Tech-Saturated World. Pew Research Center.
2. Bauman, Z. (2007). Consuming Life. Polity Press.
3. Carr, N. (2010). The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. W. W. Norton & Company.
4. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell.
5. Livingstone, S., & Haddon, L. (2009). Kids Online: Opportunities and Risks for Children. Policy Press.
6. Schwartz, S. H. (2012). An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values. Online Readings in Psychology and Culture, 2(1).
7. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.

Mustafayeva Shirinoy Farxadjonovna,  
Central Asian Medical University  
Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi f.f.d (PhD)

## PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA O'Z-O'ZINI SAFARBAR QILISH HARBIY PSIXOLOGIYA MUAMMOSI SIFATIDA: ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUV

**Annotatsiya.** Zamonaviy metodologik yondashuvlar yordamida harbiy psixologiyaning rivojlanishi sohasida, psixologik barqarorlikni oshirish va harbiy xizmatchilarning stressga qarshi turish ko'nikmalarini shakllantirishda yangicha va innovatsion metodlar qo'llanilmoqda. Harbiy psixologiyaning zamonaviy yondashuvlari an'anavy usullardan farqli o'laroq, ko'proq integratsiyalangan, tizimli va bilimga asoslangan yondashuvlarga tayanadi. Bu metodlar, birinchi navbatda, harbiy xizmatchilarda stressni boshqarish va ruhiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'yнaydi. Psixologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan metodlar harbiy xizmatchilarda chuqur ichki resurslarni topish va ularni to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi. Ushbu maqolada psixologik barqarorlikning harbiy sharoitda o'z-o'zini safarbar qilishning zaruriy jihatlari bilan bog'liq turli metodologik yondashuvlar va ularni harbiy xizmatchilarga tayyoragarlik jarayonida qo'llash usullari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** psixologik barqarorlik, o'z-o'zini safarbar qilish, harbiy psixologiya, stressga bardoshlilik, zamonaviy metodologik yondashuv.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ И САМОМОБИЛИЗАЦИЯ КАК ПРОБЛЕМА ВОЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ: СОВРЕМЕННЫЙ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД

**Аннотация.** В области развития военной психологии применяются современные методологические подходы для повышения психологической устойчивости и формирования у военнослужащих навыков противостояния стрессу. В отличие от традиционных методов, современные подходы в военной психологии являются более интегрированными, системными и основанными на знаниях. Эти методы играют важную роль в управлении стрессом и поддержании психологической стабильности среди военнослужащих. Методы, направленные на укрепление психологической устойчивости, помогают военнослужащим раскрыть свои внутренние ресурсы и правильно их направить. В данной статье рассматриваются различные методологические подходы, связанные с самомобилизацией в военных условиях, а также способы их применения в процессе подготовки военнослужащих.

**Ключевые слова:** психологическая устойчивость, самомобилизация, военная психология, стрессоустойчивость, современные методологические подходы.

## PSYCHOLOGICAL STABILITY AND SELF-MOBILIZATION AS A PROBLEM OF MILITARY PSYCHOLOGY: A MODERN METHODOLOGICAL APPROACH

**Abstract.** In the field of military psychology development, modern methodological approaches are being applied to enhance psychological resilience and develop soldiers' skills to withstand stress. Unlike traditional methods, modern approaches in military psychology are more integrated, systematic, and knowledge-based. These methods play a crucial role in managing stress and maintaining psychological stability among military personnel. Methods aimed at strengthening psychological resilience help military personnel discover their inner resources and channel them correctly. This article examines various methodological approaches related to self-mobilization in military conditions and explores ways to implement them in the training process of military personnel.

**Keywords:** psychological resilience, self-mobilization, military psychology, stress tolerance, modern methodological approach.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda harbiy psixologiya, nafaqat jangovar sharoitlarda, balki tinchlik davrida ham katta ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilarni tayyorlash va ularning professionallikka erishishida psixologik barqarorlik muhim o'rinn tutadi. Harbiy xizmatda psixologik barqarorlik, nafaqat individual xususiyat sifatida, balki guruh, birlashma darajasida ham katta rol o'yнaydi. Bugungi kunda psixologik barqarorlik, harbiy sharoitda o'z-o'zini safarbar qilish va stressga qarshi turish ko'nikmalarining shakllanishi, harbiy xizmatchilarning psixologik saqlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib, ularning

samarali xizmat yuritishi, turli ekstremal vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini oshiradi. Zamonaviy jangovar va tinchlik davrlarida yuzaga keladigan turli murakkab vaziyatlar harbiy xizmatchilardan yuqori psixologik chidamlilik, stressni boshqarish va qarorlar qabul qilishda mustahkam ruhiy holatni talab qiladi. Xavfli sharoitlar, tezkor vaziyatlar va cheksiz psixologik bosimlar harbiy xizmatchilarni doimiy ruhiy zo'riqish ostiga qo'yadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va strategiyalarning rivojlanishi harbiy xizmatchilarning ko'nikmalariga yangi talablar qo'yadi. Ular nafaqat jismoniy jihatdan, balki psixologik jihatdan ham kuchli bo'lishi zarur, chunki murakkab vaziyatlar va harbiy faoliyatning yangi shakllari stressni ko'proq keltirib chiqarishi mumkin. Harbiy xizmatchilarning o'z-o'zini safarbar qilish qobiliyati, ya'ni o'z ichki resurslarini samarali ishlatish, qarorlar qabul qilishda va maqsadlarga erishishda o'zini motivatsiyalash, psixologik barqarorlikka asoslangan rivojlanishni ta'minlaydi. Shunday qilib, harbiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biri psixologik barqarorlikni oshirish, stressga qarshi kurashish va murakkab holatlarda salbiy psixologik holatlarning oldini olishdir. Bu esa, o'z navbatida, jangovar vaziyatlarda yoki tinchlik davrida ham harbiy xizmatchilarning samarali faoliyatini ta'minlashga yordam beradi.

Maqolada psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishning ahamiyati, harbiy sharoitdag'i roli va ularni rivojlantirish uchun zamonaviy metodologik yondashuvlar o'rganiladi. Bu mavzu ayniqsa bugungi kunda, harbiy psixologiyaning rivojlanishi, yangi usullar va metodlarni joriy etish zarurati bilan aloqador. Zamonaviy harbiy sharoitlarda psixologik barqarorlikni ta'minlash, xususan, stressni boshqarish va o'z-o'zini safarbar qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali harbiy xizmatchilarni tayyorlash jarayonida mustahkam poydevor yaratiladi. Shuning uchun, ushbu mavzuning dolzarbliji, harbiy psixologiyaning kelajagini va harbiy xizmatda muvaffaqiyatni ta'minlashda psixologik jihatlarning muhimligini anglatadi. Psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishning rivojlanishi harbiy psixologiyaning muhim tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Shu maqsadda, psixologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan metodlarni ishlab chiqish va qo'llash harbiy xizmatchilarni ekstremal sharoitlarga tayyorlashda juda muhim hisoblanadi.

Zamonaviy psixologik metodlar harbiy xizmatchilarda stressga qarshi turish, vaziyatga moslashish, o'z-o'zini safarbar qilish va guruh sifatida ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu metodlar, shuningdek, harbiy xizmatchilarda mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Maqolada psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishning harbiy psixologiyadagi ahamiyati, shuningdek, bu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metodologik yondashuvlar haqida batafsil tahsil qilinadi. Bu masalalar harbiy xizmatchilarni ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashda, ularning muvaffaqiyatlari faoliyat yuritishlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishning harbiy psixologiya sohasidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish bir qator psixologik tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar orqali taqdim etilgan. Ushbu sohada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorlik darajasi, ularning jangovar vaziyatlarda faoliyat ko'rsatish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Ko'plab tadqiqotlar psixologik barqarorlikning stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish, ijtimoiy muloqot va jismoniy salomatlikka ta'sirini ta'kidlashga qaratilgan.

Xususan, A.V. Petrov (2007) o'zining "Harbiy psixologiya: muammolar va yondashuvlar" asarida psixologik barqarorlik va stressga qarshi turishning harbiy sharoitdag'i ahamiyatini chuqur tahlil etgan. Petrovning fikricha, harbiy psixologiya o'zida nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki ruhiy mustahkamligini ham talab qiladi. U psixologik barqarorlikni shakllantirishda trening va o'quv jarayonlariga individual yondashuvning muhimligini ta'kidlagan va stressga qarshi kurashishda maqsadga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash zarurligini ko'rsatgan [1]. Shuningdek, L. Ya. Zaxarov (2003) harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini oshirishga qaratilgan treninglar va psixologik tayyorgarlik metodlarini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotlarida psixologik tayyorgarlik, guruhning birlashgan ishslash qobiliyatini oshirish va individual psixologik holatni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Zaxarovning fikricha, psixologik barqarorlik nafaqat individual shaxsnинг holatini, balki guruhning umumiyligi psixologik muhitini ham shakllantiradi, bu esa o'z navbatida muvaffaqiyatlari vaziyatga moslashish va qarorlar qabul qilishda yordam beradi [2].

A. M. Makarov (2015) "Harbiy psixologiyada stressga qarshi kurash va barqarorlikni oshirish" nomli ishida stressni boshqarish va o'z-o'zini safarbar qilishning harbiy xizmatchilar uchun zaruriy ko'nikmalar ekanligini isbotlagan. Makarovning tadqiqotida stressli vaziyatlarga moslashish va ruhiy barqarorlikni saqlashning harbiy psixologiyada mustahkamlanishi kerakligi haqida batafsil ma'lumot berilgan. U, shuningdek, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish uchun zarur bo'lgan metodlarni va yondashuvlarni taqdim etgan, ular stressga qarshi kurash va yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan [3]. V. A. Ivanov va V. V. Dobrokhotov (2011) o'z asarlarida psixologik barqarorlikni oshirishning zamonaviy metodlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Ular psixologik tayyorgarlik jarayonida o'z-o'zini safarbar qilishning ahamiyatini ko'rsatgan va o'z-o'zini motivatsiya qilishning

psixologik jarayonlarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan treninglar va psixologik kurslarning samaradorligini ko'rsatadi [4].

**Tahlil va natijalar.** Psixologik barqarorlik – bu shaxsning stressli vaziyatlar, ekstremal holatlar yoki o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati, ruhiy barqarorlikni saqlash va ijobji holatni davom ettirishga yordam beradigan psixologik jihatdir. Ushbu tushuncha harbiy psixologiyada muhim o'rinni tutadi, chunki harbiy xizmatchilar o'z faoliyatida tez-tez psixologik bosimga duch kelishadi. Harbiy sharoitlarda psixologik barqarorlik shaxsning o'zini saqlash va vaziyatga moslashish qobiliyatini ta'minlaydi, bu esa samarali xizmat qilishning asosiy omillaridan birdir. Psixologik barqarorlik, bir tomonidan, stressni boshqarish va psixologik holatni barqaror saqlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi, boshqa tomonidan esa, harbiy xizmatchilarning o'z-o'zini safarbar qilish qobiliyatini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Lug'aviy ma'noda "barqarorlik" so'zi o'zgaruvchan yoki noqulay sharoitlarga qarshi turish va ularga moslashish qobiliyatini bildiradi. "Psixologik barqarorlik" esa, shaxsning o'z ichki salohiyatini, emosional holatini va fikrlash tarzini boshqarishda doimiy ravishda mustahkam bo'lishini ta'riflaydi. Shaxsning o'zini idora qilish qobiliyati, stressni boshqarish va psixologik muvozanatni saqlash psixologik barqarorlikning asosiy omillaridan birdir. Quyidagi jadvalda stress omillari keltirilgan:

### 1-jadval.

#### Stress omillari

Parametr	Biologik stress	Psixologik stress
Stress sababi	Organizmga jismoniy, kimyoviy, biologik ta'sir	Ijtimoiy ta'sir yoki shaxsiy fikrlar
Havf hususiyati	Doimo real	Real yoki virtual
Stress yo'nalgaligi	Hayotga,sog'liqqa, jismoniy holatga	Ijtimoiy maqom
Sog'liq va hayotga real xavf solish darajasi	Mavjud	Mavjud emas

Psixologik barqarorlikning nazariy asoslariga kelsak, bir qator psixologik yondashuvlar mavjud. Masalan, Kognitiv-behavioral terapiya (CBT) metodologiyasi stressni boshqarishning samarali usuli sifatida tanilgan. CBT, insonning ijobji va salbiy fikrlarining psixologik holatiga qanday ta'sir qilishini o'rganib, stressni boshqarish va psixologik barqarorlikni oshirishga yordam beradi. Bu yondashuvda shaxsning o'zgaruvchan sharoitlarga qanday javob berishini tahlil qilish va salbiy fikrlarni to'g'rilashga qaratilgan usullar qo'llaniladi. Yevgeniy K. Zdravomyslov va Leonid I. Mityushkin tomonidan ishlab chiqilgan "stressning psixologik nazorati" nazariyasiga ko'ra, stressni boshqarish qobiliyati shaxsning psixologik barqarorligini ta'minlashda markaziy o'rinni tutadi. Ular, shuningdek, stressga qarshi turish va psixologik chidamlilikni oshirishda ichki psixologik resurslarning roli katta ekanligini ta'kidlaydilar. Bu resurslar shaxsning o'z-o'zini boshqarish, o'z fikrini va his-tuyg'ularini tahlil qilish va stressli vaziyatlarda salbiy holatlarga qarshi turish qobiliyatidir.

Shuningdek, psixologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan metodologiyalardan biri mindfulness (diqqatni jamlash) texnikasıdır. Jon Kabat-Zinn tomonidan ishlab chiqilgan mindfulness, stressni boshqarish va psixologik barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradigan eng samarali yondashuvlardan birdir. Mindfulness texnikalari yordamida harbiy xizmatchilar o'z diqqatini hozirgi vaqtga yo'naltirishi, stressni kamaytirishi va psixologik barqarorligini oshirishi mumkin. Ushbu yondashuv, shuningdek, harbiy xizmatchilarda o'z-o'zini safarbar qilish va vaziyatga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Psixoterapevtik yondashuvlar ham psixologik barqarorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Guruh terapiyasi va psixologik treninglar harbiy xizmatchilarda stressni boshqarish va o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu metodlar orqali harbiy xizmatchilar guruh sifatida o'zaro qo'llab-quvvatlashni, stressga qarshi kurashishni va ruhiy holatni boshqarishni o'rganadilar. Harbiy xizmatda psixologik barqarorlikni oshirish uchun guruhning o'zaro yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lishi zarur. Guruh sifatida psixologik barqarorlikni ta'minlash, harbiy xizmatchilarning stressga qarshi kurashish va vaziyatga moslashishda yanada samarali bo'lishlariga yordam beradi.

Zamonaviy harbiy psixologiyada psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishning o'rni katta ahamiyatga ega. Harbiy xizmatning o'ziga xos sharoitlari, ko'pincha stressli vaziyatlar va yuqori darajadagi psixologik bosim ostida bo'lishi kerak bo'lgan vazifalar, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorlik darajasiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. Ushbu tadqiqotda psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishning harbiy psixologiya sohasidagi o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilindi va metodologik yondashuvlar, treninglar va psixologik yordamni qo'llashning muhim jihatlari o'rganildi.

### **1. Psixologik barqarorlik va stressni boshqarish:**

Psixologik barqarorlik harbiy xizmatchilarning hayotida eng muhim omillardan biridir. Jangovar sharoitlar, xavf-xatarlar va jismoniy kuch talab qiluvchi vaziyatlar, shuningdek, doimiy psixologik bosim harbiy xizmatchilarning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotda ko'rsatilishicha, psixologik barqarorlik o'z-o'zini safarbar qilish bilan bevosita bog'liq bo'lib, harbiy xizmatchilar stressga qarshi turish, vaziyatga moslashish va o'zining ichki resurslarini muvaffaqiyatli boshqarishda yuqori ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Psixologik barqarorlikni shakllantirishning eng samarali usullardan biri stressni boshqarish va vaziyatga nisbatan ijobiy fikrlashga o'rgatishdir. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, psixologik barqarorlik va stressga qarshi kurashishning eng samarali metodlari kognitiv-psixologik usullarni qo'llashdir. Masalan, psixologik treninglar va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali harbiy xizmatchilar stressli vaziyatlarga qarshi turishga, o'z-o'zini safarbar qilishga va sog'lom ruhiy holatni saqlashga muvaffaq bo'ladilar. Bu usullar yordamida harbiy xizmatchilar stressning turli omillarini aniqlashni va ularga qarshi kurashishni o'rganadilar.

Mindfulness (Diqqatni jamlash) usulini o'zlashtirish. Mindfulness – bu hozirgi paytda bo'lish va atrofdagi har bir narsaga to'liq e'tibor berish amaliyoti. Stressli vaziyatlarda hozirgi onga diqqatni jamlash, o'z fikrlaringizni va his-tuyg'ularingizni kuzatib, ularni baholamagan holda qabul qilishni o'rgatadi. Bu usul nafaqat stressni kamaytirishga, balki salbiy his-tuyg'ularni boshqarishga ham yordam beradi.

**Amaliyot:** Har kuni 10-15 daqiqa davomida chuqur nafas olish va hozirgi onga to'liq e'tibor qaratish. Bu jarayon nafasni kuzatish, his-tuyg'ularni sezish va ularni qabul qilishdan iborat.

#### **Breytingli fikrlash (Cognitive Restructuring)**

Stressli vaziyatlarda odamlar ko'pincha salbiy fikrlarni ko'taradilar, masalan, "Men buni uddalay olmayman", "Bu juda qiyin", "Har doim shunday bo'ladi". Bu salbiy fikrlar odamning stressga bo'lgan reaksiyasini kuchaytiradi. **Changing your thinking** (fikrlashni o'zgartirish) texnikasi salbiy fikrlarni tan olish va ularni ijobiy, realizmga asoslangan fikrlar bilan almashtirishni o'rgatadi.

**Amaliyot:** Agar sizni biron-bir vaziyat yoki muammo qiyinchiliklarga duchor qilsa, salbiy fikrni aniqlang va uni ijobiy nuqtai nazar bilan almashtiring. Misol uchun, "Men bunga tayyor emasman" o'rniga "Bu yangi tajriba va men o'rganishim mumkin" degan fikrni tanlang.

**Jismoniy faollikni oshirish.** Jismoniy mashqlar stressga qarshi kurashish uchun samarali vosita hisoblanadi. Mashqlar nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki endorfin ishlab chiqarilishiga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, kayfiyatni yaxshilaydi va stressni kamaytiradi.

**Amaliyot:** Har kuni kamida 30 daqiqa davomida jismoniy faollikni amalga oshiring. Bu yugurish, yurish, velosiped minish yoki yoga kabi faoliyatlar bo'lishi mumkin.

### **2. Psixologik tayyorlik va treninglar:**

Psixologik barqarorlikni oshirishda psixologik tayyorgarlikning o'rni juda katta. Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini shakllantirish uchun maxsus treninglar va metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Tadqiqotda, psixologik tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchilarga stressga qarshi kurashish, o'z-o'zini safarbar qilish va ijobiy ruhiy holatni saqlashni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgan. Treninglar ikki asosiy komponentga asoslanadi: birinchisi, individual psixologik tayyorgarlik, ikkinchisi esa guruhni motivatsiya qilish va birlashgan ishlarni amalga oshirish. Harbiy xizmatchilarni individual ravishda tayyorlashda, stressni boshqarish bo'yicha maxsus metodlar, kognitiv terapiya va tasavvur qilish texnikalari yordamida psixologik barqarorlikni oshirishga erishiladi. Guruhning motivatsiyasini oshirishda esa guruh dinamikasi, jamoaviy ish va o'zaro yordamga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, guruhda birgalikda ishlash va umumiylar maqsadlarga yo'naltirilgan motivatsiya harbiy xizmatchilarning o'zaro hamjihatligini va stressga qarshi kurashish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

### **3. Innovatsion yondashuvlar va psixologik barqarorlikni rivojlantirish:**

Zamonaviy harbiy psixologiyada innovatsion texnologiyalar va metodlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda, stressni boshqarish va psixologik barqarorlikni oshirish uchun ilg'or psixologik texnikalar, masalan, virtual reallik simulyatsiyalari, meditatsiya va tasavvur qilish kabi metodlar taqdim etildi. Ushbu metodlar yordamida harbiy xizmatchilar o'zlarining psixologik salomatligini saqlab qolish, stressni boshqarish va xavfli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatiladi. Virtual reallik yordamida amalga oshirilgan treninglar harbiy xizmatchilarni haqiqiy jangovar sharoitlarga yaqinlashtirishga, psixologik barqarorlikni oshirishga va stressga qarshi kurashish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bunday treninglar, o'z navbatida, harbiy xizmatchilarning jangovar sharoitlarga tayyorligini oshiradi va ularni yuqori darajada psixologik barqarorlikka erishishga yo'naltiradi.

### **4. Psixologik barqarorlikni rivojlantirish natijalari:**

Tadqiqotning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik barqarorlikni oshirish va o'z-o'zini safarbar qilishning zamonaviy metodlari harbiy xizmatchilarning ruhiy va jismoniy holatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Psixologik tayyorgarlik va treninglarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi, shuningdek, innovatsion yondashuvlar stressga qarshi kurashish va vaziyatga nisbatan moslashish qobiliyatlarini oshiradi. Harbiy xizmatchilar stressli vaziyatlarda qaror qabul qilishda aniq va samarali bo'lib, o'zlarining psixologik holatini saqlashga muvaffaq bo'ladi. Natijada, psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishning zamonaviy metodlari harbiy xizmatchilarning jangovar sharoitlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga, stressni boshqarishga va ijtimoiy-psixologik salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, bunday metodlar harbiy xizmatchilarning umumiy samaradorligini oshirib, jangovar vaziyatlarda muvaffaqiyatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu natijalar harbiy psixologiyaning yanada rivojlanishi, yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish zaruratini ta'kidlaydi. Zamonaviy texnologiyalar va psixologik metodlarni harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish uchun qo'llash, stressni boshqarish va o'z-o'zini safarbar qilishning samarali yo'llarini yaratishga imkon beradi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqotda psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishning harbiy psixologiya sohasidagi o'rni, ahamiyati va rivojlanishining zamonaviy metodologik yondashuvlari tahlil qilindi. Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi, ularning jangovar sharoitlarga moslashish, stressga qarshi turish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, psixologik barqarorlikni oshirishda innovatsion metodlar, kognitiv terapiya, stressni boshqarish treninglari, va virtual reallik kabi zamonaviy yondashuvlarning ta'siri katta. Psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilish harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashga, ularning samaradorligini oshirishga va jangovar sharoitlarga tayyorlikni kuchaytirishga yordam beradi. Ushbu metodlarning harbiy xizmatga qo'llanishi stressni boshqarish, vaziyatga moslashish va jamoaviy ishni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, psixologik barqarorlikni oshirish harbiy xizmatchilarning umumiy psixologik holatini yaxshilashga, ularni ko'proq motivatsiya qilishga va o'z-o'zini boshqarishda yanada mustahkam bo'lishlariga xizmat qiladi. Shu bilan birga, harbiy psixologiya sohasida psixologik barqarorlik va o'z-o'zini safarbar qilishni oshirish uchun yanada zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish zarur. Kelgusida, bu yo'nالishda ilmiy tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar yanada rivojlanishi kerak, chunki harbiy xizmatda psixologik barqarorlikning ta'siri shunchalik katta bo'lsa, uning samarali ishlashiga tayanadigan harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligi va umumiy faoliyat darajasi yuqori bo'ladi.

### Adabiyotlar:

1. Petrov A. V. (2007). "Harbiy psixologiya: muammolar va yondashuvlar". M.: Niko-Press.
2. Zaxarov L. Ya. (2003). "Harbiy psixologiya". M.: Izd-vo "Akademiya".
3. Makarov A. M. (2015). "Harbiy psixologiyada stressga qarshi kurash va barqarorlikni oshirish". M.: Institut psikhologii.
4. Ivanov V. A., Dobrokhотов V. V. (2011). "Stress va psixologik barqarorlikni oshirish metodlari". M.: Aspekt-Press.
5. Galkin J. S. (2009). "Harbiy psixologiyada stress va barqarorlik". M.: U-Press.
6. Frolov S. A. (2013). "Psixologik tayyorgarlik va stressga qarshi kurashning zamonaviy metodlari". M.: Akademos.
7. Karpov I. I. (2010). "Harbiy psixologiyada psixologik barqarorlikni oshirishning metodologik asoslari". M.: Psixologiya.
8. Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil
9. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», 2-jild,
10. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlariga taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1997-yil.

Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

## OILAVIY MUNOSABATLAR VA ERTA TURMUSHGA CHIQISH MUAMMOSI HAMDA UNI PSIXOLOGIK MANBALarda O‘RGANILISHI

**Annotatsiya.** Maqolada oilaviy munosabatlar yoshlarni erta nikoh qurishlariga qarshilik qilish uning sabab oqibatlarini ochib berish, erta nikoh muammolari va farzandlarning nosog’lom tug’ilish sabablaridan biri ekanligi, oilaviy munosabatlar borasida psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari fikr mulohazalar o’rin egallagan. Shuningdek, maqolada erta turmushga chiqish oilaga tayyorgarlik omillari jismoniy va pedagogik tayyorgarlik tushunchalari yoritib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** jahon, erta turmush, oila, farzand, tarbiya, munosabat, psixologik omillar, fikr, asar, suhbat, ta’lim, muammo, ijtimoiy, qadryatlar, nikoh, nizo, muhit.

### ПРОБЛЕМА СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ И РАННИХ БРАКОВ И ЕЁ ИССЛЕДОВАНИЕ В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

**Аннотация.** В статье рассматриваются семейные отношения в контексте противодействия ранним бракам среди молодёжи, раскрываются причины и последствия таких браков. Обсуждаются проблемы ранних браков и их роль как одной из причин рождения нездоровых детей. Приводятся научные исследования психологов в области семейных отношений. Также в статье освещаются факторы подготовки к раннему браку и созданию семьи, разъясняются понятия физической и педагогической готовности.

**Ключевые слова:** мир, ранний брак, семья, ребёнок, воспитание, отношения, психологические факторы, мнение, произведение, беседа, образование, проблема, социальный, ценности, брак, конфликт, среда.

### THE PROBLEM OF FAMILY RELATIONS AND EARLY MARRIAGE AND ITS STUDY IN PSYCHOLOGICAL SOURCES

**Abstract.** In the article, the opposition of young people to early marriage of family relations reveals its cause and effect, the problems of early marriage and the unhealthy birth of children are one of the reasons, scientific research works of psychologists regarding family relations have taken place. The article also highlights the concepts of early marriage, family preparation factors, physical and pedagogical preparation.

**Keywords:** world, early marriage, family, child, education, attitude, psychological factors, thought, work, conversation, education, problem, social, values, marriage, conflict, environment.

**Kirish.** Jahonda inson hayotida muhim o‘rin tutuvchi oila-nikoh, oilaviy qadriyatlar, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan nizolarning kelib chiqishi masalalari ilmiy jamoatchilik diqqat markazidagi eng dolzarb mavzulardandir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 47/237 Rezolyutsiyasi bilan 1993-yilda har yili 15-mayni «Xalqaro oila kuni» sifatida nishonlash e’lon qilinganligi oilaning dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekanligi, oilaning barbod bo‘lishi xolatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash uchun azaliy bo‘lgan masala - oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalar fenomenini alohida amaliy, konstruktiv hamda yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishni davr taqazo etmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oila institutini mustahkamlashda yoshlarni oilaga tayyorlash, oiladagi rollar taqsimoti, er-xotinning o‘zaro bir-birini tushunishi, hissiy yaqinligi va shaxslararo munosabatlarning oilaviy munosabatlar barqarorligiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda oilaning barbod bo‘lishi holatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash ishiga alohida yondashuv asosida oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oila qadriyatları, oila qurish motivining etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etishga yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini keng qamrovda olib borishni davrning

o‘zi taqazo etmoqda. Bu borada, oiladagi shaxslararo munosabatlarning etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini ijtimoiy-psixologik ta’siri hamda yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorligini kompleks o‘rganish orqali maxsus ilmiy tadqiq qilish dolzARB ahamiyatli muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda qizlarni erta turmushga berish holatlarini oldini olish maqsadida erta turmushning salbiy oqibatlari va qonunchilikda belgilangan javobgarlik xususida 1 447 ta targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi, 107 ta holatda erta turmush qurishning oldi olindi, 3 ta erta turmush qurish holati aniqlanib, 7 nafar aybdor shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortildi. Yilning o‘tgan davri mobaynida yurtimizda 22 ta erta nikoh holati aniqlanib, 41 nafar shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilgan. Shuningdek, 55 ta erta nikoh holatlarining oldi olingan. Ertा turmush va ajrimlar sonini qisqartirish maqsadida Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondi tomonidan “Inson huquqi va erkinliklariga amal qilish har bir shaxsning qadr-qimmatini e’zozlash, huquq va manfatlarini ta’minalash, ma’naviy-axloqiy bilimlarni oshirish, oilada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlari faolligini oshirish”, “Mustahkam va sog‘lom oilada tarbiya topgan yoshlar-yurt kelajagi” mavzusida ajratilgan 60 million so‘m miqdoridagi davlat granti hisobidan viloyatimizning shahar va tumanlari bo‘ylab erta turmush va ajrimlar sonini qisqartirishga qaratilgan targ‘ibot ishlari olib borildi.

Loyiha doirasida 3000 ga yaqin xotin-qiz va yoshlar qamrab olindi. Bundan tashqari, ijtimoiy, psixologik yordamga muhtoj xotin-qizlar va yoshlarga 12 ta psixologik va yuridik maslahatlar broshyuralari tarqatilib, shu xususda batafsil ma’lumotlar berildi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali esa har haftada erta turmushning oldini olish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini va faolligini oshirish bo‘yicha so‘rovnomalar tashkil qilinib, ularning natijalariga ko‘ra maqola, ekspertlar xulosasi asosida video-lavhalar tayyorlab targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda yosh oilalar o‘rtasida yuzaga kelayotgan kichik tushunmovchiliklar sabab ajrimlar soni ortib borayotgan bir vaqtda 50-65 yil davomida hayot yo‘llarida birga odimlab kelayotgan, qanchadan qancha qiyinchilik va to‘siqlarni o‘zaro hamjihatlik va mehr-muhabbat ila yengib kelgan nuroniy otaxon va onaxonlarimiz har jihatdan ibrat ekanligiga alohida urg‘u berildi. Har bir oila mustahkam poydevorga ega bo‘lishiga erishish, jamiyatda har bir go‘dakning sog‘lom tug‘ilishi va yashab ketishini to‘la kafolatlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratishga e’tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, oila hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minalaydigan, xalqimizning muqaddas urf-odatlari sayqal topadigan, kelajak avlod kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. Mutaxassislarning fikricha, yigit-qizlarning turmush qurish yoshi oila mustahkamligiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Afsuski, ayrim ota-onalar ko‘pincha farzandining kelajak taqdiri, baxt-saodati haqida o‘ylamay, hali balog‘at yoshiga yetmagan qizini uzatish yoki qarindoshimning qizi begona bo‘lmasin, deb o‘g‘il uylantirish taraddudiga tushadi. Buning oqibatida qizlarni o‘n olti, hatto undan kichik yoshda turmushga uzatib yuborish hollari uchrab turadi. Ammo bu ko‘p hollarda bo‘lg‘usi onaning salomatligi va ruhiyatiga, qolaversa, yosh oilaning mustahkamligi, tug‘ilajak farzandning sog‘lomligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. xorij va mamlakatimiz olimlarining oila muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlari tahlil etilgan. Rossiyalik olim V.N.Drujinin, Margeret Mid, L.Kovar, S.Brodi, E.K.Vasiljeva, I.V.Grebennikov, S.V.Kovalev, V.A.Ssenko va boshqa ko‘pgina mualliflar tadqiqotlarida oilaviy hayotga tayyorlarlash, oila-nikoh, nikohga ma’naviy tayyorgarlik masalalari, ijimiyo tasavvurlar, oilada taqsimlangan rollar, oila a’zolarining mavqeyi, oilada farzand tarbiyasi borasidagi g‘oyalar talqin etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz psixolog olimlaridan R.N.Alimardonova, X.Abdusamatov, D.U.Abdullaeva, R.M.Abdullayeva, F.A.Akramova, Z.B.Bilolova, R.X.Dushanov, U.R.Ibadullayeva, V.M.Karimova, A.E.Kadirova, X.K.Karimov, N.X.Lutfullayeva, SH.Murotova, G.Niyazmetova, B.SH.Norbekova, Z.A.Rasulova, F.R.Ro‘ziqulov, A.T.Ro‘ziqulova, M.S.Salayeva, R.S.Samarov, B.M.Umarov, M.A.Utepbergenov, M.X.Fayziyeva, R.N.Xikmatullayeva, U.D.Qodirov, O‘B.Shamsiyev, G‘.B.SHoumarov, G.X.Yunusova va boshqalar mazkur muammoga e’tiborni qaratganlar.[1.6,b]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Psixolog mutaxassislar tomonidan qizlarning 16-18 yoshlarda ona bo‘lishi jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan. Ko‘p hollarda bunday yoshdagи qizlarning sog‘lom farzandni dunyoga keltirishida turli muammolar kelib chiqadi. Qizlarning jismonan va ruhan onalikka tayyor bo‘lmasdan oila qurishi ko‘pincha tug‘ruq jarayonida o‘lim xavfi ortishiga sabab bo‘ladi. Binobarin, erta homiladorlik yosh ona hamda bo‘lajak farzand uchun har tomonlama xavflidir. Zamonaliv yoshlarni nikohga tayyorlash muammolari Dubrovina I.V., Grebennikov I.V., Kozlov N.I., To‘roxtiy V.S., Razumixina T.M. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. Ikkinci yo‘nalishni yosh muammolari bo‘yicha tadqiqotlar deb hisoblash mumkin va bu yo‘nalishda Erikson E., Kreyg G., Abramova G.S. va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Uchinchisi yo‘nalish esa- oilaviy hayotning barcha muammolari bo‘yicha tadqiqotlar, masalan, oilaviy hayotni davriylashtirish, farovonlik

uchun shart-sharoitlar majmui nikoh, sherikning "to'g'ri" tanlovi, sabablari va xususiyatlari turli nikoh nizolari Sysenko V.A., Obozova A.N., Shapiro B.Yu. asarlarida tatbiq qilingan. A.N.Sizanovaning so'zlariga ko'ra, insonning psixologik tayyorgarligi oilaning yaratilishi rivojlangan muloqot qobiliyatları mavjudligida, birlikda namoyon bo'ladi yoki oilaviy hayotga, dunyoga qarashlarning o'xshashligi, oilani yaratish qobiliyati sog'lom, qulay axloqiy va psixologik iqlim, barqarorlik his-tuyg'ular, xarakter shakllanadi. Muallif psixikaning katta plastikligini ta'kidlaydi, yoshlarga xos xususiyat, yangiga moslashish qobiliyati yuqori munosabatlar turlari, yoshi mutlaq soni qachon mos keladi nikoh tuzuvchilar o'rtasidagi yosh farqi uch yildan besh yoshdan oshmasligi maqbul variant ekanligini takidlaydi. Faqat sherikning his-tuyg'ulariga ehtiyyotkor, hurmatli munosabat, shaxsiy munosabatning ochiq ifodasi, ko'rsatish qobiliyati va o'z his-tuyg'ularini tushuntirish rivojlanishga olib kelishi mumkin. Oila qurishga pedagogik tayyorgarlik kiradi pedagogik savodxonlik, jinsiy tarbiya, iqtisodiy ko'nikma va qobiliyatlar shular jumlasidandir. Pedagogik savodxonlik bu bola rivojlanishining qonuniyatlar, uni tarbiyalash xususiyatlari to'g'risida bilim; chaqaloqqa g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarining mavjudligi kabi tendensiyalarni ham o'z ichiga oladi. Pedagogik tayyorgarlik ham jinsiy aloqani nazarda tutadi yaxshi xulq-atvor - mavjud intim haqida kerakli bilimlarni o'zlashdirish inson hayotining tomonlari, shaxsiy to'g'ri qarashlari gender munosabatlari, sevgini qanday saqlashni bilish tushunchalari oilani yanada mustahkamlashiga xizmat qiladi. Yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligiga ishonchni shakllantirish muhim uning ijtimoiy yetukligining o'ziga xos xususiyati mavjud. Oiladagi hissiy va psixologik muhitdan norozilik, asotsial oilalar sonini ko'payib borishiga sabab bo'lmoqda.

Shapiro B.Y. kelajakdagi turmush o'rtoqlarning sherik tanlash jarayoniga haqiqiy tayyorgarligi nihoyatda muhim ekanligini takidlagan. Uning fikricha, eng xavfli narsa emas ta'sir ostida paydo bo'ladigan sherik tanlashda motivlarni bilish muayyan an'analar, ijtimoiy tasdiqlangan standartlar masalan, faqat sheringizingning tashqi ko'rinishiga, e'tibor qaratish. Nikoh, ko'pincha mustaqil qiymat sifatida ishlatilmaydi. O'z navbatida, bu er-xotinning shakllanishi davridagi muammolar majmuasining manbai hisoblanadi. Shuning uchun eng muhim profilaktika chorasi Shapiro B.Yuning takidlashicha yoshlarning motivatsiyalarini tushunishga qaratilgan deb hisoblaydi. Insonning turmush qurishga tayyorligi juda muhimligini ta'kidlab, V.N. Drujinin ta'kidlashicha, nikohning kuchi va taqdiri ularning soniga bog'liq omillar, chunki u kompleksiga ega bo'lgan ikkita alohida shaxsni o'z ichiga oladi murakkab psixologik va fiziologik xususiyatlar tarkibiga kiradi. Odamlar uchun, turmush qurbanlar uchun yetuk shaxslar bo'lish juda muhimdir. Psixologik yetuklik, Drujinin V.N.ga ko'ra, o'z ichiga oladi ortiqcha egoizmning yo'qligi, tajovuzkorlik va aksincha – xususiyatlar o'z xatolarini tan olish imkoniyati va doimiylik istagi oilaviy munosabatlarni yaxshilash zaruriyatini takidlaydi [2.9,b].

**Tahlil va natijalar.** Oilaviy hayotga tayyorlik ma'lum bir shaxsiy xususiyatdir yoshtar, ijtimoiy yetuklik darajasining eng muhim ko'rsatkichi, ruhiy salomatlik hisoblanadi. I.V. Dubrovinaning fikricha, yoshlarni tayyorlashda optimal axloqiy dunyoni shakllantirishdan tashqari oilaviy hayot shaxsiyat, g'oyalarning maxsus tizimini ishlab chiqish juda muhimdir o'zini ma'lum bir jinsdag'i shaxs sifatida ko'rish o'ziga xos ehtiyojlar, qiymat yo'naliishlari, motivlar, munosabat bu tasvirlarga mos keladigan qarama-qarshi jins vakillari xulq-atvor shakllarini inobatga olish zarur. Zimina N.A. 2016 yilda "Yoshlarning shaxsiy yetukligi" mavzusida tadqiqot olib bordi. Unda "Oilaviy hayotga tayyorlik mezoni" ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, qizlar yosh yigitlarga qaraganda ko'proq darajada to'liq tushunish va qabul qilish bilan ajralib turadi ularning gender roli ("Men kimman?" usuli bo'yicha 15% o'g'il bolalar va 24% qizlar). Bu fakt qizlar uchun psixoseksualizm sohasi ekanligini ko'rsatadi o'z-o'zini anglashning yanada muhim va ichki qabul qilingan mavzusidir [4,14,b]. Bundan tashqari, hozirgi paytda yoshlarning faqat kichik bir qismi o'zlarini kelajakdagi oilaviy rollarga tayyorman deb hisoblashi aniqlangan. Ammo qizlar uchun bu ko'rsatkich yuqoriroq, bu esa yigitlarga qaraganda turmush qurishga ertaroq tayyorligini ko'rsatishi mumkin. R. Schille G.Andreeva T.V.Grebennikov I.V.Sysenko V.A.Sizanov va I. V. Grebennikov qayd etadiki, haqiqiy o'zaro sevgi hissi nikohga tayyorlikni belgilamaydi aksincha bir-birini tushunish qadrlash muhim mezon hisoblanadi. [5.160,b]

Sizanov A.N. "Oilaviy hayotga tayyorlik" dissertatsiyasida quyidagi komponentlar: motivatsion, psixologik, pedagogik va ijtimoiy-axloqiy tayyorgarligi takidlab o'tadi. 1. Ijtimoiy va axloqiy tayyorgarlikni aniqlash, Sizanova A.N. fuqarolik yetukligini anglatadi - yosh (20-22 yoshdagi qizlar uchun, uchun o'g'il bolalar - 23 - 28 yosh), o'rtalik yoki oliy ma'lumotga ega; kasb-hunar, iqtisodiy mustaqillik, shuningdek, shakllangan axloqiy ongga ega bo'lismeni tahlil qilgan. Axloqiy ong yoshlarning ijtimoiy tushunchasi oilaning ahamiyati, rivojlangan mas'uliyat hissi, tayyorlik o'zaro hurmat, shuningdek, odamlarning barcha huquq va majburiyatlarini amalga oshirish, nikoh munosabatlariga kirishishda o'rin egallaydi. 2. Motivatsion tayyorgarlik. Yaratilishning asosiy motivi oila bu sevgi. Biroq, boshqa sabablar ham bor: sabab va moddiy sabablarga ko'ra. Motivatsion tayyorgarlik mustaqillikni anglatadi (kundalik ko'nikmalarga ega bo'lish,

moddiy avtonomiya, mustaqil ravishda qabul qilish qobiliyati qarorlar), shuningdek yaratilganlar uchun javobgarlikni shakllantirish oila, bolalarni tug'ish va tarbiyalashga tayyorlik. V.N. Drujininlar shaxsiy kamolotga alohida e'tibor berishadi yoshlardan turmush qurishadi. Bu shaxsiy yetuklikning to'rtta turini 1) javobgarlik; 2) o'z-o'zini rivojlantirish; 3) tolerantlik; 4) ijobiy fikrlash, ijobiy munosabat keltirib o'tadi.

Tadqiqot ishimizda Toshkent shahar va Jizzax viloyatida yashovchi qizlarni oilaviy tasavvurlarini o'rghanish uchun so'rovnoma olib bordik. Quyidagi 1-jadvalda uning natijalari bayon etilgan.

**“Qizlarni oila haqidagi qarashlari” so'rovnomasining hududlar bo'yicha natijalari  
(Toshkent va Jizzax hududi misolida) n-274**

Shkala	Hudud	O'rtacha	Dispersiya	n	t
					T
Oila haqida tasavvurlari darajasi	T	2,93	0,45	140	2,28
	J	2,85	0,41	134	
Oila qurishda nimalarga e'tibor berish istaklari	T	1,40	1,01	140	-0,68
	J	1,57	1,27	134	
Baxtli bo'lish uchun nimalar qilish haqidagi qarashlari	T	2,29	0,53	140	0,54
	J	2,17	0,62	134	
O'zlarini oilaga tayyorman deb hisoblashlari	T	3,01	0,83	140	1,32*
	J	2,02	0,78	134	
Farzand tarbiyalashga tayorman deb o'yashlari	T	2,01	0,83	140	-0,99
	J	2,02	0,80	134	

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01; \*\*\*p<0,001;

Jadvaldan ma'lumki, oila haqidagi qizlarning qarashlari o'rtasida ahamiyatga molik farqlar aniqlanmadidi. Faqatgina o'zlarini oilaga tayyorman deb hisoblashlari bo'yicha ahamiyatli farq aniqlandi  $t=-1,32$   $p<0,05$  unga muofiq Toshkentda yashovchi qizlarimiz o'zlarini oilaga tayyorman deb hisoblashmoqda. Bu esa hududlar kesimida ijtimoiy fikrlarda turli tafavvutlar mavjud ekanligini va Toshkent shahrida qizlar erta turmushga berilishini anglatadi.

**Xulosa va takliflar.** Yoshlarni ayniqsa qizlarni erta turmushga chiqish yoki uzatib yuborish muammosi bugungi kunda boshqa davlatlar qatori mamlakatimizda ham dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda, xususan erta turmush qurish oilaviy munosabatlarga tayyor emaslik holatlari oilalarни ajrim yoqasiga olib kelishiga va 1 yoki 2ta farzandlar baxtsiz ota yoki onasiz voyaga yetishiga sabab bo'lmoqda, chunki erta turmushga chiqish oila qurish oilaviy qiyinchiliklarga tayyor emaslik yoki jismoniy jihatdan yetilmaganlik sababi subektiv va obektiv omillar oilalarни parokanda qilishi mumkin, shu kabi misli ko'rilmagan mumamolarni oldini olish va bartaraf etish uchun mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Olib borilgan tushuntirish ishlari va qabul qilingan qarorlar natijasi o'laroq bu masalaga fuqorolarimizni jiddiy yondashishlarini va masuliyatli bo'lishlarini ta'minlashimiz mumkin.

### Adabiyotlar:

1. N.Djuhonova “O'zbek va qirg'iz qizlarini oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustananovkalar ” avtoreferati, - Т. - 2023 y. 6 b.
2. Burieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. -Т.:, 1997. - 9 b.
3. Исаев Д.Н., Каган В.Э. Половое воспитание и психогигиена пола у детей. –Л.:, 1979. – 184 с.
4. Исаев Д.Н., Каган В.Э. Психогигиена пола у детей: руководство для врачей. –М.:, 1986. –14 с.
5. Исаев Д.Н., Каган В.Э. Половое воспитание детей. –Л.:, 1988. –160 с.
6. Ismailov M.N. O'quvchi gigienasi. –Т:, 1977.
7. Klenitskaya E.M. Qiz bola tarbiyasi. –Т:- Meditsina, 1971.
8. Ковалев С.В. Психология современной семьи. –М., 1988.
- 21.Ковалев С.В. Подготовка старшеклассников к семейной жизни. –М., Ю, 1991.

*Abdullayeva Mohigul Muqumjon qizi,  
Farg‘ona davlat universiteti magistranti  
mohigulabdullayeva169@gmail.com*

## **IJTIMOY TARMOQLARNING O‘SMIRLARD A O‘Z-O‘ZINI ANGLASHI VA PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA’SIRI**

**Annotatsiya.** Zamonaviy raqamli jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu platformalar o‘smir yoshdagilar orasida o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy identifikasiya va psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘smirlilik davri – shaxsning o‘zini tanish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayoni faollashadigan davr bo‘lib, bu davrda ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri o‘ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning o‘z-o‘zini anglash va psixologik salomatlikka ta’siri empirik tadqiqotlar asosida o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy tarmoq, psixologik salomatlik, raqamli jamiyat, o‘smirlilik davri, ijtimoiy identifikasiya, shaxsning o‘zini tanishi, psixologik ta’sir.

## **ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА САМООСОЗНАНИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ПОДРОСТКОВ**

**Аннотация.** В современном цифровом обществе социальные сети становятся неотъемлемой частью жизни человека. Эти платформы оказывают значительное влияние на самоосознание, социальную идентификацию и психологическое состояние подростков. Период подросткового возраста — это этап, когда человек активно познаёт себя и находит своё место в обществе, и влияние социальных сетей в этот период имеет чрезвычайно важное значение. В данной статье изучено влияние социальных сетей на самоосознание и психологическое здоровье на основе эмпирических исследований.

**Ключевые слова:** самоосознание, социальная сеть, психологическое здоровье, цифровое общество, подростковый возраст, социальная идентификация, самопознание, психологическое воздействие.

## **THE IMPACT OF SOCIAL NETWORKS ON SELF-AWARENESS AND PSYCHOLOGICAL WELL-BEING IN ADOLESCENTS**

**Abstract.** In the modern digital society, social networks are becoming an integral part of human life. These platforms have a significant impact on self-awareness, social identity, and psychological well-being, especially among adolescents. The adolescent period is a phase in which individuals actively engage in self-discovery and find their place in society, making the influence of social networks during this time crucially important. This article explores the impact of social networks on self-awareness and psychological health based on empirical research.

**Keywords:** self-awareness, social networking, psychological health, digital society, adolescence, social identity, self-identification, psychological impact.

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi shaxsning kognitiv, affektiv va ijtimoiy-moslashuv jarayonlariga chuqur integratsiyalashmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi o‘z-o‘zini anglash (self-awareness) va psixologik salomatlikka bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida qaralmoqda. O‘z-o‘zini anglash psixologik konstrukt sifatida individlarning avtorefleksiya, o‘ziga nisbatan metakognitiv baho va ijtimoiy identifikasiya jarayonlarini qamrab oladi. Ushbu konsepsiya dastlab James (1890) tomonidan shaxsiy “men” nazariyasi doirasida tahlil etilgan bo‘lib, Mead (1934) va Cooley (1902) tadqiqotlarida ijtimoiy dinamikaga bog‘liq holatda talqin qilingan.

Ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizdagi o‘rnini inkor qilib bo‘lmaydi. Ammo tahlikali jihatlariga ham ko‘z yumib bo‘lmaydi, ijtimoiy tarmoqlarda nafaqat vaqtimiz, balki ruhiy sog‘ligimizni ham qurbon berishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar yangi hodisa bo‘lgani uchun uning atrofida hali hanuz to‘liq tadqiqotlar olib borilmagan. Tadqiqotlarga ko‘ra butun dunyoda 3 milliard kishi, sayyorada 40 foiz inson ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Izlanishlar bir kunda o‘rtacha ikki soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazishimizni tasdiqlamoqda. Fikrimizcha, bu raqamlar aniq emas, aslida ijtimoiy tarmoqlarda

ayrimlarning butun umri o‘tib ketmoqda. Bu har daqiqada yarim million tvit va Snapchat dasturida qayta ishlangan fotosuratni ulashish demakdir.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Zamonaviy psixologiyada o‘z-o‘zini anglash uch asosiy struktural komponent orqali tavsiflanadi:

1. Kognitiv komponent – o‘ziga oid bilimlar, avtorefleksiya va introspektiv idrok jarayonlari (Damasio, 1999).

2. Affektiv komponent – o‘ziga nisbatan emotsiyal munosabat, o‘ziga ishonch (self-esteem) va motivatsion orientatsiyalar (Rosenberg, 1965).

3. Ijtimoiy komponent – ijtimoiy taqqoslash (social comparison), ijtimoiy validatsiya (social validation) va ijtimoiy maqom (Tajfel & Turner, 1986).

Ijtimoiy tarmoqlarning o‘z-o‘zini anglash jarayoniga ta’siri dualistik paradigmada ko‘rib chiqiladi:

1. Ijobiy ta’sirlar: O‘z-o‘zini namoyon etish (self-presentation) orqali shaxsning ijtimoiy-kognitiv identifikatsiyasi shakllanadi (Goffman, 1959). Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash (social support) orqali psixologik rezistentlik va affektiv barqarorlik oshadi (Ellison, Steinfield & Lampe, 2007). O‘z-o‘zini anglash jarayonlari rivojlanib, metakognitiv monitoring va o‘z-o‘zini reguliyatsiya qilish qobiliyati shakllanadi (Flavell, 1979).

2. Salbiy ta’sirlar: Ijtimoiy taqqoslash (social comparison) natijasida o‘zini ideal men bilan taqqoslash sindromi yuzaga keladi, bu esa kognitiv dissonans va eksistensial tashvishni kuchaytiradi (Festinger, 1954). FOMO (Fear of Missing Out) sindromi – ijtimoiy voqealardan chetda qolish qo‘rquvi orqali kortizol sekretsiyasini va simpatik asab tizimining ortiqcha faollashuvi kuzatiladi (Przybylski et al., 2013).

Raqamli tashvish (cyber-anxiety) va kiberdepressiya (cyber-depression) – ijtimoiy medianing haddan tashqari iste’moli natijasida serotonergik va dopaminergik tizimlarning desensitizatsiyasi sodir bo‘ladi, bu esa uzoq muddatda affektiv buzilishlarga olib kelishi mumkin (Twenge, 2017).

Bundan tashqari, zamonaviy nevropsixologik tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlarning bosh miya kortikal aktivligiga bevosita ta’sirini tasdiqlaydi. Masalan, Andreassen va boshqalar (2012) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, ijtimoiy media iste’molining ortishi prefrontal korteksning ekzekutiv funksiyalarining buzilishi, dopamin ajralishining ortib borishi va o‘rganilgan bog‘liqlik (learned addiction) shakllanishiga sabab bo‘lishi aniqlangan. Ushbu jarayon shaxsning impulsiv xatti-harakatlari, kognitiv fleksibilitet pasayishi va emotsiyal disregulyatsiya bilan namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning o‘z-o‘zini anglash va psixologik salomatlikka ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib, bu individual omillarga, foydalanish uslubiga va shaxsning psixologik barqarorligiga bog‘liq. So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarning psixologik salomatlik va o‘z-o‘zini anglash jarayonlariga ta’siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

1. Twenge (2017) tadqiqoti – Uzoq muddatli ijtimoiy tarmoqdan foydalanish yoshlar orasida depressiya va yolg‘izlik darajasining oshishiga olib kelganligini ko‘rsatgan.

2. Huang (2020) metaanaliz tadqiqoti – O‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orasida differensial bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan. Bu bog‘liqlik ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish strategiyasiga bog‘liq.

3. Verduyn va boshqalar (2021) – Passiv kuzatuvchilar ko‘proq depressiv simptomlarni his qilgan bo‘lsa, aktiv foydalanuvchilar ijobiy hissiy tajribaga ega bo‘lgan.

Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarning oshkor qilinishi o‘smirlarning psixologik salomatligi uchun xavf tug‘diruvchi asosiy omillardan biridir. O‘smirlar o‘zlarini namoyon etish va o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslash jarayonida axborot xavfsizligi qoidalariiga e’tibor bermasliklari mumkin, bu esa quyidagi xavflarga olib keladi:

Kiberbullying (Cyberbullying): Ijtimoiy tarmoqlarda salbiy fikr-mulohazalar va tahqirlovchi sharhlar orqali psixologik jarohat yuzaga kelishi mumkin (Kowalski et al., 2014). Doxsing (Doxxing): Shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilish orqali o‘smirlar kiberxavfsizlik tahdidlariga duch kelishi mumkin. Bu o‘z navbatida stress, xavotirlik va depressiya rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Onlayn ta’qib qilish (Cyberstalking): Begona insonlarning o‘smirlarning shaxsiy profillari orqali ma’lumotlarni kuzatib borishi ruhiy zo‘riqish va qo‘rquv hissini kuchaytiradi. Axborot xavfsizligi buzilishi natijasida o‘smirlar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni yo‘qotib, o‘z shaxsiy chegaralarini himoya qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu esa o‘z-o‘zini anglash jarayonining patologik shakllarini rivojlantirishi mumkin.


Ijtimoiy tarmoqlarning o‘z-o‘zini anglash va psixologik salomatlikka ta’sirini o‘rganish uchun Farg’ona viloyati Furqat tumanida joylashgan 8-sonli umumta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchilarida “Siz uchun qanchalik xavfli” nomli so’rovnomaga asosida tadqiqot amalga oshirildi. Ushbu so’rovnomada turli ijtimoiy tarmoqlarning nomlari keltirilib, o‘quvchilar o‘zlarini xavfli deb hisoblagan ijtimoiy tarmoq ilovasini

1 dan 5 gacha bo'lgan raqamlarda xavflilik darajasi bo'yicha belgilashdi. So'rovnoma 5 eng xavfli darajani ifodalagan. Quyida ushbu so'rovnoma natijalarining tahlili haqida ma'lumot keltirilgan:

1-jadval.

Sinaluvchilar	Soni	Foizi
O'g'il bolalar	16	41,0
Qiz bolalar	23	59,0
Jami	39	100,0

Tadqiqotda jami 39 nafar sinaluvchi ishtirok etib, ulardan 16 nafari o'g'il bolalar hamda 23 nafari qiz bolalar, o'g'il bolalar 41% ni qiz bolalar esa 59% ni tashkil etgan,



Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, so'rovnoma ishtirok etgan o'quvchilar ijtimoiy tarmoqdagi Twitter ilovasini o'zlar uchun eng xavfli deb hisoblashadi. Keyingi o'rnlarda esa PUBG, YOUTUBE, TIK-TOK ijtimoiy tarmoq ilovalarini ham o'zlarining psixologik salomatliklariga xavfli ta'sir darajasi ko'proq deb hisoblashadi.

#### O'g'il va qiz bolalarning ijtimoiy tarmoqlar xavfini baholash natijalari

(Baholar 1 dan 5 gacha o'lchov bo'yicha olingan: 1 – umuman xavfsiz, 5 – juda xavfli deb hisoblangan)

2-jadval.

Ijtimoiy tarmoq	O'g'il bolalar ( $M \pm SD$ )	Qiz bolalar ( $M \pm SD$ )	p-value guruylar o'rtaisdagi farq
Telegram	3.31 ± 1.62	3.43 ± 1.19	0.78
Facebook	3.31 ± 1.25	3.39 ± 1.44	0.86
Instagram	3.30 ± 1.43	3.60 ± 1.21	0.007**
PUBG	2.00 ± 1.21	3.91 ± 1.74	0.017**
Twitter	3.50 ± 1.15	3.26 ± 1.66	0.62
Sun'iy intellect	3.00 ± 1.50	3.13 ± 1.39	0.74
Snapchat	3.44 ± 1.36	3.13 ± 1.39	0.56
Tik-tok	3.25 ± 1.29	3.61 ± 1.41	0.07
Youtube	3.06 ± 1.28	4.00 ± 1.12	0.031**
Discord	3.25 ± 1.61	3.09 ± 1.47	0.31

(\*M – o'rtacha baho, SD – standart og'ish, \*p < 0.05 – statistik jihatdan ahamiyatli farq).

**Natijalar.** Tahlil natijalariga ko'ra, o'g'il va qiz bolalar guruylari o'rtaida ayrim platformalarga bo'lgan munosabatda sezilarli farqlar aniqlandi: **Qiz bolalar ko'proq xavf sezgan platformalar:** Telegram,

Facebook, Instagram, PUBG, TikTok, YouTube. Izoh: Ushbu platformalar qiz bolalar uchun shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi, kiberjinoyatlar, kiberbulling va onlayn ta'qib xavfi nuqtayi nazaridan muhim bo'lishi mumkin. Mumtoz tadqiqotlar: Lenhart va boshqalar (2018) tadqiqotida qiz bolalar ijtimoiy tarmoqlarda jinsiy ta'qib va kiberbullingga ko'proq duch kelishlari aniqlangan.

**O'g'il bolalar ko'proq xavf sezgan platformalar:** Twitter, Sun'iy intellekt, Snapchat, Discord. Izoh: Ushbu platformalar o'g'il bolalar uchun anonimlik, ma'lumotlarning manipulyatsiyasi, zararli kontent va texnologik tahdidlar nuqtayi nazaridan xavfli deb baholangan. Mumtoz tadqiqotlar: Boyd (2014) ta'kidlashicha, o'g'il bolalar onlayn muhitda tajovuzkor guruhlar va manipulyativ texnologiyalarga ko'proq e'tibor qaratishadi.

**Sezilarli farq aniqlangan platforma (p < 0.05):** Twitter ( $p = 0.017$ ). Izoh: O'g'il bolalar Twitterni ijtimoiy manipulyatsiya, soxta axborot va radikal fikrlarning tarqalishi nuqtayi nazaridan xavfli deb hisoblashadi. Mumtoz tadqiqotlar: Marwick & Lewis (2017) ta'kidlaganidek, Twitter ko'pincha o'g'il bolalar orasida siyosiy yoki mafkuraviy muhokamalar uchun xavfli platforma sifatida qabul qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi: Qiz bolalar Instagram, TikTok va YouTube kabi vizual kontent asosidagi platformalarda xavflarni ko'proq sezishadi. Bu platformalar ruhiy salomatlik, tanqidiy fikr va ta'qib xavfi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'g'il bolalar esa asosan PUBG kabi o'yin platformalarini xavfli deb hisoblamaydilar, chunki ular ushbu muhitga ko'proq moslashgan bo'lishlari mumkin. Qiz bolalar ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirini o'g'il bolalarga nisbatan sezilarli darajada kuchliroq his qiladilar.

**Muhokama.** Biroq shuni unutmasligimiz lozimki, ijtimoiy tarmoqlar hamda axborot vositalardan keraklicha foydalanish haqida ma'lumotga ega bo'limganda, deyarli barcha tarmoqlar insonning kognitiv jarayonlari, emotsiyonal holati va xulq-atvori hamda psixologik salomatligiga jiddiy xavf keltirishi mumkin. Qimor o'yinlari yoki nikotin, alkogol yoki giyohvand moddalarga qaramlik singari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ham ruhiy qaramlikka olib kelishi mumkin. Postga like yoki ma'qullovchi reaksiya olish miyangizda "mukofot" kimyoziy moddasi bo'lgan dopamin chiqarilishiga sabab bo'ladi. Qanchalik ko'p mukofot olsangiz, shuncha ko'p vaqt ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishni xohlaysiz, hatto bu hayotingizning boshqa jihatlariga zarar yetkazsa ham.

Ijtimoiy tarmoqlarning o'z-o'zini anglash va psixologik salomatlikka ta'sirini kamaytirish uchun o'quvchi yoshlar quydagi faoliyatlarni amalga oshirishlari ular uchun foydali hisoblanadi:

Onlayn vaqtini qisqartirish. Pensilvaniya universitetining 2018 yilgi tadqiqoti ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni kuniga 30 daqiqagacha qisqartirish xavotir, depressiya, yolg'izlik, uyqu muammolari sindromini sezilarli darajada kamaytirganligini ko'rsatdi.

Diqqatni jalb qilish. Ko'pchilik ijtimoiy tarmoqlardan odad yoki zerikishdan foydalanadi. Lekin, bu harakatlarga motivatsiyani aniqlab, ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilgan vaqtini qisqartirish va tajribani yaxshilash mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigon bo'lsak, Ijtimoiy tarmoqlar o'smirlarning o'z-o'zini anglash va psixologik salomatligiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ular o'z-o'zini ifodalash va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini yaratish bilan birga, psixologik salomatlik buzilishlari va axborot tahdidlarini kuchaytirishi mumkin. Axborot xavfsizligi buzilishlari natijasida o'smirlar o'zlarini ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz his qilmasligi, bu esa ularda tashvish, depressiya va ijtimoiy izolyatsiya simptomlarini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, o'smirlar o'rtasida axborot xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va psixologik profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tavsiya etiladigan profilaktik chora-tadbirlar:

1. O'smirlar uchun axborot xavfsizligi bo'yicha treninglar tashkil etish.
2. Onlayn faoliyatga xavfsizlik siyosatini tatbiq etish. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtini cheklash uchun raqamli detoks dasturlarini joriy etish.
3. O'smirlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan psixologik intervensiyalarni o'tkazish.

### **Adabiyotlar:**

1. Festinger, L. (1954). A Theory of Social Comparison Processes. *Human Relations*, 7(2), 117-140.
2. Twenge, J. M., & Campbell, W. K. (2018). The Narcissism Epidemic: Living in the Age of Entitlement. Simon and Schuster.
3. Boyd, D. (2014). It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press.

4. Orben, A., & Przybylski, A. K. (2019). The Association Between Adolescent Well-being and Digital Technology Use. *Nature Human Behaviour*, 3(2), 173-182.
5. Chou, H. T. G., & Edge, N. (2012). “They Are Happier and Have Better Lives Than Me”: The Impact of Using Facebook on Perceptions of Others' Lives. *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*, 15(2), 117-121.



Холигитова Насиба Хабибуллаевна,  
Тошкент Кимё халқаро университети доценти  
n.kholigitova@kiut.uz

## КАРЬЕРАНИ ТАНЛАШ, РЕЖАЛАШТИРИШ ВА УНИ АМАЛГА ОШИРИШ ШАРТЛАРИ

**Аннотация.** Карьера режалашириши сизнинг иш ҳаётингиз учун йўл ҳаритасини яратишга ўхшайди. Мақсадлар қўйши ва ўзингизга яхши бўлган нарса, нимани ёқтириши ва сиз учун муҳим бўлган нарсаларга асосланиб қарор қабул қилишингиз, бу жараён сизга ҳар қандай иш топиш эмас, балки мартаба учун энг яхши йўлни аниқлашига ёрдам беради. Бу сизнинг кўникмаларингиз, қизиқишиларингиз ва қадриятларингиз ҳақида ўйлашини, тадқиқот қилиши, ўз-ўзини баҳолаши ва мақсадларни белгилашини ўз ичига олади. Бу орқали сиз қониқарли ва муваффақиятли мартаба олиб борадиган танловларни амалга ошириб, назорат қиласиз. Мазкур мақолада карьеранинг босқичлари, шахс типологиялари концепцияси, карьерани танлаши, режалашириши ва уни амалга ошириши шартлари ижтимоий-психологик хусусиятлари илмий-назарий жиҳатдан ўрганилган.

**Калим сўзлар:** малакали кадрлар, таълим, мулоқот, гуруҳ, карьера, шахс, эмоционал ҳаракат, ёши даври, дикъат.

### ВЫБОР КАРЬЕРЫ, ПЛАНИРОВАНИЕ И УСЛОВИЯ ЕГО РЕАЛИЗАЦИИ

**Аннотация.** Планирование карьеры - это как составление дорожной карты для вашей трудовой жизни. Постановка целей и принятие решений на основе того, что для вас хорошо, что вам нравится и что для вас важно, - этот процесс поможет вам определить наилучший путь к карьере, а не просто найти какую-либо работу. Это предполагает обдумывание ваших навыков, интересов и ценностей, проведение исследований, самооценку и постановку целей. Благодаря этому вы контролируете ситуацию и делаете выбор, который приведёт к удовлетворительной и успешной карьере. В данной статье в научно-теоретическом аспекте изучаются этапы карьеры, концепция типологий личности, выбор профессии, планирование и условия её реализации.

**Ключевые слова:** квалифицированный персонал, образование, общение, группа, карьера, личность, эмоциональное движение, возрастной период, внимание.

### CAREER SELECTION, PLANNING AND CONDITIONS FOR ITS IMPLEMENTATION

**Abstract.** Career planning is like creating a roadmap for your working life. Setting goals and making decisions based on what is good for you, what you like and what is important to you, this process will help you determine the best path to a career, not just finding any job. It involves thinking about your skills, interests and values, doing research, self-assessment, and setting goals. Through it, you control making choices that lead to a satisfying and successful career. In this article, the stages of a career, the concept of personality typologies, the choice of a career, planning and the conditions for its implementation are scientifically-theoretically studied.

**Keywords:** qualified personnel, education, communication, group, career, personality, emotional movement, age period, attention.

**Кириш.** Жаҳон миқёсида олий таълим муассасаларида талабаларнинг хорижий тил компетенцияларини шахсга йўналтирилган ёндашув асосида ривожлантиришнинг умумевропа таълим стандартлари амалиётга самарали жорий этилмоқда. Таълим жараёнида умумевропа стандартлари талаблари асосида касбий компетентли малакали кадрларни танлаш жамият тарқиётига кенг кўламли ислоҳатларни амалга ошириш талабаларда касбий карьерани танлаш ва ривожлантириш асосида таълим ва тарбиянинг узвий боғлиқлигини таъминлаш бўйича лойихаларни амалиётга татбиқ этиш муҳим аҳамиятга эга.

Республикамизда бўлажак мутахассисларнинг касбий фаолиятга тайёрлашда рақобатбардош кадрларни тайёрлашда давлат ва нодавлат таълим мусасасалари фаолиятида олиб борилаётган таълим-тарбия жараёни, илгор хорижий тажрибаларга асосланган малакали мутахассисларни

тайёрлаш, касбий компетенциясини ривожлантиришнинг меъёрий асослари яратилиб, олий таълим муассасаларининг моддий-техника базаси кенгайтирилмоқда.

“Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш, олий таълим муассасаларида компетентли илмий педагог кадрлар захирасини яратиш” устувор вазифа сифатида белгилаб берилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонида [1], 2017-йил 20-апрелдаги ПҚ-2909-сон “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [2], 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сон “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги [3], 2021-йил 19-майдаги ПҚ-5117-сон “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Карорларида [4] белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу тадқикот иши муйян даражада хизмат қиласди.

**Мавзунинг долзарблиги** карьеरани танлаш, режалаштириш ва уни амалга ошириш шартлари ижтимоий-психологик хусусиятлари етарли даражада ўрганилмаганлиги билан белгиланди.

**Мавзу бўйича илмий изланишларнинг қисқача таҳлили.**

Ушбу тадқикот иши билан ва муаммолари бўйича Лоуренс Пол Роджер, Лорш Джей Уильям[5], Э.Клинов, Джаларова С.М., Умарова Н.Ш, Базаров Т.Ю[6]. Шахсларро муносабатлар ва мулоқот психологияси бўйича Л.С.Виготский, А.Н.Леонтьев, Д.Б.Эльконин, А.В.Запорожец[7], Э.Фозиев[8] тадқиқотларида ўрганилганлигини қўришмиз мумкин.

**Тадқиқотнинг мақсади** Карьеरани танлаш, режалаштириш ва уни амалга ошириш шартлари ижтимоий-психологик хусусиятлари ўрганиш бўйича амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

**Тадқиқотнинг обьекти** сифатида бўлажак (иктисодчи ва педагог) кадрларнинг касбий танлаш фаолият жараёни танланган.

**Тадқиқотда** тизимлилик, қиёсий-мантиқий таҳлил усуслари ва анкета сўровномалардан фойдаланилди.

**Мақоланинг илмий янгилиги** шундан иборатки, карьеरани танлаш, режалаштириш ва уни амалга ошириш шартлари ижтимоий-психологик хусусиятлари ўрганиш талабаларни келажакдаги меҳнат фаолиятида касбий карьеरани яратиш имкониятларни ўрганиш.

**Асосий қисм.** Кадрларни тайёрлашнинг мазмуни, мақсади ва вазифалари кўп қиррали масалаларни хисобга олишни тақозо қиласди. Аниқ мақсадни қўйиш, ходимларни мотивлаштириш, улар феъл-авторини билиш ва бошқа жиҳатлар алоҳида аҳамият касб этади. Мўлжалдаги мақсадга эришишдан олинган қаноатланиш даражаси инсоннинг келгусида шунга ўхшаш вазиятлардаги феъл-авторига таъсир қиласди. Умуман, одамлар эҳтиёжни қондиришдан олган қаноатланиш феъл-авторини тақрорлашга ва эҳтиёжи етарли қондирилмаган шароитдаги феъл-авторни тақрорламасликка интилади. Буни натижа қонуни, - дейдилар. Пол Лоуренс ва Жей Лорш қуидагиларни таъкидлашган [9]: “Инсон ўз муаммоларини ҳал этишга интилган жараёнда феъл-авторнинг аниқ типлари бирон бир тарзда рағбатлантирилган бўлади. Бунда одамлар муйян музаммони қандай қилиб ҳал эта олганликларини эслаб қоладилар. Бинобарин, инсон келгуси сафар бирон музаммога дуч келганида, уни ўша синаб кўрилган усуlda ҳал қилишга уринади. Вақт ўтиши билан феъл-авторнинг айрим моделлари доимо муваффакиятли бўлиб чиққани учун инсон айни ўша моделларга амал қилиш кераклигини англайди”. Масалан, агар олдингизга бирон вазифа қўйиб, ўз эҳтиёжингизни ишда қондира олсангиз, келгусида ҳам худди шундай эҳтиёжни қондиришга интиласиз. Модомики, одамлар эҳтиёжни қондиришга эҳтиёж сезар экан, менежерлар уларнинг ўз эҳтиёжларини ташкилот мақсадига эришишга олиб борадиган феъл-автор усули воситасида қондира олишларини хис қиласиган вазиятни яратиб беришлари керак. Ж.Голланд концепцияси бўйича ҳамиша ягона тип устунлик қиласада, аслида, инсон бир вақтнинг ўзида икки ва ундан ортиқ типлар стратегиясидан фойдаланиши ёки уларга бўйсимиши мумкин. Устувор (пешқадам) йўналиш (фаолият доирасидаги секторлар) ва иккинчи (учинчи) даражали йўналиш қанчалик бир-бирига яқин бўлса, шахс типи ҳам шунчалик яқин бўлади. Агар устувор ва бошқа турдаги йўналганлик бир-биридан қанчалик узок бўлса, карьеरани танлаш шунчалик қийин кечади. Карьеरани танлаш мақсадида фойдаланиш мумкин бўлган бошқа турдаги типологияга Э.Клинов типологиясини айтиш мумкин. Унда барча турдаги фаолиятлар меҳнат предметига асосланиб бўлинган: [1] “Та” (“Р”) тип – “инсон – табиат”:

мехнатнинг етакчи предмети – ўсимликлар, ҳайвонлар, микроорганизмлар; [2] “Те” тип – “инсон – техника”: меҳнатнинг етакчи предмети – техник тизимлар, буюмлар объектлар, материаллар, энергия турлари; [3] “Т” (“СН”) тип – “инсон – инсон”: меҳнатнинг етакчи предмети – инсонлар, гурухлар, жамоалар, кишилараро мулокот; [4] “В” (“Z”) тип – “инсон – белги”: меҳнатнинг етакчи предмети – шартли белгилар, ракамлар, кодлар, табиий ёки сунъий тиллар; [5] “В” (“Х”) тип – “инсон – бадиий образ”: меҳнатнинг етакчи предмети – бадиий образлар, шарт-шароитларнинг тузилиши. Таълим бизнесининг ўзига хослиги шундаки, у ёки бу хизматга бўлган талабни таълимнинг ўзи юзага келтиради – бу хоҳ чет тилини ўргатишнинг жадаллаштирилган услубиёти бўлсин, хоҳ топ менежерлар учун тренинглар бўлсин. Айнан шунинг учун таълимдаги бизнес кишидан ижодий фикрлаш ва катта маъсулият уйғуллашувини талаб қиласи. Хусусий таълим аста-секинлик билан ривожланмоқда, лекин ҳар доим ҳам пуллик хизмат сифатли таълим дегани эмас. “Таълим” карьерасини танлаш, бу бир бор ва бир умрлик танлов ҳам эмас. Аксинча, кўп ҳолларда мутахассиснинг касбий фаолиятида бир неча йўналишлар мавжуд бўлади. Агар мутахассис ўз тажрибасини умумлаштиришга интилса, ўқитувчилик карьераси осонгина тадқиқотчи карьерасига айланиши мумкин. Менежер карьераси эса кўпинча бизнесменнинг ишбилармонлик сифатларини юзага чиқаради. Кўпчилик муваффакиятли ўқитувчилар ва тадқиқотчилар маълум ёшга келиб йирик бошқарувчи карерасига эришадилар.

**Эмпирик ўрганиш натижалари.** Ходимлар бўйича менежер (ходимлар бўлими бошлиғи, ходимлар бўйича бошқарма бошлиғи) янги хизматчи (ходим) билан учрашар экан, албатта, уни айни ташкилотда ўташи мумкин бўлган карьеранинг босқичлари билан таништириши лозим. Бу, ўз навбатида, касбий фаолият максади, ўсиш даражаси ва асосийси, ихтисосликнинг индивидуал мотивациясини аниқлаштиришга ёрдам беради. Карьеранинг босқичларини қўйидаги жадвал кўринишида қисқача тартиблаш мумкин. Шундан келиб чиқсан ҳолда, карерограмма – бу, мутахассисни муқим бир ишда ва жойда самарали натижага эришишида қанақа йўлни босиб ўтиши учун керакли зарурий билим ҳамда малакалар тўғрисидаги тасаввурлари жамланмаси(тузилиши) демакдир . Шундан келиб чиқсан ҳолда, карерограмма – бу, мутахассисни муқим бир ишда ва жойда самарали натижага эришишида қанақа йўлни босиб ўтиши учун керакли зарурий билим ҳамда малакалар тўғрисидаги тасаввурлари жамланмаси (тузилиши) демакдир[10]

#### 1-жадвал.

#### Карьеранинг босқичлари[11]

№	Карьеалар босқичи	Ёш даврлар	Қисқача тавсифнома	Мотивация хусусиятлари (А.Масло бўйича)
1	Дастлабки	25 ёшгача	Меҳнат фаолиятига тайёр гарлик, фаолият ва йўналишни танлаш	Хавфсизлик, ижтимоий тан олиш
2	Тайинланиш	30 ёшгача	Ишни ўзлаштириш касбий малака ривожланиши	ижтимоий тан олиш, мустақилик
3	Силжиш	45 ёшгача	Касбий ривожланиш	ижтимоий тан олиш, ўзини айрибошлаш
4	Тугаш	60 ёшдан кейин	Нафакага кетишга тайёрланиши, шахсий алмашишга ўқиш ва изланиш	ижтимоий тан олиш ушлаб туриш
5	Нафака	65 ёшдан сўнг	Фаолиятининг бошқа кўрниши билан шугулланиш	Янги фаолият соҳасида ўзини рўёбга чиқаришга изланиш

Танлаган фаолият соҳасига доир шахс хусусиятларини баҳолаш ҳамда бошланғич касбий фаолият йўлида инсон шахси типини аниқлаш мухим аҳамият касб этади. Юқоридаги фикр-мулоҳазаларни тасдиқлаш максадида, Ж.Голланднинг таклиф этган “Шахс типологиялари концепцияси”ни ўрганиш максадга мувофиқ ҳисобланади. Бизнинг жадаллик билан одимлаётган давримизда муваффакиятга эришишнинг асосий тамоили (шарти) – бу обрўталаблик ва яхши маънодаги нафсониятга эга бўлишдир. Айнан шу сифатларни таълим муаммолари билан шуғулланиш орқали намоён қилиш мумкинми?

## 2-жадвал.

## Ж.Голланд бўйича “Шахс типологиялари концепцияси”[12]

№	Шахс типлари	Фаолият мазмуни
1.	Реалистик	Асбоб-ускуналар ва механизмларни бошқаришга йўналганлик
2.	Изланувчи	Изланувчанликка йўналганлик
3.	Артист	Ўзини кўрсатиш ва ўз хис-туйгуларини намоён этишга йўналганлик
4.	Ижтимоий	Одамлар билан биргаликда ҳаракатланишга йўналганлик
5.	Тадбиркор	Одамларга таъсир қилишга йўналганлик
6.	Конверционал	Ахборотлар ва кўрсаткичларни бошқаришга йўналганлик

Кўпчилик педагогика ва карьеорни бир-бирига зид тушунчалар, деб билади. Бу жуда катта англашилмовчиликдир. Замонавий таълим муаммолари шунчалик мураккаб ва қизикарлики, муваффақиятли карьеера интилувчан шахс ўзини тан олиниши, жумладан, юкори даражадаги мавқега ва ҳаттоқи моддий рағбатланишлар учун қатор имкониятларни тақдим эта олади ҳамда бир вақтда севимли иши билан машғул ҳам бўлади. Фанда карьеорнинг таълим тизимига хос бир неча кўринишларини ўрганиш мумкин.

*1-даражали карьера – бошқарувчи (мактаб директоридан вазиргача);*

*2-даражали карьера – тадқиқотчи (муайян илм-фан намоёндасидан тортиб, фанлараро ёндашув эгасигача);*

*3-даражали карьера – ўқитувчи-услубиётчи (турли билимли ва ҳарактерли инсонларга таҳсил берса олуви);*

*4-даражали карьера – бизнесмен (таълим хизмати бўйича талабларни яратувчи).*

Куйидаги жадвалда келтирилган тестни бажариш орқали, сиз ўзингизга қизиқарли бўлган таълим соҳасини ва қайси даражали карьера эгаси эканлигинизни аниқлашингиз мумкин. Таълим тизимига дахлдор карьеера турини аниқлаш (Саволларга “ҳа” ёки “йўқ” деб жавоб беринг ва ҳар бир қатордаги “ҳа” жавоблар сонини санаб чиқинг. Ҳар бир “ҳа” жавоб учун 1 балл) Агар сиз бирор-бир қаторда 3 баллдан ортиқ тўплай олмаган бўлсангиз, демак таълим соҳаси сиз учун унчалик қизиқарли эмас. Шунга қарамай, ўз касбida муваффақиятга эришишни истаган ҳар бир одам замонавий таълим тизими ривожланиши тенденцияларини билиши керак; шу сабабли мазкур мақолани таълим олувчи ва ўқишини давом эттиришни хоҳловчи киши нуқтаи назаридан келиб чиқиб охиригача ўқишига ҳаракат қилиб кўринг.

## 3-жадвал.

№	Менинг тажрибам бор (қўлимдан келади)	Менга ёқади	Мен ўрганишни хоҳлайман	Жами
Бошқарувчи	таълим билан боғлиқ Қонунларни ўрганиш; - лицей (мактаб)даги ўзини-ўзи бошқариш кунларида иштирок этиш (белгиланган тадбирларда	қарорлар қабул қилиш, ўзгаришлар киритиш, ислоҳотларда иштирок этиш; - касбий муаммолар юзасидан қарорлар қабул қилишда ҳамкасларга ёрдам бериш	таълим жараёнини бошқариш ва унинг сифатини назорат қилиш; - янги таълим дастурларини ишлаб чиқиш	
Тадқиқотчи	таълим билан боғлиқ муаммоларни ўрганиш; - таълим назарияси билан боғлиқ китоб ва мақолаларни ўқиш	қийин вазиятлар мушоҳадаси учун мақбул усулни топиш; - турли хил нуқтаи назарларни ўрганиш	таълим таҳлилини кучайтиришучун турли соҳа ютуқларидан фойдаланиш; таълим муаммолари юзасидан тадқиқотлар олиб бориш	

<p>Ўқитувчи-услубиётчи</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- “тарбияси қийин” ўқувчи (талаба)лар билан ишлашда янги усулларни ўйлаб топиш;</li> <li>- кичик мактаб ёшидаги болаларга таҳсил бериш</li> </ul>	<p>Ўқитувчи-услубиётчи</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- “тарбияси қийин” ўқувчи (талаба)лар билан ишлашда янги усулларни ўйлаб топиш;</li> <li>- кичик мактаб ёшидаги болаларга таҳсил бериш</li> <li>- менинг иштирокимсиз одамларни ақли, мустақил, очиккўнгил, сабрли бўлишларини кузатиш;</li> <li>- ўқувчига индивидуал ёндашув излаш</li> </ul>	<p>турли хил одамларни турли шароитларда ўқитишининг самарали усулларини излаб топиш;</p> <p>- таълим самарадорлигини ошириш учун замонавий технология (масофадан ўқитиши, онлайнда ўқитиш ва бошқа) лардан фойдаланиш</p>	
<p>Бизнесмен</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-тарбиячи, репетитор сифатида фаолият юритиш;</li> <li>- бизнесда фойда келтирадиган сифатли усулларни ўйлаб топиш</li> </ul>	<p>німа учун одамларнинг таълимдаги у ёки бу хизматларга ҳақ тўлашларини аниқлаш;</p> <p>- қарорлар қабул қилишда мутлоқ мустақиллик ва уларни амалга оширишда масъулиятни ўз зиммасига олиш</p>	<p>таълим бозорига оид тадқиқотларни олиб бориш ва уларнинг натижаларини ўз фаолиятида кўллаш;</p> <p>- ўз бизнесини ташкил этиш орқали даромад эгаси бўлиш ва юкори сифатли таълим хизматларни тақлиф қилиш</p>	

Агар сиз бир ёки бир неча карьера туридан 4,5 балл тўплаган бўлсангиз, демак таълим соҳаси сизни қизиқтиради. Балки сиз қайси карьера турини танлашингизни ҳали аниқлаб олмагандирсиз. Қуйидаги материални ўқиб, қизиқишиларингизни аниқлашга ёрдам берувчи вазифаларни бажаришга ҳаракат қилиб кўринг. Агар сиз бирор-бир қаторда 6 балл тўплаган бўлсангиз, демак сиз таълим муаммолари билан фаол қизиқасиз.

**Хуносалар.** Биз бўлажак мутахассислар карьерани танлашда, режалаштириш ва уни амалга ошириш шартлари ижтимоий-психологик ҳолатини ўрганиб таҳлил қилиш натижасида қуйидаги хуносаларни тавсия этамиз:

шахс ўзини идора қилиш, турли вазиятларда ўзини тутиш фазилатлари ўзлаштирилаётган даврда баъзи бир қоидаларга риоя қиласа, ҳамкорлик фазилатида маълум ютуқларга эришади.

Ижтимоий ҳодисаларнинг ташки вое бўлиши нафақат ички руҳий ҳолат ва унинг мазмунини акс эттирибгина қолмай, балки шахс ўз устида ишлаши ички имкониятларни ишга солиши ўз-ўзини тинмисиз ривожлантириш орқали касбий карьеранинг ривожланишга имкониятлар бўлади.

Шахс меҳнат фаолияти жараённида ўзини эркин, озод, bemalol ҳис этиши хислатини ўзлаштириш учун жисмоний кескинлик, асабий таранглик, ақлий зўриқишилардан холи бўлиши орқали қўзланган мақсадига этиши мумкин.

#### Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/3107036>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/3171590>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сон “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/docs/3765586>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117-сон “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жихатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/docs/5426736>
5. <https://lib.sale/osnovyi-menedjmenta-besplatno/lourens-pol-rodjer-1922-lorsh-djey-uilyam-1932-63750.html>
6. Базаров Т.Ю. Управление персоналом: Учебник для вузов / Под ред. Т.Ю.Базарова, Б.Л.Еремина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ, 2012.– С. 274
7. Психология личности и деятельности дошкольника / под ред. А. В. Запорожца, Д.Б.Эльконина. М., 1965, Выготский Л.С. Учение об эмоциях. (1930), Леонтьев А.Н. Категория деятельности в современной психологии. (1979).
8. Гозиев Э. Муомала психологияси. - Т.: 2001. 23-бет.
9. <https://lib.sale/osnovyi-menedjmenta-besplatno/lourens-pol-rodjer-1922-lorsh-djey-uilyam-1932-63750.html>
10. Djalalova S.M., Umarova N.Sh. Karъeraning turlari va ularni amalga oshirish bosqichlari // “Olima ayollarning fan-texnika taraqqiyotida tutgan o’rni” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya ma’ruzalar to’plami (26 noyabrь 2007 yil). – Т.: TDIU bosmaxonasi, 2012. – В. 139-141
11. Базаров Т.Ю. Управление персоналом: Учебник для вузов / Под ред. Т.Ю.Базарова, Б.Л.Еремина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ, 2012.– С. 274
12. Климов Е.А. Как выбирать профессию. – М.: Просвещение, 2012. – 159 с.

*Xasanova Surayyo Shonazarovna,  
Ma'mun universiteti Psixologiya va sport kafedrasи katta o'qituvchisi PhD  
surayyoxasanova 92@gmail.com*

## O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATIDA O'ZINI-O'ZI NAMOYON QILISHDA QADRIYATLAR TIZIMI TAHLILI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilarning ta'lif jarayonida o'zini-o'zi namoyon qilish xususiyatining mohiyati haqida olimlarning nazariy fikrlari keltirilgan. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktab ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilarning o'zini-o'zi namoyon qilishga o'zini baholashi, intilish darajasini va qadriyatlar tizimi bilan aloqadorligi tahlili yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ilk o'spirin yoshi, o'zini-o'zi namoyon qilish, o'z-o'zini baholash, qadriyatlar, oliv nufuzga ega bo'lish, yuqori moddiy ta'minlanganlik, ijodkorlik, faol ijtimoiy munosabatlari, o'z ustida ishlash, yutuqlarga yo'nalganlik, ma'naviy qoniqish, o'zlikni saqlash.

### АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ В САМОВЫРАЖЕНИИ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В статье представлены теоретические взгляды учёных на сущность самовыражения в образовательном процессе учащихся младшего подросткового возраста, а также проанализированы самооценка, уровень притязаний и связь с системой ценностей учащихся младшего подросткового возраста в специализированной школе.

**Ключевые слова:** ранний подростковый возраст, самовыражение, самооценка, ценности, завоевание высокого престижа, высокая финансовая обеспеченность, творчество, активные социальные отношения, работа над собой, ориентация на достижение, духовное удовлетворение, самосохранение.

### ANALYSIS OF THE VALUE SYSTEM IN STUDENTS' SELF-EXPRESSION IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

**Abstract.** This article presents the theoretical views of scientists on the nature of self-expression in the educational process of early adolescence students. It also analyzes the self-assessment, level of aspiration and connection with the value system of early adolescence students in a specialized school.

**Keywords:** early adolescence, self-expression, self-esteem, values, high prestige, high material well-being, creativity, active social relationships, self-improvement, achievement orientation, spiritual satisfaction, and preservation of identity.

**Kirish.** Mamlakatimizda so'nggi yillarda maktab ta'lif tizimida o'quvchilar ilm egallashi uchun amalga oshirilayotgan islohotlar ularda o'zining ijodkorlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, yaratilayotgan yangidan yangi sharoitlar o'quvchilarda o'zlarini namoyon etishga ta'sir qilmay qolmaydi. Bugungi kunda joriy qilinayotgan bir qancha farmon, qaror va dasturlar ta'lif sohasiga qaratilgani, ayniqsa maktab faoliyatiga ahamiyati katta hisoblanadi. Mazkur sohada yangi tasdiqlangan «Ta'lif to'g'risida»gi qonun ta'lif faoliyatida muhim o'rinn tutadi [1]. Bizning fikrimizcha, aynan ushbu masalalarni vatanimiz istiqboli rivoji va ravnaqi, o'quvchilarning ilm egallash qobiliyatini ko'rsata bilishiga yo'nalishlar miqyosida tashkil qilingan maktablar xizmati kattadir. O'quvchi va o'qituvchilar orasida uzlucksiz ta'sir ko'rsatishni prezident, ixtisoslashtirilgan maktablar ta'lif jarayonida samarali amalga oshirilishini kuzatish mumkin. Mazkur faoliyatni tashkil qilishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, o'zini baholashi, qadriyatlarini o'rganish ahamiyatlari hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ilmiy adabiyotlarda keltirib o'tilganki, XXI asr boshlarida esa, o'spirinlarning xulq-atvorini o'rganishgan va mazkur davrda namoyon bo'ladigan psixologik xususiyatlar aniqlangan. Jumladan, taniqli olimlar B.S.Volkov, E.M.Volkova, Y.A.Kleybig o'spirinlarning deviant xatti-harakatlarini o'rganadi va ularni inson xulq-atvori obyekti orqali ko'rib chiqadi. Ushbu xatti-harakatlarning paydo bo'lishining sababiga ham katta e'tibor beriladi. Inson hayoti davomida o'zini namoyon qilishda turli ijobjiy jihatlari yoki salbiy xarakterlarni turli xulq-atvor ko'rinishlarida kuzatiladi.

Tadqiqot mavzusi doirasida xorij olimlaridan E.V.Saxarova va M.V.Safranova tomonidan ayrim fanlari chuqurlashtirib o'qtiladigan ixtisoslashtirilgan maktab o'smir o'quvchilaridagi shaxsiy xususiyatlarni

o'rganishgan. Ta'lism jarayonining o'ziga xosligi o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari bilan aloqadorligi mavjud. «Ixtilisoslashtirilgan sinflarda o'qiyotgan o'smirlar nevrotizm, qo'rkoqlik va uyatchanlikning yuqori darajasini, binobarin, intellektual darajani baholashni ko'rsatishgan» [7]. Bizni tadqiqot doirasida aynan ushbu maktab ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilarni o'zini namoyon qilishning psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishda qadriyatlar ifodalanishi va uni korrelyatsion aloqadorligi aks etgan.

O'zini-o'zi namoyon qilish muammosi bo'yicha tadqiqotchilarning tahlili asosida: «o'zini-o'zi namoyon qilish psixologik jihatdan sog'lom odamlarning shaxsiy xususiyati; o'zini-o'zi namoyon qilish – bu insonning ichki o'zini o'zi rivojlantirishga tabiiy moyilligi deb xulosalar chiqarish mumkin» [8]. Bu «yetuk shaxsning asosiy xususiyati bo'lib, uning maqsadi o'z potentsialini to'liq ro'yobga chiqarish uchun kurash, shaxsiy avtonomiya, shaxsiy va kasbiy o'zini-o'zi belgilash qobiliyati va boshqalar kabi fazilatlarni rivojlantirishdir» [3]. Aynan tadqiqot obyekti hisoblanayotgan respondentlarimiz asosiy natijalarda kuzatishimiz mumkinki, o'z qo'li bilan yaratilgan mehnati ularning shaxsiy kelajaklarida muvaffaqiyatni ta'minlashi mumkin.

A.Maslou bo'yicha shaxs o'zini namoyon qilishi «O'z-o'zini faollashtirish, mustaqillik, ijodkorlik, mahsuldarlik, o'z-o'zini amalga oshirish, integratsiya, psixik salomatlik, individuallashtirish» deb ataydi, barcha ta'riflarda individning tom ma'noda shaxsga aylanishi ekanligini ta'kidlaydi» [2],[5]. Olim o'zining ehtiyojlar iyerarxiyasida ham eng yuqorisida o'zini-o'zi namoyon qilish ekanligini keltirib o'tgan. O'zini namoyon qilish shaxsning bevosita faoliyatni amalga oshirish natijalarida kuzatish mumkin.

Xulq-atvor muammolariga oid birinchi rus olimi T.L.Kryukova ta'kidlashicha, «individual psixologik xususiyatlar ta'sir qiladi: temperament, xarakterning yo'nalishi, qobiliyat, qadriyati darajasi, fikrlash turi, o'zini anglashni rivojlantirish va o'rnatish xususiyatlari» [4]. Aytishimiz mumkinki, aynan shaxs avvalo o'zini anglashi uning keyingi faoliyatiga samarali ta'sir qiladi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, xulq-atvor bevosida o'zini namoyon qilishda aks etadi va individual xususiyatlar zamirida ifodalanadi.

Fan sohasi doirasida sog'lom va bemor shaxsni emotsional xususiyatlari namoyon bo'lishi ko'pchilik olimlar tomonidan o'rganilgan Jumladan, D.A.Urazbayeva tomonidan turli yoshdagagi bemorlarda salomatlik masalasi bo'yicha, kasallikning ko'rinishlari uni namoyon bo'lishi va emotsional sohaga ta'siri borasida tadqiqotlar olib borgan [6].

**Metodlar.** Ilk o'spirinlik davrida o'zini namoyon qilish xususiyatini o'rganishda, qadriyatlar shakllanishini inobatga olish muammoning xarakterli jihatini aniqlash tashkil qiladi. Mazkur tadqiqotda Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi ko'rsatkichlari hamda I.Seninning «Qadriyatlar yo'nalishi» savolnomasidan foydalandik. Tadqiqot obyekti sifatida ixtisoslashtirilgan maktab ilk o'spirin o'quvchilardan 106 nafari jalb etilgan. Tadqiqotda olingan natijalarda ixtisoslashtirilgan maktab ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilarni o'zini-o'zi namoyon qilishga ta'sir qiluvchi omillarning o'z-o'zini baholash va qadriyatlar tizimining korrelyatsion aloqadorligi bo'yicha o'rganishni lozim topdik. Natijalar quyidagi 1-jadvalda aks ettirildi.

Olingan natijalar bog'liqligiga ko'ra, qadriyatlar tizimida maqsadli qadriyatlardan oliy nufuzga ega bo'lish, yutuqlarga yo'nalganlik, o'zlikni saqlash, hayotiy sohalar bo'yicha qadriyatida o'quv-tarbiya sohasi yuqori bo'lishi orqali mohir qo'llar shkalasi bilan o'zini baholashiga aloqadorligi aniqlandi ( $r=0,215$ ;  $p\leq0,05$ ,  $r=0,209$ ;  $p\leq0,05$ ,  $r=0,213$ ;  $p\leq0,05$ ,  $r=0,212$ ;  $p\leq0,05$ ). Nazarimizda, mohir qo'llar shkalasini baholashi ilk o'spirin yoshidagi IM o'quvchilarda qayd etilgan mazkur qadriyatlarning yuqori bo'lishiga aloqador ekanligi ifodalandi. Bu qadriyatlar aks etgani o'smir yoshidagi o'quvchilarga qaraganda ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilarni o'z ustida tinmay o'qib izlanishi, aniq yo'nalish maqsadlariga ega ekanligi sababli o'zini baholashda korrelyatsion aloqadorlikda ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

### 1-jadval.

#### Ilk o'spirinlik davrida «O'z-o'zini baholash» va «Qadriyatlar yo'nalishi» metodikalari orasidagi korrelyatsion aloqadorligi (Spirmen mezoni bo'yicha n=106)

Shkalalar	Aql-qobiliyat	Xarakter	Tengdoshlar orasida obro'	Mohir qo'llar	Tashqi qiyofa	O'z-o'ziga ishonch
<b>O'z-o'zini baholash darajasi</b>						
Oliy nufuzga ega bo'lish	0,088	0,153	0,064	0,215*	0,103	0,076
Yuqori moddiy ta'minlanganlik	0,063	0,172	0,05	0,148	0,152	-0,025
Ijodkorlik	0,028	0,172	0,104	0,146	0,191	0,096

Faol ijtimoiy munosabatlar	0,003	0,021	0,106	0,083	0,088	0,075
O‘z ustida ishslash	0,081	0,087	0,035	0,157	0,128	0,001
Yutuqlarga yo‘nalganlik	0,142	0,093	0,072	0,209*	0,143	0,092
Ma’naviy qoniqish	0,042	0,043	0,008	0,087	0,092	0,062
O‘zlikni saqlash	0,152	0,125	0,12	0,213*	0,239*	0,053
Kasb—hunar olami	0,117	0,176	0,169	0,07	0,219*	0,144
O‘quv — tarbiya sohasi	0,18	0,096	0,076	0,212*	0,260**	0,152
Oilaviy hayot	0,081	0,115	0,038	0,147	0,096	0,011
Ijtimoiy hayot	0,061	0,122	0,092	0,172	0,118	0,024
Qiziqishlar olami	0,058	0,118	0,096	0,143	0,118	0,019

Izoh: \* $p\leq 0,05$ ; \*\* $p\leq 0,01$ ;

Navbatdagi tashqi qiyofa shkalasini baholashda ilk o‘spirin yoshidagi o‘quvchilarda o‘zlikni saqlash maqsadli qadriyati bilan musbat bog‘liqligi kuzatildi ( $r=0,239$ ;  $p\leq 0,05$ ). Hayotiy sohalar bo‘yicha qadriyatlarda kasb-hunar va o‘quv-tarbiya sohasi qadriyati bilan tashqi qiyofani baholash aloqadorlikda ekanligi qayd etildi ( $r=0,219$ ;  $p\leq 0,05$ ,  $r=0,260$ ;  $p\leq 0,01$ ). Korrelyatsion musbat aloqladorlikni shuni izohlash mumkinki, tashqi qiyofani baholash o‘zlikni saqlash qadriyati oshishi sababli, ma’naviyatlari, saviyali bo‘lish bu davrda kasb-hunar egasi bo‘lish bilan o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlarini ko‘rsatishi orqali tashqi ko‘rinishda baholaganligini aytish mumkin.

Navbatdagi 2-jadvalda da‘vogarlik darajasiga ko‘ra, shkalalarning korrelyatsion aloqadorligini o‘rgandik va ixtisoslashtirilgan maktab ilk o‘spirin yoshidagi o‘quvchilar natijalariga ko‘ra aloqadorligi keltirildi. Jumladan, hayotiy sohalar bo‘yicha kasb-hunar olami natijasining aql-qobiliyat bilan ijobjiy aloqadorlik kuzatildi. Shuningdek, ijodkorlik, ma’naviy qoniqish, o‘zlikni saqlash, kasb-hunar olami shkalalarining mohir qo‘llar, tashqi qiyofa, o‘z-o‘ziga ishonch darajasini baholash ko‘rsatkichlari bilan musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi. Ushbu aloqadorlik izohlanishi ham keltirib o‘tilgan.

Quyida aks etgan bog‘liqlikda aql-qobiliyat shkalasini kasb-hunar olami shkalasi bilan ijobjiy aloqadorlik aniqlandi ( $r=0,234$ ;  $p\leq 0,05$ ). Mazkur korrelyatsion aloqadorliklarni izohlab chiqadigan bo‘lsak, ilk o‘spirin yosh davrida yetakchi faoliyat o‘quv kasbiy faoliyat bilan bevosita aloqadorlikni da‘vogarlik darajasi bo‘yicha aks etganini ko‘rsatgan. Kasb-hunarga ega bo‘lishga intilishlari natijasida aql-qobiliyatni ijobjiy bo‘lishiga erishishga xizmat qiladi.

## 2-jadval.

### Ilk o‘spirinlik davrida «O‘z-o‘zini baholash» va «Qadriyatlar yo‘nalishi» metodikalari orasidagi korrelyatsion aloqadorligi (Spirmen mezoni bo‘yicha n=106)

Shkalalar	Aql-qibiliyat	Xarakter	Tengdoshlar orasida obro‘	Mohir qo‘llar	Tashqi qiyofa	O‘z-o‘ziga ishonch
<b>Da‘vogarlik darajasi</b>						
Oliy nufuzga ega bo‘lish	0,075	-0,014	0,051	0,082	0,173	0,049
Yuqori moddiy ta‘minlanganlik	0,011	-0,049	0,028	0,057	0,146	0,042
Ijodkorlik	0,053	0,049	0,081	0,218*	0,188	0,108
Faol ijtimoiy munosabatlar	0,049	0,026	0,01	0,163	0,138	0,062
O‘z utida ishslash	0,04	-0,049	0,012	0,137	0,119	0,114
Yutuqlarga yo‘nalganlik	0,063	-0,038	0,072	0,177	0,127	0,123
Ma’naviy qoniqish	0,162	0,025	0,118	0,265**	0,114	0,172
O‘zlikni saqlash	0,122	0,053	0,114	0,152	0,233*	0,182
Kasb—hunar olami	0,234*	0,141	0,154	0,167	0,292**	0,233*
O‘quv — tarbiya sohasi	0,095	-0,048	0,053	0,14	0,179	0,184
Oilaviy hayot	0,071	-0,047	0,047	0,13	0,111	0,026

Ijtimoiy hayot	0,066	-0,042	0,041	0,166	0,121	0,079
Qiziqishlar olami	-0,007	-0,101	-0,016	0,106	0,077	-0,004

**Izoh:** \* $p \leq 0,05$ ; \*\* $p \leq 0,01$ ;

Mohir qo'llar shkalasini baholashiga intilishi ijodkorlik va ma'naviy qoniqish bilan uzviy bog'liq ekanligi kuzatildi ( $r=0,218$ ;  $p \leq 0,05$ ,  $r=0,265$ ;  $p \leq 0,01$ ). Nazarimizda, mohir qo'llar baholash shkalasida intilishi ko'rsatkichida, ijodkorlikda yangilik, kreativ va ijodkorlik uchun o'zgarishlarga intilishi va ma'naviy, ya'ni o'z ichki ma'naviy ruhiy dunyosidan o'z mehnatidan qoniqish baxsh etishi yetarli ekanligi faoliyatni samarali bo'lishi muhim hisoblangani musbat bog'liqlik ko'rsatdi.

Tashqi qiyofa shkalasida aks etgani bo'yicha qaraydigan bo'lsak, o'zlikni saqlash va kasb-hunar olami qadriyati bilan musbat aloqani ifodalagan ( $r=0,233$ ;  $p \leq 0,05$ ,  $r=0,292$ ;  $p \leq 0,01$ ). O'z-o'ziga ishonch shkalasini baholashga intilishi, kasb-hunar-olami qadriyati bilan ijobiy aloqadorlikni ko'rsatgan ( $r=0,233$ ;  $p \leq 0,05$ ). Ilk o'spirin yosh davrida o'quvchilar tashqi qiyofani baholashiga uning boshqalardan mustaqil bo'lishiga, o'z dunyoqarashiga ega bo'lishga intilishi, o'zlikni saqlash bilan ijobiy aloqadorlik aks etgan. Kasbiy faoliyatga ko'proq o'z ishlariqa vaqt ajratib e'tibor qaratilayotganligi tashqi qiyofa va o'z-o'ziga ishonchni yuqori bo'lishiga intilishi bog'liqligi aniqlandi.

**Xulosa.** Ta'lim natijasida o'quvchilarda dunyoqarash, intellektual salohiyat, qadriyatlар yo'nalishi shakllanganligi ularning o'zini-o'zi namoyon qilishga egaligi psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zini-o'zi namoyon qilish o'quvchilardagi qadriyatlар namoyon bo'lishi orqali ularda xarakter xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, nazariy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zini-o'zi namoyon qilish uchun har bir shaxsda o'ziga xos ijobiy munosabat shakllangan bo'lishi lozim. Shaxsning o'ziga bo'lgan bahosi, fikrlarini samimiy, ochiq va mazmunli ifodalay olishi qobiliyatning o'zaro ta'siri natijasida shakllanganligidan kelib chiqadi. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining o'zini-o'zi namoyon qilish xususiyatlari o'rganilishi davomida, natijalarning o'ziga xos tomonlarini tahlil qilish va korrelyatsion aloqadorligini turli tomonlari o'rganilib izohlangani ahamiyatli hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda O'RQ-637-son o'zgartirish kiritilgan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni.
2. Головин С. Ю. Словарь практического психолога. — М.: АСТ, Харвест, 1998. — С. 165.
3. Федотовских, Д.Я. Психологические особенности самоактуализации личности / Д.Я. Федотовских. — Текст: непосредственный // Исследования молодых ученых: материалы XVI Междунар. науч. конф. (г. Казань, январь 2021 г.). — Казань: Молодой ученый, 2021. — С. 66-68. — URL:
4. Крюкова Т.Л. Психология совладающего поведения / Т.Л.Крюкова. – Кострома КГУ им. Н.А. Некрасова, 2010. – 296 с.
5. Маслоу Аю Путь к самоактуализации. Как раздвинуть границы своих возможностей./ in publisher:»Альпина Паблишер» 2021
6. Уразбаева Д. А. Онкологик беморларда касалликнинг ички манзараси //ILIM hám JÁMIYET. – Нукус, 2020. -№2. – Б.39-42.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/lichnostnye-osobennosti-shkolnikov-obuchayuschihsya-v-spetsializirovannyh-klassah-s-uglublennym-izucheniem-predmetov>
8. <https://moluch.ru/conf/stud/archive/386/16306/>



*Yusupov Tulanboy Ibrohimovich,*

*Andijon davlat universiteti*

*Sport faoliyati nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti*

*Yusupovto 'lanboy26@list.ru Tel: +99891-616-02-25*

## **JAMOAVIY MUNOSABATLARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING PSIXOLOGIK JIHATLARI (FUTBOL JAMOALARI MISOLIDA)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jamoaviy munosabatlarda emotsional intellektning psixologik jihatlari, xususan, futbol jamoalarining misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda futbolchilarning emotsional intellekt darajasi ularning jamoaviy o'zin samaradorligiga, kommunikativ ko'nikmalariga va stressni boshqarish qobiliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'r ganilgan. Shuningdek, murabbiy va futbolchilar o'rtasidagi hissiy aloqalar, jamoa ichidagi hamkorlik va liderlik sifatlarining rivojlanishida emotsional intellektning roli muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari futbol jamoalarida samarali psixologik muhitni shakllantirish va sportchilar motivatsiyasini oshirish uchun amaliy tavsiyalar berishga yo'naltirilgan.

**Kalit so'zlar:** emotsional intellekt, jamoaviy munosabatlari, futbol jamoasi, psixologik jihatlar, kommunikatsiya, stress boshqarish, liderlik, sport psixologiyasi.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КОМАНДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ (НА ПРИМЕРЕ ФУТБОЛЬНЫХ КОМАНД)**

**Аннотация.** В статье анализируются психологические аспекты эмоционального интеллекта в командных отношениях, в частности, на примере футбольных команд. В исследовании изучалось, как уровень эмоционального интеллекта футболистов влияет на их командную игру, коммуникативные навыки и способность справляться со стрессом. В статье также обсуждается роль эмоционального интеллекта в развитии эмоциональных связей между тренерами и игроками, командной работе и лидерских качествах. Результаты исследования направлены на предоставление практических рекомендаций по созданию эффективной психологической среды в футбольных командах и повышению мотивации спортсменов.

**Ключевые слова:** эмоциональный интеллект, командные отношения, футбольная команда, психологические аспекты, коммуникация, управление стрессом, лидерство, спортивная психология.

## **PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN TEAM RELATIONS (ON THE EXAMPLE OF FOOTBALL TEAMS)**

**Abstract.** This article analyzes the psychological aspects of emotional intelligence in team relations, in particular, on the example of football teams. The study examines how the level of emotional intelligence of football players affects their team performance, communication skills and stress management skills. It also discusses the role of emotional intelligence in the development of emotional bonds between coaches and players, cooperation within the team and leadership qualities. The results of the study are aimed at providing practical recommendations for creating an effective psychological environment in football teams and increasing the motivation of athletes.

**Keywords:** emotional intelligence, team relations, football team, psychological aspects, communication, stress management, leadership, sports psychology.

**Kirish.** Bugungi kunda jahonda sport sohalarining barchasiga alohida e'tibor bilan yondashilmoqda ayniqsa, futbol sport turiga qiziqish yuqori ekanligi uning inson so`g`ligiga, jismoniy yetukligiga, shuningdek, uning psixologik salomatlikdagi ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Jahonda sportning futbol turini rivojlantrish bo'yicha ko`plab tadqiqoqlar olib borilgan, ularning jismoniy tayyorgarliklarini, sport mahoratini shakllantirish bilan birga ruhiy tayyorgarligi, sportchilarning psixologik holatni baholash, rivojlanishi va ularni yuzaga chiqarishda turli metodik ishlari amalga oshirilib amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jahonning nufuzli futbol tashkilotlari FIFA (Xalqaro Futbol Assotsiatsiyasi Federatsiyasi), UEFA (Yevropa Futbol Assotsiatsiyalari ittifoqi), AFC ( Osiyo Futbol Konfederatsiyasi), kabi futbol tashkilotlari futbol rivojiga katta e'tibor berib, uning inson salomatligidagi o'rnini alohida keltirib ko'rsatishmoqda. Jahon

sportida futbolchilarning va ularning jamoasinining turli psixologik vaziyatlarni yengish bo`yicha va hissiy-emotsional holatlarini, ularni salbiy oqibatlarini yengishda psixologik tayyorgarlik, turli stresslar, frustratsiyalar, nevrotik holatlar va tushkunliklarni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik masalalar bo`yicha ilmiy izlanishlar ma`lum darajada olib borilmoqda. Bu borada emotSIONAL intellektning ta`sirlari, futbolchilar ruhiy rivojlanishining eng muhim bosqich ekanligi, mazkur psixologik jarayon futbolchilarning jamoaviy shakllanishida, psixologik tayyorgarligida o`zgacha yondashuvni tanlash nuqtayi nazaridan ahamiyati beqiyos ekanligi, futbolchilarning o`zini o`zi anglashi, o`z o`zini faollashtirish, musobaqalarga refleksiv munosabatni shakllantirishga yo`naltirilgan masalalarga e`tibor qaratish muhimligi bois futbolchilarda emotSIONAL intellektni jamoaviv munosabatlarga ta`sirining ijtimoiy-psixologik omillarini bilan bog`liqligini o`rganish zarurati kuzatilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida»[1], 2021-yil 13-iyuldaggi PF-6260-son «Yoshlarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»[2] Farmonlari, 2017-yil 5-iyuldaggi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O`zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo`llab-quvvatlash to`g`risida»[3] Farmoni, 2018-yil 14-avgustdaggi PQ-3907-son «Yoshlarni ma`naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta`lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko`tarish chora-tadbirlari to`g`risida»[4] Qarorlari va boshqa me`yoriy hujjatlarda belgilangan keng ko`lamlı strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Futbol jamoalarida emotSIONAL intellektning psixologik jihatlarini aniqlash hamda futbolchilarga emotSIONAL intellektidan foydalanishning ijtimoiy moslashuv ko`nikmalarini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Zamonaviy psixologiyada emotSIONAL intellektning inson hayotiga ta`siri keng o`rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, yuqori emotSIONAL intellektga ega shaxslar stress bilan yaxshiroq kurasha oladi, ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatli bo`ladi va yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muvaffaqiyat qozonadi. Shu sababli, emotSIONAL intellektni rivojlanirish shaxsiy va kasbiy o`sish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Buning uchun avvalo intellekt nima, uning qanday turlari mavjud, emotSIONAL intellekt qanday ishlaydi va uni fonemeni nimani anglatadi kabi tushunchalarni yoritib olish zarur.

Intellekt- bu insonni bilim olish, fikrlash, tahlil qilish, muammoni hal qilish, muayyan maqsadga erishish uchun moslashish va mantiqiy qarorlar qabul qilishdir. Intellekt tushunchasi falsafa, psixologiya, nevrologiya va boshqa fanlarda keng o`rganiladi. Intellektning asosiy jihatlari bilim olish qobiliyati, atrof-muhitudan ma`lumot yig`ish va uni tushunish, analitik fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish va vaziyatni baholash, ijodkorlik, yangi g`oyalar ishlab chiqish va muammolarga ijodiy yechim topish, moslashuvchanlik, o`zgaruvchan muhitga moslashuvchanlik qobiliyati, ma`lumotlarni saqlash, kerakli paytda ishlatish[5] kabi ma`lumotlar bilan keng doirada ishlash nazarda tutiladi.

Psixologlar intellektni bir necha turlarga bo`lishadi:

- emotSIONAL intellekt (EQ): O`z his-tuyg`ularini va boshqalarning hissiyotlarini tushunish va boshqarish qobiliyati;

- ijodiy intellekt: yaratish va yangilik kiritish imkoniyati;

- ijro etuvchi intellekt: maqsadga erishish uchun harakatlarni rejalashtirish va bajarish qobiliyati;

- ijtimoiy intellekt: insonlar bilan samarali munosabatlar o`rnatish va boshqalar bilan ishlash qobiliyati.

Intellekt darajasini o`lchash uchun IQ (Intelligence Quotient) testlari qo`llaniladi. Ushbu testlar insonning mantiqiy tafakkuri, muammolarni hal qilish qobiliyati hamda matematik layoqatini baholaydi. Biroq IQ faqat intellektning ma`lum jihatlarigagina e`tibor qaratib, uning boshqa muhim tomonlarini to`liq aks ettirmaydi. Shu sababli, inson aql-zakovati va idrok darajasini baholashda faqat ushbu yondashuv bilan cheklanib qolmaslik lozim.

Hozirgi vaqtida intellektni o`rganish va uni takomillashtirishga bo`lgan qiziqish sezilarli darajada oshgan. Intellektning rivojlanishi quyidagi omillarga bog`liq:

- oila va ta`lim- bolalikda olingen ta`lim-tarbiya va bilimlar asosiy omil hisoblanadi;

- atrof-muhit- ijtimoiy va madaniy omillar intellektual salohiyat shakllanishiga ta`sir ko`rsatadi.

- mashqlar va bilim- intellektual rivojlanish uchun muntazam kitob o`qish, mantiqiy fikrlashga asoslangan o`yinlar hamda muammolarni hal qilishga yo`naltirilgan faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Emotsional intellekt (EI) – bu insonning o`z hissiyotlarini hamda boshqalarning ruhiy holatini anglash, tahlil qilish va boshqarish qobiliyatini aks ettiruvchi psixologik kategoriya. Ushbu tushuncha insonning muvaffaqiyatga erishishida, samarali muloqot yuritishida hamda mustahkam ijtimoiy munosabatlarni

shakllantirishida asosiy rol o`ynaydi. Hissiy intellekt haqida ko`plab ilmiy maqolalar, monografiyalar va kitoblar chop etilgan bo`lib, u jamiyat e`tiboriga Time jurnali muqovasi hamda turli teleko`rsatuvlar orqali keng yoritilgan. Shu sababli, ilm ahli ushbu mavzuni chuqur o`rganishga ehtiyoj sezgan. 2004-yilda nashr etilgan “*Emotsional intellekt. Eng muhimi*” nomli bestseller 23 tilga tarjima qilinib, keng auditoriyaga taqdim etilgan.

Mamlakatimizda bugungi kunda sport sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday islohotlar orqali mustaqil O`zbekistonning rivojlangan davlatlar safidan munosib o`rin topishi uchun muhim qadam qo`yilmoqda. Kelajakda esa bu islohotlar O`zbekistonning dunyo miqyosida mustahkam o`rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday davlatni yuksalishida, rivojlangan davlatlar qatoriga kirishida sportning o`rni beqiyosdir, ayniqsa millionlar o`yini bo`lgan futbol sport turi kabi mashxur qilolmaydi. Bu o`rinda kuchli rivojlangan mamlakatlar: Angilya, Fransiya, Germaniya, Amerika, Yaponiya kabi davlatlar sportga bo`lgan e`tiborni olishimiz mumkun. Mamlakatimizda ham sportning futbol turi juda shiddat bilan rivojlanmoqda, bu o`rinda yoshlar sporti bo`yicha o`tkazilayotgan musobaqa va turnirlar ularni ijtimoiylashuvida, tengdoshlar bilan munosabatida, bosh vaqtilarini unimli foydalanishda jiddiy qarorlar va vazifalarni bajarib kelmoqda. O`zbekiston sportchilarining jahon miqyosida o`tkazilayotgan yirik musobaqalar va olimpiada o`yinlarida qatnashib, nufuzli futbo`l kuliblarda to`p surayotgani mamlakatimizni obro`sini oshirmoqda. Yaqindagina Abduqodir Husanovni Angilyaning obro`li kulubidan biri bo`lgan “Manchestr city” tarkibida o`ynayotgani barcha o`zbek xalqini g`ururlantirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham o`z nutqlarida bu haqida to`xtalib alohida tabriklab o`tdi va futbol sport turini yanada rivojlantrish to`g`risida ko`rsatmalar berdi. Albatta, nufuzli musobaqalarda ishtirok etish o`z-o`zidan bo`lmasligi hammaga ayon. Buning uchun sportchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini yanada oshirish hamda ularda vatanparvarlik hislarini yanada kamol toptirish lozim. O`zbekiston sportchilari, sport mutaxassislari va murabbiylari oldidagi asosiy vazifa vatanimiz sportini qisqa muddat ichida jahondagi yirik va yuksak taraqqiy etgan davlatlar sport darajasiga ko`tarishdir.

Sportchilarning musobaqaga tayyorligi va ularda musobaqa jarayonida paydo bo`ladigan hissiy-emotsional ta`sirlanish darajalari ham turlicha bo`ladi. Ba`zi bir sportchilarda stresslarga tushish bo`lsa boshqasida esa kuchli hissiy ta`sirlanish, xavotirlanish, vahimaga tushish bo`lsa, hissiyotlarining tez o`zgaruvchanligi sababli sport musobaqalarida yuqori ko`rsatkichlarga erishishi juda og`ir kechadi. Bunday sportchilar bilan ruhiy tayyorgarlik ishlari olib borilmasa, sport musobaqalari juda og`ir va besamar bo`lishi kuzatiladi. Ayniqsa ularning emotsiyonal intellektini rivojlantirish muhimdir. Bu orqali futbol musobaqalarida o`zini yo`qotmaslik, psixologik tayorgarligini mustahkamlash, kurashga bo`lgan ishtiyoqini oshirish, sheriklarini hissiyotlarini tez ilg`ab olish ko`nikmalari shakllanadi. Jamoaviy munosabatlarda emotsiyonal intellekt muhim omillardan biri bo`lib, insonlarning o`zaro muloqoti, tushunish qobiliyati va jamoa ichidagi hamkorlik samaradorligini oshirishda katta rol o`ynaydi.

O`zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan emotsiyonal intellektning turli sohalarga, jumladan, sportga ta`siri keng o`rganilgan. Mamlakatimiz olimlari ayniqsa sportchilarning ruhiy holatlari haqida ko`plab ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, psixolog olimlarimiz E.G`G`oziyev, G`B.SHoumarov, V.Karimova, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, R.S.Samarov, O.Xayitov, M.Mamatov, F.Gaziyeva va boshqa olimlar tomonidan sportchilardagi ruhiy holatlarni, xususan, sportchilarda yuzaga keladigan emotsiyonal intellektini korreksiyalashni o`rganish sohasida bir qator nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga yo`naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilganligini e`tirof etishimiz mumkin.

Yurtimizda faoliyat ko`rsatayotgan yetakchi psixolog olimlarning emotsiyonal intellekt, sportchi shaxsining psixokorreksiysi, sportchilarni ruhiy holatlari, sportchilarning motivatsiyalari masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlari, yoshlarni sport faoliyati bilan shug`ullanishlarini, ularni hayotga to`g`ri yo`nalganligi va jismonan barkamolligini ta`minlashda, sportchi psixologiyasiga xos qadriyatlarni inobatga olishda, sport turi va soha bilan bog`liq milliylik va milliy mentalitetimizni saqlash hamda avaylab-asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, G`B.SHoumarov o`z tadqiqotlarida yosh sportchilarning jismoniy va psixologik taraqqiyoti o`zaro uyg`un kechishi lozimligini ta`kidlab, emotsiyonal intellektning sport faoliyatidagi ahamiyatini chuqur o`rgangan. Olimning fikricha, sportchining ruhiy sog`lom bo`lishi va muvaffaqiyatga erishishi uning o`z emotsiyalarini boshqara olish qobiliyati bilan uzviy bog`liq. U sportchilarning emotsiyonal intellektini rivojlantirish orqali stress va salbiy hissiyotlarni yengish hamda sportda psixologik to`siqlarni bartaraf etish mumkinligini ilmiy asoslagan. SHoumarov sportchilarni tayyorlash tizimida psixologik xizmatlar samaradorligini oshirish masalasini ham tahlil qilgan.

Biz tadqiqotimizda futbolchilarni emotsiyonal intellektini shakllantirishga qaratilgan trening dasturini tuzib chiqdik. Treningdan ko`zlangan maqsad futbolchilarning o`z his-tuyg`ularini anglash, boshqarish,

jamoaviy muloqot qilish, stressga bardosh berish va o`z-o`zini motivatsiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirish bo`ldi. Trening sakkiz hafta bo`lib haftasiga ikki martadan mashg`ulotlar borishga belgilab oldik. So`ngra futbolchilar bilan diagnostik bosqichni amalga oshirib oldik. Bu bosqichda ishtorokchilarni emotsonal intellektini aniqlab olish uchun kuzatuv, o`z-o`zini baholash anketalari va D.Golumanning emotsonal intellektni aniqlash testidan foydalandik.

Diagnostik bosqichda kuzatuv metodidan foydalaniб, bunda futbol jamoasi ichidagi o`zaro munosabatlarni real vaqt rejimida tahlil qilish. Intervyu orqali sportchi va murabbiylar bilan chuqr suhbatlar orqali ijtimoiy-psixologik jihatlarni aniqlash, testlar orqali esa futbolchilarning emotsonal intellektini aniqlab oldik. Biz D. Golumanning "emotsional intellekt testi"ni o`tkazib quyidagi beshta komponentni boholashga muyassar bo`ldik:

- O`z emotsiyalarini anglash;
- O`z-o`zini boshqarish;
- Boshqalarning emotsiyalarini tushunish;
- Empatiya;

- Ijtimoiy munosabatlarni boshqarish kabi komponentlarni baholab oldik va dastlabki diagnostik natijalarga erishdik. Quyida diagnostik tekshiruvlardan olingan natijalar keltirilgan.

Futbolchilarning emotsonal intellektini oshirish maqsadida maxsus trening dasturimiz orqali ularni gayta diagnostik bosqichdan o`tkazdik, tajriba va nazorat guruhlariga qo`llandi. Quyidagi jadvalda tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG) futbolchilarining emotsonal intellekt ko`satkichlaridagi o`zgarishlar taqdim etilgan.

#### 1-jadval.

#### Futbolchilarning emotsonal intellektini oshirish maqsadida maxsus trening dasturimiz orqali ularni gayta diagnostik bosqichlarini asoslash

Ko`satkichlar	Tajriba guruhi (TG) (n=40)	Nazorat guruhi (NG) (n=40)	Sig`imlilik darajasi (p)
O`z emotsiyalarini anglash	$62.4 \pm 3.2$	$63.1 \pm 3.5$	>0.05
O`z-o`zini boshqarish	$58.2 \pm 2.8$	$57.9 \pm 3.0$	>0.05
Boshqalarning emotsiyalarini tushunish	$60.1 \pm 3.1$	$61.0 \pm 3.2$	>0.05
Empatiya	$59.4 \pm 3.0$	$58.9 \pm 3.4$	>0.05
Ijtimoiy munosabatlarni boshqarish	$55.7 \pm 3.5$	$56.1 \pm 3.2$	>0.05

Natijalarga ko`ra, futbolchilarning emotsonal intellekt darajalari o`rtacha yoki biroz pastroq bo`lib, tajriba va nazorat guruhlari o`rtasida dastlab sezilarli farq yo`q.

Biz tomonimizdan olib borilgan treninglarimizga diagnostik bosqichda o`z emotsiyalarini anglashi, o`z-o`zini boshqarishi, boshqalar emotsiyalarini tushunishi empatiyasi hamda ijtimoiy munosabatlarni boshqarish kabi komponentlari past ko`satkichlarda 80 nafar ishtirokchini tanlab olib ularni trening jarayoniga jalb qildik. Treninglarimiz psixokorreksion kompleks dasturi yordamida amalga oshirildi. Mashg`ulotlar bir-biriga bog`liq bo`lgan to`rt bosqichdan iborat bo`ldi. Ular:

- 1) Tayyorgarlik (diagnostik) bosqich;
- 2) Korreksion bosqich;
- 3) Korreksion faoliyatni samaradorligini aniqlovchi bosqich;
- 4) Yakunlovchi (baholovchi) bosqichlar shaklantrildi.

Diagnostik bosqichning maqsadi: futbolchilarda kuzatiladigon emotsonal intellektini boshqarishni nazorat qilish, samarasiz emotsonal intellektini boshqarishni aniqlab ajratish.

Korreksion bosqichni maqsadi: futbolchilarda kuzatilgan emotsonal intellektdagи salbiy holatlarni ijobiy holatga tezkor shaklantrishni optimallashtirish, o`z emotsiyalarini boshqarish va shakllantirish ko`nikmalaridan iborat bo`ldi.

Yakunlovchi (baholovchi) bosqichning asosiy maqsadi – sportchilarning psixofiziologik treningdan oldingi va keyingi holatlarini chuqr tahlil qilish, ularni obyektiv ravishda taqqoslash va aniq baholashdan iborat edi. Ushbu bosqichda sportchilarning emotsonal holati, stressga bardoshliligi, diqqat va motivatsiya darajasi, shuningdek, jismoniylar holatlaridagi o`zgarishlar kompleks ravishda o`rganildi. Olingan

natijalar tahlil qilinib, treningning samaradorligi haqida aniq xulosalar chiqarildi va kelgusidagi individual yondashuv hamda rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqildi.

Korreksiya jarayonidan so`ng olingen natijalarни tahlil qilishga o`tamiz: asosiy respondentlar ichida korreksiyaga muhtoj deb topilgan ishtirokchilar saralab olindi. Ularning natijalari korreksiya gacha va undan keyingi holatiga ko`ra, turli metodikalar orqali o`rganilib, ishonchlik darajasidagi farqlar asosida taqqoslandi.

Albatta, biz futbolchilar bilan olib borgan treninglarimizda oldindan vazifalar belgilab oldik. Ular quyidagicha ifodalandi.

Treningning vazifalari:

- o`z his-tuyg`ularini anglash va ifodalashni o`rgatish;
- jamoa a`zolari bilan samarali muloqot qilish ko`nikmalarini rivojlantirish;
- o`ziga ishonch va stressni boshqarish qobiliyatlarini oshirish;
- empatiya va boshqa odamlarning his-tuyg`ularini tushunish qobiliyatini shakllantirish;
- jamoada ijobiy muhit yaratish.

Treningning har bir bosqichi, sportchilarning emotsiyalarning intellektini rivojlantirishga qaratilgan bo`lib, buning uchun biz maxsus dastur tuzib chiqdik.

Murabbiy yoki psixolog ko`rsatmalariga binoan individual strategiyalar ishlab chiqish ham mumkin. Vizualizatsiya texnikasining foydalari shundan iboratki, avvalo, o`yinda ishonchni oshiradi, o`yin oldidan o`zini tayyor va ishonchli his qilishga yordam beradi. Shuningdek, stress va tashvishlarni kamaytirib o`yin davomida qo`rquv va asabiylikni bartaraf etadi. Shu bilan birga, diqqatni jamlashni yaxshilaydi va futbolchilar e'tiborini asosiy maqsadlarga qaratishga o`rgatadi va harakatlarni yaxshiroq bajarishga yordam beradi, oldindan tasavvur qilish orqali jismoniy harakatlarni osonlashtiradi.

## 2-jadval.

### Futbolchilarning emotsiyalarning intellektini oshirish maqsadida maxsus trening dasturimiz orqali ularni takroriy diagnostik bosqichlari

Ko`rsatkichlar	Tajriba guruhi (TG) (n=40)	Nazorat guruhi (NG) (n=40)	P
O`z emotsiyalarini anglash	$75.8 \pm 2.9$	$64.2 \pm 3.1$	<0.01
O`z-o`zini boshqarish	$72.5 \pm 3.0$	$58.3 \pm 3.4$	<0.01
Boshqalar emotsiyalarini tushunish	$74.1 \pm 2.7$	$62.5 \pm 3.3$	<0.01
Empatiya	$71.9 \pm 3.1$	$59.2 \pm 3.6$	<0.01
Ijtimoiy munosabatlarni boshqarish	$70.4 \pm 3.5$	$57.9 \pm 3.8$	<0.01

Tahlil natijalariga ko`ra, futbolchilarda treninglardan keyin treninglar natijasida guruhda barcha ko`rsatkichlar sezilarli darajada oshgan ( $p<0.01$ ). Bundan ko`rinadiki, treninglar futbolchilarning emotsiyalarning intellektini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Takroriy diagnostika natijalariga ko`ra, tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG) o`rtasidagi farqlarni tahlil qilishda quyidagi asosiy ko`rsatkichlar olingen: O`z emotsiyalarini anglash: tajriba guruhi:  $75.8 \pm 2.9$ , Nazorat guruhi:  $64.2 \pm 3.1$ , P qiymati: <0.01. Bu ko`rsatkich shuni anglatadiki, tajriba guruhidagi sportchilarning o`z emotsiyalarini anglash darajasi sezilarli darajada yuqori. O`z emotsiyalarini anglash – bu shaxsning o`z hissiyotlarini aniqlash va ular bilan ishlash qobiliyatini. Trening jarayonida o`z hissiyotlarini anglash va ifodalash ko`nikmalarini rivojlantirish natijasida tajriba guruhidagi sportchilarda ushbu ko`rsatkich yaxshilangan. P qiymati <0.01 bo`lishi, bu farqning statistik ahamiyatini ko`rsatadi, ya`ni bu farq tasodifiy emas, balki treningning samarali ta'sirini ko`rsatadi. O`z-o`zini boshqarish tajriba guruhida:  $72.5 \pm 3.0$ , Nazorat guruhi:  $58.3 \pm 3.4$ , P qiymati: <0.01. O`z-o`zini boshqarish, ya`ni stressni boshqarish, emotsiyalarning intellektini oshirishda moslashish va salbiy his-tuyg`ulardan xalos bo`lish ko`nikmalarini, tajriba guruhida sezilarli darajada yaxshilangan. Bu, sportchilarning o`z his-tuyg`ularini boshqarish va ijobiy xulq-atvorni namoyon etish qobiliyatining o`stirilgani va bu ko`nikmalarini amaliyatda qo`llashlarini ko`rsatadi. P qiymati <0.01 yana bir bor treningning samaradorligini tasdiqlaydi. Boshqalar emotsiyalarini tushunish tajriba guruhi:  $74.1 \pm 2.7$ , Nazorat guruhi:  $62.5 \pm 3.3$ , P qiymati: <0.01. Boshqalar emotsiyalarini tushunish qobiliyatini sportchilarning jamoaviy faoliyatida muhim rol o`ynaydi. Trening jarayonida empatiya va boshqalar his-tuyg`ularini tushunish ko`nikmalariga alohida e'tibor qaratilganligi sababli, tajriba guruhi o`rtasida farq sezilarli. Ularning boshqalar bilan samarali muloqot qilish va jamoada ijobiy muhit yaratish qobiliyatlarini yaxshilangan. Empatiya Tajriba guruhida:  $71.9 \pm 3.1$ , Nazorat guruhi:  $59.2 \pm 3.6$ , P qiymati:

<0.01 Empatiya, boshqalar his-tuyg`ularini tushunish va ularga moslashish qobiliyati ham tajriba guruhida yuqori darajaga ko`tarilgan. Bu, sportchilarning bir-birini tushunishga va jamoaviy ruhni mustahkamlashga qaratilgan treningning samarali bo`lganini ko`rsatadi. P qiymati <0.01 treningning ta'sirini ilmiy tasdiqlaydi. Ijtimoiy munosabatlarni boshqarish tajriba guruhida:  $70.4 \pm 3.5$ , Nazorat guruhi:  $57.9 \pm 3.8$  P qiymati: <0.01. Jamoaviy munosabatlarni boshqarish ko`nikmalari ham tajriba guruhida yaxshilangan. Treningda o`quvchilar o`zaro muloqot qilish va jamoada ijobiy atmosferani saqlab qolish borasida ko`nikmalarni oshirdilar. Bu, sportchilarning jamoaviy ishslash va bir-birini qo`llab-quvvatlash qobiliyatlarini kuchaytirgan. Tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG) o`rtasidagi farqlarni tahlil qilish natijasida, emotsiyal intellektning har bir komponenti bo`yicha tajriba guruhining natijalari sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Bunday farqlar treningning samarali ta'sirini ko`rsatadi, ya`ni futbolchilar o`z his-tuyg`ularini boshqarish, boshqalar bilan muloqot qilish va jamoada ijobiy muhit yaratish qobiliyatlarini rivojlantirdilar. P qiymatining <0.01 bo`lishi, bu farqlarning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini va treningning o`zgarishlarga olib kelganligini tasdiqlaydi. Treninglarda Futbolchilarning emotsiyal intellektini oshirish jamoaviy o`yin sifati va ijtimoiy muhitga ijobiy ta`sir qildi. O`z-o`zini anglash va boshqarish ko`nikmalarni rivojlantirish stressga bardoshlikni oshirdi. Ushbu dastur sport psixologlari va murabbiylar tomonidan qo`llanilishi tavsiya etiladi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Futbolchilarning emotsiyal intellektini shakllantirish va jamoaviy munosabatlarga ta'sirini oshirishga qaratilgan modul dasturi sportchilarning psixologik tayyorgarligini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo`ldi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan modul dasturi futbolchilarning o`z his-tuyg`ularini anglash, boshqarish, jamoaviy muhitda moslashish qibiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, futbolchilarning stressga chidamlilikini oshirish, ijobiy kommunikatsiyani shakllantirish va jamoaviy birdamlikni mustahkamlash orqali natijadorlikni oshirishga sezilarli ta`sir ko`rsatdi.

Futbol jamoalarida emotsiyal intellektning o`yin natijalariga va jamoaviy birdamlikka ta`siri bo`yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, yuqori emotsiyal intellektga ega bo`lgan sportchilar o`yin jarayonida yanada samarali qarorlar qabul qiladi va jamoa ichidagi hamkorlikni yaxshilaydi. Bu esa nafaqat individual o`yin ko`rsatkichlarini, balki umumiy jamoaviy natijalarni ham ijobiy tomonga o`zgartiradi. Tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan strategiyalar orqali futbolchilar o`zaro tushunishni kuchaytirib, konfliktli vaziyatlarni samarali hal qilish imkoniyatiga ega bo`ldilar.

Futbolchilarning emotsiyal intellektini psixologik treninglar orqali aniq yo`nalishga yo`naltirish bo`yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko`rsatdiki, tizimli ravishda olib borilgan psixologik mashg`ulotlar futbolchilarning motivatsiyasini oshirish, stress omillarini kamaytirish va ularda o`zini boshqarish qibiliyatlarini shakllantirishga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Xususan, o`yin davomida ijobiy emotsiyal holatni saqlash, muhim pallalarda ruhiy barqarorlikni saqlab qolish va jamoaviy birdamlikni mustahkamlash bo`yicha o`tkazilgan treninglar futbolchilarning natijalarida sezilarli o`zgarishlarga olib keldi.

#### Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.07.2021-yildagi PF-6260-son Farmoni. [ex.uz/ru/docs/-5512119](https://ex.uz/ru/docs/-5512119).
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.07.2017-yildagi PF-5106-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3255680>
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.08.2018-yildagi PQ-3907-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3864155>
5. E.G'.G'oziyev "Tafakkur psixologiyasi" T:"O'qituvchi". - 1991, 122-223 b.

*Saipova Maloxat,  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,  
psixologiya fanlari doktori (DSc)*

**МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИ ДАХЛАНДИК ОИЛАРДА ВОЯГА  
YETAYOTGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada muallif o'smirlilik davrining o'ziga xos jihatlari, bu davrdagi jismoniy, psixologik o'zgarishlarga to'xtalib o'tarkan, olimlarning izlanishlari misolida fikrini asoslaydi. Shuningdek, olib borgan tadqiqotining natijalarini keltiradi, ularni sharhlaydi. Tadqiqotlari natijasida o'zining shaxsiy xulosalarini beradi.

**Kalit so'zlar:** o'smir, davr, kattalik, tuyg'u, “Men-konsepsiysi”, ota-onal, mehnat, migratsiya, psixologik, o'zgarishlar, etilish, ijtimoiy, sharoit, mas'uliyat, nazorat.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В СЕМЬЯХ,  
ЗАТРОНУТЫХ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИЕЙ**

**Аннотация.** В статье автор рассматривает особенности подросткового возраста, физические и психологические изменения, происходящие в этот период, и обосновывает своё мнение на примере научных исследований. Он также представляет и комментирует результаты своего исследования. Автор делает собственные выводы на основе своих исследований.

**Ключевые слова:** подросток, период, размер, чувство, «Я-концепция», родитель, труд, миграция, психологические, изменения, зрелость, социальные, обстоятельства, ответственность, контроль.

**PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENTS IN FAMILIES AFFECTED  
BY LABOR MIGRATION**

**Abstract.** In the article, the author examines the specific aspects of adolescence, focusing on the physical and psychological changes during this period, and substantiates their opinion using examples from scientific research. The author also presents and interprets the results of their own research. Based on these findings, the author offers personal conclusions.

**Keywords:** adolescent, period, adulthood, emotion, “self-concept”, parents, labor, migration, psychological, changes, maturation, social, conditions, responsibility, control.

**Kirish.** O'smirlilik davriga o'tish sifat jihatidan yangi shakllanishlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi va o'z-o'zini anglashning yangi darajasi, “Men-konsepsiysi”sining shakllanishi sifatida tushuniladi. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu “kattalik” tuyg'usidir. Birinchi marta o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlarini o'rgangan amerikalik psixolog Grenvil Stenli Xoll [5] o'smirlilikni jinsiy yetilishdan kattalikning boshlanishigacha romantizm davriga ekvivalent bo'lgan davrni qamrab oladi, deb hisoblaydi. Bu insonda “individuallik tuyg'usi” paydo bo'ladigan “bo'ron va siquv”, ichki hamda tashqi nizolar davridir. Bu davr o'smirning ziddiyatli xulq-atvori (masalan, intensiv muloqot izolyasiya bilan almashtiriladi, o'ziga ishonch noaniqlik va o'ziga ishonchsizlikka aylanadi va h.k.) bilan e'tiborni tortadi. Shu nuqtai nazardan Xoll psixologiyaga o'smirlilik davrini rivojlanishning inqiroz davri sifatida kiritdi.

Nemis faylasufi, psixolog va pedagog E.Shpranger [6] ning ta'kidlashicha, rivojlanishning 3 ta tipini farqlash zarur. O'smirlikning *birinchi tipi* qachonki o'smirlilik qayta tug'ilish sifatida boshdan kechirilganida o'tkir, shiddatli, krizisli oqim bilan tavsiflanadi, buning natijasida yangi “Men” paydo bo'ladi.

*Ikkinci tip* – ravon, sekin-astalik bilan o'sish, qachonki o'smir kattalar hayotiga o'z shaxsida chuqur va keskin siljishlarsiz qo'shilib boradi.

*Uchinchi tip* – bu rivojlanishning shunday jarayonini aks ettiradi, bunda o'smir ichki tashvish va inqirozlarini iroda kuchi bilan yengib o'tgancha faol va ongli ravishda o'z-o'zini shakllantiradi va tarbiyalaydi. Bu o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini intizomga bo'ysundirishning yuqori darajasi bo'lgan odamlar uchun xosdir. Natijada u o'z “Men”ini, refleksiya, individuallik va muhabbat tuyg'ularini kashf etadi.

E.Shprangerning fikriga ko‘ra, qizlarda 13-19, o‘g‘il bolalarda esa 14-22 yoshgacha cho‘ziladigan o‘smirlilik yoshi hammadan avval garchi u psixofiziologik jarayonlar majmui bilan bog‘liq bo‘lsa-da, psixik rivojlanishning muayyan pallasidir.

Voyaga yetganlik hissi o‘smirlilik davrining boshlanishini psixologik belgisidir. D.B.Elkonin [7] ning ta’rifiga ko‘ra, balog‘at tuyg‘usi ongning yangi shakllanishi bo‘lib, u orqali o‘smir o‘zini boshqalar (kattalar yoki o‘rtoqlar) bilan taqqoslaydi, assimiliyasiya qilish uchun modellarni topadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarini quradi va o‘z faoliyatini tiklaydi. O‘smirlilik davrining o‘tish davri, albatta, biologik jihatni o‘z ichiga oladi. Bu balog‘atga yetish davri bo‘lib, uning intensivligi “gormonal bo‘ron” tushunchasi bilan ta’kidlangan. Jismoniy, fiziologik, psixologik o‘zgarishlar, jinsiy istakning paydo bo‘lishi bu davrni, shu jumladan, har jihatdan eng tez o‘savotgan o‘smir uchun juda qiyin qiladi.

L.N.Kogan shaxsning har tomonlama rivojlanishi tushunchasiga quyidagilarni kiritadi [4]:

*birinchidan*, shaxsning ijtimoiy faoliyatning barcha asosiy turlarida faol ijodiy ishtirok etishi, bu faoliyat turlarining har birida individual qobiliyat va ehtiyojlarni eng yaxshi qondiradigan va individuallikning maksimal rivojlanishini ta’minlaydigan aniq mashg‘ulotlarni tanlash;

*ikkinchidan*, ijtimoiy faoliyatning har bir turini bajarishda ichki ehtiyoj (tabiiy zarurat) ni shakllantirish, uni o‘zining erkin faoliyatiga aylanishi;

*uchinchidan*, shaxsning o‘zini o‘zi universal jihatdan ro‘yobga chiqarishi, o‘z qobiliyatları va ijodiy imkoniyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarishi.

Bundan kelib chiqadiki, insoniy rivojlanish jarayoni va natijalari uchta asosiy omil – irsiyat, muhit va tarbiyaning birgalikdagi ta’siri bilan belgilanadi, shaxs faoliyati bilan to‘ldiriladi.


Klassik adabiyotlarda “o‘smirlilik yoshi bolalik va ulayish o‘rtasidagi o‘tish davri, inson bolalar olamidan kattalar olamiga o‘tishi zarur bo‘lgan o‘ziga xos “ko‘prik” sifatida ko‘rib chiqilarkan” [2], bu paytda o‘smirning rivojlanishida oilaning o‘rni, shubhasiz, yuqori.

**Tadqiqot asosi.** Shaxs rivojlanishida oilaning o‘rni beqiyos ekani – inkor etib bo‘lmaydigan haqiqat. Shu nuqtayi nazardan biz bugungi kunda keng tarqalgan fenomen – mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan oilalardagi o‘smirlar psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaror qildik. Tadqiqotimiz “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutida o‘tkazilishi bois respublikaning qaysi hududlarida migratsiyaga chiqib ketganlar soni yuqori ekanini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga rasmiy xat bilan murojaat qildik. Vazirlikning 2022-yil iyunidagi ma‘lumotiga ko‘ra, respublika bo‘yicha uzoq muddatga xorijga chiqib ketgan fuqarolarning oila a’zolari ro‘yxatdan o‘tkazilganda jami ko‘rsatkich 1 135 635 fuqaroni tashkil etib, shundan 289 489 nafari ayollar, 846 146 nafari esa erkaklardir. Mehnat migratsiyasiga chiqib ketganlar soni Navoiy viloyati bo‘yicha 12 064 nafar (3 820 – ayol; 8 244 – erkak) ni, Samarqand viloyati bo‘yicha 148 061nafar (40 769 – ayol; 107 292 – erkak) ni, Farg‘ona viloyati bo‘yicha 113 267 nafar (22 603 – ayol; 90 664 – erkak) ni tashkil etganligi sababli [1] tadqiqotimizda aynan shu hududlarni qamrab olishni rejalashtirdik.

Tadqiqotimiz doirasidagi so‘rovnoma, metodikalarimizni Navoiy, Samarqand, Farg‘ona viloyatida umumiy o‘rta maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarini bilan o‘tkazdik. Bunda darsdan keyingi soatni band qilganimiz bois sinfdagi barcha bolalar so‘rovnoma, metodikalarga javob berishda ishtirok etishdi. Bu esa bizga yaqinlaridan birortasi mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan oilalar va mehnat migratsiyasi daxl qilmagan oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlarning psixologik xususiyatlarini solishtirish va dissertatsiya gipotezasini tasdiqlash imkonini berdi.


**Tadqiqot metodikalari.** Aytib o‘tish joizki, tadqiqot davomida E.Eydemiller, V.Yustitskislarning «Oilaviy xavotir tahlili», E.Shostromning o‘z-o‘zini dolzarblashtirishni ko‘p o‘lchovli qiymat sifatida o‘lchaydigan shaxsiy orientatsiyalar so‘rovnomasasi (Personal Orientation Inventory – POI), A.Ellisning “Irratsional ustankalar diagnostikasi” metodikasi, shuningdek, o‘zimiz mavzu mohiyatiga asosan ishlab chiqqan so‘rovnomanidan ham foydalandik.

**Tadqiqot natijalari va tahlili.**




**1-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar miqdori**

Tadqiqotimizda ishtirok etgan sinaluvchilarning 23 % (174 nafar) i mehnat migrant oilasidagi o'smirlar, 77 % (588 nafar) i esa mehnat migranti bo'limgan oiladagi o'smirlar ekanligi 1-rasm orqali yaqqol ko'zga tashlanadi.



**2-rasm. Sinaluvchilarning viloyatlar kesimi bo'yicha miqdori**

